

ISSN: 2181-0796  
DOI: 10.26739/2181-0796  
[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

**TIL, TA'LIM, TARJIMA  
XALQARO JURNALI**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ  
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД**

**INTERNATIONAL JOURNAL OF  
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION**



**Alisher Navoi**



**VOLUME 6  
ISSUE 4**

**2025**

**TIL, TA'LIM, TARJIMA**  
6-SON, 4-JILD

---

**ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД**  
НОМЕР-6, ВЫПУСК-4

---

**LANGUAGE, EDUCATION,  
TRANSLATION**  
VOLUME-6, ISSUE-4

---



TOSHKENT-2025

# TIL, TA'LIM, TARJIMA XALQARO JURNALI

**Bosh muharrir:  
Mirzayev Ibodulla**

*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Tahrir hay'ati:**

**Abdullayeva Albina**  
*f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*  
**Boqiyeva Gulandom**  
*f.f.d., professor (O'zbekiston)*  
**Bakirov Poyon**  
*f.f.d., professor (O'zbekiston)*  
**Dadaboyev Hamidulla**  
*f.f.d., professor (O'zbekiston)*  
**Eltazarov Jo'liboy**  
*f.f.d., professor (O'zbekiston)*  
**Isakova Nodira**  
*PhD, dotsent (O'zbekiston)*  
**Kiselyov Dmitriy**  
*f.f.d., professor (O'zbekiston)*  
**Labib Said Mohammad Alem**  
*f.f.d., dotsent (Afg'oniston)*  
**Mamatov Abdi**  
*f.f.d., professor (O'zbekiston)*  
**Mirzayev Rahmatulla**  
*huquqshunos, dotsent (O'zbekiston)*  
**Mirzohidova Muyassar**  
*f.f.d., professor (Qirg'iziston)*  
**Nadim Mohammad Humoyun**  
*PhD (Afg'oniston)*  
**Pardayev Azamat**  
*f.f.d., professor (O'zbekiston)*  
**Qodirova Barno**  
*ko'lib, PhD, dotsent (O'zbekiston)*  
**Qulmamatov Do'smamat**  
*f.f.d., professor (O'zbekiston)*  
**Rasulov Ravshanxo'ja**  
*f.f.d., professor (O'zbekiston)*  
**Safarov Shahriyor**  
*f.f.d., professor (O'zbekiston)*  
**Shahobiddinova Shohida**  
*f.f.d., professor (O'zbekiston)*  
**Sobirov Anvar**  
*PhD (O'zbekiston)*  
**Tagayeva Sayyora**  
*PhD, dotsent (O'zbekiston)*  
**Ubaydullayeva Maftuna**  
*PhD, dotsent (O'zbekiston)*  
**Uluqov Nosirjon**  
*f.f.d., professor (O'zbekiston)*  
**Umurqulov Bekpo'lat**  
*f.f.d., professor (O'zbekiston)*  
**Xasanov Axmad**  
*mas'ul ko'lib, PhD (O'zbekiston)*  
**Xayrullayev Xurshidjon**  
*f.f.d., professor (O'zbekiston)*  
**Xolova Maftuna**  
*f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*  
**Yo'ldoshev Qozoqboy**  
*p.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Bosh muharrir o'rinbosari:  
Ismoilov Salohiddin**

*f.f.n., professor (O'zbekiston)*

**Ilmiy maslahat kengashi:**

**Abdiyev Murodqosim**  
*f.f.d., professor (O'zbekiston)*  
**Baqoyeva Muhabbat**  
*f.f.d., professor (O'zbekiston)*  
**Jabborov Xo'jamurod**  
*f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*  
**Karimov Suyun**  
*f.f.d., professor (O'zbekiston)*  
**Mamatov Abdug'ofur**  
*f.f.d., professor (O'zbekiston)*  
**Mo'minov Siddiq**  
*f.f.d., professor (O'zbekiston)*  
**Suvonova Nigorabonu**  
*f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*  
**To'xtasinov Ithom**  
*p.f.d. (O'zbekiston)*  
**Yoqubov Jamoliddin**  
*f.f.d., professor (O'zbekiston)*

**Sahifalovchi:** Shakhram Fayziev

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

# МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

**Главный редактор:  
Мирзаев Ибодулла**

*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

**Редакционная коллегия:**

**Абдуллаева Албина**  
*к.ф.н., доцент (Узбекистан)*  
**Бакиева Гуландом**  
*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*  
**Бакиров Поён**  
*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*  
**Дадабаев Хамидулла**  
*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*  
**Элгазаров Жулибай**  
*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*  
**Исакова Нодира**  
*PhD, доцент (Узбекистан)*  
**Киселёв Дмитрий**  
*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*  
**Лабиб Саид Мохаммад Алем**  
*д.ф.н., доцент (Афганистан)*  
**Маматов Абди**  
*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*  
**Мирзаев Рахматулла**  
*юрист, доцент (Узбекистан)*  
**Мирзахидова Муяссар**  
*д.ф.н., профессор (Киргизия)*  
**Надим Мохаммад Хумоюн**  
*PhD (Афганистан)*  
**Пардаев Азамат**  
*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*  
**Кадирова Барно**  
*секретарь, PhD, доцент (Узбекистан)*  
**Кулмаматов Дусмамат**  
*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*  
**Расулов Равшанхужа**  
*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*  
**Сафаров Шахриёр**  
*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*  
**Шахабиддинова Шахида**  
*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*  
**Собиров Анвар**  
*PhD (Узбекистан)*  
**Тагаева Сайёра**  
*PhD, доцент (Узбекистан)*  
**Убайдуллаева Мафтуна**  
*PhD, доцент (Узбекистан)*  
**Улукнов Насиржан**  
*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*  
**Умуркулов Бекпулат**  
*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*  
**Хасанов Ахмад**  
*тв. секретарь, PhD (Узбекистан)*  
**Хайруллаев Хуршиджон**  
*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*  
**Холова Мафтуна**  
*д.ф.н., доцент (Узбекистан)*  
**Илудашев Казакбай**  
*д.п.н., профессор (Узбекистан)*

**Заместитель главного редактора:  
Исмаилов Салахиддин**

*к.ф.н., профессор (Узбекистан)*

**Научный совет:**

**Абдиев Мурадқасим**  
*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*  
**Бақоева Муҳаббат**  
*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*  
**Жаббаров Хужамурод**  
*д.ф.н., доцент (Узбекистан)*  
**Каримов Суюн**  
*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*  
**Маматов Абдугафур**  
*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*  
**Муминов Сиддик**  
*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*  
**Сувонова Нигорабону**  
*к.ф.н., доцент (Узбекистан)*  
**Тухтасинов Илхам**  
*д.п.н., профессор (Узбекистан)*  
**Якубов Жамалиддин**  
*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

**Вёрстка: Шахрам Файзиев**

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;

Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

# INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

**Chief Editor:**  
**Mirzaev Ibodulla**

*Doc. of phil. sciences, professor (Uzbekistan)*

## **Editorial Collegue:**

**Abdullaeva Albina**  
*cand. of phil. sciences, assoc.prof. (O'zbekiston)*

**Bakieva Gulandom**  
*doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Bakirov Poyon**  
*doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Dadaboev Khamidulla**  
*doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Eltazarov Juliboy**  
*doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Isakova Nodira**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Kiselyov Dmitriy**  
*doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Labib Said Mohammad Alem**  
*doc. of phil. scien. (Afg'oniston)*

**Mamatov Abdi**  
*doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Mirzaev Rahmatulla**  
*lawyer, assoc.prof. (Uzbekistan)*

**Mirzokhidova Muyassar**  
*doc. of phil. scien., prof. (Kirghizistan)*

**Nadim Mohammad Humoyun**  
*PhD (Afg'oniston)*

**Pardaev Azamat**  
*doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Kadirova Barno**  
*secretary, PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Kulmamatov Dushmanat**  
*doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Rasulov Ravshankhujja**  
*doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Safarov Shakhriyor**  
*doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Shakhobiddinova Shokhida**  
*doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Sobirov Anvar PhD (Uzbekistan)**

**Tagaeva Sayyora**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Ubaydullayeva Maftuna**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*

**Ulukov Nosirjon**  
*doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Umurkulov Bekpulat**  
*doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Hasanov Ahmad**  
*senior secretary, PhD (Uzbekistan)*

**Hayrullaev Hurshidjon**  
*doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Xolova Maftuna**  
*doc. of phil. scien., assoc.prof. (Uzbekistan)*

**Yuldashev Kazakbay**  
*doc. of ped. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Deputy Chief Editor:**  
**Ismailov Salohiddin**

*Cand. of phil. sciences, professor (Uzbekistan)*

## **Scientific Advisory Council:**

**Abdiev Murodkosim**  
*doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Bakaeva Mukhabbat**  
*doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Berdaliev Abduvali**  
*doc. of phil. scien., prof. (Tajikistan)*

**Jabborov Khojamurod**  
*doc. of phil. scien., assoc.prof. (Uzbekistan)*

**Karimov Suyun**  
*doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Mamatov Abdugafur**  
*doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Muminov Siddik**  
*doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Suvonova Nigorabonu**  
*cand. of phil. sciences, assoc.prof. (Uzbekistan)*

**Tukhtasinov Ithom**  
*doc. of ped. scien. (Uzbekistan)*

**Yakubov Jamoliddin**  
*doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)*

**Pagemaker:** Shakhram Fayziev

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;  
Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;  
Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

# TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

## TILSHUNOSLIK

**Jumanazarov Umrzoq,**

f.f.d., professor,

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

[jumanazarovumrzoq@gmail.com](mailto:jumanazarovumrzoq@gmail.com)

**Aripova Mahliyo,**

tayanch doktorant,

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

[aripovamahliyo@gmail.com](mailto:aripovamahliyo@gmail.com)

### “UY” KONSEPTINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI VA SEMANTIKASI



[10.5281/zenodo.19140346](https://doi.org/10.5281/zenodo.19140346)

#### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi “uy” konseptining lingvomadaniy xususiyatlari va semantik maydonlardagi ko'rinishlari tahlil qilinadi. “Uy” konsepti xalq ongida shakllangan mental tasavvurlar, ijtimoiy munosabatlar, oilaviy qadriyatlar va madaniy stereotiplar bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Freym metodi asosida paremiologik birliklar tahlili o'tkazilib, “uy” konseptining egallik, oila tuzilishi, ayol va erkakning ijtimoiy roli, mehmondo'stlik, xavfsizlik, ma'naviyat, tarbiya va boshqa kognitiv jihatlarni ifodalovchi 24 ta semantik guruhlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari “uy” konsepti o'zbek milliy ongida moddiy va ma'naviy mazmunning birligi sifatida talqin qilinishini isbotlaydi.

**Kalit so'zlar:** uy konsepti, lingvomadaniyat, kognitiv tahlil, freym metodi, paremiologiya, milliy ong.

**Jumanazarov Umrzoq,**  
PhD, Professor,  
Jizzakh State Pedagogical University  
Jizzakh, Uzbekistan  
[jumanazarovumrzoq@gmail.com](mailto:jumanazarovumrzoq@gmail.com)

**Aripova Mahliyo,**  
Senior Doctoral Researcher,  
Jizzakh State Pedagogical University  
Jizzakh, Uzbekistan  
[aripovamahliyo@gmail.com](mailto:aripovamahliyo@gmail.com)

## LINGUOCULTURAL FEATURES AND SEMANTICS OF THE CONCEPT OF “HOME”

### ABSTRACT

This article examines the linguocultural characteristics and semantic structure of the concept “home” in the Uzbek language. The study approaches the concept in relation to national mental representations, social relations, family values and cultural stereotypes. Using the frame analysis of proverbs, 24 semantic groups were identified, reflecting key cognitive aspects such as ownership, family organization, gender roles, hospitality, security, spirituality, upbringing and others. The findings demonstrate that the concept of “home” in the Uzbek linguistic worldview represents an integrated unity of material and spiritual meanings.

**Keywords:** home concept, linguoculture, cognitive analysis, frame method, paremiology, national worldview.

**Джуманазаров Умрзоқ,**  
доктор медицинских наук, профессор,  
Джизакский государственный педагогический университет  
Джизак, Узбекистан  
[jumanazarovumrzoq@gmail.com](mailto:jumanazarovumrzoq@gmail.com)

**Арипова Махлиё,**  
Старший докторант-исследователь,  
Джизакский государственный педагогический университет  
Джизак, Узбекистан  
[aripovamahliyo@gmail.com](mailto:aripovamahliyo@gmail.com)

## ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ И СЕМАНТИКА КОНЦЕПТА «ДОМ»

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируются лингвокультурные особенности и семантическая структура концепта «дом» в узбекском языке. Концепт рассматривается в связи с ментальными представлениями народа, социальными отношениями, семейными ценностями и культурными стереотипами. На основе фреймового анализа пословиц выявлены 24 семантические группы, отражающие ключевые когнитивные аспекты: принадлежность дому, семейная организация, социальные роли мужчин и женщин, гостеприимство, безопасность, духовность, воспитание и др. Полученные результаты подтверждают, что концепт «дом» в узбекской национальной картине мира выступает единством материального и духовного начала.

**Ключевые слова:** концепт «дом», лингвокультурология, когнитивный анализ, фрейм-метод, паремиология, национальное сознание.

“Uy” konsepti eng avvalo, universallik tabiati va milliy o‘ziga xos mazmun-mohiyatiga egaligi bilan tilda muhim o‘rinni egallaydi. Biz nazarda tutayotgan milliy o‘ziga xoslik esa kognitiv belgilar nomutanosibliqida, semantik maydonlar va guruhlar tashakkulida, qolaversa, denotatni kategoriyalashtirish va konseptuallashtirishda yaqqol yuzaga chiqadi. *Uy* leksemasi mazmuni tilimizning izohli lug‘atida quyidagi tartibda tavsiflangan: 1. Yashash uchun yoki turli tashkilot, muassasa va shu kabilar joylashishi uchun mo‘ljallangan bino; 2. Yashash uchun mo‘ljallangan bino, ichidagi har bir xonadon; 3. Biror ijtimoiy talabni qondirishga qaratilgan muassasa; 4. Biror oila yoki xonadon o‘rnashgan bino va shu binoga taalluqli yer: hovli; 5. Oila, xonadon (O‘TIL,5,271)[1. – B.271]. Ushbu izohlardan ayon bo‘ladiki, *uy* til belgisining denotati yashash uchun mo‘ljallangan bino semasi, uning konnotativ belgilari ijtimoiy muassasa, oila, boyluk va qudrat semalarini ifodalashga xizmat qiladi. Tilimizda faol qo‘llaniladigan *qo‘rg‘on, saroy, o‘tov, chayla, chodir, kapa, katalak, kulba* singari o‘ndan ortiq lisoniy birliklarlarning o‘ziyoyq *uy* konseptini bevosita nomlaydi. Bundan tashqari, yana *devor, tom, eshik, ostona, chordevor* singari semalar ham *uy* konseptini bilvosita nomlovchi sinekdoxa shaklidagi birliklar sanaladi.

Jamiyatdagi madaniyatning muayyan darajadagi rivojlanishi tilda o‘z ifodasini topadiki, buni kalkalash usuli bilan paydo bo‘lgan va hozirgi davrda faol qo‘llaniladigan *kottej, taunhaus, kvartira, dom* kabi leksik birliklari shuningdek *dala hovli, yevro dacha, yevro uy, ko‘p xonadonli uy* kabi turg‘un birikmalar misolida kuzatish mumkin. Bularning hammasi biz nazarda tutayotgan *uy* konseptini ifodalaydi. Lingvomantiqning muayyan o‘lcham kategoriyasi nuqtai nazaridan, *uy* makromaydonini ikki guruhga ajratish mumkin: katta uylar va kichik uylar. Tilimizdagi *qo‘rg‘on, saroy, dala hovli, villa, dom* kabi lisoniy birliklar katta uylar mikromaydoniga mansub bo‘lsa, *o‘tov, chayla, chodir, kapa, katalak, kulba, kottej, kvartira* singarilar kichik uylar mikromaydoniga daxldordir. Jamiyatdagi zamonning tez va shiddatli o‘sib borishi, jarayonida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar natijasida baholaganda zamon kategoriyasi asosida *uy*lar ikki xil mikromaydonni tashkil etadi: birinchisi - eski uylar (*kapa, katalak, kulba*), ikkinchisi - zamonaviy uylar (*kottej, taunhaus, kvartira, mehmonxona uy*). Odatiy mantiqning makon kategoriyasiga ko‘ra qishloq uylari va shahar uylari deb nomlanuvchi mikromaydonlar ham farqlanadi. Yuqorida ta’kidlangan *o‘tov, dala hovli, yevro dacha, kottej* singari lisoniy birliklar qishloq uylari guruhiga, *taunhaus, kvartira, dom, ko‘p xonali uy* kabilar shahar uylari mikromaydoniga daxldor sanaladi. Tilimiz fondida (bisotida) uylarning nomlarini ifodalovchi xilma-xil lisoniy birliklar ham borki, ular hozirgi kunda faol qo‘llaniladi. Masalan: a) qurilish materialiga ko‘ra: *sinchli uy, paxsa uy, xomg‘ishtli uy, pishiq g‘ishtli uy, monolitli uy, panelli uy*; b) vertikal tuzilishiga ko‘ra: *bir qavatli uy, ikki qavatli uy, ko‘p qavatli uy*; v) uydagi xonalar miqdoriga ko‘ra: *bir xonali uy, ikki xonali uy, ko‘p xonali uy* singari til birliklari mavjud.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ayon bo‘ladiki, o‘zbek etnosida *uy* asosiy yashaydigan makon birligi sanaladi, amalda texnologik yechimiga xos va mos ravishda bu holat til belgisi ostida tushuniladi. Jamiyat va kundalik turmush tarzining o‘zgarishi, tamaddun rivoji borliqda o‘zini namoyon qilishi barobarida milliy til tizimida muayyan til belgisiga ega bo‘ladi. Ayni tarixiy haqiqat jamiyat va tilning rivojida o‘z ifodasini topadi.

“Uy” leksemasiga berilgan qisqacha izohlarga asoslanib tilimizda mavjud bo‘lgan va faol qo‘llaniladigan paremiologik birliklardan xalq maqollari misolida *uy* konsepti tarkibini ochib berish uchun tilshunoslikdagi freym metodi bilan tahlil o‘tkazildi. Mazkur tahlilda bir qator farqlanish holatlari ko‘zga tashlandi. Ular asosan quyidagilardan iborat:

I. *Uy* - yashash va istiqomat qilish uchun mo‘ljallangan bino; muqim joy ma’nosida: *Sinchli uyim - tinch uyim* (I,32), *Sart boyisa tom yopar, Osha boyisa ochib yopar* (I,23), *Zo‘ring bo‘lsa, uy qilib ko‘r, Zaring bo‘lsa, to‘y qilib ko‘r* (I,190), *Uyida rohati yo‘qning,*

*Ko'chada farog'ati yo'q* (II,110);

II. Uy - oila, xonadon:

2.1 “uy - tashqi olam” zidligi ma'nosida: *Uydagi gapni ko'chada eshit* (II,109), *Uydagi hisob bozorga to'g'ri kelmas* (II,109), *Uyida ugra kesmagan, Ko'chada dasta kesar* (II,110), *Uyida rohati yo'qning, Ko'chada farog'ati yo'q* (II,110);

2.2 Uyda birgalikda yashash ma'nosida: *Bir uy to'la jonsan, Bir - biringga mehmonsan* (I,85), *Uy egasi bilan aziz* (II,108), *Oila - qo'sh ustunli ayvon* (I,302);

2.3 Uydan tashqaridagi xulq-atvor: *O'z uyingda oshing bo'lsa, Kishi uyida qasding bo'lmasin* (II,27);[2. -B.78.]

III. Uy - muayyan muassasaning nomiga daxldorlik ma'nosida:

3.1 Davlat bilan aloqadorlik ma'nosi: *Oq uy, Oq saroy, Nikoh uyi, Ko'k saroy.*

3.2 Ijtimoiy-madaniy ixtisoslashuvga daxldorlik: *o'qituvchilar uyi, matbuot uyi, nashriyot - matbaa ijodiy uyi, bolalar ijodiy uyi* va hk. Bular shaxs nomlari bilan bog'lanmagan. Shuningdek, *Hamid Olimjon uy-muzeyi, G'afur G'ulom uy - muzeyi* kabi aniq shaxslar nomlari bilan daxldordir.

3.3 Ijtimoiy yo'nalganlik: *qariyalar uyi, mehribonlik uyi, bolalar uyi.*

3.4 Iqtisodiy yo'nalganlik: *mebellar uyi, modellar uyi, O'zbek-Ozarbayjon savdo uyi* kabi.

3.5 Diniy-madaniy aloqadorlik: *Xudoning uyi, Allohning uyi* kabi.

IV. Insonning botiniy olami, xususan, psixoemotsional holati bilan bog'langanlik:

Tomi ketmoq – tomi ketibdi: uy ustki qismining buzilishiga aloqadorlik; devor bo'lib qolmoq (uyning hamma tomonining buzilishi); rangi devor bo'lmoq (uyning ta'mirtalab bo'lishiga zaruriyat) va h.k.

Ta'kidlangan kuzatishlardan tashqari, yana olamning o'zbek(milliy) lisoniy manzarasidagi “uy” fragmentini reprezentlovchi paremiologik birliklarni kognitiv belgilariga ko'ra freym metodikasiga asoslanib quyidagi sematik guruhlarga ajratishni maqsadga muvofiq deb topdik:

T/r	Semantik guruhlar	Paremiologik birliklar
1	O'z uyiga egalik:	<i>O'nqir edi, cho'nqir edi - uyim edi</i> (II,239), <i>O'rgimchak ham o'z uyim deydi</i> (II,239), <i>O'z uyim - o'lan to'shagim</i> (II,225), <i>O'z uyimning hushligi, Oyoq- qo'limning bo'shligi</i> (II,225) kabi
2	Uy egasi – ro'zg'orboshi, ota:	<i>Erlik uy - eshikli uy</i> (II,178), <i>Uy egasi bilan aziz</i> (II,108), <i>Bosh bo'lmagan uyda, Otasi turib o'g'li so'zlar</i> (I,102) kabi
3	Uy saranjom –sarishtaligi ayol jinsi zimmasida:	<i>Xotin - uyining ziynati</i> (II,131), <i>Xotin - uyning chirog'i</i> (II,131), <i>Xotinsiz uyni ko'r, Qaro yerni ko'r</i> (II,134), <i>Ro'zg'or ziynati – o'tin, Uy ziynati - xotin</i> (II,16), <i>Qizli uy - bo'ston, Qizsiz uy – go'riston</i> (II, 273) kabi
4	Qizli uy - sovchilar makoni, joyi:	<i>Qizli uy - qiliqli uy</i> (II,273), <i>Qizli uy - karvon saroy</i> (II,273), <i>Qizli uy - qudasiz bo'lmas</i> (II,273), <i>Qizli uyga qirq ot boylanadi</i> (II,274), <i>Qizli uyni shoh ham so'ratadi, gado ham</i> (II,274) kabi
5	Uy shinamligining zaruriyati va mashaqqati:	<i>Uyni uy qilgan erning topishi, Xotinning ko'rpa ishi</i> (II,101), <i>Uyni qirq erkak to'ldra olmaydi, Bir ayol to'ldiradi</i> (II,111), <i>Ulug' uyga ne kerak, Kichik uyga shu kerak</i> (II,113) kabi
6	Er-xotin birligi:	<i>Er-xotin qo'sh xo'kiz</i> (II,175), <i>Oila qo'sh ustunli ayvon</i>

		(I,302), <i>Oila ahil bo'lsa, omad o'z oyog'i bilan kelar</i> (I,302) kabi
7	Farzandlar - uyning ustuvor umidi:	<i>Bolali uy - bozor, Bolasiz uy – mozor</i> (I,96), <i>Bolalik uy - jannat, Bolasiz uy – minnat</i> (I,96), <i>Tog'ning ko'rki - lola bilan, Uyning ko'rki - bola bilan</i> (II,87) kabi
8	Uyda xotirjamlik:	<i>O'z uyim - o'lan to'shagim</i> (II,225), <i>O'z uyimning hushligi, Oyoq-qo'limning bo'shligi</i> (II,225), <i>Har kim o'z uyida podsho</i> (II,319) kabi
9	Yoshi ulug'larning uydagi o'rni:	<i>Qarisi bor uyning parisi bor, Parisi bor uyning barisi bor</i> (II,261), <i>Qari bor uyda pari bor</i> (II,260), <i>Qari bor uyning zari bor</i> (II,260) kabi
10	Uy egasi uchun mehmonning xavfliligi:	<i>Uyga kelganga uy bo'yi gap aytma</i> (II, 108), <i>Uyga kelganga uyday o'pkangni aytma</i> (II,108), <i>Uyga mehmon kelganda, Mushugginga pisht dema</i> (II,108) kabi
11	Mehmonning erksizligi:	<i>Mehmon uy egasining buzog'i</i> (II,271) kabi
12	Qalb - uydur:	<i>G'aribning ko'ngli - tangrining uyi</i> (II,309), <i>Bir ko'ngil imorati – ming Makka ziyorati</i> (I,83) kabi
13	Uy mustahkamligi - ning muhimligi:	<i>Uyim – sinch, ko'nglim – tinch</i> (II,110) kabi
14	Uy ichining ma'naviy boyligi:	<i>Ko'ngling keng bo'lsa, Xujra ham saroyday</i> (I,250), <i>Uying tor bo'lsa ham, Ko'ngling keng bo'lsin</i> (II,110), <i>Dunyo yorug' bo'lsin desang, Uyingga chiroq yoq</i> (I,134) kabi
15	Uy tarbiya - makoni:	<i>Qush uyasida ko'rganini qiladi</i> (I,295)
16	Begona uy xavf manbai ekanligi:	<i>Kirma sanamning uyiga, Sanam solar o'z o'yiga</i> (I,238), <i>Nojinsning sirli mehmonxonasidan, Do'stingning somonxonasi yaxshi</i> (I,289) kabi
17	Uy miqdoriy ko'rsatkich:	<i>Bir ilon bir uy odamni tinchitmas</i> (I,84), <i>Indamasang uyday balodan qutulasan</i> (I,198) kabi
18	Uy uchun o'g'rilar - ning xavfliligi:	<i>O'g'ri tom teshar, Qaroqchi yo'l to'sar</i> (I,251), <i>O'g'rini uyga kirgizma, Oyog'ini yerga tekkizma</i> (I,252), <i>O'g'rining uyi bo'lmas, Uyida siri bo'lmas</i> (I,253) kabi
19	Erkinlikka egalik:	<i>Har kim o'z uyiga podsho</i> (II,319)
20	Uy diqqat markazida bo'lishlik:	<i>O'zing o'yingda bo'lsa ham, O'ying uyda bo'lsin</i> (II,230)
21	Jihozlanishli zarurligi:	<i>Uyga jihaz yarashar</i> (II,108), <i>Katta uyga ne kerak, Kichik uyga shu kerak</i> (II,230) kabi
22	Uy ichi(muhiti) - muammo:	<i>Go'ringdan suv chiqmasin, Uyingdan – quv</i> (I,122), <i>Daladan kelgan o'g'rini tutish oson, Uydagi o'g'rini tutish qiyin</i> (I,123) kabi
23	Qo'rquvdan rangning oqarishi:	<i>Devor bo'lib qolmoq, Rangi devor bo'lmoq.</i>
24	Gapirganda hushyor bo'lishlik:	<i>Devorning qulog'i bor</i> (I,129)[3. – B.105.]

Namuna sifatida berilgan yuqoridagi semantik guruhlardan ayon bo'ladiki, “uy” konsepti o'zbek etnosi milliy ongida qariyb o'ttizga yaqin ma'nolarni ifodalashga xizmat qila olgan. Paremeologik va frazeologik birliklarning denotativ va konnatativ aspektlari moddiylik va ideallik tabiiy tarzda ifodalanadi va mujassamlashadi. “Uy” konsepti tahlilida

kognitivistikaning zaruriy va tegishli lisoniy birliklarini qo'llash orqali milliy lingvomadaniy jamoa vakillarining olamni o'ziga xos tarzda anglashini yorqin kuzatish mumkin bo'ladi. Aytilganlardan kelib chiqqan holda, milliy olamning lisoniy manzarasidagi "uy" konseptining kognitiv ko'rinishlarini quyidagicha belgilash zarur, deb hisobladik:

- a) Uy – inson va uning oilasi yashaydigan makon;
- b) Himoya – uyning asosiy vazifasi (hilma - hil tabiat hodisalaridan saqlaydi);
- d) Uy bu oila, unda oilaviy munosabatlar shakllanadi va mustahkamlanadi;
- e) egalarning va oila a'zolarining o'rni bir xil emas;
- f) bolalar va umuman kelajagi bo'lmagan uy qabrga o'xshatiladi, unga tenglashtiriladi;
- g) Boy va qashshoq, shinam va ko'rimsiz uy to'kin – sochinlik, ko'rkamlik va ko'rinishlilik bilan farqlanadi;
- h) Uyda sodir bo'lgan baxtsizlik umumiy xususiyatga ega, ya'ni tasodifan ro'y bergan baxtsizlik boy bilan kambag'alni to'q va och deb ajratmaydi;
- i) Uy uchun asosiy va bosh kulfat: yolg'izlik va qashshoqlik;
- j) uyning ijtimoiy roli: uy inson uchun ko'makchi, avlodlar paydo bo'ladi, tug'iladi va o'sadi.

Xulosa qilib aytganda, "uy" konsepti o'zbek tilida faqatgina yashash makonining nomi emas, balki murakkab ijtimoiy, madaniy va ma'naviy hodisa sifatida shakllangan. Paremiologik birliklar orqali mazkur konsept egalik, oila tizimi, gender rollari, farzand qadri, uy shinamligi, xavfsizlik, tarbiya, mehmondo'stlik, ijtimoiy mavqe, ma'naviy boylik kabi ko'plab kognitiv belgilarga ega ekani aniqlangan. Milliy ongda "uy" moddiy makon bo'lish bilan birga, oilaning mustahkamligi, jamiyat barqarorligi va avlodlar davomiyligini ta'minlovchi ijtimoiy institut sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijalari "uy" konseptining o'zbek lingvomadaniy manzarasidagi o'rni boy lug'aviy tizim, xalq donishmandligi va madaniy tajribada chuqur aks etganini namoyish etadi.

### Iqtiboslar/Сноски/References

1. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, V jild, – Toshkent. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008-yillar. – B.271.
2. “O‘zbek xalq maqollari”, I jild. – Toshkent, “Fan” nashriyoti. 1987-y. – B.78.
3. “O‘zbek xalq maqollari”, II jild. – Toshkent, “Fan” nashriyoti. 1987-y. – B.105.
4. Мардиев Т. “Бахт” концептининг лингвомаданий ва семантик талқини (инглиз ва ўзбек тиллари қиёсида) // “Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим” (Илмий ахборотнома журнали). – Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2016, №10. – Б.36. (Mardiyev T. “Baxt” konseptining lingvomadaniy va semantik talqini (ingliz va o‘zbek tillari qiyosida) // “Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta’lim” (Ilmiy axborotnoma jurnali). – Samarqand: SamDCHTI nashriyoti, 2016, №10. – B.36.)
5. Махмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009.- 106-бет. (Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.- 106-bet.)
6. Раҳматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида “гўзаллик” концептининг лисоний хусусиятлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро: 2019. – 13-бет. (Rahmatova M.M. Ingliz, o‘zbek va tojik milliy madaniyatida “go‘zallik” konseptining lisoniy xususiyatlari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro: 2019. – 13-bet.)
7. Сафаров Ш. «Концепт» ходисаси ҳақида // Систем-структур тилшунослик муаммолари (Н.Қ.Турниёзов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари). – Самарқанд, 2010. – 185-188-бетлар. (Safarov Sh. «Konsept» hodisasi haqida // Sistem-struktur tilshunoslik muammolari (N.Q.Turniyozov tavalludining 70-yilligiga bag‘ishlangan Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari). – Samarqand, 2010. – 185-188-betlar.)
8. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 13- бет. 6. Юсупов Ў.Қ. Ма’но, тушунча, концепт ва лингвокультуреа атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. Илмий амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. – Б. 49. (Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 13- bet. 6. Yusupov O‘.Q. Ma‘no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamolari xususida // Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida. Ilmiy amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2011. – B. 49.)
9. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/soz-uz-2/>
10. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tushuncha-uz/>

# TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

**Jumanazarova Guljahon,**

f.f.d., professor,

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

## MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA DIALEKTIZMLARNING BADIY- ESTETIK AHAMIYATI



[10.5281/zenodo.19140496](https://doi.org/10.5281/zenodo.19140496)

### ANNOTATSIYA

Maqolada sevimli shoir Muhammad Yusuf she'riyatida dialektizmlarning badiiy-estetik ahamiyati yoritilgan. Bu umumadabiy til me'yoriga xos bo'lmagan, tilning muayyan hududiy ko'rinishlarida qo'llanadigan leksik, fonetik, morfologik yoki sintaktik birliklardir. Ular o'zida o'sha hududning tarixiy-madaniy xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy qatlami, mahalliy turmush tarzi haqidagi tasavvurlarni mujassam etadi. Adabiy matnda dialektizmlar shunchaki so'z tanlamasi emas – ular badiiy-estetik vosita, matnning milliy ruhini kuchaytiruvchi, qahramon nutqini individuallashtiruvchi, she'rning tabiiyligini oshiruvchi stilistik birlik sifatida ishlatiladi.

Tilshunoslar fikriga ko'ra, dialektizmlar matnda uchta asosiy vazifani bajaradi: lokal-mintaqaviy ruh yaratish, badiiy obrazni jonlantirish, milliylik va realistiklikni kuchaytirish.

Muhammad Yusuf she'riyatida dialektizmlarning qo'llanishi aynan shu uch vazifaning barchasi bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** shoir, Muhammad Yusuf, she'r, dialektizmlar, fonetik, leksik, morfologik, grammatik dialektizmlar, kolorit.

**Jumanazarova Gulzhakhan**

f.f.d., Professor,

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

## ARTISTIC-AESTHETIC SIGNIFICANCE OF DIALECTICISMS IN THE POETRY OF MUHAMMAD YUSUF

### ABSTRACT

The article highlights the artistic and aesthetic significance of dialectisms in the poetry of the beloved poet Muhammad Yusuf. These are lexical, phonetic, morphological, or syntactic units that are not characteristic of the general literary language norm and are used in specific territorial manifestations of the language. They embody the historical and cultural characteristics of the region, the socio-cultural layer, and the local way of life. In a literary text, dialectisms are not just a choice of words; they are used as an artistic and aesthetic means, a stylistic unit that enhances the national spirit of the text, individualizes the character's speech, and adds to the naturalness of the poem. According to linguists, dialectisms serve three primary functions in a

text: creating a local and regional spirit, enhancing the vividness of the artistic image, and emphasizing national identity and realism. Muhammad Yusuf's use of dialectisms in his poetry aligns perfectly with these three objectives.

**Keywords:** poet, Muhammad Yusuf, poetry, dialectisms, phonetic, lexical, morphological, and grammatical dialectisms, and color.

**Жуманазарова Гульжахан,**  
 f.f.d., профессор,  
 Джизакский государственный педагогический университет  
 Джизак, Узбекистан

## ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДИАЛЕКТИЗМОВ В ПОЭЗИИ МУХАММЕДА ЮСУФА

### АННОТАЦИЯ

В статье освещается художественно-эстетическое значение диалектизмов в поэзии любимого поэта Мухаммеда Юсуфа. Это лексические, фонетические, морфологические или синтаксические единицы, не свойственные общелитературной языковой норме, используемые в определенных территориальных проявлениях языка. Они воплощают в себе представления об историко-культурных особенностях данной местности, социокультурном слое, местном образе жизни. В литературном тексте диалектизмы – это не просто выбор слов-они используются как художественно-эстетическое средство, стилистическая единица, усиливающая национальный дух текста, индивидуализирующая речь героя, повышающая естественность стихотворения. По мнению лингвистов, диалектизмы выполняют в тексте три основные задачи: создание локально-регионального духа, оживление художественного образа, усиление национальности и реалистичности. Использование диалектизмов в поэзии Мухаммеда Юсуфа проявляется именно в гармонии со всеми этими тремя задачами.

**Ключевые слова:** поэт, Мухаммад Юсуф, поэзия, диалектизмы, фонетические, лексические, морфологические, грамматические диалектизмы, колорит.

**Dialektizmlar** – bu umumadabiy til me'yoriga xos bo'lmagan, tilning muayyan hududiy ko'rinishlarida qo'llanadigan leksik, fonetik, morfologik yoki sintaktik birliklardir. Ular o'zida o'sha hududning tarixiy-madaniy xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy qatlami, mahalliy turmush tarzi haqidagi tasavvurlarni mujassam etadi. Adabiy matnda dialektizmlar shunchaki so'z tanlamasi emas — ular badiiy-estetik vosita, matnning milliy ruhini kuchaytiruvchi, qahramon nutqini individuallashtiruvchi, she'ning tabiiyligini oshiruvchi stilistik birlik sifatida ishlatiladi.

Tilshunoslar fikriga ko'ra, dialektizmlar matnda uchta asosiy vazifani bajaradi: lokal-mintaqaviy ruh yaratish, badiiy obrazni jonlantirish, milliylik va realistiklikni kuchaytirish.

Muhammad Yusuf she'riyatida dialektizmlarning qo'llanishi aynan shu uch vazifaning barchasi bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi.

**Dialektizmlarning asosiy turlari.** Dialektizmlar adabiyotshunoslik va tilshunoslikda odatda uch asosiy turga bo'linadi:

**Leksik dialektizmlar** – alohida hududda qo'llanadigan so'zlar (*shatak, kishik, loyqa, ror, suvrana* va boshqalar).

**Fonetik dialektizmlar** – so'zning talaffuzidagi mahalliy xususiyatlar (*ayam/opa, bo'pti/bepti, kishi/kishik*).

**Morfologik va grammatik dialektizmlar** – affikslarning mahalliy qo'llanmasi (*-kay, -votti, keldu, bordu, qilayapman/o'vatman*).

Muhammad Yusuf she'riyatida ko'proq leksik va fonetik dialektizmlar uchraydi, chunki ular badiiy matnda eng sezilarli estetik effekt beradi.

**Dialektizmlarning badiiy matndagi umumiy vazifalari.** Adabiyotda dialektizmlar bir nechta lingvopoetik vazifalarni bajaradi. Ularning har biri badiiy matnning ma'no tizimi va estetik yukiga muhim hissa qo'shadi.

**1. Lokal-mintaqaviy kolorit yaratish vazifasi.** Har bir dialektizm o'z hududining ruhini olib keladi. Masalan, “*shatak*”, “*yarmo*”, “*gup*”, “*ror*”, “*saqich*” kabi so'zlar she'r o'qiyotgan odamga darhol bir hudud – Farg'ona, Andijon, Namangan yoki Xorazmni eslatadi. Bu lokal kolorit deyiladi.

Adabiyotshunos A.Jalolov fikricha: “Dialektizmlar milliy badiiylikning tabiiy qatlamidir; ular matnga jon, tabiiylik, hayotiylik bag'ishlaydi”[1.].

Muhammad Yusuf she'riyatida ayni shu vazifa doimo ustun turadi. Masalan:

“*Shatak-shatak loy yo'llardan*

*Bolaligim yugurib o'tar.*”

Bu misralardagi shatak so'zi umumtilga xos emas, ammo Farg'ona vodiysi uchun juda tanish birlik. U shu zahoti mintaqaviy kolorit yaratadi, bolalik tasvirini yanada real qiladi.

**2. Qahramon nutqini individuallashtirish vazifasi.** Dialektizmlar qahramonning:

— qayerlik ekanini,

— qanday muhitda o'sganini,

— nutq madaniyati va ijtimoiy qatlamini ko'rsatadi.

Bu adabiyotda nutq individualligi deb yuritiladi.

Masalan, Muhammad Yusufning xalqona ruhdagi she'rlarida shoirning nutqi butunlay tabiiy ko'rinadi:

“*Kishik bolam yugurib kelar,*

*Qo'ynimga o'rmalab tushar.*”

Bu yerda kishik — “bola” ma'nosida Xorazm shevasiga xos leksik dialektizmdir. U umumiy poetik obrazni emas, balki aniq mintaqaviy ruhiyatni beradi; shu bilan birga qahramonning ham “hududiy ovozi”ni yaratadi.

**3. Realizm va hayotiylikni kuchaytirish vazifasi.** Dialektizmlar matnni hayotga yaqinlashtiradi. Chunki dialekt — bu xalqning asl, jonli nutqidir. Adabiy tilda yozilgan matn ko'p hollarda balandroq, ma'lum darajada normativ ko'rinadi. Dialekt so'z esa sun'iylikni yo'qotadi, matnni “yerga qo'yadi”. Masalan:

“*Loyqa daryo bo'ylarida*

*Qo'llarimni yuvib o'sganman.*”

Bu yerda loyqa Namangan–Farg'ona leksik dialektizmi; u tasvirga real manzara, tabiiy ifoda bag'ishlaydi.

**4. Milliylikni kuchaytirish vazifasi.** Dialektizmlar milliy tilning eng tabiiy qatlamiga kiradi. Ular orqali: milliy ruh, milliy tasvir, milliy turmush tarzi, milliy dunyoqarash poetik matnda kuchli tarzda namoyon bo'ladi. Masalan:

“*Adras yoqam, atlas ko'ylagim*

*Bolaligim hidini saqlab turar.*”

Bu qatordagi adras, atlas etnografik birliklar milliylikni oshirsa, keyingi satrlardagi dialekt so'zlar esa mintaqaviy milliylikni kuchaytiradi.

**5. Emotsional-ekspressiv vazifa.** Dialektizmlar ko'pincha kuchli hissiy ta'sirga ega bo'ladi. Chunki ular: bolalik xotirasi, ona yurt, qishloq hayoti, xalq tilining ohangi bilan bog'liq. Dialekt so'zning emosional yuklamasi ko'pincha adabiy til so'zidan kuchliroq bo'ladi. Masalan:

“*Oyijonim, ostonangda*

*Hidi kelur bahorlarning.*”

Bu yerda oyijon formasi fonetik-dialektal birlik sifatida emotsional ta'sirni oshiradi.

**6. Stilistik boylik va poetik yangilik yaratish vazifasi.** Dialektizmlar matnga yangilik, rang-baranglik, o'ziga xos ohang olib kiradi. Muhammad Yusufning o'z she'riyatini boshqalardan ajratib turuvchi jihatlardan biri ham – she'rlaridagi dialektal ohangdir. Masalan:

“*Ostonangda yurma deb*

*Ota-onam aytgan edi.*”

**Ostonang** — fonetik-dialektal birlik bo‘lib, poetik satrga yumshoqlik va xalqona musiqiylik beradi.

Dialektizmlar badiiy matnda qanday mezon bilan qo‘llanadi? Muhammad Yusuf dialektizmlarni tasodifan yoki ortiqcha qo‘llamaydi. Ular maqsadga muvofiq tanlanadi. Tilshunoslikda buni stilistik me‘yor deb atashadi.

Dialekt so‘z ishlatilishi uchun 3 asosiy mezon mavjud: maqsadli qo‘llanish — dialektizmlar ma‘noni kuchaytirishi kerak; matn bilan uyg‘unlik — dialekt so‘z she‘rning ohangiga mos kelishi shart; o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lishi — ortiqcha murakkablik bo‘lmasligi lozim.

Muhammad Yusuf bu mezonlarga to‘liq amal qiladi, shuning uchun uning she‘rlaridagi dialektizmlar matnga begona ko‘rinmaydi.

Dialektizmlar qo‘llanmasa, nima bo‘ladi?

Agar shoir dialektizmlardan foydalanmaganida, uning poetik tilida quyidagi yo‘qotishlar kuzatilgan bo‘lardi: xalqona ohang susaygan bo‘lardi; milliy-mintaqaviy rang kam bo‘lardi; personal nutq va individual uslub bir xilda chiqmas edi; poetik realizm yengillashib, umumiydashgan tasvirlar ustun kelardi; emotsional-ekspressivlik sezilarli pasayardi.

Demak, dialektizmlar — Muhammad Yusuf poetikasining ajralmas elementidir.

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning Vatan ishqini yuragiga joylab yozgan satrlari xalqimizning esini tanigan eng kichik vakilidan eng nuroniy qatlamiga qadar yod bo‘lib ketgan, qalbidan chuqur o‘rin egallagan. Hech bir kitobxon yo‘q-ki, uning javonidan Muhammad Yusufning kitobi topilmaydigan, hech bir inson yo‘q-ki, uning misralaridan mehr, muhabbat hissini tuymagan! U shunday iste‘dotli shoir-ki, uning har bir she‘rida xalqning quvonch-u iztiroblari, orzu va armonlarini madh ettirgan. Shoirning dilga yoqar misralarini hirgoyi qilamagan bironta o‘zbek farzandi topilmasa kerak.

Xullas, Muhammad Yusuf she‘riyatida dialektizmlar: milliy ruh yaratadi; hududiy kolorit beradi; realizm va hayotiylikni oshiradi; qahramon nutqini individuallashtiradi; emotsional-ekspressiv kuch beradi; milliy, xalqona poetik tilni shakllantiradi.

Shuning uchun ham dialektizmlar shoir ijodining eng muhim stilistik qatlamini tashkil etadi.

**Iqtiboslar/Сноски/References**

1. Jalolov A. Milliy poetika va dialektizm fenomeni. — Namangan: NIU, 2018.
2. Mirvaliyev S., Shokirov R. O‘zbek adiblari. - Toshkent, 2007. - B. 240. 10.
3. Muhammad Yusuf. Saylanma. - Toshkent: Sharq, 2005. - B. 12. 3. Boltaboyev. So‘z sehri. - Toshkent, 2006. - B. 98.
4. Muhammad Yusuf. Ulug‘imsan Vatanim. - Toshkent: O‘zbekiston, 2010.-B. 9.
5. Muhammad Yusuf. Saylanma. - Toshkent: Sharq, 2005. - B. 275.
6. Manba <https://tafakkur.net/muhammad-yusuf.haqida>

# TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

**Rashidova Umida,**

Dotsent

Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O'zbekiston

[umida\\_rashidova@gmail.com](mailto:umida_rashidova@gmail.com)

## SO'ZLASHUV USLUBI VA UNDA QO'LLANGAN FRAZEOLOGIZMLARNING FUNKSIONAL-STILISTIK VAZIFALARI

 [10.5281/zenodo.19159080](https://doi.org/10.5281/zenodo.19159080)

### ANNOTATSIYA

Frazeologiya til tizimida barqarorlik xususiyatiga ega bo'lgan murakkab birliklarni tadqiq etadi. Bunday turg'un birikmalar semantik va grammatik jihatdan bo'linmas yaxlit tuzilma sifatida namoyon bo'ladi. Frazeologik birliklarning ko'lami va tarkibi borasidagi turlicha yondashuvlar frazeologik stilistikaning tadqiqot obyekti hamda chegaralarini aniq belgilashni ma'lum darajada murakkablashtirmoqda. Frazeologizmlarning uslubiy imkoniyati, badiiy ifodaviylikni yuzaga keltirishdagi o'rni hamda nutq turlariga bog'liq holda bajaradigan funksiyalaridagi farqlanishlarni o'rganish frazeologik stilistikaning asosiy vazifasini tashkil etadi. So'zlashuv nutqiga xos frazeologik birliklar o'zbek tili frazeologik zaxirasining salmoqli qismini, ya'ni deyarli yarmidan ortig'ini tashkil etib, qo'llanish faolligi jihatidan boshqa funksional uslublardan ustun turadi. Uslubiy tasnifga ko'ra, ular nafaol qatlamga mansub bo'lib, asosan norasmiy muloqot muhitida ishlatiladi. Bunday iboralarning nutqda qo'llanishi gapning rasmiy emasligini, suhbatning tabiiy, erkin va sodda tarzda kechayotganini ko'rsatadi. Shu bois ular maishiy hayotda, og'zaki adabiy nutqda, o'zaro suhbatlarda hamda badiiy asarlarda keng tarqalgan.

Frazemalarning so'zlashuv uslubiga xosligini belgilashda ularning tarkibiy-komponent xususiyatidan tashqari boshqa uslubiy mezonlar ham asos bo'ladi. Bu turdagi iboralar obrazlilik, ta'sirchanligi, omma uchun oson tushunarli bo'lishi va nutqqa jonlilik baxsh etishi bilan ajralib turadi. Genetik jihatdan ular erkin so'z birikmalarining xalq og'zaki nutqida ko'chma, metaforik ma'noda qo'llanishi natijasida shakllangan: *qo'l siltamoq, yelkasini egmoq, loyga botmoq, oyog'idan olmoq, qo'lining kaftida ko'tarmoq, boshi-ko'zidan sadaqa, ishning ko'zini bilmoq, belini egmoq, maydonga tushmoq* kabi iboralar shular jumlasidandir. Mazkur maqolada so'zlashuv uslubi va unda qo'llangan frazeologizmlarning funksional-stilistik vazifalari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** frazeologiya, frazema, ibora, frazeologik stilistika, og'zaki adabiy nutq, so'zlashuv uslubi, uslubiy imkoniyat, metaforik ma'no.

Рашидова Умида

Доцент

Самаркандского государственного университета

Самарканд, Узбекистан

[umida\\_rashidova@gmail.com](mailto:umida_rashidova@gmail.com)

## ФУНКЦИОНАЛЬНО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ СТИЛЯ РЕЧИ И ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В НЕЙ ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ

### АННОТАЦИЯ

Фразеология изучает сложные языковые единицы, обладающие признаком устойчивости в системе языка. Такие устойчивые сочетания проявляются как семантически и грамматически неделимые целостные структуры. Разнообразие подходов к определению объёма и состава фразеологических единиц в определённой степени осложняет чёткое установление объекта исследования и границ фразеологической стилистики. Изучение стилистического потенциала фразеологизмов, их роли в создании художественной выразительности, а также различий в функциях, выполняемых ими в зависимости от типа речи, составляет основную задачу фразеологической стилистики. Фразеологические единицы, характерные для разговорной речи, составляют значительную часть фразеологического фонда узбекского языка — более половины — и по степени активности употребления превосходят другие функциональные стили. Согласно стилистической классификации, они относятся к неофициальному слою и преимущественно используются в условиях неформального общения. Их употребление в речи свидетельствует о неофициальном характере высказывания, естественности, свободе и непринуждённости общения. В связи с этим такие выражения широко распространены в бытовой сфере, устной литературной речи, межличностных беседах и художественных произведениях.

При определении принадлежности фразем к разговорному стилю учитываются не только их структурно-компонентные особенности, но и другие стилистические критерии. Данные единицы отличаются образностью, экспрессивностью, доступностью для широкой аудитории и способностью придавать речи живость. В генетическом плане они сформировались в результате метафорического переосмысления свободных словосочетаний в народной устной речи. К таким выражениям относятся, в частности: *qo'l siltamoq, yelkasini egmoq, loyga botmoq, oyog'idan olmoq, qo'lining kaftida ko'tarmoq, boshi-ko'zidan sadaqa, ishning ko'zini bilmoq, belini egmoq, maydonga tushmoq*. В статье анализируются функционально-стилистические особенности разговорного стиля и фразеологизмов, используемых в его рамках.

**Ключевые слова:** фразеология, фразема, фразеологическая единица, фразеологическая стилистика, устная литературная речь, разговорный стиль, стилистический потенциал, метафорическое значение.

**Rashidova Umida,**  
Associate Professor  
Samarkand State University  
Samarkand, Uzbekistan  
[umida\\_rashidova@gmail.com](mailto:umida_rashidova@gmail.com)

## FUNCTIONAL-STYLISTIC FUNCTIONS OF SPEECH STYLE AND PHRASEOLOGISMS USED IN IT

### ABSTRACT

Phraseology investigates complex linguistic units characterized by stability within the language system. Such fixed expressions function as semantically and grammatically indivisible integral structures. The diversity of approaches to defining the scope and composition of phraseological units to some extent complicates the clear determination of the object of study and the boundaries of phraseological stylistics. The analysis of the stylistic potential of phraseological units, their role in creating artistic expressiveness, as well as the differences in their functions depending on speech types, constitutes the main task of phraseological stylistics.

Phraseological units typical of colloquial speech make up a significant part of the Uzbek phraseological inventory – more than half of it and surpass other functional styles in terms of frequency of use. According to stylistic classification, they belong to the informal layer and are mainly employed in non-official communicative contexts. Their use in speech indicates the non-formal nature of discourse, reflecting naturalness, freedom, and simplicity of communication. Therefore, such expressions are widely used in everyday life, oral literary speech, interpersonal communication, and fiction.

In determining the affiliation of phrasemes with the colloquial style, not only their structural and componential features but also other stylistic criteria are taken into account. These expressions are distinguished by imagery, expressiveness, accessibility for a broad audience, and their ability to enliven speech. Genetically, they have emerged as a result of metaphorical reinterpretation of free word combinations in folk oral speech. Examples include: *qo'l siltamoq*, *yelkasini egmoq*, *loyga botmoq*, *oyog'idan olmoq*, *qo'lining kaftida ko'tarmoq*, *boshi-ko'zidan sadaqa*, *ishning ko'zini bilmoq*, *belini egmoq*, *maydonga tushmoq*. This article analyzes the functional and stylistic features of colloquial speech and the phraseological units employed within it.

**Keywords:** phraseology, phraseme, idiom, phraseological stylistics, oral literary speech, colloquial style, stylistic potential, metaphorical meaning.

O'zbek tilida so'zlashuv nutqi bir qancha tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan<sup>1</sup>, aynan mazkur uslubga xos iboralar esa K.Bozorboyev tomonidan maxsus tadqiq etilgan.<sup>2</sup>

B.O'rinboyev Samarqand tilshunoslik maktabining namoyondalaridan bo'lib, 1976-yilda "O'zbek so'zlashuv nutqi sintaksisi masalalari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Olim so'zlashuv nutqi muammolarini ilmiy jihatdan dastlabkilardan bo'lib

<sup>1</sup> Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. – Т.: Фан, 1974; Ўринбоев Б. Ўзбек сўзлашув нутқи. –Тошкент: Фан, 1982; Ўринбоев Б., Ўринбоева Д. Ҳозирги ўзбек тилининг сўзлашув услуби. –Тошкент: Фан, 1991. -160 б.; Мусаев А. Ўзбек сўзлашув нутқи услубида гап бўлаклари тартиби. Филология фандари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Самарқанд, 2000. -25 б.

<sup>2</sup> Бозорбоев К.Т. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Самарқанд: 2001. – Б. 14.

o'rganib, uni har qanday mukammal tilning asosiy tayanchi sifatida baholagan va so'zlashuv nutqi qat'iy grammatik qoidalar doirasiga sig'mas o'ziga xos tizim ekanini ta'kidlagan. Ushbu yo'nalishda olim tomonidan «So'zlashuv nutqi sintaksisining ayrim masalalari», «O'zbek tili so'zlashuv nutqiga umumiy tavsif», «Hozirgi o'zbek tilida vokativ kategoriya», «So'zlashuv nutqida gap bo'laklarining joylashuvi», «O'zbek so'zlashuv nutqi fonetikasi», «O'zbek so'zlashuv nutqi – mustaqil nutqiy sistema», «Hozirgi o'zbek tilining so'zlashuv uslubi», «So'zlashuv nutqida savol-javob replikalari», «So'zlashuv nutqi leksikasi va uning qo'llanish darajasiga ko'ra turlari» kabi qator monografiya va o'quv qo'llanmalari yaratilgan bo'lib, ular o'zbek tilshunosligida so'zlashuv nutqini o'rganishga muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. “Hozirgi o'zbek tilining so'zlashuv uslubi” kitobida so'zlashuv uslubining frazeologik xususiyatlari masalasi ham o'rganilgan. Olimning ta'kidlashicha, “frazelogizmlarning eng xarakterli xususiyatlaridan biri, ular qanday yaratilgan bo'lsa shunday aytiladi, ular nutq jarayonida yaratilmaydi (so'z birikmasi kabi), ular tilda qanday paydo bo'lgan bo'lsa, shundayligicha ishlatiladi: *achchig'i qistadi, balans kelmoq, boshiga ko'tarmoq, shovqin solmoq, ustun kelmoq* kabilar”.<sup>3</sup>

K.Bozorboyevning dissertatsiyasida *o'zbek so'zlashuv nutqi* frazeologizmlarining genetik manbalari aniqlanib, ularning xalq og'zaki ijodi, maqol-matallar, erkin so'z birikmalari, kasbiy nutq va ijtimoiy-siyosiy muhit bilan bog'liq ravishda vujudga kelishi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Ishning dastlabki bobi so'zlashuv nutqi frazemalari (SNF)ning paydo bo'lish manbalari, qatlamlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari tahliliga bag'ishlangan.<sup>4</sup>

So'zlashuv frazeologizmlarining katta qismi o'zining yorqin obrazli tabiati bilan, asosan, so'zlashuv va badiiy uslub doirasida faol ishlatiladi. Chunki mazkur funksional uslublarning asosiy belgilaridan biri ham aynan obrazli ifodaga tayanganlikdir. Ayniqsa, metaforik xarakterga ega bo'lgan *qo'li kosov sochi supurgi, qo'lini paxsa qilmoq, ko'zining yog'ini yalagan, boshini ikkita qilmoq, miyasining qatig'ini chiqarmoq* kabi somatik iboralar insonning holatini va munosabatini ta'sirchan tarzda ifodalashga xizmat qiladi.

Ba'zan so'zlashuv nutqi frazeologik birliklarining ichki obrazi giperbola va litota kabi badiiy ko'chimlar (troplar) asosida shakllanadi. Bunday hollarda ibora ma'nosi voqelikni ataylab orttirib ko'rsatish yoki, aksincha, kichraytirish orqali kuchaytiriladi. Giperbolaga asoslangan frazeologik birliklarga quyidagilarni misol keltirish mumkin: *burganing dumini ko'rgan, burnidan eshak qurti yog'iladi, gadoy topmas, go'r azobi, devor bo'lsa ham ko'chani ko'radi, toshbaqa tolga chiqqanda, pashshadan fil yasamoq, ado bo'lmoq, yetti qovun pishig'i bor, eshigimning turmini buzmoq, tuyaning dumi yerga tekkanda, qizil qor yoqqanda balo tog'i, bargida yurmoq, yulduzni narvonsiz urmoq, yetti uxlab tushiga kirmagan, tumshug'i osmonga chiqib ketgan, yuragi tog' bo'lmoq* kabi. Ularda holat yoki belgining nihoyatda katta, kuchli yoki imkonsiz darajada ekani bo'rttirib ifodalanadi: *Gavhar yaxshi qiz. Lekin anavi iblis burganing dumini ko'rgan!* (O'. Hoshimov. Qalbingga quloq sol)

Litotaga asoslangan frazeologik birliklarda esa, aksincha, ma'no ataylab kichraytirilib, kamaytirish orqali ta'sir kuchaytiriladi. Bu turga *chap ichakka yuk bo'lmaydi, bir og'iz, bir qarich, bir tutam, bir shingil, do'ppining tagidakkina, yolg'iz oyoq* kabi iboralarni kiritish mumkin. Ularda miqdor yoki hajmning juda kamligi, arziemasligi obrazli tarzda ifodalanadi: *Bergan osh-noni chap ichakka yuq bo'lmaydi, yana bizga sekin ishlaysiz deb dakki berishini qarang, – dedi ustalarning biri.* (So'zlashuv uslubi) kabilar.

O'zbek tilidagi ayrim iboralarda so'zlashuv bo'yog'ining borligi ko'pincha semantik mezon asosida belgilanadi, chunki bunday iboralar o'z semantikasi bilan insonning tuyg'ulari, turli xil holatiga bog'liq. Kishilar orasidagi xilma-xil munosabatlar (ehtiyotkorlik, ishonchsizlik, halollik, aldanchilik, do'q-po'pisa, o'zini kimdandir ustun qo'yish)ni

<sup>3</sup> Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек тилининг сўзлашув услуби. –Тошкент: Фан, 1991. – Б.88-89.

<sup>4</sup> Бозорбоев К.Т. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Самарканд: 2001. – Б. 14.

bildiruvchi iboralar tematik va ekspressiv-baho bo'yog'ining mavjudligi bilan kitobiy uslublarda qo'llanish imkoniyati ma'lum darajada cheklanadi.

Frazemalarning so'zlashuv bo'yog'ini aniqlashda komponent mezoni ham ba'zi hollarda qo'l keladi, negaki ko'pgina so'zlashuv nutqi iboralari so'zlashuv uslubiga xos leksik birliklar va qurilmalar asosida shakllangan bo'ladi. Bizningcha, tilimizdagi quyidagi tip iboralar struktural jihatdan so'zlashuv uslubiga xoslangandir:

1. Komparativ (o'xshatish) iboralar (xuddi, -dek, -day konstruksiyali turg'un o'xshatish birikmalari): «*tomdan tarasha tushganday*», «*yog' tushsa yalagudek*», «*xamirdan qil sug'urgandek*». «*paytavasidan qurt tushganday*», «*bo'zchining mokisiday yugurmoq*», «*kesakdan olov chiqqanday bo'ldi*», «*otning qashqasiday*», «*it quvlaganday*» kabilar.

2. «Na-na», «yo-yo», «goh-goh», yordamchilarining takrori asosida tuzilgan turg'un, binar qurilma(ibora)lar: «*yo changim chiqadi, yo dong'im*», «*goh xud, goh bexud*» kabilar;

3. Ikki sostavli gap qurilishiga ega bo'lgan FBlar: *qo'li gul, qo'li egri, qo'li qisqa, qo'li uzun, ichi qora, qo'li yengil, tili qisqa, tili uzun, boshi ochiq* kabilar.

4. To'siqsiz va shart ergash gapli qo'shma gap qurilishiga ega bo'lgan frazemalar: «*osmonga chiqqan bo'lsa oyog'idan, yerga kirgan bo'lsa qulog'idan tortmoq*», «*bersa yeyman, ursa o'laman*», «*tuyaning yuki yengil bo'lsa, baqiroq bo'ladi*», «*do'ppisini ol desa boshini olmoq*» kabilar<sup>5</sup>.

O'zbek tilidagi u yoki bu iboraning so'zlashuv uslubiga xoslanganligini miqdoriy ko'rsatkichlar ham to'la tasdiqlaydi. So'zlashuv nutqi iboralari odatda ilmiy, rasmiy va publitsistik uslubda unchalik qo'llanmaydi. Badiiy uslubda esa ular dialogik va monologik nutqda, ba'zan muallif nutqi tarkibida qo'llanadi. Masalan, «*qilni qirq yoradigan*» iborasi bizning materiallarimizda 27 ta qo'llanishga ega, shundan o'n ikkitasi personajlar nutqida, dialoglar tarkibida qolgani esa muallif nutqi tarkibida uchraydi: «*Qolaversa, u qilni qirq yoradigan qonunshunoslar qo'liga tushaman deb sira o'ylamagandi*» (O'zb. ovozi, 26.07.2001); «*Aytilgan xonadonga qilni qirq yoradigan militsiya mayyori Abdurahmon Imomov bilan oddiy milisioner Husniddin Ubaydullayev shoshilinch yo'l olishdi*» (O'zb. ovozi, 26.07.2001); «*Qoyil. Barakalla. Qilni qirni yoruvchi qonunshunos o'rtoqlar 8904 sonli jinoiy ishni osongina harakatdan to'xtatish yo'lini topdilar*» (O'zb.ovozi, 20.09.2001) va hokazo.

So'zlashuv nutqiga mansub ayrim frazeologik birliklarning publitsistik yoki ilmiy uslub matnlarida qo'llanishi muallifning muayyan stilistik niyatiga bog'liq bo'ladi. Bunday holatlarda so'zlashuvga xos iboralar matnga obrazlilik va ekspressivlik kiritish, bayon qilinayotgan fikrning ta'sirchanligini kuchaytirish vazifasini bajaradi. Masalan, *meva bermoq* frazeologizmi ilmiy-publitsistik matnda "natija bermoq, samarali bo'lmoq" ma'nosida qo'llanib, bajarilgan ishlarning ijobiy samarasini umumlashtirilgan holda ifodalashga xizmat qiladi: *Aholi bandligini ta'minlash va yoshlarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar mahalla hayotida o'z mevasini bermoqda* (Yoshlar ovozi, 2025). Bu yerda mazkur frazeologik birlikning qo'llanishi nutqning mantiqiy-axborot yo'nalishini saqlagan holda, uni quruq statistik bayondan xalos etib, natijaning samaradorligini ifodalovchi obrazli umumlashtirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

So'zlashuv nutqida ranglar asosiy komponent vazifasini bajargan iboralar ko'pincha obrazlilik va kuchaytirish vazifasini bajaradi. Tilimizda "sariq chaqalik", "sariq chaqaga arzimastik" iboralari "bir pullik" iborasi bilan sinonim munosabatda bo'lib, "hech qanday qiymatga ega emas" ma'nosini beradi [O'TFL,455-456]. A.Qahhor asarlarida birida *sariq chaqa* o'rniga so'zlashuv uslubidagi boshqa varianti "qora chaqa"ni qo'llaydi va bu orqali "qora" sifati miqdorning mutlaq yo'qligini, qimmatsizlik va arzimastikni giperbolik tarzda ta'kidlaydi. Bu esa gapga emosional-baholovchi ottenka qo'shib, so'zlovchining

<sup>5</sup> Йўлдошев Б., Рашидова У. Ўзбек тилининг фразеологик стилистикаси. –Тошкент: Наврўз, 2016. –Б.56-57.

munosabatini ochiq namoyon qiladi. Masalan, *Muhammadrajab bir qora chaqa ham bermaydi* (Sarob, 237-b) jumlasida so'zlashuv uslubiga xos ekspressivlik, obrazlilik va xalqona ifoda ustuvor bo'lib, neytral "sariq chaqa" o'rniga "qora chaqa"ning qo'llanishi nutqni yanada tabiiylashtirish, qahramonning xarakterini ochish va ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan. Jumlasidagi "qora chaqa" iborasi so'zlashuv uslubiga xos frazeologik birlik bo'lib, "umuman hech narsa, mutlaqo pul bermaslik" ma'nosini kuchaytirib, ekspressiv tarzda ifodalaydi. Aslida, adabiy tilda shu ma'noni neytralroq shaklda "sariq chaqa ham bermaydi" tarzida ifodalash mumkin. Biroq muallif bu yerda aynan "qora chaqa" variantni tanlashi orqali qahramon nutqini jonli, og'zaki va xalqona ruhda berishni maqsad qilgan. Shu jihatdan, so'zlashuvga xos frazeologik birliklardan foydalanish faqat A.Qahhor ijodigagina xos bo'lmay, balki boshqa yozuvchilar asarlarida ham keng kuzatiladi. Xususan, To'g'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida ham lug'atlarda qayd etilmagan, ammo jonli so'zlashuv nutqida faol ishlatiladigan *qora bermoq* (ko'rinmoq), *oyoq ilmoq* (to'xtamoq), *araz urmoq* (arazlamoq), *seldanang otmoq* kabi iboralarning qo'llanishi shuni ko'rsatadiki, so'zlashuv uslubiga xos birliklar badiiy matnda qahramon nutqining tabiiyligini ta'minlash, voqelikni xalqona tafakkur orqali ifodalash va matnning ta'sirchanlik darajasini oshirishda muhim uslubiy vosita sifatida xizmat qiladi.

– *Ayniqsa, kelajak mehmonlarni e'tibordan chetda qoldirmadi. Mehmonlar ko'cha boshida qora berishi bilanoq, Nabi oqsoqol ovoz berdi: – Kelinglar, mehmonlar, kela beringlar! – dedi; Shu vaqt, devor uzra ro'molli boshlar qora berdi: ayollar davraga qaray berdi* (7-b).

Umuman, tilimizdagi iboralarning so'zlashuv uslubiga xoslanganligini aniqlash uchun bir necha ko'rsatkichlar (mezonlar)ni hisobga olish yaxshi samara beradi. Masalan «yeti uxlab tushiga kirmaslik» iborasi (O'TFL, 552)ning so'zlashuv uslubiga xoslanganligini aniqlashda semantik (mutlaqo o'ylamaslik, kutmaslik ma'nosini ifodalaydi), miqdoriy (ko'pincha dialogik nutq tarkibida qo'llanadi), ichki obrazining yorqinligi (giperbolik asosga ega) ni inobatga olish zarur: *To o'zlariga kelishguncha bu pullar tillaga aylanib egalariga yetadi. Mening hiylam yetti uxlab tushlariga kirmaydi* (T.Malik. Charxpalak); *Yetti uxlab tushiga kimgan ayblar unga taqalyapti* (Shuhrat, Oltin zanglamas); *Hozir Nasibaning meni hech qachon sevmaganligiga aminman. Lekin u chog'larda bu fikr yetti uxlab tushimga ham kimgan edi* (O.Yoqubov. Ikki muhabbat); *Yetti uxlab tushimga kimgan shoirlarning she'rlarini, kitoblarini so'raydi*. (X.To'xtaboyev. Sariq devni minib) va hokazo.

Aynan shu xususiyatlar asosida so'zlashuv frazeologizmlarini tasniflash masalasi tilshunoslikda «oddiy so'zlashuv» qatlamining mohiyatini belgilash bilan uzviy bog'liqdir. Hozirgi vaqtda tilshunoslikda «oddiy so'zlashuv» atamasi turli xil izohlanmoqda. «Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati»da «oddiy so'zlashuv»ga quyidagicha ta'rif beriladi: «Oddiy so'zlashuv. Voqelikni odatda qo'polroq, past xarakteristika bilan ifodalash xususiyatiga ega bo'lgan, adabiy nutq me'yorlaridan chetga chiqadigan so'z, grammatik shakl va tuzilmalar keng ishlatiladigan nutq turi»<sup>6</sup>. Umuman, o'zbek tilshunosligida shu kunga qadar shahar va qishloq oddiy so'zlashuv nutqi keng tadqiq etilmagan, bu tushunchalar hali ilmiy muomaladan mustahkam o'rin olmagan.

Ayrim olimlar (F.P.Filin, D.N.Shmelev, K.S.Gorbachevich, L.I.Skvorsov kabilar) oddiy so'zlashuv nutqining ikki tipi (adabiy va adabiy bo'lmagan tipi)ni alohida ajratib ko'rsatadilar. Masalai. F.P.Filin fikricha, «oddiy so'zlashuv nutqi adabiy tilning tarkibiy qismi hisoblanadi, shu bilan birga, adabiy bo'lmagan (noadabiy) xarakterdagi oddiy so'zlashuv nutqi ham bor». O'zbek leksikograflari keyingi yillarda O'TILni tuzish jarayonida «so'zlashuv tili» (s.t.) havola-belgisidan keng foydalanganlar, lekin «oddiy so'zlashuv nutqi» va «so'zlashuv tili» tushunchalari bir xil mazmunga ega emasligi bunday ishlarda inobatga

<sup>6</sup> Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – B.74.

olinmagan. O'TILning «Lug'atning tuzilishi va undan foydalanish tartibi» qismida ta'kidlanishicha, «s.t.belgisi asosan so'zlashuv tilida qo'llanadigan so'z, ibora va ularning ayrim ma'nolariga qo'yilgan» (O'TIL, 1, 17).

M.Sodiqova lug'atida esa «prost» (prostorechiye) va «razg» (otnosyashiysya k razgovornoy rechi) havola-belgilari qo'llangan. Lekin ko'pincha mazkur lug'atda bu ikki tip iboralar uslubiy jihatdan chalkashtiriladi. Masalan, O'TILda «kapalagi uchdi» iborasining hazil ottenkasiga ega ekanligi ta'kidlansa (O'TIL, 1, 367), M.Sodiqova lug'atida bu ibora «kapalagini uchirib yubormoq» tarzida keltirilib, «razg.», «nutq» havola-belgilari qo'yilgan (QO'RFL, 195), «karmon (yoki hamyon) ko'tarmaydi» iborasi M.Sodiqova lug'atida «prost» havolasi bilan berilgani holda (QO'RFL, 135), shu iboraning «hamyon ko'tarmaydi» variantiga «razg.» havolasi qo'yilgan (QO'RFL, 328) va hokazo.

**2022-yilda chop etilgan yangi “O'zbek tili frazeologik lug'ati” ga qo'shimcha ravishda 397 ta arxaik ibora, «O'zbek tilining izohli lug'ati» (2006 – 2008), «O'zbek frazeologiyasidan materiallar» (H.Berdiyev, R.Rasulov, B.Yo'ldoshev; 1976–1983) qo'llanmasi va shevalar asosida to'plangan 1801 ta frazeologik birikma izohi kiritilgan.** Masalan, lug'atda bir ibora izohlangach, unga misol beriladi va qaysi shevaga oidligi ko'rsatiladi: OG'ZIGA QATIQ IVITGAN *kim?* jim bo'lmoq, savol berilganda javob bermay, gapirmaslik ma'nosida ishlatiladi. (Oripova Zaxro Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahri shevasidan). *Hoy qiz, og'zingga qatiq ivitganmisan, bir nima de axir.* So'zlashuv uslubi [O'TFL, 378]. **Mazkur lug'atda** Buxoro viloyati Olot tumani shevasida qo'llanadigan *qisqa chizgan* (umri qisqa bo'lmoq, yosh vafot etmoq), **Buxoro viloyati Qorako'l shevasida mavjud piyozni kuymagan (hali gapi o'tmaydi, aytganini qildiray olmaydi),** shevaga oid *ushuk urdi* (sovuq urdi) kabi iboralar ma'nosi so'zlashuv uslubidan olingan misollar yordamida izohlangan.

Bizningcha, oddiy so'zlashuv nutqi iboralarini so'zlashuv uslubiga xos iboralar tarkibida deb qarash lozim, chunki ularning asosiy qismi adabiy til sistemasidan tashqarida turadi. Masalan, qo'pol-so'zlashuv qatlamiga mansub iboralar sifatida “*og'ziga kelganini aytmoq*”, “*itdek haydamoq*”, “*burnini yerga ishqamoq*”, “*ko'zi qonga to'lmoq*”, “*terisini shilib olmoq*” kabi frazemalarni ko'rsatish mumkin. Ular nutqda qattiq hissiy-baholovchi ma'noni ifodalab, og'zaki muloqotda keskin munosabatni bildirish uchun qo'llanadi. Jargon va argo qatlamiga esa “*gapni aylantirmoq*” (*aldamoq*), “*o'tirib qolmoq*” (*ishsiz qolmoq*), “*uchib yurmoq*” (*qochib yurmoq*), “*ko'cha tilida yurmoq*”, “*qo'li yengil bo'lmoq*” kabi iboralarini misol qilish mumkin. Bu kabi birliklar muayyan ijtimoiy guruh nutqiga xos bo'lib, ularda shartlilik, maxfiylik yoki guruhgagina tushunarli bo'lgan ma'no ustuvor bo'ladi.

B.Yo'ldoshev tadqiqotlarida oddiy so'zlashuv nutqi iboralarini o'zbek adabiy tili frazeologik fondining 10 foizga yaqinini tashkil etishi ta'kidlangan. Ular og'zaki so'zlashuvda va badiiy nutqda keng qo'llanadi (asosan personajlar nutqida). Olimlar oddiy so'zlashuv nutqi iboralarini xarakterlaganda ularning qo'pol-tushkunroq ottenkaga ega ekanligini qayd qiladilar. Aslini olganda, qo'pollik, dag'allik ottenkasi oddiy so'zlashuv nutqi iboralarini barchasiga xos xususiyat emas. Masalan, «Oyoq uchi bilan (yoki uchida) ko'rsatmoq» iborasi mensimaslik, nazarga ilmaslik ma'nolarini ifodalaydi, lekin bu iborada qo'pollik elementlari sezilmaydi. Yoki «oyoq uzatmoq» iborasi polisemantik xarakterga ega bo'lib, ko'chma ma'noda “o'lmoq, jon bermoq” ma'nosini bildiradi (O'TIL, 1, 523), bu ibora tarkibida dag'allik, qo'pollik ottenkasidan asar ham yo'q, ammo mazkur iboralarning qo'llanish shakli, ma'nosi hozirgi adabiy nutqimiz estetik me'yorlariga unchalik mos emasligini alohida qayd etish o'rindir.

Masalan, o'zbek tilida dialektal xarakterdagi «shapshak» so'zi bo'lib, «axloq-odobni bilmaydigan, adabsiz; hech narsadan tortinmaydigan, uyalmaydigan» ma'nolarini bildiradi (O'TIL, 2, 397). «Sinchalak» povestida Qalandarov Saida bilan o'zaro muloqot-tortishuvda ana shu so'z yordamida shakllangan «shapshaklik qilmoq» iborasini qo'llaydi: «-Shunaqa ekan, o'zingizdan katta bir nima deganda, nega shapshaklik qilasiz?» (A.Qahhor. Sinchalak).

Bu o'rinda «betga choparlik qilmoq», «odobsizlik qilmoq» kabi iboralardan foydalanish ham mumkin edi. Lekin yozuvchi Abdulla Kahhorning mahorati shundaki, bu oddiy so'zlashuvga xos iborani keksa, oq-qorani tanigan Qalandarov nutqi tarkibiga kiritish bilan bunday iboralarning ham tilda, uning oddiy so'zlashuv uslubida yashash huquqiga ega ekanligini ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan, shu asosda personaj nutqining tabiiyligini ta'minlashga erishgan. Yozuvchi bu qissaning yana bir o'rnida «shapshaklik qilib qo'ymoq» iborasidan ham foydalangan (A.Qahhor. Sinchalak, 144).

Iboraning oddiylik bo'yog'i uning ichki obrazli asosida vujudga keladigan negativ, salbiy his-tuyg'u, tasavvurga tayanadi. Masalan, «itning keyingi oyog'i», «... arpa uni bahona» kabi iboralar funksional jihatdan oddiy so'zlashuv nutqiga xoslangan. Bu tip iboralarga hayvonot olami bilai bog'liq ko'pgina metaforik birikmalar ham kiradi: «dumini tutqazmaslik», «dumini xoda qilmoq», «ko'ltig'iga suv purkamoq», «dumini tugmoq», «qitlik pariga tegmoq», «kitlik parini olmoq», «jin ursin». «chakagi ochilmoq», «jag' urmoq», «notovon ko'ngilga qo'tir jomashov» singari iboralar shular jumlasidandir. Keyingi ibora – «notavon ko'ngilga qo'tir jomashov» o'ziga munosibidan ko'ra yuqoriroqni, yaxshiroqni istab qolgan yoki o'ziga nomunosib ish qilib yurgan kishiga nisbatan qo'llanadi (O'TIL, 1, 511).

Oddiy so'zlashuv nutqi iboralari o'zbek adabiy tili frazeologik fondining taxminan o'n foizga yaqinini tashkil etadi. Ular og'zaki so'zlashuvda va badiiy nutqda, asosan personajlar nutqida keng qo'llanadi. Olimlar oddiy so'zlashuv nutqi iboralarini xarakterlaganda, ularning bir qismi maqol matallarning qisqargan shakli sifatida yuzaga kelganini ta'kidlaydi. Masalan, «Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi» degan maqol so'zlashuv uslubida «qorasi yuqmoq» tarzida ishlatiladi. *Odam yig'ildi, xonatlas ko'ylak kiygan semiz bir xotin lapanglaganicha Muhayyoga yaqin borib «O'l bu kuningdan! Senga o'xshaganlarning qorasi yuqib, o'qigan qizlarning hammasi haromga o'xshab qoldi!» — dedi. (327)*

So'zlashuv va badiiy uslubda keng qo'llanuvchi mazkur ibora, bizningcha, «so'zlashuv uslubiga xos» degan yozuv bilan lug'atlardan o'rin olishi kerak.

Iboraning oddiylik bo'yog'i uning ichki obrazlari asosida vujudga keladigan negativ, salbiy his-tuyg'u, tasavvurga tayanadi. Masalan, «itning keyingi oyog'i», «... arpa uni bahona» kabi iboralar funksional jihatdan oddiy so'zlashuv nutqiga xoslangan. Bu tip iboralarga hayvonot olami bilan bog'liq ko'pgina metaforik birikmalar ham kiradi: «dumini tutqazmaslik», «dumini xoda qilmoq», «qo'ltig'iga suv purkamoq», «dumini tugmoq», «qitlik pariga tegmoq», «qitlik parini olmoq», «jin ursin». «chakagi ochilmoq», «jag' urmoq», «notovon ko'ngilga qo'tir jomashov» singari iboralar shular jumlasidandir. Keyingi ibora – «notavon ko'ngilga qo'tir jomashov» o'ziga munosibidan ko'ra yuqoriroqni, yaxshiroqni istab qolgan yoki o'ziga nomunosib ish qilib yurgan kishiga nisbatan qo'llanadi (O'TIL, 1, 511).

So'zlashuv uslubiga oid frazeologizmlarning xarakterli xususiyatlaridan biri ularning **emotsional-ekspressiv bo'yoqdorligidir**. Bunday iboralar nutqda so'zlovchining kayfiyati, munosabati, bahosi va subyektiv munosabatini yaqqol ifodalaydi. Shu sababli ular ko'pincha baholovchi, kinoyaviy, hazil-mutoyiba yoki istehzo ohangida qo'llanadi va jonli og'zaki nutqqa xos obrazlilikni kuchaytiradi. *Zo'riga tushmoq, zarar keltirmoq, achchig'i qistamoq, chakagi tushmoq, chap ichakka ham yuq bo'lmaslik, abjag'i chiqmoq, aksiga olmoq, aytgan joyini kesmoq, boyagi-boyagi, boy xo'janing tayog'i, bozori chaqqon, burnini suqmoq, bo'sag'asi odam ko'rmagan, devorga tanbur chertmoq, dunyodan chiroqchisiz o'tmoq, eldan burun, endi tushingizda ko'rasiz, gapiga kirmoq, tinkasi qurimoq* kabilar.

So'zlashuv uslubiga oid ko'pchilik frazeologizmlar birgina so'zga ekvivalent-leksik ma'nosini yo'qotgan va ular butunlay boshqa ma'noni kasb etadi. Masalan, «ko'zi uchib turibdimi» frazeologizmi tarkibidagi komponentlar o'zining lug'aviy ma'nosini yo'qotib, yaxlit semantik butunlik hosil qiladi va kontekst ta'sirida qarama-qarshi, ijobiy hamda salbiy emotsional-baholovchi ma'nolarni ifodalash imkoniga ega bo'ladi. Adabiy tilda mavjud *ko'zi uchib turibdi* iborasi ko'rish ishtiyorida emaslik ma'nosini bildiradi (O'TIL-5, 3, 151-152). Bu FB asosan salbiy, negativ ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Lekin badiiy matnda bu ibora

ham salbiy, ham ijobiy ma'no ifodalashga xizmat qilishi mumkin. Shu sababli ham ibora enantiosemik xususiyatga ega. Jumladan, A.Navoiyning «Badoye' ul-bidoya» asaridan olingan quyidagi matn parchasi fikrimizning yorqin dalili bo'la oladi:

*Ko'zum ucharki, humoyun yuzingni ko'rgay bot,*

*Biaynih anga kirpiklar o'lmish ikki qanot* (A.Navoiy. Badoye' ul-bidoya)

Bundan ko'rinadiki, tildagi FBlarning taraqqiy etishi va boyishi, tilning boshqa birliklarida bo'lganidek faqat frazeologik neologizmlarning paydo bo'lishi bilan emas, balki mavjud iboralarning semantik, grammatik va funksional jihatdan yangilanishi asosida ham sodir bo'ladi. Shuning uchun FBlarning o'zgarishi, transformatsiyasi va shu bilan bog'liq masalalar nazariy frazeologiyada hamda pragmatik, stilistik tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mumtoz adabiyotdagi somatik frazemalarning katta qismi mazmun va vazifa jihatdan zamonaviy so'zlashuv nutqi iboralari bilan davomiylik kasb etib, ular orqali tarixiy til qatlamlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, Navoiy ijodida qo'llangan somatik iboralar mazmun jihatdan hozirgi o'zbek so'zlashuv nutqida faol ishlatiladigan frazeologik birliklar bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rish mumkin. Masalan,

*Vahm etib ul guruh bu so'zdin,*

*Bahr aro yittilar ravon ko'zdin* [Mehr va Suhayl, 185-b.]

Misra mazmuni: (Kemadagi) guruh bu so'zdan vahimaga tushib, Dengiz aro tezda ko'zga ko'rinmay ketdilar Bu yerda yittilar “ko'rinmay ketdilar” ma'nosini ifodalamoqda. Bu ibora so'zlashuv va boshqa uslublarda keng qo'llaniladigan *ko'zdan yo'qolmoq* iborasiga mos keladi. O'TFLda *ko'zdan yo'qolmoq* iborasiga “biror tomonga harakatlanib ko'rinmay ketmoq” tarzida izoh berilgan [4.272.].

Shu bilan birga Navoiy ijodida qo'llangan *ko'ngli o'rtanmoq* frazemasi ham zamonaviy so'zlashuv nutqida deyarli o'zgarishsiz holda saqlanib qolgan bo'lib, “ich-ichidan yonib iztirob chekmoq, alam qilmoq” ma'nolarini anglatadi. O'TFLda *ko'nglini o'rtamoq* “nohaq ravishda iztirob chektirmoq” ma'nosini berishi ko'rsatilgan [O'TFL, 296.]. Bu ibora kundalik muloqotda ham insonning ruhiy holatini kuchli obrazlilik bilan ifoda etish uchun qo'llanadi.

*Mehr ko'ziga shomdek ayyom,*

*Mehrdek ko'ngli o'rtanib to shom* [Mehr va Suhayl, 185.]

Navoiy asarlarida *ko'ngli* so'ziga sinonim sifatida *tab'* so'zini ham qo'llash uchraydi. Arab tilidan o'zlashgan *ta'b* leksemasi bugungi kunda ham so'zlashuv nutqimizda faol qo'llanadi va bir qancha iboralarning asosiy komponenti sifatida qatnashadi: *ta'bi olindi, ta'bi ochildi, ta'bi tirriq bo'ldi, ta'bi xira, ta'bi xiralashdi* kabi.

*Qatlinga garchi tab' rog'ib emas,*

*Lek qo'yimoq dag'i munosib emas.* [196.]

Misrada keltirilgan *tab' rog'ib emas* frazeologik birligi tarkibidagi *rog'ib emas* – munosib emas degani. Demak, Navoiy qo'llagan *tab' rog'ib emas* frazemasi ma'no jihatdan hozirgi og'zaki nutqda ishlatiladigan *ko'ngli tortmas, ko'ngli xohlamas* kabi iboralarga yaqin turadi.

Xulosa qilib aytganda, so'zlashuv uslubida qo'llanuvchi iboralarning aksariyati badiiy uslubda ham faol ishtirok etib, nutqning obrazlilik va ta'sirchanligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Garchi bunday iboralar adabiy tilning asosiy, ya'ni neytral qatlamiga nisbatan son jihatidan kamroq ulushni tashkil etsa-da, ular tilning lug'aviy boyligini to'ldirishda va ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, so'zlashuvga xos iboralar nutq jarayonida muallif yoki so'zlovchining subyektiv munosabatini, baholovchi pozitsiyasini va hissiy holatini yaqqol ifodalash imkonini beradi. Iboralarning oddiylik bo'yog'i kundalik so'zlashuv nutqida ko'pincha salbiy baho, tanqidiy munosabat yoki kinoyaviy mazmunni yuzaga keltirishda faol ishtirok etadi. Bunday holatlarda frazeologik birliklar kommunikativ vaziyatga mos ravishda ekspressiv-ta'sirchan vosita sifatida namoyon

bo'lib, fikrning keskinligi va aniqligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ular nutqning tabiiyligi va jonliligini oshirib, muloqotni sun'iylikdan xoli qiladi. Demak, so'zlashuv uslubiga mansub iboralar nafaqat og'zaki nutqda, balki badiiy matnlar tarkibida ham muhim funksional-stilistik yuklama bajarib, adabiy til taraqqiyotida o'ziga xos o'ringa ega ekanligi bilan e'tiborlidir.

### Iqtiboslar/Сноски/References

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. –B.74.
2. Mamatov A. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. Filol. fan. dok. diseertatsiyasi. – Toshkent, 2000.
3. Musayev A. O'zbek so'zlashuv nutqi uslubida gap bo'laklari tartibi. Filologiya fandari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2000. -25 b.
4. O'rinboyev B. O'zbek so'zlashuv nutqi. –Toshkent: Fan, 1982;
5. O'rinboyev B. O'zbek tili so'zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. – T.: Fan, 1974.
6. O'rinboyev B., O'rinboyeva D. Hozirgi o'zbek tilining so'zlashuv uslubi. –Toshkent: Fan, 1991. -160 b.;
7. Yo'ldoshev B., Rashidova U. O'zbek tilining frazeologik stilistikasi. –Toshkent: Navro'z, 2016. –B.56-57.

# TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

**Karayev Umed,**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,  
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi,  
Termiz, O'zbekiston  
[u.karayev74@gmail.com](mailto:u.karayev74@gmail.com)

## JOMIYNING "YUSUF VA ZULAYXO" DOSTONIDA INTERTEKSTUAL QATLAMLAR: ASARNI QAYTA YARATISH JARAYONLARI TAHLILI

 [10.5281/zenodo.19159135](https://doi.org/10.5281/zenodo.19159135)

### ANNOTATSIYA

Maqolada Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" dostoni intertekstuallik nazariyasi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Dostonning manbalari sifatida Qur'onning "Yusuf" surasi, Tabariy va Atiq Nishopuriy tafsirlaridagi tafsilotlar hamda tasavvufiy talqinlar o'rganiladi. Tadqiqot Jerar Jenettning nazariy kategoriyalari — gipotekst va gipertekstning o'zaro munosabati, amplifikatsiya va transformatsiya — asosida Jomiy asaridagi qayta yaratish jarayonlarini ochib beradi. Ishda Qur'on matnining badiiy kengaytirilishi, uning nazm shaklidagi talqini va tasavvufiy ramzlarining yangi ma'no qatlamiga aylanishi intertekstual o'zaro ta'sirlar tizimida tahlil qilinadi. Bu yondashuv dostonning ko'p qatlamli gipertekstual tuzilma ekanini namoyon etadi.

**Kalit so'zlar:** intertekstuallik, gipotekst, gipertekst, amplifikatsiya, Yusuf qissasi, tafsir an'anasi, tasavvufiy talqin, Jomiy.

**Umed Karaev,**  
Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD),  
Surkhondarya Region Pedagogical Skills Center,  
Termez, Uzbekistan  
[u.karayev74@gmail.com](mailto:u.karayev74@gmail.com)

## INTERTEXTUAL LAYERS IN JAMIY'S EPISTLE "YUSUF AND ZULAIKHA": ANALYSIS OF THE PROCESSES OF RECREATION OF THE WORK

### ABSTRACT

This article examines Abdurahman Jami's poem *Yusuf and Zulaikha* from the perspective of intertextuality theory. The sources of the poem include the Quranic *Surah Yusuf*, details presented in the tafsirs of Al-Tabari and Atiq Nishapuri, as well as Sufi interpretations. The study, drawing on Gérard Genette's theoretical categories — the relationship between hypotext and hypertext, amplification, and transformation — reveals the processes of textual recreation in Jami's work. The paper analyzes the artistic expansion of the Quranic text, its adaptation into verse, and the transformation of Sufi symbols into a new layer of meaning within the system of intertextual interactions. This approach demonstrates

that the poem constitutes a complex hypertextual structure formed on a multi-layered source field.

**Keywords:** intertextuality, hypotext, hypertext, amplification, the story of Yusuf, tafsir tradition, Sufi interpretation, Jami.

**Караяев Умед,**

доктор философии по филологическим наукам (PhD),  
Центр педагогического мастерства Сурхандарьинской области,  
Термез, Узбекистан  
[u.karayev74@gmail.com](mailto:u.karayev74@gmail.com)

## ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНЫЕ СЛОИ В ПОЭМЕ ДЖАМИ «ЮСУФ И ЗУЛЕЙХА»: АНАЛИЗ ПРОЦЕССА ВОССОЗДАНИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЯ

### АННОТАЦИЯ

В статье поэма Абдурахмана Джамии «Юсуф и Зулейха» рассматривается с позиции теории интертекстуальности. В качестве источников анализа изучаются сура «Юсуф» из Корана, детали, представленные в тафсирах Аль-Табари и Атика Нишапури, а также суфийские интерпретации. Исследование, опираясь на теоретические категории Жерара Женета — соотношение гипотекста и гипертекста, амплификация и трансформация — раскрывает процессы воссоздания текста в произведении Джамии. В работе анализируется художественное расширение коранического текста, его стихотворная адаптация и превращение суфийских символов в новый смысловой слой в системе интертекстуальных взаимодействий. Такой подход демонстрирует, что поэма представляет собой сложную гипертекстуальную структуру, сформированную на многослойном источниковом поле.

**Ключевые слова:** интертекстуальность, гипотекст, гипертекст, амплификация, повествование о Юсуфе, традиция тафсира, суфийская интерпретация, Джамии.

### Kirish.

Yusuf qissasi eng ko'p qayta talqin qilingan syujetlardan biri hisoblanadi. Qur'onning o'n ikkinchi surasida ushbu qissa "ahsanul-qisas" sifatida mukammal bayon etilgandan keyin musulmon mutafakkirlar va shoirlar Yusuf obraziga ko'p murojaat qilganlar. IX–X asrlardan e'tiboran Qur'onni fors tiliga tarjima qilish va tafsir yozish an'anasining shakllanishi qissaning badiiy adabiyotga ko'chishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Tabariy, Atiq Nishopuriy va boshqa tafsirchilar matnga qo'shimcha sharhlar, rivoyatlar va tarixiy detallar kiritib, uni kengaytirilgan semantik maydonga aylantirdilar. Tasavvuf adabiyotida esa Attor, Suhravardiy va boshqa mutafakkirlar Yusuf qissasini ma'naviy komillik, ishq va ruhiy safarning ramzi sifatida talqin qildilar. Ular yaratgan irfoniy qatlam keyingi mualliflarga yangi badiiy imkoniyatlar ochdi.

Mana shunday diniy, tafsiriy va irfoniy asoslarga ega Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" dostoni forsiy masnaviychilikda alohida o'rin tutadi. Bu doston haqida olib borilgan tadqiqotlar ham oz emas. Tadqiqotchilardan Ye. Bertels, Ch. Ryo, Z. Safo, A. Xayyompur, X. Mirzozoda, A. Afsahzod, M. Piatrovskiy, A. Zuxuriddinov, S. Amirqulov, A. Quliyev, A. Sattorzoda, U. G'afforova, V. Elboyev, S. Azorabekov, B. Shernazarov asosan qissaning genezisi, manbalari va badiiy evolyutsiyasi masalalarini yoritishga harakat qilganlar [11, S.7]. M. Nizomov "Yusuf va Zulayxo" dostonini Qur'on qissasi, tasavvufiy talqinlar va forsiy masnaviychilik an'ansi asosida yaratilgan bir namuna sifatida o'rgangan [8, S. 62—68] bo'lsa, Aliakbar Somxoniyon va Abdulhakim Hamachizfahm Ro'diy mazkur dostonni Atorning "Mantiq ut-tayr" asari bilan qiyosiy tadqiq qilganlar [9, S. 139—170]. N.

Shodmonov esa “Gap Yusuf timsoli haqida borarkan, Attorning “Ilohiynoma” asarini chetlab o‘tib bo‘lmaydi” deb ta’kidlagan [10, B. 128 – 132].

Asar manbalari haqida bildirilgan fikrlar ham farq qiladi. Masalan, A. Mirzoyev Qur’onning mashhur tafsirlaridan biri – Atiq Nishopuriyning “Tafsiri Surobodiy” asari asosida Ahmad Jom tomonidan qisqartirib qayta ishlangan “Yusuf va Zulayxo” qissasi nashri muqaddimasida keltirilgan ma’lumotlarga tayanib, Jomiyning shu nomdagi dostoni mazkur qissaga yaqinligini ta’kidlaydi [1, S. 3 – 16]. Ye. Bertels esa “Jomiy dostonining manbalari masalasini hal etishda Ansoriyning “Anis ul-muridin va shams ul-majolis” asarini jalb qilish zarurligini” qayd etgan [2, S. 4–15]. Lekin qiyosiy tahlil diniy hikoyaning Jomiyga xos talqini faqat ayrim jihatlarni hisobga olmaganda hech bir diniy matnga yo qur’oniy tafsirga o‘xshamasligini, bu asarda u individualligini to‘la namoyish etganini ko‘rsatadi. Shu sababdan “Yusuf va Zulayxo” dostoniga ijodiy yondashuv asosida qayta yaratilgan asar sifatida qarashimiz lozim.

Asarni qayta yaratish jarayonida matnlar o‘rtasidagi uzluksiz muloqot, semantik ko‘chishlar, badiiy kengaytirish (amplifikatsiya), ramziy konsepsiyalarning chuqurlashuvi kabi intertekstual mexanizmlar faol ishlaydi. Shuning uchun Jomiyning dostonini intertekstual yondashuv asosida tadqiq etish uning badiiy tuzilishi, ma’no qatlamlari va qayta yaratish jarayonini aniqlash uchun muhimdir. Intertekstuallik nazariyasi XX asrda Yuliya Kristeva [5, S. 285] va Jerar Jenett [3, P. 508] kabi olimlar tomonidan ilmiy asoslangan. Bu nazariyaga ko‘ra, har bir yangi matn oldingi matnlar, rivoyatlar va ko‘p asrlik adabiy tajribalar bilan uzviy aloqada yuzaga keladi. Ya’ni matn muallifi o‘zidan oldingi manbalarga murojaat qiladi, ulardan ma’no yoki syujet unsurlarini qabul qiladi, qayta talqin qiladi yoki yangi ma’nolar yaratadi. Jumladan, Jenettning gipotekst–gipertekst modeli, amplifikatsiya, transformatsiya kabi kategorial qarashlari badiiy asarning qay darajada avvalgi manbalar bilan bog‘langanini, ularni qanday darajada qayta ishlanganini aniqlashda muhim metodologik platforma beradi. Ushbu nazariya Yusuf qissasining diniy matnlardan badiiy adabiyotga ko‘chishi, Jomiy tomonidan amalga oshirilgan qayta yaratish jarayonlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot maqsadi “Yusuf va Zulayxo” dostonidagi intertekstual qatlamlarni aniqlash, Jomiyning oldingi manbalardan qanday foydalangani, irfoniy talqinlarni qanday qayta ishlagani, syujet va obrazlar tizimiga qay darajada o‘zgartirishlar kiritganini tahlil qilishdan iboratdir.

Tadqiqot “Yusuf va Zulayxo” dostonining tuzilishi, intertekstual mexanizmlari, manbalar bilan aloqasini o‘rganishga qaratilgan.

Manba sifatida Qur’on va klassik tafsirlar (Tabariy, Atiq Nishopuriy), shuningdek, irfoniy matnlar va ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlardan foydalaniladi.

Tadqiqot mavzusini yoritishda intertekstual tahlil, qiyosiy tahlil usullari qo‘llaniladi.

### **Muhokama.**

Bevosita mavzu muhokamasiga o‘tadigan bo‘lsak, Abdurahmon Jomiy ijodida “Yusuf va Zulayxo” dostoni alohida o‘ringa ega bo‘lib, shoirning badiiy mahorati va ma’naviy qarashlarini eng ravshan tarzda namoyon qiladi. “Haft avrang” tarkibidagi bu masnaviy shoir yashagan davrning eng mashhur asarlaridan biri sifatida tanilgan. “Yusuf va Zulayxo” Jomiy ijodining puxta shakllangan yetuk davrini belgilaydi va uning she’rdagi badiiy salohiyati qay darajada yuksak ekanini namoyon qiladi. Asar tilining musiqiy ravonligi, ramziy obrazlarning boyligi va sufiyona tafakkurga xos ma’naviy bog‘lanishlar o‘ziga xos bir olam yaratadi. Jomiy ushbu doston orqali an’anaviy ishq qissasiga yangi ruh, yangi ma’no va chuqur irfoniy mazmun baxsh etgan. Yuqorida ta’kidlanganidek, Yusuf qissasi X asrda arab tilidan tarjima qilingan va bir necha bor nasriy va nazmiy talqin qilingan. Adabiyotlarda 9 asrda 150 dan ortiq “Yusuf va Zulayxo” nomli doston va qissalari yaratilgani haqidagi ma’lumotlar uchraydi. Xususan, eng mashhurlari qatorida Abulmuayyid Balxiy, Baxtiyoriy, Shahobiddin Am’aq, Shohin Sheroziy, Abdulloh Ansoriy va boshqalarning qissa va dostonlarini ko‘rsatish

mumkin. Garchi aksar tadqiqotchilar rad qilgan bo'lsalar-da hatto Abulqosim Firdavsiyning ham shu nomdagi dostoni borligi taxmin qilingan. Xuddi shuningdek, turli davrlarda turkiy adabiyotda ham shu mavzuda 50 ga yaqin asar ijod qilingan. Bu ma'lumotlardan keyin Jomiy asari bir til ichidagi navbatdagi sharh edimi, ijodiy vorisiylik mahsulimi, yo o'rta asrlar adabiyoti an'analari muvofiq boshqa shoirlar bilan musobaqalashish maqsadida asarni qayta yozish bilan o'z mahoratini sinab ko'rganmi degan savol tug'ilishi tabiiy.

Darhaqiqat, bu savollarga aniq javob berish qiyin, chunki Jomiyga "Yusuf va Zulayxo" dostoni adabiy va ma'naviy meros sifatida yetib kelgan. Shu jihatdan u vorisiylik xususiyatiga ega desak, xato bo'lmaydi: Jomiy ilgari mavjud bo'lgan elementlarni saqlab, ularni yangi ma'no va irfoniy tushunchalar bilan boyitgan. Bundan tashqari, Jomiy doston mazmun va mundarijasiga sezilarli o'zgarishlar kiritib, voqea va obrazlarni qayta talqin qilib, ko'p elementlar qo'shgan va asarda qayta yozish elementlari ham mavjud. Shu bilan birga, dostonda intermatnlilik alomatlari ham yaqqol seziladi, chunki u asliyatga ishora qiladi, iqtiboslar va allyuziyalar orqali boshqa matnlar bilan bog'lanadi. Shuning uchun bu dostonda bir vaqtning o'zida vorisiylik, qayta yozish va intermatnlilikning xususiyatlari bor degan xulosaga kelish mumkin.

Quyidagi jadvalda asosiy farqlar ko'rsatilgan.

1 jadval. Badiiy matn xususiyatlari

Jihat	Intermatnlilik	Qayta yozish	Vorisiylik
<b>Asosiy</b>	Havolalar, iqtiboslar, allyuziyalar (ishoralar), reminissensiya (eslatish) orqali boshqa matnlar bilan o'zaro aloqa.	Matn mazmuni yoki tuzilishiga o'zgarishlar kiritish, qayta ishlash.	Salaflar ishlariga asoslangan g'oyalar yoki an'analarni rivojlantirish.
<b>Maqsad</b>	Boshqa asarlar bilan bog'lanish orqali qo'shimcha ma'nolar hosil qilish.	Matn mazmunini moslashtirish, soddalashtirish, o'zgartirish.	Adabiy merosni keyingi avlodlarga yetkazish va rivojlantirish.
<b>O'zgarish darajasi</b>	Matn o'zgarmaydi, faqat "qayta talqin" sodir bo'ladi.	Mazmun va mundarijaga sezilarli o'zgarishlar kiritish.	O'tmishning elementlarini saqlab qolish va ijodiy yondashuv.

Jomiy dostonni yaratish paytida qaysi maqsadni ko'zlaganligi va qanday natijalarga erishganligini tahlil qilish uchun intermatnlilik yondashuvi muhimroq. Shoir foydalangan manba va doston syujetining qiyosiy tahlili biz mutlaqo boshqacha matn bilan yuzma-yuz bo'lganimizni ko'rsatadi. Intertekstuallik metodologik yondashuv sifatida adabiy asarning ungacha mavjud bo'lgan manbalar bilan munosabati, uning qayta yozilishi yoki qayta yaratilishi, shuningdek shakl va mazmunda ro'y beradigan badiiy o'zgarishlarni anglash imkonini beradi. XX asrda Yu. Kristeva va J. Jenett kabi tadqiqotchilar bu nazariyani takomillashtirib, har qanday asar alohida holda emas, balki oldingi matnlar, an'anaviy obrazlar va ma'naviy-madaniy tajribalar ta'sirida vujudga kelishini ta'kidlaganlar. Ulardan J. Jenettning "gipotekst-gipertekst munosabatlari, amplifikatsiya" tushunchalari alohida e'tiborni talab qiladi. Bu atamalarni qisqa sharhlaydigan bo'lsak, gipotekst — dastlabki manba va gipertekst — mazkur manba asosida yaratilgan yangi asar va amplifikatsiya — kuchaytirish yo kengaytirish degani.

Jomiy dostonida qaysi elementlar ko'proq ekanligini gipotekst va gipertekst tahlili asosida aniqlashtiramiz. Uch manba, ya'ni Qur'on qissasi, klassik tafsirlardagi rivoyatlar va Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" dostonidagi adabiy bayonining o'zaro farqi avvalo ularning

maqsadlari, bayon uslubi va qahramonlarga munosabatida namoyon bo'ladi. Qur'onning "Yusuf" surasida hikoya ixcham, mazmunan ravshan va hidoyatga yo'naltirilgan shaklda keltirilgan. Bu hikoyaning asosiy maqsadi saboq berish, ma'naviy poklikni ko'rsatish va insonni axloqiy yuksaklikka etaklashdir. Shu bois boshqa muqaddas matnlardagi tafsilotlar berilmagan, syujet ortiqcha bezaklarsiz, tarbiyaviy ruhda bayon etilgan. Zulayxonning ishq faqat fitna va sinov sifatida tilga olinadi. Markazda esa Yusufning pokligi, sabri va uning kamoloti jarayoni turadi.

Tafsirlarda esa manzara tamoman boshqacha shakl oladi. Tabariy, Atiq Nishopuriy va boshqa mufassirlar Qur'on rivoyatini kengaytirib, unga isroiliyot rivoyatlarini, nomlar, joylar, qo'shimcha hodisalar, dialoglar va boshqa detallarni qo'shganlar. Maqsad oyatlardagi noaniq o'rinlarni sharhlash, ma'nolarni ochish va kalomiy savollarga javob berishdan iborat bo'lganini taxmin qilishimiz mumkin. Ya'qubning o'tmishi, uning akasi bilan munosabati, bir shaxsning ikki qiziga uylanishi, farzandalarining dunyoga kelishi, Yusufning bolaligi, sotib yuborilishi, Misrga olib borilishi va bu jarayondagi ichki kechinmalari, bashoratlar va hokazo haqidagi tafsilotlarni aynan tafsirlar orqali bilib olamiz. Zulayxo ham tafsirlarda ko'p qirrali obrazga aylanadi: bir tafsirda oshiqi beqaror, boshqasida nafsi ammoraning timsoli sifatida talqin qilinadi.

Jomiy "Yusuf va Zulayxo" dostonini yaratishi jarayonida ulardan farq qiladigan boshqa yo'lni tanlaydi. U Qur'on hikoyasini ham, tafsir rivoyatlarini ham qayta takrorlamaydi, balki ulardan bir ilohiy manba sifatida foydalanib, yangi badiiy olam yaratadi. Jomiy uchun asarning asosiy qahramoni Yusuf emas, balki muhabbat orqali ma'naviy o'sish va kamolotga intilayotgan Zulayxo hisoblanadi. Jomiy asari Zulayxonning otasi uyidagi hayoti, tushlari, tushida Yusufni ko'rib sevib qolishi, majnunsifat o'ylari bilan boshlanadi va tushidagi bashoratlar uni Misrga olib boradi. Shundan keyingina faqat tushlarida ko'ringan Yusuf Zulayxonning ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Dostonda yangi qahramonlar, suhbatlar, voqealar, tushlar va sufiy ramzlar qo'shiladi; bunday badiiy tasvirlar va kompozitsiya na Qur'onida bor, na tafsirlarda. Uslubi ham tubdan boshqacha: bayon ramziy, timsoliy, oshiqona va tasavvufiy ruhda.

Eronlik tadqiqotchilar Aliakbar Somxoniyon va Abdulhakim Hamachizfahm Ro'diy mazkur dostonni Attorning "Mantiq ut-tayr" asari bilan qiyosiy tadqiq qilib, qiziq detallarga ishora qilganlar. Ularning fikrlariga qaraganda, Jomiy "Yusuf va Zulayxo" dostonida Zulayxonning ruhiy kamolot yo'lini shunday tarzda tasvirlaganki, u Attor "Mantiq ut-tayr"da bayon etgan – "Etti vodi" (talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tavhid, hayrat va faqru fanoga) ga o'xshaydi [9, B. 139—170]. Attor, G'azzoliy va Suhruvardiy kabi mutafakkirlar Yusuf obrazi orqali insonning botiniy kamolotini sharhlaganlar. Lekin Jomiy Zulayxonni solik maqomida ko'rishni xohlagan. Uning dostonidagi personajlar islomiy-irfoniy an'analar ta'sirida ma'naviy maqom va ramziy ma'nolar kasb etadi. Zulayxonning botiniy sayri ko'p jihatdan muridning komillikka intilgan yo'lini eslatadi; uning iztirob, muhabbat, holat va tavba marhalalaridan o'tishi tasavvufiy suluk bosqichlariga yaqin keladi. Yusuf esa so'fiy adabiyotidagi "nuri haqiqat" yoki "jamoli ilohiy"ni anglatuvchi timsol sifatida talqin qilinadi. Azizi Misr (Potifar) esa bir "vosita" vazifasini bajargan.

Endi gipotekst va gipertekst o'rtasidagi tafovutlarni qo'yidagi qiyosiy jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2 jadval. Gipotekst va gipertekst o'rtasidagi tafovutlar

№	Qur'on matni	Tabariy, Atiq tafsirlari	Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" dostoni	Tafovut
1	Qissa Yusufning tushi va bolaligidan boshlanadi	Ya'qubning o'tmishi, xotinlari, farzandlar	Doston Zulayxonning (otasi uyidagi) hayoti tasviri	Syujetni o'zgartirish

		mojarosi, isroiliyot detallari qo'shilgan	bilan boshlanadi	
2	Yusuf – asosiy qahramon	Yusuf obrazi keng sharhlanadi	Zulayxo – asosiy qahramon; Yusuf nur, ma'rifat ramzi	Asosiy qahramonlar o'rin almashishgan
3	Zulayxo haqida ma'lumot yo'q	Zulayxoning kelib chiqishi sharhlanadi	Zulayxo yoshligida Yusufni ko'rmay oshiq bo'ladi	Obraz kengaytirilishi (amplifikatsiya)
4	Zulayxoning tushi yo "ishoratdan bashorat" yo'q	E'tibor berilmaydi	Zulayxo tushda Yusuf nuriga oshiq bo'ladi	Simvolik epizod yaratilishi
5	Zulayxoning ishq faqat fitna va sinov sifatida	Zulayxo vasvasaga soluvchi ayol sifatida	Zulayxo ishq irfoniy kamolotning yo'li sifatida	Ramziy ifoda
6	Yusufning zindondagi hayoti ixcham	Zindon voqealari tartib bilan	Yusufning sabri va Zulayxoning ichki kechinmalari keng beriladi	Mazmun ma'rifiy
7	Potifar obrazi ko'rinmas darajada	Potifar oqil, adolatpesha mansabdor	Potifar ikkinchi darajali obraz darajasida	Obraz funksiyasi o'zgarishi
8	Yusuf va Zulayxo nikohi yo'q	Tafsirlarda ehtimol sifatida	Nikoh dostoni – irfoniy vasl	Syujet yakunlanishini qayta yaratish
9	Zulayxonning tavbasi yo'q	Tafsirlarda bor	Zulayxo – ma'rifat topuvchi sifatida	Ruhiy syujet qavati yaratish
10	Yusuf go'zalligi tasvirlanmaydi	Jismoniy sifatleri tasvirlanadi	Yusuf nur, karomat, ilohiy joziba sifatida	Ideallashtirish (transfiguratsiya)
11	Yusufning hukumatga kelishi tarixi	Mufassal berilgan	Ilohiy nurning mukofoti kabi talqin	Teologik voqeani irfoniylashtirish
12	Syujetda diniy ibrat asosiy	Sharh va ma'no chiqarish asosiy	Ishq va ma'rifat markazda	Yangi g'oya ilgari surilgan
13	Ya'qubning o'tmishi berilmaydi	Isroiliyot sifatida berilgan	Jomiy bu tafsilotlarni ishlatmaydi	Manba tanlash va qisqartirish
14	Zulayxoning qarib qolishi yo'q	Tasvirlangan	Jomiyda — ishqning qurboni, ruhiy holat	Tasavvufiy simvol yaratish (faqr)
15	Yusuf va Zulayxo munosabati ilohiy ibrat	Tafsirlarda ilohiy ibrat sharhlangan	Ishq orqali poklanish modeli	Yangi ma'no qavati ko'rsatiladi
16	Qahramonlar psixologiyasi	Izohlar bor	Psixologizm — o'y-xayollari va	Janriy tabiati o'zgarishi

	berilmagan		ichki kechinmalarga boy	
17	Tafsilotlar qisqa	Kengaytirish kuzatiladi	Badiiy-lirik masnaviyga xos uslub	Janr transformatsiyasi
18	Asarning g'oyasi — sabr, ibrat	Axloqiy sharh	Asarning g'oyasi — ishq orqali ma'rifat	Motivatsion yadroni almashtirish

Jomiy asariga nisbatan eng to'g'ri ta'rif shundan iboratki, u Qur'on qissasini ham, tafsir tafsilotlarini ham aynan takrorlamaydi, balki ularni o'zining badiiy fikri uchun intertekst manbai sifatida qo'llaydi. Bu holat Jenett ta'kidlagan transformatsiya tushunchasiga to'la mos keladi. Janr nuqtai nazaridan ham Jomiyning asari keskin farq qiladi. Qur'on muqaddas matn bo'lsa, tafsir uni sharhlashga qaratilgan. Jomiy esa hikoyani tasavvufiy masnaviy janrga ko'chiradi. Bu o'zgarishning o'ziyoq hikoyaning endi boshqa maqsadga xizmat qilishini va yangi ma'naviy ufq ochishini ko'rsatadi.

Jomiy intermatnlilikning muhim sharti hisoblanadigan boshqa asarlar bilan bog'lanish orqali qo'shimcha ma'nolar hosil qilish masalasida ham katta mahorat ko'rsatgan. Doston oxirlarida har kuni Yusuf yo'lini poylaydigan Zulayxo o'ziga nay (qamish) dan uy bino qilgani haqidagi epizod bor:

<i>Jomiy</i>	<i>Ogahiy tarjimasi</i>
<i>Zulayxoro zi tanhoiy chu jon kost, Ba rohi Yusuf az nay xonae soxt. Bad-o' kardand naybaste havola, Chu Musiqor purfaryodu nola. Chu kardi az judoyi nola og'oz, Judo barxosti az har nay ovoz... [12, S. 218]</i>	<i>Zulayxo istadi bir uy muhayyo Qilib, Yusuf yo'lida aylagay jo. Oni nay uyga qildilar havola, To'la andoqki Musiqor nola. Agar hijrondin etsa nola og'oz, Chiqor erdi judo har naydin ovoz... [4, B. 229]</i>

Bu misralar Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy" sini esga soladi. Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" si ham, Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" dostoni ham tasavvufiy fikrning asosiy ustunlaridan biri bo'lgan vahdat ul-vujud ta'limoti ruhida yaratilgan. Bu ta'limot mavjudotning asl mohiyati bitta ilohiy Zotga taalluqli ekanini, olamdagi barcha jonli va jonsiz ko'rinishlar esa o'sha yagona Haqiqatning turli xil in'ikoslari ekanini ta'kidlaydi. So'fiy shoirlar esa ana shu g'oyani tarannum etganlar.

<i>Rumiy</i>	<i>Jamol Kamol tarjimasi</i>
<i>Bishnav az nay chun hikoyat mekunad, Az judoyiho shikoyat mekunad, K-az nayiston to maro bibridaand, Az nafiram mardu zan nolidaand. Sina xoxam sharha - sharha az firoq, To bigo'yam sharhi dardi ishtiyog, Har kase,k-o' dur mond az asli xesh, Boz jo'yad ro'zgori vasli xesh.... [7, C. 21]</i>	<i>Tingla naydin, chun hikoyat aylagay, Ayriliqlardin shikoyat aylagay. Men qamish erdim, kesib keltirdilar, Nola cheksam, el hama oh urdilar. Siyna istarmen to'lo dardu firoq, Toki so'yay sharhi dardu ishtiyog. Kim yiroq tushsa, yo'qotsa aslini, Boz izlar ro'zgori vaslini... [6, B. 18]</i>

Endi tahlil natijalariga qarab nima uchun Jomiy asari intertekstual tahlilni talab qiladi degan savolga quyidagicha javob berishimiz mumkin:

1. Jomiy dostoni oldingi matnlar bilan uzviy bog'langan. U katta bir ma'naviy-adabiy an'analar tizimiga ulangan.

2. Shoir oldingi manbalarni takrorlamaydi; u yangi bir asar yaratadi. Intertekstual tahlil aynan shu jarayonni ochadi.

3. Intertekstual tahlil va qiyosiy tahlilda matnlar o'rtasidagi semantik ko'chishlar, o'zgarishlar, yangi ramzlar paydo bo'lishi aniq ko'rinadi.

4. Amplifikatsiya — Jomiy keng foydalangan usul. Qur'onda qisqa berilgan joylar Jomiy tomonidan kengaytirilib, tasvir, tuyg'u va irfoniy ramzlar bilan boyitilgan.

5. Intertekstual yondashuv aynan qur'oniy, tafsiriy, irfoniy, ijodiy qatlamlarning o'zaro bog'lanishini aniq va tizimli ravishda ko'rsatib beradi.

#### **Xulosa.**

Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" dostoni intertekstual yondashuv asosida tahlil etilganda, asarning ko'p qatlamli tuzilishi, manbalar bilan uzviy aloqasi va qayta yaratish jarayoni yaqqol ko'zga tashlanadi. Qur'oniy gipotekst, tafsiriy kengaytirish va tasavvufiy talqinlar ustma-ust qavatlar sifatida Jomiy badiiy tafakkuri uchun asosiy ma'naviy manba bo'lib xizmat qilgan. Lekin shoir bu manbalarni ayni holda takrorlamaydi; ularni yangi estetik va irfoniy mazmunda qayta talqin qilib, gipertekst sifatida mustaqil, mukammal va individual asar yaratadi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, Jomiyning dostonida amplifikatsiya, transformatsiya, ramziy ifodalash va ma'no ko'chishi kabi intertekstual mexanizmlar faol ishlaydi. Qur'onda qisqa, tarbiyaviy ruhda kelgan hikoya Jomiyda lirik, tasavvufiy va irfoniy qiyofa kasb etadi; Zulayxo obrazi esa o'quvchi ko'z o'ngida salbiylikdan ijobiylik tomon o'zgaradi. Yusuf timsoli nur, jamol va ilohiy haqiqatning timsoli sifatida qayta yaratiladi, Potifar va boshqa personajlar esa tasavvufiy ramzlar tizimida yangi ma'no qavatiga ega bo'lishadi.

Jomiy matnining Rumi, Attor, Suhravardiy va irfoniy adabiyot bilan bog'liq allyuziya va ramzlari mazkur dostonning boshqa asarlar muloqotga kirishuvchan matn ekanini isbotlaydi. Ayniqsa nay (qamish) ramzining keltirilishi, Zulayxonning ruhiy sayrining "Yetti vodiy" sayri sulukiga yaqinligi, ishqning so'fiylarga xos talqini asarning intertekstual mantig'ini kuchaytiradi.

Shu tarzda, tadqiqot natijalari Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" dostoni oddiy qayta bayon yoki an'anaviy sharh emas, balki manbalar bilan uzluksiz muloqotda yaratilgan, jadal qayta ishlangan va yangi ma'naviy-badiiy olam yaratuvchi gipertekst ekanini ko'rsatdi. Intertekstual tahlil ushbu asarning ichki kompozitsiyasi, syujet transformatsiyalari va irfoniy semiotikasini yaxlit tizim sifatida anglash imkonini berdi. Bu hol Jomiyning nafaqat an'anani davom ettirgan shoir, balki uni yangi badiiy va ma'rifiy bosqichga olib chiqqan mutafakkir sifatida namoyon etadi.

### Iqtiboslar/Сноски/References

1. Аҳрорӣ, З. Достони ҳасрат ва васлат. // Абдурахмони Чомӣ. *Юсуф ва Зулайхо* (достон). – Душанбе: Адиб, 2014. – С. 3 – 16.
2. Ворожейкина, Н. Вставные рассказы в романе Абдаллаха Ансари... // *Палестинский сборник*, № 21. – Москва, 1970. – С. 4–15.
3. Gérard Genette. *Palimpsests: Literature in the Second Degree*. Trans. by C. Newman & C. Doubinsky. Lincoln: University of Nebraska Press, 1997. – 508 p.
4. Жомий, Абдурахмон. *Юсуф ва Зулайхо / Огаҳий таржимаси*. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – 229 б.
5. Кристева, Ю. *Семиотика: исследования по семанализу*. Пер. Э. Орлова. – Москва: Академический проект, 2013. – 285 с.
6. Мавлоно Жалолоддин Румий. *Маснавийи маънавий. Биринчи китоб*. Форсийдан Камол Ж. таржимаси. – Тошкент: Фан, 2005. – 392 саҳ.
7. Мавлоно Чалолуддин Муҳаммади Балхӣ. *Маснавию маънавӣ: Дафтарҳои аввал ва дувум*. – Душанбе: Адиб, 2013. – 480 саҳ.
8. Низомов, М. Some considerations about the sources of Abd ar-rahman Jami's "Yusuf and Zulaikha" poem. // *Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Гуманитарные науки*, 1 (42), 2015, Б. 62–68.
9. علی اکبر سام خانیانی و عبدالحکیم همه چیز فهم رودی. فروپاشی ایدئولوژی و دگر دیسی شخصیت زلیخا در تطبیق روایت یوسف و زلیخای جامی و منطق الطیر عطار. // *مطالعات عرفانی، پاییز و زمستان ۱۴۰۱، شماره ۳۶*. 170 — 139 ص—
10. Шодмонов, Нафас. «Илоҳийнома» да Юсуф образи // *Шарқ юлдузи*. – Тошкент, 2018. – № 1. – Б. 128–132.
11. Ширинова, Бахтиниссо. *Поэтикаи достони «Юсуф ва Зулайхо» -и Абдурахмони Чомӣ*. Автореферат. – Душанбе, 2023.
12. Чомӣ, Абдурахмон. *Юсуф ва Зулайхо* (достон). – Душанбе: Адиб, 2014. – 268 с.

# TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

**Xadjimusayeva Nilufar,**

JDPU dotsenti,

Jizzax davlat pedagogika universiteti,

Jizzax, O'zbekiston

[xadjimusayevanilufar@gmail.com](mailto:xadjimusayevanilufar@gmail.com)

## DOSTONLARDA GUL SO'ZINING SEMANTIK TABIATI

 [10.5281/zenodo.19159231](https://doi.org/10.5281/zenodo.19159231)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola o'zbek dostonlarida "gul" so'zining semantik qatlamlari va madaniy-ma'naviy mazmunini chuqur o'rganishga bag'ishlangan. Gul so'zi xalq adabiyotimizda nafaqat oddiy tabiiy obyekt sifatida emas, balki ramziy ma'nolarni ifodalovchi muhim leksik birlik maqomiga ega. Tadqiqot dostonlardagi gul so'zining ko'p qirrali semantik tabiatini ochib beradi va uning xalq madaniyatidagi o'rnini belgilaydi. Ilmiy tahlil klassik va zamonaviy yondashuvlarni birlashtiradi. Semantika tilshunoslikning muhim bo'limi bo'lib, so'zlarning ma'nosi va ularning kontekstga bog'liqligini o'rganadi. Bu ilmiy yo'nalish so'zlarning qanday qilib turli vaziyatlarda turli mazmunlarni ifoda etishini tahlil qiladi.

**Kalit so'zlar:** semantika, leksika, so'zshakl, subyektiv baho shakli, poetik struktura.

**Khadjimusayeva Nilufar,**

Associate Professor at JDPU,

Jizzakh State Pedagogical University,

Jizzakh, Uzbekistan

[xadjimusayevanilufar@gmail.com](mailto:xadjimusayevanilufar@gmail.com)

## SEMANTIC NATURE OF THE WORD "GUL" IN EPICS

### ABSTRACT

This article is dedicated to an in-depth study of the semantic layers and cultural-spiritual content of the word "gul" (flower) in Uzbek epics. In our folk literature, the word "gul" holds the status of an important lexical unit, expressing not only a simple natural object but also symbolic meanings. The research reveals the multifaceted semantic nature of the word "gul" in epics and determines its place in folk culture. The scientific analysis combines classical and modern approaches. Semantics is an important branch of linguistics that studies the meaning of words and their dependence on context. This scientific field analyzes how words express different meanings in various situations.

**Keywords:** semantics, lexicon, word form, subjective evaluation form, poetic structure.

Хаджимусаева Нилуфар,  
 доцент ДГПУ,  
 Джизакский государственный педагогический университет,  
 Джизак, Узбекистан  
[xadjimusayevanilufar@gmail.com](mailto:xadjimusayevanilufar@gmail.com)

## СЕМАНТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА СЛОВА “ГУЛ” В ЭПОСАХ

### АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена глубокому изучению семантических пластов и культурно-духовного содержания слова “гул” (цветок) в узбекских дастанах. Слово “гул” в нашей народной литературе обладает статусом важной лексической единицы, выражающей не только обычный природный объект, но и символические значения. Исследование раскрывает многогранную семантическую природу слова “гул” в дастанах и определяет его место в народной культуре. Научный анализ объединяет классический и современный подходы. Семантика является важным разделом лингвистики, изучающим значение слов и их зависимость от контекста. Это научное направление анализирует, как слова выражают различные смыслы в разных ситуациях.

**Ключевые слова:** семантика, лексика, словоформа, форма субъективной оценки, поэтическая структура.

“Orzigul” dostonida badiiy-estetik jihatdan muhim o‘rinni egallagan til birliklaridan biri *gul* so‘zidir. Ushbu birlik 53 ta so‘zshakl tarkibida 443 marta qo‘llangani ham uning salmog‘idan dalolat beradi. To‘g‘ri, uning 320 tasi Orzigul so‘zi tarkibida kelgan, bu 72% ni tashkil etadi. Ammo qolgan 28% so‘z, shuningdek, Orzigul tarkibidagi *gul* elementi ifodalagan ma‘nolar mazkur birlikning leksik-semantik va funksional-stilistik imkoniyatlarini epik asarlar matnida yoki bir baxshi ijodi misolida tasavvur qilishimizga yordam bera oladi.

Birinchi navbatda, so‘z o‘z ma‘nosida, ya‘ni o‘simlik turlaridan biri sifatida voqealar sodir bo‘layotgan joy tasvirining real manzarasini yoritishda qatnashadi: *Bir kun Orzigul bog‘da, gullar orasida sochini o‘rib, ekilgan nihol gullarni ko‘rib, yakka-yakka oyog‘ini bosib, mushku anbar – ipor sochib, tilla haykallarni osib, gul yuziga ular munosib, bog‘ning ichida yurgan vaqtida...* (270); *Tevarakda gullar ochilgan, to‘tilar, bulbullar sayrab turgan* (286).

So‘zning onomastik elementlar tarkibida kelishi tilimizda qadimdan ma‘lum. Doston matnida ham bu holat kuzatiladi va ismlar tarkibida subyektiv baho shakli sifatida ishtirok etadi: *Orzigul, Barnogul, Pattigul, To‘tigul, Gulruksor: Sen ekansan yaxshi qushlar go‘yosi, Otim Orziguldir, To‘tigulning bolasi, Ernazardir men sho‘rlining otasi* (287); *Pattigul olib keldi seni ko‘tarib, SHunda uch kunlik o‘g‘limiz bor edi, Olib keldi Barnogulning qizini* (276); *Asli egasini so‘rasang, Gulruksor paridan qolgan* (287) kabi.

*Gul* so‘zi ismlar tarkibida «qotib qolgan»ligi ma‘lum darajada uning baholash kuchini susaytirgani bois Islom shoir ayrim holatlarda sub‘ektiv baho shakllarini qavatlangan holda ishlatadi: *Orzi+gul – Orzigul+oy – Orziguloy+im, Orzigul pari: Ikkovi bir-birin vaqtin xushlab, dol belidan Suvonxon ushlab, Orziguloy zulfini tishlab* (325); *Sarimiroxo‘r keldi desangiz, Balki tanir Orziguloy o‘zimni* (367); *Bersin menga, deydi Orziguloyim, O‘n to‘qqiz xazina to‘la pulini* (369); *Oshiq bo‘lgan u Orzigul pariga* (371) kabi.

Kishi ismlarida sub‘ektiv baho shakllarining qavatlanishi so‘zlashuv uslubiga xos xususiyat bo‘lib, bu an‘ana xalq og‘zaki ijodi namunalariga ham ko‘chgan. Bu holat, ayniqsa, *gul* so‘zining stilistik formulalar tarkibida kelishida yaqqol namoyon bo‘ladi: *Sevib olgan nozli yoring gul bo‘lsin, Dushman kishi bu dunyoda yo‘q bo‘lsin* (296); *Tush vasliga kishi guldek so‘lami? Hasratidan endi to‘rang o‘lami?* (290); *Tor ochilgan gulzor bog‘im, Suvlidir*

*serob bulog'im (303); Ko'karib lolalar fasli gul bo'lsin, Suyganlaring qo'sh kokilli ul bo'lsin (341); Bulbulning oshig'i qizil gul bo'lar, Mehr tortib ikki oshiq bir bo'lar (343); Xazon qilgan bog'da g'uncha gulimni, Ko'rmoqchiman o'zim jonu dilimni (353); – E ota, men sizning qulingizdirman, chamanda ochilgan gulingizdirman, bir yolg'iz o'g'lingizdirman (288) kabi.*

O'zagi gul bo'lgan o'rin-joy otlarining matnda uchrashi ham Islom shoirning mazkur so'zga munosabati alohida bo'lganligidan dalolat beradi: *Ham gulistonni ko'rolmassan, sultonim, Ham qo'lingdan ketar taxti elating (318); Men sendan so'rayman, Ernazar bog'bon, Gulistonday Orzijonni naylading? (316); Boring, beklar, to'g'ri Gulban saroyga, Bir savdogar kelgan emish u joyga (338); YAsovlboshilar tezda Gulban saroyga etib keldilar (338) kabi.*

Eng muhimi, ushbu birlik Islom shoir tilida poetik vosita sifatida o'zining badiiy-estetik salohiyatini namoyon eta olgan. Jumladan, gap ichidagi gul so'zining turli shakl hamda turli o'rinlarda takrorlanishi uni tasvir markaziga ko'chirgan, doston aytishda maromni ta'min etgan, ifodaga joziba baxsh etgan va shu yo'l bilan tinglovchiga ta'sir etishning o'ziga xos yo'lini topgan: *Bog'imda ochilgan gul bilan gulzor, Ularning ichida bo'ldim beqaror (279); Otim Orziguldir, gul yuzli dilbar, Bu boshima rahbarsizdir, muqarrar (279); El deganda quvonadi, YOr deb gulgul yonadi (298); Qaytadan salomat keldingiz, Guli gulzor bu diyorga, Qoyil bo'ldim uchar qushga (324); Orzigul der, gul yuzligim, Menman ko'zlari so'zligim (335); O'zini bilgan donodi, YOr gapiga gul-gul yonadi (335).*

Ushbu so'z ifodada o'xshatish ob'ekti bo'lib keladi va baxshi uchun eng e'zozli bo'lgan obrazlar yoki ularning siymosi gulga o'xshatiladi: *SHu dunyoda bir armonim bor edi, O'ynasam der edim senday gul bilan (301); Bu dunyoda bir armonim shu edi, O'ynasam der edim senday gul bilan (301); Ba'zi choqlar zor qilasan izingga, Og'zim qo'ysam, bolam, gulday yuzingga (292) kabi.*

Inson va gul qiyosi, birinchidan, dostonchilikka xos bo'lgan go'zal va betakror iboralarning yuzaga kelishiga asos bo'lgan. Masalan, *gul yuzli dilbar, gul yuzli yor* jumalari faqat doston aytishda qo'llanadi: *Bog' ichida bir gul yuzli dilbarni ko'rди (270); YArım oqshom o'tgandan keyin bir gul yuzli dilbar uning tushiga kiribdi (288); Menga qo'ysang, Suvonjon, ixtiyordi, O'nta ob berayin gul yuzli yordi (313).* Ikkinchidan, Islom shoir badiiy tafakkurida yoqimli metaforaga aylangan. Ammo bu metafora hammaga nisbat berilmaydi. U faqat sevimli kishiga – farzand yoki mahbubagagina munosib. Masalan, Suvonxon Orzigulga qarata: *Fotiha ber, gulim, bizga, Yigirma uch kun deganda Etib kelarman sizga (305),* deydi. Yoki Orzigul tilidan: *Men oshiqman kokilingga, Bir gulman, tushdim qo'lingga, Hayda, aylanay elingga (335).* Dilmurod tilidan: *Qulay kelsa, tashlab menday o'g'lingni, Qon yig'latib olib ketar gulingni (344); Oqtosh degan bog'ning o'zim guliman, So'ylashga otamning suchuk tiliman (371) kabi.*

Dostonchilik an'anasida gul leksemaning istioraviy qo'llanishi bu bilan chegaralanib qolmaydi. So'z o'ziga ajoyib, qizil, nozli singari munosib epitetlar oladi va badiiy tasvirning tengsiz namunalarini yaratiladi: *Bog'dan bir ajoyib gulning isi podshoning dimog'iga urdi (270); Qizil gulni, bobo, sizdan so'rayman, Qo'lingdagi bola kimning farzandi? (365); Sira boqmay sog'i bilan so'liga, Tomosha qib turdi nozli guliga (332) kabi.* Mana shu ma'noda quyidagi perifrastik jumlar dostonidagi eng yaxshi ifoda namunalarini sanaladi: *Oshiq gul bo'lmasin yo'lingda hayron, Dol bo'yingga sadaqadir xasta jon (306); Bulbullar sog'inar Iram gulini, Jo'r qiladi gul shoxida tilini (368) kabi.*

Epitet vazifasini bajaradigan toza elementi esa doston aytishdagi «xos epitetlar» sifatida baholanadi. Chunki boshqa biron bir matnda toza gul metaforik birikmasi bu qadar e'tibor qozonmagan. Mana uning eng go'zal namunalarini: *Bog'bon bo'lib tergin toza gulingni, Kambag'alsan, xo'b bilaman holingni (269); Bulbul yaxshi ko'rар toza gulingni, Xosxona der poytaxtli elingni (272); Taralgan, ochilgan bu toza gullar, Sayrab turgan chaman uzra*

*bulbullar* (286); *Quloq soling, menday bobo tiliga, Siz ham oshiqmisiz shu toza gulga?* (318) kabi.

Mumtoz she'riyatda eng e'tiborli narsalarning gulga o'xshatilishi, ayni paytda, til elementlarini qo'llashdagi tejamkorlik mazmunan o'xshatish, shaklan epitet bo'lgan birikmalarni paydo qiladi. Uning dostonlar matnidagi eng faol ko'rinishi *gul yuz* birikmasidir. "Orzigul"da bu birikmaga 22 marta murojaat etilgan: *Jom kosangni qo'lga olgin, gul yuzli, Olib kelgin suvni o'ynar qo'l bilan* (301); *Gul yuzligim, sarvi sanobar qomat, Ota-enang senga berdimi ruxsat?* (315); *Birini ko'zlab, o'nin boshin olaman, Javob ber, gul yuzli, o'zim boraman* (321); *Gul yuzima men ro'molni o'rayman, Oshiqlikka avval-oxir yarayman* (343) kabi. **Aslida gul va yuz birikuvini o'xshatish vositasi yordamida sodir bo'ladi: Na bo'ldi deb, Orzi oldi tiziga. Telmurib qaraydi gulday yuziga** (327).

Ikkinchi bosqichda tejamkorlik tamoyiliga ko'ra o'xshatish vositasi tushirib qoldiriladi va *gul* elementi *yuz* so'zining poetik, ya'ni metaforik aniqlovchisiga aylanadi: *Sochin yozib, gul yuzini o'ygandi, Gul yuziga yuzin eltib qo'ygandi* (327); *Duxoba ko'rpachaga o'rab, gulday yuziga qarab, bag'riga bosdi* (343) singari.

Uchinchi bosqichda *gul yuzli dilbar* (270, 279, 288, 325), *gul yuzli yor* (313) birikmalarida *gul yuz* birikmasi turg'unlik kasb etadi va yaxlit holida epitetga aylanadi: *Bog' ichida bir gul yuzli dilbarni ko'rdi* (270); *Menga qo'ysang, Suvonjon, ixtiyordi, O'nta ob berayin gul yuzli yordi* (313). Ular bir-biridan ajratilganda, bu vazifani bajarish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

To'rtinchi bosqichda shu tamoyil asosida aniqlanmish ham tushib qoladi va poetik aniqlovchi uning vazifasini to'laligicha o'z zimmasiga oladi: *Bir kosa suv olib bergin, gul yuzli* (301); *Jom kosangni qo'lga olgin, gul yuzli* (301); *Ne sababdan avval kulding, gul yuzli, Qaytib kelib, menga boqib yig'laysan? Ne sababdan avval kulding, gul yuzli, Hozir nega xafa bo'lib yig'laysan?* (319) kabi.

Ayrim o'rinlarda *yuz* o'rnida *bet* ma'nodoshining qo'llanishi ifodaning ekspressiv kuchiga zarracha salbiy ko'rsatmaydi: *Yig'lab kelib jasadimni topasan, G'animat deb, gul betimdan o'pasan* (349); *Gul* so'zining *siyna*, bo'y elementlari bilan birgalikda hosil qilgan *gul siyna*, *gul bo'y* birikmalari ham Islom shoir badiiy tafakkurining eng go'zal namunalari: *Ikkam to'qson qo'rg'onni men so'rayman, Kimlar sening gul siyningga dog' qo'ydi* (291); *G'arib enang gul bo'yingdan sadag'a, Oqtoshning sohibi, bolam, yo'l bo'lsin?* (296) kabi.

Va nihoyat *gul* yana bir muhim tasviriylik vazifasini ado etadi – baxshi tilidan quyilib kelayotgan misralar oqimining poetik strukturasi *gulingni – elingni – Orzigulingni, norimni – guluzorimni* tarzida qofiyani, ohangdorlikni ta'min etuvchi vositalar, tasvir kompleksidagi muhim elementlardan biri bo'lib qoladi: *Bulbul yaxshi ko'rar toza gulingni, Xosxona der poytaxtli elingni, Podshomiz bizlarni senga yubordi, Xonimizga bergin Orzigulingni* (272); *Uch oy bo'ldi men yitirdim norimni, Izlab toparkanmi guluzorimni?* (318) singari.

"Orzigul"dagi birgina so'z tahlili doston kuylash an'anasida maxsus tayanch so'z va iboralarning mavjudligini, ulardan biri *gul* va unga bog'liq ravishda yuzaga kelgan turg'un birikmalar ekanligini ko'rsatadi. Ushbu so'zni qo'llashga bo'lgan ehtiyoj unda polisemantik ma'no taraqqiyotining yuz berishi, binobarin, badiiy tasvirning doston aytish uslubiga mos keladigan san'atlarning, turg'un iboralarning yuzaga kelishiga turtki bo'lgan. Atoqli shoirimiz E.Vohidov aytganidek: «Adabiy ijod hamisha So'z olamiga sayohatdir. Ijodkor So'zni tirik jon deb biladi va So'z bilan so'zlashadi». Islom shoir ham xuddi shunday so'zlardan mohirona foydalanib, "Orzigul" dostonini dunyoga keltirgan.

### Iqtiboslar/Сноски/References

1. Каримов С. Ўзбек тилининг фонетик стилистикаси. Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2016. – Б. 51.( Karimov S. O‘zbek tilining fonetik stilistikasi. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashri, 2016. – B. 51.)
2. Жирмунский В., Зарифов Х. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ГИХЛ, 1947. – С. 444. (Jirmunskiy V., Zarifov X. Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos. – Moskva: GIXL, 1947. – S. 444.)
3. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 28-29.( Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 28-29.)
4. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. – Б. 124.( Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2002. – B. 124.)
5. Элтазаров Ж. Тилдаги тежамкорлик тамойиллари ва қисқарув. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2004. – Б. 51. (Eltazarov J. Tildagi tejamkorlik tamoyillari va qisqaruv. – Samarqand: SamDU nashri, 2004. – B. 51.)
6. Ўринбоев Б. Ўзбек сўзлашув нутқи. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 133.( O‘rinboyev B. O‘zbek so‘zlashuv nutqi. – Toshkent: Fan, 1982. – B. 133)
7. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент, 2007. – Б. 40.( Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent, 2007. – B. 40.)
8. Э.Воҳидов. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – Б. 7.( E.Vohidov. So‘z latofati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – B.)

# TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

**Hamroyev Ilg'or,**  
assistant o'qituvchi  
SamDU Urgut filiali  
[ilgarhamrayevi@gmail.com](mailto:ilgarhamrayevi@gmail.com)

**Zaribboyeva Guloyim,**  
talaba  
SamDU Urgut filiali  
[zaripovsherxon4@gmail.com](mailto:zaripovsherxon4@gmail.com)

## TILNING JAMIYATDAGI IJTIMOY VAZIFALARI



[10.5281/zenodo.19159278](https://doi.org/10.5281/zenodo.19159278)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola tilning jamiyatdagi ijtimoiy vazifalarini o'rganishga bag'ishlangan. Til inson hayotida nafaqat muloqot vositasi sifatida, balki jamiyatni birlashtiruvchi, madaniyat va qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazuvchi vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Maqolada tilning shaxs va jamiyat hayotidagi roli, uning madaniyatni saqlash va rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, til yordamida shaxsning jamiyatga integratsiyasi, ijtimoiy boshqaruv va axborot tarqatishdagi funksiyalari ham yoritilgan. Maqola tilning nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki jamiyat rivoji va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi kuch ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari tilni hurmat qilish va rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi hamda uni jamiyat hayotida asosiy ijtimoiy vosita sifatida qadrlash lozimligini isbotlaydi.

**Kalit so'zlar:** Til, jamiyat, ijtimoiy vazifa, muloqot, madaniyat, tilning ijtimoiy funksiyalari, shaxsning jamiyatga integratsiyasi, kommunikatsiya, axborot almashinuvi, madaniy meros, urf-odatlar, qadriyatlar, til va madaniyat, til va ijtimoiy boshqaruv, kommunikatsiya vositalari.

**Hamroev Ilg'or,**  
assistant teacher  
SamDU Urgut branch  
[ilgarhamrayevi@gmail.com](mailto:ilgarhamrayevi@gmail.com)

**Zaribboyeva Guloyim,**  
student  
SamDU Urgut branch  
[zaripovsherxon4@gmail.com](mailto:zaripovsherxon4@gmail.com)

## SOCIAL FUNCTIONS OF LANGUAGE IN SOCIETY

### ABSTRACT

This article is devoted to the study of the social functions of language in society. Language is of great importance in human life not only as a means of communication, but also as a means of uniting society, transmitting culture and values from generation to generation. The article analyzes the role of language in the life of the individual and society, its importance in the preservation and development of culture. It also covers the functions of language in the integration of the individual into society, social management and information dissemination. The article shows that language is not only a means of communication, but also a force that ensures the development of society and social stability. The results of the study emphasize the need to respect and develop language and prove that it should be valued as the main social tool in the life of society.

**Keywords:** Language, society, social function, communication, culture, social functions of language, integration of the individual into society, communication, information exchange, cultural heritage, traditions, values, language and culture, language and social management, means of communication.

**Хамроев Илгар,**  
ассистент учителя  
Самду ургутский филиал  
[ilgarhamrayevi@gmail.com](mailto:ilgarhamrayevi@gmail.com)

**Зарипбаева Гулоим**  
Студент  
Самду ургутский филиал  
[zaripovsherxon4@gmail.com](mailto:zaripovsherxon4@gmail.com)

## СОЦИАЛЬНЫЕ ФУНКЦИИ ЯЗЫКА В ОБЩЕСТВЕ

### АННОТАЦИЯ

Статья посвящена изучению социальных функций языка в обществе. Язык имеет большое значение в жизни человека не только как средство общения, но и как средство объединения общества, передачи культуры и ценностей из поколения в поколение. В статье анализируется роль языка в жизни личности и общества, его значение в сохранении и развитии культуры. Также рассматриваются функции языка в интеграции личности в общество, социальном управлении и распространении информации. В статье показано, что язык является не только средством общения, но и силой, обеспечивающей развитие общества и социальную стабильность. Результаты исследования подчеркивают необходимость уважения и развития языка и доказывают, что его следует ценить как главный социальный инструмент в жизни общества.

**Ключевые слова:** Язык, общество, социальная функция, коммуникация, культура, социальные функции языка, интеграция личности в общество, коммуникация, обмен информацией, культурное наследие, традиции, ценности, язык и культура, язык и социальное управление, средства коммуникации.

### **Kirish.**

Til insoniyatning eng muhim ijtimoiy vositalaridan biri bo'lib, nafaqat odamlar o'rtasidagi muloqotni ta'minlaydi, balki jamiyatning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy hayotida ham muhim rol o'ynaydi. Til orqali odamlar fikr, his-tuyg'u va bilimlarni boshqalar bilan baham ko'radi, shu bilan birga madaniyat va qadriyatlarni avlod-dan-avlodga yetkazadi.

Jamiyatda tilning roli juda keng: u shaxsning ijtimoiy integratsiyasi, kommunikatsiya jarayonlari, axborot tarqatish va boshqaruv tizimlarining samarali ishlashini ta'minlaydi.

Tilning ijtimoiy vazifalari shaxs va jamiyat hayotidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytiradi. Har bir jamiyat o'zining madaniy va tarixiy xususiyatlariga mos ravishda tilni rivojlantiradi va saqlaydi. Shu sababli til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki milliy madaniyatning asosiy omili, jamiyatni birlashtiruvchi kuchdir. Til orqali insonlar o'z identitetini shakllantiradi, jamiyatdagi qoidalar va urf-odatlarini o'rganadi, shuningdek, ijtimoiy faoliyatda faol ishtirok etadi.

Zamonaviy jamiyatda tilning ahamiyati yanada oshib bormoqda, chunki u axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi bilan bog'liq yangi imkoniyatlarni ochadi. Til yordamida shaxs bilim oladi, ma'lumot almashadi va o'z fikrini ifodalaydi, shu bilan birga jamiyatning madaniy merosi saqlanadi va rivojlanadi. Shuning uchun tilning jamiyatdagi ijtimoiy vazifalarini o'rganish va ularni rivojlantirish har bir inson va jamiyat uchun katta ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada tilning jamiyatdagi asosiy ijtimoiy vazifalari, uning shaxs va madaniyat rivojida roli, shuningdek, muloqot, madaniyatni saqlash va ijtimoiy boshqaruvdagi funksiyalari batafsil tahlil qilinadi.

### **Asosiy qism**

#### **Muloqot vositasi sifatida til.**

Til insoniyatning eng muhim muloqot vositalaridan biridir. U odamlar o'rtasidagi fikr, hissiyot va ma'lumot almashinuvini ta'minlaydi. Muloqot jarayonida til nafaqat so'zlardan iborat bo'lib, balki uning ohang, intonatsiya, imlo va kontekst orqali ham ma'no hosil qiladi. Shu bois, til yordamida odamlar bir-birini tushunadi, fikr almashadi va hamkorlik qiladi. Jamiyatda tilning mavjudligi muloqotni samarali qilishi bilan birga, ijtimoiy faoliyatning barqaror ishlashini ham ta'minlaydi.

Til muloqotning turli shakllarida ishlatiladi. Og'zaki muloqot shaxslar o'rtasidagi tezkor va jonli fikr almashinuviga imkon beradi, yozma muloqot esa ma'lumotni saqlash, tarqatish va hujjatlashtirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga til elektron kommunikatsiya vositalarida ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, internet, ijtimoiy tarmoqlar va elektron pochta orqali til yordamida odamlar uzoq masofalarda ham samarali muloqot qilishi mumkin.

Til orqali jamiyat a'zolari o'zaro tushunishni kuchaytiradi va ijtimoiy aloqalarni rivojlantiradi. Til nafaqat shaxslararo, balki guruhlar, tashkilotlar va butun jamiyat darajasidagi muloqotni ta'minlaydi. Shuningdek, til yordamida odamlar bilim va tajribani boshqalar bilan bo'lishadi, bu esa jamiyatning rivojlanishiga hissa qo'shadi[1.].

Shunday qilib, til muloqot vositasi sifatida nafaqat axborot uzatadi, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, hamkorlikni rivojlantirish va shaxsning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi.

#### **Madaniyatni saqlash va rivojlantirish.**

Til jamiyat madaniyatining asosi hisoblanadi. U nafaqat fikr almashish vositasi, balki qadriyatlar, urf-odatlar va tarixiy tajribalarni avloddan-avlodga yetkazuvchi vositadir. Har bir jamiyat o'z milliy tilini rivojlantirish va saqlash orqali madaniy merosini mustahkamlaydi. Shu sababli til va madaniyat bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, tilni rivojlantirish madaniyatni saqlash va tarqatishning samarali vositasi hisoblanadi. Til orqali insonlar milliy va madaniy identitetini shakllantiradi. Og'zaki va yozma ijodiy faoliyat, she'riyat, adabiyot va tarixiy manbalar orqali til madaniyatni saqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, til yordamida jamiyat o'z qadriyatlarini, urf-odatlarini va axloqiy me'yorlarini yangi avlodga yetkazadi. Madaniyatning rivojlanishi esa tilning boylashuvi va yangi kommunikativ imkoniyatlar yaratishi bilan bog'liqdir. Zamonaviy jamiyatda madaniyatni saqlash va rivojlantirish til orqali amalga oshiriladi. Ta'lim tizimi, media vositalari va axborot texnologiyalari orqali til yordamida bilimlar, tarixiy ma'lumotlar va madaniy qadriyatlar keng tarqaladi. Shu tarzda til jamiyatning madaniy merosini saqlash bilan birga, yangi madaniy shakllar va innovatsiyalarni

rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, til yordamida xalqaro madaniy almashuv va muloqotlar ham sodir bo'ladi.[2] Bu esa milliy madaniyatni saqlash bilan birga global miqyosda tanitish va rivojlantirish imkonini yaratadi. Shu sababli til jamiyat madaniyatining uzviy qismi bo'lib, uning saqlanishi va rivojlanishi shaxs va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega.

#### **Shaxsning ijtimoiy integratsiyasi.**

Til shaxsning jamiyatga moslashishi va ijtimoiy hayotga faol qo'shilishida muhim vosita hisoblanadi. Inson til yordamida jamiyatning ijtimoiy qoidalari, axloqiy me'yorlari va urf-odatlarini o'rganadi, shu bilan birga o'zini jamiyat a'zosi sifatida his qiladi. Til shaxsga boshqalar bilan muloqot qilish, fikr almashish va ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish imkonini beradi. Shu tariqa til shaxsning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlaydi va jamiyatdagi aloqalarni mustahkamlaydi. Shaxs til orqali jamiyat bilan uzviy bog'lanadi. Og'zaki va yozma muloqot, suhbatlar, rasmiy va norasmiy muloqot shakllari orqali til shaxsning jamiyatdagi rolini belgilaydi. Masalan, ta'lim jarayonida til yordamida shaxs bilim oladi, o'z fikrini ifodalaydi va ijtimoiy faoliyatga qo'shiladi. Shu bilan birga til yordamida shaxs madaniy va axloqiy qadriyatlarni o'zlashtiradi, jamiyatda samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Zamonaviy jamiyatda til shaxsning ijtimoiy integratsiyasi uchun yanada muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Axborot texnologiyalari, media vositalari va onlayn platformalar orqali shaxs jamiyat bilan uzluksiz muloqotda bo'ladi. Til shaxsga nafaqat o'z fikrini ifodalash, balki boshqalar bilan hamkorlik qilish, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish va jamiyatdagi faoliyatga faol qo'shilish imkonini yaratadi. Shunday qilib, til shaxsning jamiyatga moslashishi, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashi va faol ishtirokini ta'minlashi bilan jamiyat rivojida muhim vosita hisoblanadi.[3] Til orqali shaxs jamiyatdagi ijtimoiy struktura va madaniyatni o'zlashtiradi, shu bilan birga o'z shaxsiy rivojlanishiga ham hissa qo'shadi.

#### **Ijtimoiy boshqaruv va axborot tarqatish.**

Til jamiyatda ijtimoiy boshqaruv vositasi sifatida ham muhim rol o'ynaydi. Qonunlar, rasmiy bayonotlar, hukumat hujjatlari va ommaviy axborot vositalari orqali til jamiyatdagi tartibni saqlash, nizolarni oldini olish va qarorlarni samarali qabul qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birga til axborot almashinuvi va muloqotni ta'minlab, shaxs va jamiyat hayotidagi jarayonlarni osonlashtiradi.

Til orqali jamiyat o'z a'zolariga qoidalar va tartiblarni yetkazadi. Rasmiy hujjatlar, e'lonlar va axborot vositalari jamiyatdagi ma'lumotlarning tez va aniq yetkazilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga til shaxsga ma'lumotlarni tushunish, ularni tahlil qilish va ijtimoiy faoliyatda foydalanish imkoniyatini beradi. Bu esa shaxsning jamiyatdagi faol ishtirokini oshiradi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Axborot tarqatish zamonaviy jamiyatda tilning yana bir muhim vazifasidir. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari orqali til yordamida keng jamoatchilikka tezkor va samarali ma'lumot yetkazish mumkin. Shu tarzda til jamiyatning rivojlanishiga hissa qo'shadi, shaxslararo va guruhlararo muloqotni kuchaytiradi hamda ijtimoiy hamkorlikni rivojlantiradi[4].

Shuningdek, til jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni boshqarishda vosita bo'lib xizmat qiladi. U shaxslar va jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi, qaror qabul qilish va jamiyatning rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish imkonini yaratadi.

Shunday qilib, til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki jamiyatni boshqarish va axborot tarqatishda asosiy rol o'ynaydigan ijtimoiy vosita sifatida e'tiborga loyiqdir. Til yordamida jamiyatning tartibi saqlanadi, axborot samarali tarqatiladi va shaxslar o'z faoliyatini jamiyatga moslashtiradi[5].

#### **Xulosa.**

Tilning jamiyatdagi ijtimoiy vazifalari insoniyat hayoti va jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun beqiyos ahamiyatga ega. Maqolada ko'rsatib o'tilganidek, til nafaqat muloqot vositasi sifatida, balki madaniyatni saqlash, shaxsning ijtimoiy integratsiyasi, ijtimoiy boshqaruv va axborot tarqatishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Har bir bo'lim tilning jamiyat hayotidagi o'ziga xos vazifalarini yoritib beradi va uning shaxs hamda jamiyat rivojiga ta'sirini aniq ko'rsatadi.

Muloqot vositasi sifatida til odamlar o'rtasida fikr almashish, axborot uzatish va hamkorlik qilish imkonini yaratadi. Til yordamida shaxs jamiyat bilan uzviy bog'lanadi, o'z fikrini ifodalaydi va boshqa odamlar bilan samarali muloqot qiladi. Shu tarzda til nafaqat shaxslararo aloqalarni rivojlantiradi, balki ijtimoiy hamkorlik va jamiyatdagi barqaror munosabatlarni ta'minlaydi. Zamonaviy dunyoda til elektron kommunikatsiya vositalari orqali ham keng qo'llaniladi, bu esa muloqotni tezlashtiradi va uni global miqyosda samarali qiladi.

Til madaniyatni saqlash va rivojlantirishda ham katta rol o'ynaydi. U madaniy meros, qadriyatlar, urf-odatlar va tarixiy tajribalarni avloddan-avlodga yetkazadi. Milliy tilni rivojlantirish orqali jamiyat o'z madaniyatini saqlaydi va uni yangi avlodga yetkazadi. Shu bilan birga til ta'lim tizimi, media vositalari va axborot texnologiyalari orqali madaniy bilimlarni tarqatish va jamiyatning madaniy rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi. Til madaniy identitetni shakllantirishda, milliy qadriyatlarni mustahkamlashda va xalqaro madaniy almashinuvni rivojlantirishda ham asosiy vosita hisoblanadi[6].

Shaxsning ijtimoiy integratsiyasi til orqali amalga oshadi. Til shaxsga jamiyat qoidalarini o'rganish, axloqiy va madaniy qadriyatlarni qabul qilish, hamkorlik qilish va ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish imkonini beradi. Shu tarzda shaxs o'zini jamiyat a'zosi sifatida his qiladi va jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi. Til shaxsning o'z fikrini erkin ifodalashi, bilim va tajribani boshqalar bilan bo'lishishi, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy va madaniy normalarini tushunishi uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy boshqaruv va axborot tarqatishda til jamiyat tartibini saqlash, qaror qabul qilish va axborot almashinuvni jarayonlarini ta'minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Til yordamida shaxslar jamiyat bilan samarali muloqot qiladi, ma'lumotlarni o'zlashtiradi va ularni amaliy hayotga tatbiq etadi. Shu bilan birga, til orqali siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar boshqariladi, ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi va jamiyatning rivojlanish strategiyalari samarali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, tilning jamiyatdagi ijtimoiy vazifalari shaxs va jamiyat hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Til orqali muloqot amalga oshadi, madaniyat saqlanadi, shaxs jamiyatga moslashadi va axborot samarali tarqatiladi. Shu sababli tilni rivojlantirish, uning jamiyatdagi ahamiyatini oshirish va shaxslararo aloqalarni mustahkamlash har bir inson va jamiyat uchun katta ahamiyatga ega. Til shaxs va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'lanishni ta'minlaydi, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi va madaniy hamda axborot rivojlanishining asosiy vositasi bo'lib qoladi.


### Iqtiboslar/Сноски/References

1. I. Yo'ldoshev, "Tilshunoslikka kirish" 2018-yil ([yangi.cspu.uz](http://yangi.cspu.uz)).
2. Z. T. Xolmanova, "Tilshunoslikka kirish" 2007-yil ([yangi.cspu.uz](http://yangi.cspu.uz)).
3. R. Rasulov, "Umumiy tilshunoslik" 2021-yil ([yangi.cspu.uz](http://yangi.cspu.uz)).
4. A. Berdialiev, "Sotsiolingvistika" 2024-yil ([yangi.cspu.uz](http://yangi.cspu.uz)).
5. Bushuy T. A., "Tilshunoslik" 2023-yil ([arm.samdchti.uz](http://arm.samdchti.uz)).
6. Rahmonov N., Sodiqov Q., "O'zbek tili tarixi" 2009-yil ([library.tdau.uz](http://library.tdau.uz)).
7. Mengliyev B., "Hozirgi o'zbek tili" 2020-yil ([library.tdau.uz](http://library.tdau.uz)).
8. Allayeva H. R., "Sotsiolingvistik muammolarning O'zbekistonda tadqiqi va tahlili" 2022-yil ([interonconf.org](http://interonconf.org)).
9. Abduraximova F., "Sotsiolingvistika" 2023-yil ([Zenodo](https://zenodo.org)).
10. Saidova N. A. "O'zbek hamda ingliz tillarida argo va jargonlarning tarjimasining sotsiolingvistik xususiyatlari" ([journal.imras.org](http://journal.imras.org)).

# TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

**Shavkatova Marjona**  
magistrant,  
Samarqand davlat universiteti  
Samarqand, O'zbekiston  
[shavkatovamarjona00@gmail.com](mailto:shavkatovamarjona00@gmail.com)

## “OR” KONSEPTI: O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA AXLOQIY VA MADANIY QADRIYATLAR IFODASI

 [10.5281/zenodo.19159334](https://doi.org/10.5281/zenodo.19159334)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek xalq maqollarida muhim axloqiy-kognitiv birlik sanalgan “or-nomus” konsepti lingvokulturologik va kognitiv yondashuv asosida tahlil qilinadi. Bunda “or” tushunchasining etimologiyasi, lug'aviy izohi, konseptual yadrosi aniqlanib, uning uyat, nomus, hayo, vijdon, g'urur kabi qadriyatlar bilan bog'liqligi yoritiladi. Xalq maqollari materiallari asosida “or-nomus” konseptining shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatni ifodalovchi madaniy ko'rinishi sifatidagi o'rni ko'rsatiladi. Mazkur maqola milliy mentalitet, til tafakkuri va ma'naviy qadriyatlarni anglashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy tilshunoslikda konseptual tahlilning dolzarbligini asoslaydi, ta'lim, madaniyatshunoslik hamda ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar uchun nazariy va amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi, yoshlar ongida axloqiy barqarorlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan tadqiqotlar uchun ahamiyatlidir.

**Kalit so'zlar:** maqol, konsept, jamiyat, or, nomus, oriyat, uyat, andisha, poklik, axloqiy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi.

**Shavkatova Marjona**  
Master's student,  
Samarkand State University  
Samarkand, Uzbekistan  
[shavkatovamarjona00@gmail.com](mailto:shavkatovamarjona00@gmail.com)

## THE CONCEPT OF “OR”: THE REPRESENTATION OF MORAL AND CULTURAL VALUES IN UZBEK FOLK PROVERBS

### ABSTRACT

This article analyzes the concept of *or-nomus*, regarded as an important moral and cognitive unit in Uzbek folk proverbs, from linguocultural and cognitive perspectives. The study examines the etymology, lexicographic interpretation, and conceptual core of the notion *or*, revealing its close connection with such values as shame, honor, modesty, conscience, and dignity. Based on materials from folk proverbs, the paper demonstrates the role of the *or-nomus* concept as a cultural model expressing personal and social responsibility. The article

has significant theoretical and practical value for understanding national mentality, linguistic worldview, and moral values. It substantiates the relevance of conceptual analysis in modern linguistics and contributes to theoretical and practical conclusions applicable to education, cultural studies, and moral-educational processes, as well as to research aimed at strengthening ethical stability among the younger generation.

**Keywords:** proverb, concept, society, *or*, honor, dignity, shame, modesty, purity, moral values, folklore.

**Шавкатова Маржона**

Магистрант,

Самаркандский государственный университет

г. Самарканд, Узбекистан

[shavkatovamarjona00@gmail.com](mailto:shavkatovamarjona00@gmail.com)

## КОНЦЕПТ «ОР»: ВЫРАЖЕНИЕ НРАВСТВЕННЫХ И КУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦАХ

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается концепт «ор–номус», являющийся важной нравственно-когнитивной единицей в узбекских народных пословицах, с позиций лингвокультурологического и когнитивного подходов. Анализируются этимология, лексикографическое толкование и концептуальное ядро понятия «ор», раскрывается его связь с такими ценностями, как стыд, честь, скромность, совесть и достоинство. На материале народных пословиц показана роль концепта «ор–номус» как культурной модели, выражающей личную и социальную ответственность. Статья обладает значимой научно-практической ценностью для осмысления национального менталитета, языкового мышления и духовных ценностей, обосновывает актуальность концептуального анализа в современной лингвистике и способствует выработке теоретических и практических выводов для образования, культурологии и духовно-просветительской деятельности, а также исследований, направленных на укрепление нравственной устойчивости молодежи.

**Ключевые слова:** пословица, концепт, общество, ор, честь, достоинство, стыд, скромность, чистота, нравственные ценности, устное народное творчество.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda milliy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy mezonlarning jamiyat hayotidagi o'rni tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan ma'naviy dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va qadriyatlari xalq og'zaki ijodida, xususan, maqollarda yorqin aks etgan. O'zbek xalq maqollarida muhim axloqiy tushunchalardan biri bo'lgan "or" konsepti shaxsning ichki mas'uliyati, vijdoni, ijtimoiy burchi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini ifodalovchi asosiy ma'naviy kategoriyalardan sanaladi.

Hozirgi kunda yoshlar ongida milliy o'zlikni anglash, axloqiy barqarorlikni shakllantirish, ma'naviy immunitetni mustahkamlash masalalari dolzarb bo'lib, bu jarayonda xalq maqollarida mujassam bo'lgan "or" konseptining mazmunini ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki "or" tushunchasi nafaqat individual axloqiy sifat, balki jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, inson xulq-atvorini me'yorlashtiruvchi madaniy-kognitiv birlik sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, zamonaviy lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik doirasida konseptlar tahliliga bo'lgan qiziqish ortib borayotgan bir sharoitda, "or" konseptining o'zbek xalq maqollaridagi ifodalanish usullarini o'rganish milliy til tafakkuri, mentalitet va qadriyatlar tizimini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari tilshunoslik, adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik

hamda ma'naviy-ma'rifiy ta'lim jarayonlari uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bois o'zbek xalq maqollarida "or" konseptining lingvistik va madaniy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan ushbu ilmiy maqola bugungi kun talablari nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda o'zbek tilshunosligi izchil taraqqiy etib, mazmunan va metodologik jihatdan takomillashib bormoqda. Fanlararo integratsiya jarayonida tilshunoslikning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi, chunki til inson tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy hayoti bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida o'rganiladi. Shu bois dastlab falsafiy tushuncha sifatida shakllangan "konsept" termini bugungi kunda tilshunoslikning ham muhim tadqiqot obyektlaridan biriga aylangan. Konsept zamonaviy tilshunoslikda lingvomadaniy tahlilning asosiy birligi bo'lib, u til, jamiyat va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni, shuningdek, xalqning madaniy va ma'naviy qadriyatlari haqidagi bilimlarni o'zida mujassam etadi. Bu terminning izohi bilan bog'liq bir qancha fikr-mulohazalar mavjud bo'lib, biz uni quyida keltirdik va tahlil qilishga harakat qildik.

"Konseptlar tilda madaniyatni aks ettiradi va inson ongida olam tasvirini shakllantiradi. Konsept tafakkurning operativ mazmun birligi, tizimlashtirilgan bilimning birligi yoki kvantidir" [1, 90]. "Konseptlar – bu inson fikrlash jarayonida foydalanadigan ideal, mavhum birliklar, ma'nolardir. Ular olingan bilimlar tajriba, insonning real borliqni idrok etishi natijalarining mazmunini muayyan birliklar, "kvantlar" ko'rinishida aks ettiradi" [2, 30]. Turli konseptlar leksikasining semantik izohlanishi, muayyan birliklar majmuasiga aloqadorligi bilan xarakterlanadi. N.N.Boldiryevning ta'kidlashicha, "tilda konsept alohida so'zlar va so'z birikmalari, frazeologik birliklar, gaplar va butun matnlar vositasida verballashgan bo'lishi mumkin" [3, 36-47]. Shu nuqtayi nazardan "Or-nomus" konsepti lingvomadaniy tushuncha bo'lib, u inson tafakkurida, dunyoqarashida, mentalitetida namoyon bo'ladi. Mazkur lingvomadaniy konsept milliylik va odamiylik fazilatlarining shakllanib va rivojlanib borishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan umuminsoniy tuyg'udir. "Or-nomus" konsepti frazeologik birliklar, gaplar, butun matnlar vositasida ifodalanishi uning asl mohiyatini tushunib yetishga xizmat qiluvchi sintaktik birlik va lisoniy sath sanaladi. Ma'lumki, madaniy nutqda uning tarkibida ishtirok etadigan, muayyan darajada nutqiy faoliyatda faol qo'llaniladigan ko'plab tushunchalar borki, ular og'zaki va yozma nutqda mavjudligi bilan ajralib turadi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "Or" konseptiga quyidagicha ta'rif berilgan: OR – (uyat, sharmandalik, nomus, uyalish) o'ziga nomunosib yoki ep ko'rilmagan ishdan, narsadan xijolat tortish. "Xato qilmoq bordir, tuzatmaslik order". (Maqol) "Qishloqdan birovdan kaltak yeyish azal-azaldan er kishi uchun or sanaladi" (N.Norqobilovning "To'qnashuv" asaridan). Shuningdek, or bilan bog'liq frazeologik birliklar ham izohli lug'atda keltirilgan: 1. Or bilmoq – o'ziga ep ko'rmaslik. Mirzakarimboy bilan pul yuzasidan xirillashishni, yoqa bug'ishni Yo'lchi o'ziga or bildi. (Oybekning "Tanlangan asarlar" kitobidan); 2. Or qilmoq (yoki etmoq) – uyalmoq, nomus qilmoq, o'ziga ep ko'rmaslik. [Ra'no:] Agar or etsa Layli haqlidur, Qaysning jununidin. (A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asaridan); 3. Ori kelmoq – uyalmoq, nomus qilmoq. – Yo'q, tog'a, o'rganib oldim, – dedi uquvsizligidan ori kelgan Qo'ziboy (N.Nazir, So'nmas chaqmoqlar) [14].

Ta'riflardan ko'rinib turibdiki, mazkur lug'atda "or" so'ziga uyat, sharmandalik, nomus, uyalish, o'ziga nomunosib yoki ep ko'rilmagan ishdan xijolat tortish mazmunlari anglashiladi. Ushbu ta'rif "or" konseptining markazida shaxsiy axloqiy mas'uliyat va ijtimoiy o'zini baholash tuyg'usi yotganini ko'rsatadi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan "or" konsepti lingvomadaniy birlik sifatida insonning ichki dunyosi va ijtimoiy muhit o'rtasidagi ma'naviy chegarani belgilaydi. U shaxsning o'ziga, boshqalarga va jamiyat me'yorlariga nisbatan munosabatini ifodalovchi konseptual model sifatida shakllangan. "Or"ning konseptual yadrosi "uyalish", "nomus", "sharmandalikdan saqlanish" kabi hissiy-axloqiy holatlarni o'z ichiga

oladi. Bu holat insonning o'zini hurmat qilish, obro'sini saqlash va ijtimoiy e'tiqodni qadrlash kabi qadriyatlar bilan bevosita bog'liqdir.

Konseptning periferik qatlamida "hayo", "iffat", "vijdon", "g'urur" kabi semantik jihatdan yaqin tushunchalar joylashadi. Ular "or"ning ijtimoiy va ma'naviy mazmunini kengaytiradi hamda uni inson axloqining muhim ko'rsatkichiga aylantiradi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da keltirilgan frazeologik birliklar esa "or" konseptining madaniy-lisoniy ifodalarini aniqlash imkonini beradi:

Or bilmoq – o'ziga ep ko'rmaslik, axloqan nomunosib ishni rad etish;

Or qilmoq / or etmoq – uyalmoq, nomus qilmoq;

Ori kelmoq – uyalish, vijdonan qiynalish holatini ifodalash [14].

Bu birikmalar xalq ongida "or" tushunchasining ijtimoiy maqomi va ma'naviy qiymatini mustahkamlab, shaxsning ichki o'zini nazorat qilish mexanizmini til vositasida ifodalaydi.

"Or" konsepti o'zbek madaniyatining aksiologik (qadriyatli) tizimida shaxsiy sha'n, halollik, oriyat va vijdonlilik bilan bog'liq oliy axloqiy idealni bildiradi. Xalq maqollari ("Xato qilmoq bordir, tuzatmaslik ordir") va yuqorida misollarda keltirilgan badiiy matnlardagi (Oybek, A.Qodiriy, N.Norqobilov asarlarida) qo'llanishlar "or"ning insoniylik, poklik va g'urur ramzi sifatida talqin qilinishini tasdiqlaydi.

Tilimizda or so'zi bilan birgalikda nomus so'zi juft so'zni hosil qiladi va bir yaxlit tushuncha bo'lib keladi. Quyida or so'zining etimologiyasi hamda izohiga ham to'xtalib o'tamiz. "Or" arabchadan olingan bo'lib, "tanbeh berdi", "uyaltirdi" ma'nolarini anglatadi [4, 344]. "Nomus" so'zining etimologiyasi haqida gap ketganda esa bu so'z ham arabcha "نومس" (n-m-s) ildizidan kelib chiqqanligi va u aslida "qonun", "qoida", "tartib" [4, 330] kabi ma'nolarni ifodalashini aytish zarur. Keyinchalik, bu so'z axloq, vijdon, obro'-e'tibor, iffat kabi tushunchalarni ham qamrab olgan. Nomus, or, oriyat – 1) kishining o'z obro'sini ulug'lash va ardoqlash tuyg'usi; kishining qadr-qimmatiga, o'z xatti-harakatlari oldidagi axloqiy mas'uliyatiga bo'lgan qarashlarni ifodalovchi tushuncha. Asosan, individual ma'noda ishlatiladi. Xijolat tortish, uyalish tuyg'usini, bundan tashqari, hazar qilish, or qilish ma'nolarini ham bildiradi; 2) boshqa shaxslarga nisbatan sharm-hayo bilan munosabatda bo'lishga undovchi his.

Nomus tushunchasiga ilgari boshqacha qarashlar mavjud bo'lgan. Masalan, qadimgi Rimda nomus tushunchasi fuqaro teng huquqliligi g'oyasi bilan aralashib ketgan. Inson fuqarolik huquqlaridan foydalangani uchungina nomus unga daxldor (tegishli) bo'lar edi. Rim fuqarosi bo'lmaganlar nomusdan foydalana olmagan. Nomus borasidagi bu yondashuv nemislarda butkul qarama-qarshi urf bo'lgan subyektiv yondashuv mohiyatan hozirgi qarashlariga yaqin keladi. Nomus insonning davlatda tutgan mavqeidan qat'i nazar, har bir shaxsga xos axloqiy qadriyat ekanini, ammo uning jamiyatda muayyan sinfga mansubligiga ko'ra, turli darajada bo'lishini e'tirof etadi. Masalan, ritsar uchun uyat sanalgan bir holat shaharlik uchun har doim ham uyat hisoblanavermagan.

Nomus qadriyati hamma xalqlarda bor. O'zbek xalqida bu tushuncha "or", "oriyat", "hayo", "ibo", "iffat", "uyat", "poklik", "pokdomonlik" kabi so'zlar bilan ma'nodosh bo'lib, yuksak insoniy qadriyatlardan biri sanaladi. Shu bois "benomus", "uyatsiz", "behayo", "nopok" degan so'zlar juda og'ir haqorat hisoblanadi. "Yetti nomus – bir o'lim", "Yigitning xuni – yuz tanga, or-nomusi – ming tanga" kabi keskin, ammo insonning eng mardona fazilatlarini ulug'lovchi naqlar bejiz aytilmagan.

Nomus so'zi o'zbek tiliga fors-tojik tili orqali kirib kelgach, nafaqat qonun va qoidaga, balki axloq, vijdon, or-nomus, iffat, obro'-e'tibor kabi tushunchalarga ham ishora qila boshlagan. Masalan, kishining jamiyatdagi obro'si, qadr-qimmat, o'ziga nisbatan hurmati kabi ma'nolarini misol qilib keltirish mimkin: *nomusini yerga bukmoq; Nomus va g'ayrati bor odam mehnatidan qo'rqmaydi*. Shuningdek, vijdon, axloqiy mas'uliyat manosida o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyat hissi, axloqiy me'yorlarga rioya qilishi, ayollarning pokligi,

sharm-hayo va hayo tushunchalarini bildirishini ham ta'kidlab o'tish lozim Oybekning "Quyosh qoraymas" asaridagi "Baxtsiz onalarning ko'z yoshlari, bolalarning, qizlarning tahqirlangan nomusi uchun so'nggi nafasgacha kurashing. O'lim, tiz cho'kish yo'q!" jumalari bunga misol bo'ladi.

Shunday qilib, "nomus" so'zi arabcha ildizga ega bo'lib, o'zbek tilida keng ma'no qamroviga ega va axloqiy tushunchalarning muhim bir qismini ifodalaydi.

Ming yillik tarixga ega bo'lgan xalqimizning madaniy va ma'naviy merosi bisyor bo'lib, necha asrlardan buyon o'zining qadr-qimmatini yo'qotmasdan avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Shu jumladan, maqollar xalqimiz hayotida muhim ahamiyat kasb etadigan xalq og'zaki ijodi namunalari biri hisoblanadi. Maqollarda xalqimizning ijtimoiy, tarixiy, madaniy, maishiy va hayotiy tajribasi umumlashgan holda o'git sifatida beriladi.

Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy qolipda ifodalalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma-xilligi, iboralarning turg'unligi va shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo'llanilish o'rniga qarab ularning ma'no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Xususan, or-nomus tuyg'usi ham asrlar davomida xalqimizning qon-qoniga singib ketgan fazilat hisoblanadi. Bu esa xalq og'zaki ijodida, ya'ni maqollarda ham o'z ifodasini topgan. Quyida or-nomus mavzusidagi "O'zbek xalq maqollari" [6; 7; 10] kitobidan olingan ayrim maqollarga to'xtalib o'tamiz:

1. Orsizda aql bo'lmas, aql bo'lsa ham naql bo'lmas.
2. Joningni fido qilsang qil, nomusingni fido qilma.
3. Nomus — yarim o'lim.
4. Nomus — o'limdan qattiq.
5. Nomusni yoshlikdan asra.
6. Ori bo'lmagan yigitdan, nomusi bor qizi yaxshi.
7. Benomusga kunda to'y.
8. Benomusga ne nomus.
9. Mol saqlama, or saqla.
10. Yigitni or o'ldirar, tuyani — sarbon.
11. Pardali qiz — pariga tengsiz.
12. Orli o'rganib turar, orsiz yeb to'yar.
13. Hayosizlar yig'ilgan yerda hayolilar toqqa qochar.
14. Besharmga arpa uni bahona.
15. Qudaning moli bo'lguncha, ori bo'l.
16. Ori yo'qning ohori yo'q.
17. Er nomusi — el nomusi.
18. Xato qilmoq bordir, tuzatmaslik ordir.
19. Orsizga tupursang, yomg'ir der.
20. Tog' boshida qor bo'lar, er kishida or bo'lar.
21. Qatorda nori borning ori bor.
22. Bor borini yeydi, uyatsiz — orini.

Bu kabi maqollar xalq og'zaki ijodimizda juda ko'plab uchraydi. Chunki o'zbek xalqi boshqa xalqlardan o'zining or-nomusni har narsadan ustun qo'yishi, ayollarning nomusi eng yuksak qadriyat sifatida e'zozlanishi bilan ajralib kelgan. Darhaqiqat, bu qarashlar xalq og'zaki ijodi namunalari – maqollarda ham yaqqol aks etgan. Quyida ayrim maqollarning izohi keltiriladi:

1. "Pardali qiz – pariga tengsiz". Bu maqolda pardali qiz deganda ibo-hayoli, o'zini tuta biladigan, nomusli qizlar nazarda tutiladi. Ular pariga tenglashtiriladi. Pari obrazi, ma'lumki, faqat yaxshilikni ko'zlovchi, farishta timsolida gavdalanadi. Nomusli qizlar ham xuddi farishta misoli pok bo'ladi, degan ma'no anglashiladi.

2. "Tog' boshida qor bo'lar, er kishida or bo'lar". Ushbu maqolda tog'ning yuqori cho'qqilarida har doim qor bo'lishi singari, har bir erkakda ham or bo'lsagina u haqiqiy erkak

hisoblanishi ta'kidlanadi. Erkaklik faqat tashqi ko'rinishda emas, balki uning ori, g'ururi va lafzi halolligida namoyon bo'ladi.

3. "Jonningni fido qilsang qil, nomusingni fido qilma". Bu maqolda or-nomus inson uchun hatto jonidan ham muhim ekanligi ifodalanadi. Jonningni fido qilsang ham, nomusingni hech qachon yo'qotma, degan fikr ilgari suriladi. Chunki inson ana shu fazilatlar orqali iymonini saqlaydi.

4. "Kichik or-nomus – katta ruhiyat". Kichikdan boshlab or-nomusni saqlash inson ruhiyatining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Ushbu maqol har bir inson o'z or-nomusini asrasa, katta natijalarga erisha olishini anglatadi.

5. "Or-nomusni bir marta yo'qotding – qayta topish qiyin". Or-nomus bir marta yo'qotilgach, uni qayta tiklash va odamlarning ishonchini qayta qozonish nihoyatda mushkul. Chunki kishining jamiyatdagi o'rni uning or-nomusini asragani va o'zini hurmat qila olishiga bog'liq. Ushbu maqol or-nomusni saqlashning naqadar muhim ekanini ta'kidlaydi.

6. "Orsizga tupursang, yomg'ir der". Ya'ni orsiz odam haqoratni ham anglab yetmaydi, uyat va sharmandalikni sezmaydi. Tupurish – inson sha'niga qaratilgan eng jirkanch haqorat bo'lsa-da, orsiz kishi uni yomg'irga yo'yadi, ya'ni mazmunini tushunib yetmaydi yoki befarq qaraydi. Bu maqol orqali or-nomus insonni inson qiladigan asosiy axloqiy tushuncha ekanligi, benomus kishi jamiyatdagi unga berilgan baho va munosabatni to'g'ri qabul qila olmasligi aytiladi.

7. "Qudaning moli bo'lguncha, ori bo'l". Bu maqolda quda bo'lish jarayonida mol-dunyoga haddan ortiq e'tibor qaratish qoralanib, inson uchun eng muhim narsa or-nomus ekani uqtiriladi. Maqol mazmuniga e'tibor bersak, boylik vaqtinchalik bo'lsa-da, or insonning doimiy ma'naviy tayanchi ekani, shuning uchun jamiyatda obro'-e'tibor mol bilan emas, balki or-nomus, halollik va vijdon bilan belgilanishi aytiladi. Bu maqol insonni moddiy manfaatdan ustun turadigan axloqiy qadriyatlarga sodiq bo'lishga chorlaydi.

8. "Ori yo'qning ohori yo'q". Maqolda or-nomusdan mahrum insonning jamiyatdagi o'rni, qadr-qimmatini past bo'lishi lo'nda va ta'sirchan ifodalanagan. "Ohor" so'zi bu yerda hurmat, salobat va obro' ma'nosida qo'llanib, u or bilan bevosita bog'langan. Ya'ni insonda or bo'lmasa, uning tashqi ko'rinishi, boyligi yoki mavqei ham jamiyat nazarida ahamiyat kasb etmaydi. Maqol orqali or-nomus shaxsga ma'naviy libos kiydiruvchi asosiy fazilat ekani, undan ayrilgan kishi jamiyatda o'z o'rnini yo'qotishi uqtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, "or" tushunchasi o'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy qarashlari, milliy mentaliteti va ijtimoiy munosabatlar tizimida markaziy o'rin tutuvchi konseptual birlik hisoblanadi. U shaxsning ichki mas'uliyati, vijdoni, uyat-hayo tuyg'usi hamda jamiyat oldidagi burchini belgilovchi muhim axloqiy mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Maqollar materiallari asosida "or-nomus" konsepti nafaqat individual axloqiy sifat, balki jamiyatda xulq-atvorni tartibga soluvchi, ijtimoiy baho va nazoratni ta'minlovchi madaniy-kognitiv mezon ekanligi aniqlandi. Konseptning yadrosida "uyalish", "nomus", "sharmandalikdan saqlanish" kabi hissiy-axloqiy holatlar joylashgan bo'lsa, "hayo", "iffat", "vijdon", "g'urur" kabi tushunchalar orqali uning mazmuniy doirasi kengayadi. Bu holat "or" konseptining xalq ongida barqaror va ko'p qatlamli axloqiy tizim sifatida shakllanganini tasdiqlaydi.

Shuningdek, "or" va "nomus" tushunchalarining etimologik va semantik tahlili ularning tarixiy taraqqiyoti jarayonida axloqiy, ijtimoiy va madaniy mazmun bilan boyib borganini ko'rsatdi. Xalq maqollari esa ushbu konseptning avloddan avlodga uzatilishida muhim vosita bo'lib, milliy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashga xizmat qilgani aniqlandi.

### Iqtiboslar/ Сноски/ References

1. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – Москва, 1997. – Б. 90
2. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика: курс лекций по английской филологии: учебное пособие. 5-е изд., стер. – Москва–Берлин: DirectMedia, 2016. – Б. 30.
3. Boldiryev N.N. Kontsept i yazykovaya kartina mira // Voprosy kognitivnoy lingvistiki. – Tambov, 2001.35-36-b.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати II (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2003.
5. О‘zbek tilining izohli lug‘ati: 5 jildlik. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 66-85betlar
6. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005.
7. Mirzayev T. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent, 2016.
8. Xolmirzayev A. O‘zbek tilining frazeologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.
9. Jo‘rayeva B.M. O‘zbek xalq maqollari va ularning tahlili. – Toshkent: Fan, 2004.
10. O‘zbek xalq maqollari. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korpaniyasi Bosh tahririyati, 2005. – 257 b.
11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent, 2020. 5 tomlik.
12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. 5 JILDLI. Madvaliyev A. tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyot, 2021.
13. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati [Matn] : lug‘at / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet.
14. <https://izoh.uz/word/g%E2%80%98or>
15. <http://library.ziyonet.uz>
16. <https://n.ziyouz.com>

# TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

## T A ' L I M S H U N O S L I K

**Asrorov Akbar,**  
dotsent,  
SamDU Urgut filiali  
Samarqand, O'zbekiston  
[asrorovakbar@gmail.com](mailto:asrorovakbar@gmail.com)

### QOZOQ MILLATINING MA'NAVIY ISLOHOTCHISI ABAY ADABIY MEROSI EZGULIK, DONISHMANDLIK, DO'STLIK VA QARDOSHLIK RAMZI

 [10.5281/zenodo.19159450](https://doi.org/10.5281/zenodo.19159450)

#### ANNOTATSIYA

Abay Qo'nonboyev o'zining barhayot nomi va betakror o'lmas ijodi bilan qozoq xalqining shuhratini olamga yoygan, ilg'or tasavvufiy-falsafiy fikrlari, buyuk yaratuvchanlik g'oyalarini Vatanga, komil insonga, tabiat va hayotga bag'ishlagan adibning ijodiy merosida insonparvarlik va naqshbandiylik ta'limoti masalalariga ishoralar qilishga harakat qildik. Shuningdek, Alisher Navoiyni o'ziga ustoz deb bilgan adib ijodida hayotni sevish, insonparvarlik naqshbandiylik ta'limoti yetakchi bir gumanizm bilan qorishib ketganligi masalalariga qisman o'z fikr-mulohazalarimizni o'rta tashladik.

**Kalit so'z:** Darg'a, ijodiy meros, naqshbandiylik ta'limoti, mutafakkir, Sharq adabiyoti daholari, pand-nasihati, insoniy fazilatlar.

**Asrorov Akbar,**  
associate professor,  
SamDU Urgut branch  
Samarkand, Uzbekistan  
[asrorovakbar@gmail.com](mailto:asrorovakbar@gmail.com)

### THE LITERARY HERITAGE OF ABAY, THE SPIRITUAL REFORMER OF THE KAZAKH NATION, IS A SYMBOL OF GOODNESS, WISDOM, FRIENDSHIP AND FRATERNITY

#### ABSTRACT

Abay Kunanbayev, whose immortal name and unparalleled creative legacy brought worldwide fame to the Kazakh nation, stands as one of the brightest representatives of Eastern thought. His works embody profound Sufi-philosophical reflections and convey noble ideas about devotion to the homeland, the perfection of the human soul, and the harmony between nature and life. This article explores the traces of humanism and the Naqshbandiyya teachings in Abay's intellectual and artistic heritage. Moreover, it offers reflections on how the writer

— who regarded Alisher Navoi as his spiritual guide — masterfully intertwined love for life, humanism, and the Naqshbandiyya philosophy into a single, deeply humanistic worldview.

**Keywords:** Darga, creative legacy, Naqshbandiyya order, thinker, luminaries of Eastern literature, moral guidance, human virtues.

**Асроров Акбар**

дотсент,

СамДУ Ургутского филиала

Самарканд, Узбекистан

[asrorovakbar@gmail.com](mailto:asrorovakbar@gmail.com)

## ЛИТЕРАТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ АБАЯ, ДУХОВНОГО РЕФОРМАТОРА КАЗАХСКОЙ НАЦИИ СИМВОЛ ДОБРА, МУДРОСТИ, ДРУЖБЫ И БРАТСТВА

### АННОТАЦИЯ

Абай Кунанбаев, благодаря своему бессмертному имени и неповторимому творческому наследию, прославился в казахском народе и на мировой арене. В своих произведениях посвящены передовые суфийско-философские размышления великие идеи создания Родины, совершенной личности, природы и жизни. В настоящей работе предприятие попытается выявить отголоски гуманизма и учения накшбандийя в его творческом наследии. Кроме того, мы частично изложили собственные размышления о том, как в творчестве писателя, читавшего Алишера Навои своим духовным ващвиком, любовь к жизни, гуманизм и накшбандийское учение переплетаются в едином гуманистическом порыве.

**Ключевые слова:** Дарга, творческое наследие, учение накшбандия, муситель, гении восточной литературы, наставления, человеческие добродетели.

Tasavvuf ilmi islom tamaddunining qadimiy ustunlaridan biri hisoblanib, payg'ambarimiz s.a v.va ul kishining sahobalari turmush tarzlarida islom ta'limoti va targ'iboti asnosida yuzaga keldi. Tasavvuf takomili tarixi shuni ko'rsatadiki, har bir davrda ham tasavvuf va uning namoyandalari bitta vazifani ya'ni Ollohni anglash orqali oddiy insoniy tushunchalarni kelgusi avlodlarga yetkazish vazifasini bajarganlar. Chunki tasavvuf Haq ma'rifati bo'lib, aql va qalbning sof va samimiy tushunchalarini o'zligida ifoda etadi. Qadimdan qavm-qarindosh, tili va dini bir bo'lgan, yaqin qo'shnicilik, do'stlik va yaxshi hamkorlikda yashab kelayotgan qozoq xalqning ulug' siymosi Abay ijodini ham shu nuqtayi-nazardan o'rganish, uning barhayot nomi va betakror o'lmas ijodini talqin qilishda o'zgacha bir tamoyil bo'lib xizmat qiladi degan umiddamiz.

Abay Qo'nonboyev adabiy tafakkurni nurlantiruvchi mushohadalari bilan mavjud hayotni san'atkorona badiiy aks ettirgan ulkan mutafakkir adibdir. U shoir sifatida butun insoniyatga muhabbat ko'zi bilan qaradi. Shoirni milliylik qobig'idan chiqarib, uni umumbashariy shoirga aylantirgan omil, uning o'z xalqiga bo'lgan cheksiz va beg'ubor muhabbati, el-yurtining taqdiri bilan bog'liq kurashchan dono va so'fiona fikrlaridir. O'z elining tinch, osoyishta hayot kechirishini, ilmli-bilimli bo'lishini, madaniyatining yuksalishini orzu qilgan ulug' shoir xalqiga teran hikmatlar va insonparvarlik tuyg'ulari bilan to'lib-toshgan ajoyib she'rlar xazinasini meros sifatida qoldirdi. Shoirning adabiy merosi milliylik chegarasidan chiqib, jahon so'z san'atining asl durdonalariga, insoniyat tafakkurining xazinasiga aylanib ulgiran. Uning qo'shiq bo'lib tillarda yangragan ajoyib she'rlari, hikmat bo'lib dillarga singgan nasriy asarlari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingani Abay shaxsining naqadar ulug'ligiga bir ishoradir.

Abay Qozog'istonning Yettisuv viloyatiga qarashli Chingiztog' (hozirgi Abay) tumanida dunyoga kelgan. Uning otasi Qo'nonboy O'skonboy o'g'li qozoq urug'lari ichidagi badavlat va martabali insonlardan biri bo'lgan edi. Ibrohimning onasi va buvisi yoshligidan uni erkalatib "Abay" (ehtiyotkor, uychan ma'nosida) deb chaqirishar edi. Keyinchalik bu nom taqdirning taqozosi bilan shoirning adabiy taxallusiga aylanadi.

Abay dastlabki ta'limni o'z ovulidagi maktab mudarrisidan oladi, 10 yoshida otasi uni Yettisuv (Semipalatinsk) shahridagi madrasaga o'qishga yuboradi. U yerda Abay uch yil davomida arab va fors tillarini o'rganadi hamda ertak, afsona va hikoyalarni o'qishga bo'lgan rag'bati o'z-o'zidan kuchaya boshlaydi. Asta sekinlik bilan Abay madrasa ta'limi bilan birgalikda, Sharq adabiyotining yetuk namoyandalari Sa'diy She'roziy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy va Xisrav Dehlaviy, Zahiriddin Muhammad Bobur va Fuziliy asarlarini bilan yaqindan tanishadi. Bu esa o'z navbatida Abayda ham tasavvufiy qarashlarni shakllantirib, oddiy xalqdan to' davlat arboblrigacha ma'qul yo'l bo'lgan va nazarga tushgan naqshbandiylik tamoyili asosdagi egallagan bilimlari bo'lsa, ikkinchidan naqshbandiylik sulukidagi adiblar ham adabiy jarayonga shu tamoyil orqali kirib kelganlar, uchinchidan Naqshbandiylik qalbiga zarb etilgan Alisher Navoiydek kishini o'ziga ustoz deb bilish, Abay uchun oliy baxt va ayni zamonda adib yashagan davr ta'limi talabi tasavvufiy qarashlar bilan uyg'un bir davr edi. Qozoq mumtoz adiblari ijodlarida ham xususan Abay ijodida ham kishilarni ma'naviy yuksalishga chaqirish yo'li orqali o'z ustozlari kabi naqshbandiylik ta'limotini yuqori bir pag'onada davom ettirilganligining guvohi bo'lamiz.

Bu hol o'z navbatida, shoirning dastlabki she'riy asarlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Abay 13-14 yoshlarida Sharq adabiyoti namoyondalariga bag'ishlab shunday bir chiroyli she'rini yozadiki, she'r mazmunidan shoirning Oллоhdan madad so'rab turish holati yaqqol ko'zga tashlanib turadi :

*Fuzuliy, Shamsiy, Sayqaliy,  
Navoiy, Sa'diy, Firdavsiy,  
Xo'ja Hofiz – bu hammasi,  
Madad ber, yo shuaro fariyod.*

Abay 14 yoshlarida otasining qistovi bilan o'qishni tashlab ovulga qaytib kelishga majbur bo'ladi. Otasining talabi asnosida Abay ovulda el boshqarish ishlariga aralasha boshlaydi hamda keyinchalik shu lavozimida o'z foliyatini davom ettiradi. Shu vaqtdan boshlab Abay ovuldagi xalq taqdiri bilan yaqindan tanishadi, u faoliyati davomida hayotning past-u balandini ko'radi, el orasidagi ziddiyatlarni, zo'ravonlik va qarama-qarshiliklarning guvohi bo'ladi. Abay ovul boshqarish ishida adolatli bo'lishga, xalq manfaatlari uchun foydali ishlar qilishga intiladi, afsuski tevarak atrofdagi kishilar uni qo'llab-quvvatlamaydilar, natijada u fisq-u fasod kishilarining qarshiligiga duch keladi.

Abay madrasada o'qib yurgan yillaridan boshlab badiiy ijod bilan shug'ullanib o'zining dastlabki she'rlarini yoza boshlaydi, ammo u o'z she'rlarini o'zgalarga, ayniqsa otasiga ko'rsatishdan bir oz hayiqib yuradi. Adib o'n to'qqiz yoshlarida yozgan she'rlaridan biri "Alifbo" da ilm olish va ma'rifatli kishi uchun zarur insoniy bir tuyg'u deb yoshlarni ilm olishga undasa "Ilm topmay maqtanma" nomli she'rida ilm olishning o'ziga xos besh hikmati borligiga ishora qilar ekan, shoir ilm barcha xazinalar kaliti deya so'fiylarcha donolik bilan shunday deydi:

*Ilm topmay maqtanma,  
O'rin topmay boplanma.  
Xumorlanib shodlanma,  
O'ynab bekor kulishga!*

*Besh narsadan qochiq bo'l,  
 Odam bo'laman desangaiz....  
 Talab, mehnat, teran uy,  
 Qanoat, rahm, o'ylab qo'y...*

*Bir olimni ko'rsangaiz,  
 "Unday bo'lmoq qayda?" deb,  
 Aytma ilm suysangiz.  
 Sizga ilmni kim berar,  
 Yonmay yotib so'ysangiz.  
 Dunyo ham, mol ham o'zi,  
 Ilmga ko'ngil bersangiz. [1. – B.29-31.]*

Abay ichki qarma-qarshiliklar asnosida el boshqaruvi lavozimidan voz kechadi, taxminan qirq yoshlariga yetganda adib yana adabiy ijodga qaytadi. Bu davrda Abay har tomonlama bilimli, hayot qiyinchiligini ko'rgan, keng dunyoqarashi shakllangan, insof va diyonatli, qolaversa, o'zining tasavvufiy qarashlari bilan xalq hurmatini qozongan tabarruk bir shaxsga aylangan edi. Shoir shu yillardan boshlab adabiy ijod olamiga astoydil kirishib ketadi va o'zining teran, chuqur mazmunli asarlarini yarata boshlaydi. Ma'lumki, O'zbekistonda ham qozoq xalqining buyuk shoiri va mutafakkiri Abay Qo'nonboyevning adabiy ijodi yuksak baholanib, asarlari o'zbek tilida nashr etilgan. Toshkent shahrida uning mahobatli haykali o'rnatilgan va yirik ko'chalardan biriga uning nomi berilgan. 2015-yili buyuk shoir Abay Qo'nonboyev tavalludining 170 yilligi respublikamiz miqyosida bayram qilindi. U haqda "Abay olami" tadqiqot asari, "Abay" asarlaridan namunalar kitob holida nashr etildi, ommaviy axborot vositalarida turkum maqolalar chop etildi. Joylarda esa, Abay ijodiga bag'ishlangan adabiy uchrashuvlar va mushoiralar o'tkazildi.

Bir-biri bilan inoq ikki xalq bir makon, bir zaminda ko'pdan buyon yonma-yon yashab kelayotganligi tufayliga emas, balkim qadimiy urflarimiz, taqdirlerimizdagi o'xshashlik o'zbek xalqida ham Abay ijodiga bo'lgan qiziqishni yanada ortirib yubordi. Abay taqdiri ham bizning mumtoz adabiyotimiz vakillari taqdiriga o'xshab ketadi. Amiriy, Feruz, Sadr Ziyo, So'fi Olloyor taqdirlarida bu o'xshashliklarni bemalol ko'rish mumkin. Abay umuminsoniy qadriyat va pand-nasihatlari yo'g'rilgan, mehr-oqibat tuyg'ulari yuksak pardalarda tarannum etilgan yetuk badiiy asarlari, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyati bilan xalqlarimiz madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi inobatga olinib hamda xalqlarimiz orasidagi o'zaro madaniy-gumanitar aloqalarni yanada rivojlantirish, el-yurtimizni qozoq adabiyotining ulug' namoyandalari ijodi bilan keng tanishtirish maqsadida 2018-yilning 13-martida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buyuk qozoq shoiri va mutafakkiri Abay Qo'nonboyev ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish to'g'risida"gi qarori qardosh Qozog'iston xalqiga, uning betakror adabiyoti va madaniyatiga, yorug' kelajagiga bo'lgan katta hurmat va ishonchning yorqin ifodasi bo'ldi. Qarorda "O'zbekiston va Qozog'iston davlatlari o'rtasidagi o'zaro do'stlik va hamkorlik munosabatlari yangi bosqichga ko'tarilgan bugungi kunda Abay Qo'nonboyev singari ulug' allomalarning o'lmas merosi xalqlarimiz uchun yanada muhim ma'no va ahamiyat kasb etadi. Zero, Abay ijodi teran falsafa, kelajakka donishmand nigoh, millat istiqboli haqida qayg'urishdek tamoyillarga asoslanishi bilan o'zbek kitobxonlari uchun ham g'oyat qadrlidir",- [2] deb e'tirof etilishi alohida e'tiborga loyiq ishlardan biri bo'ldi. Qolaversa qarorda Abay ijodi barcha xalqlar kabi xalqimiz uchun ham chin do'stlik, qardoshlik, donishmandlik, komillikka intilish ramzi bo'lib xizmat qolaverishi alohida ko'rsatib o'tildi.

Muhtaram Prezidentimizning Abay merosini o'rganish to'g'risidagi qarori asosida keng ko'lamlil ishlar bugungi kunlikka qadar olib borilmoqda. Jumladan, adabiyotshunos olim Abdulla Rustamovning "Abay abadiyati" risolasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari

Qaldibek Seydanovning shoir ijodi haqidagi “Umr ibratlari”, “Abay va O’rta Osiyo adabiyoti”, Yangiboy Qo’chqorovning “Oqquv qanotiga qo’ngan ohanglar” kitoblarining chop etilishi kishi ko’zini quvontiradi. Qo’limizda Abayning 1970-yilda G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti tomonidan nashr etilgan “Abay ”(She’rlar va poemalar) [3] nomli risolasi turibdi. Risolani varaqlar ekanman, undagi bir she’rga ko’zim tushdi:

“Ey xudo”,- deydi shoir “O’rinlat, tilagan tilakni, Sandanda so’rayman, Yuragim shuvillab, Suyagim jimirlab,...Zorlansa bandasi, Bermasmi Ollosi, Sog’liq ber erkamga, shudir ota duosi!”<sup>7</sup>(Shu kitob 72 b) Diqqat bilan qaraydigan bo’lsak, bu totaning nidosi, Ilohiy jamolga munojoti emasmi? Bunday munojotni Boburda ham ko’rganmiz. Qay zamon bo’lmasin, kishi o’zi sig’magan dardini oshkor qilar ekan, bunda najot- istak qorishiq bir holda aks etib turganligini hammamiz yaxshi bilamiz, yaxshi anglaymiz. Shunday ekan Abay ham o’z arjumandi uchun hech bir ta’qibdan qo’rqmay Ollohga munojot qilmadimikan? Axir, Abay madrasa ta’limini o’zlashtirgan, barcha amallarni yaxshi bilgan ulamo, so’fiy va diniy bilimlarga ega bo’lgan muborak shaxs ekanligini unutmashimiz kerak. Zeroki ilmida bila turib, qalbiy ilmni oshkor qilmaslik ham ayni zamonda murdatlikdir. Abay ijodi barcha xalqlar kabi xalqimiz uchun ham chin do’slik, qardoshlik, donishmandlik, komillikka intilish ramzi deya e’tirof etar ekanmiz, uning she’riy satrlaridan biriga e’tiborni qaratamiz:

*O’lan – so’zning poshshosi, so’z sarasi,  
Qiyindan qiyiltirar er donasi.  
Tilga yengil, yurakka iliq tegib,  
Tep-tekis, silliq kelsin aylanasi...*

*So’z boshi avval hadis, oyat bo’lur,  
Shirasi ham ma’nosi g’oyat bo’lur.  
Payg’ambar ham so’zini o’lan qilgan,  
O’lan aytay, shoyadki ko’nglim to’lur.*

*To’g’ri so’zlik o’lanim o’zing tingla!  
Mayli, tatimasa ham suyla bardam!  
Bu yurt so’z oshig’imas mol oshig’i,  
Roziman, mingdan biri tushunsa ham...*

*O’zi bilan yovlashgan yurtim, tingla!  
O’zi bilan dovlashgan yurtim tingla!  
Dardingga davo bo’lsin o’lanlarim,  
Bir-birini ovlashgan yurtim,tingla![4. – B.72-74]*

Shoir o’lan hadis, Qur’on oyatlari kabi e’tiborli, hatto Kalamulloh – o’lan bilan yozilgan demoqchi. Bunda Payg’ambarimiz (s.a.v)ga vahiyning tushishi holatiga o’lanning ham ilhom bilan jo’shib kelishi holati qiyos qilingan holda o’z xalqining zulmatdan chiqarib olish uchun unga bir chaqiruv yo’llashga harakat qiladi. Shoir yana bir o’lanida:

*Men o’lanni yozmayman ermak uchun,  
O’tgan-ketgan gaplarni termak uchun.  
Men o’lanni yozaman tushunganga,  
Avlodimga bir saboq bermak uchun. [5. – B.45]*

Abay oqin sifatida ham o'lanlar aytar ekan, u o'z o'lanlari orqali ham xalqini ma'rifat kishisi bo'lishini dil-dilidan istaydi va avlodlarini shunga chaqiradi. Tarixiy manbaalarda ko'rsatilishicha, Abayning otasi Qo'nonboy feodal va qattiqqo'l bo'lishiga qaramay o'z davri uchun xayrli ishlar qilib ketgan savodli va tubarruk bir shaxs bo'lgan. U kishi o'z ovulida eski maktablar ochib bolalarni savodini chiqarishga qattiq kirishgan kishilardan biri. Bu Abay ma'rifatli oila farzandi va shuning uchun ham u bor kuchi bilan xalqining savodli bo'lishi uchun ziddiyatlarni yengib, ularni ma'rifatli bir avlod bo'lishini istaydi:

*Qaridik, g'am bitmay, ko'paydi armon,  
 Bizdan so'ng yoshlarga qoladi zamon.  
 Ularning xulqidan ko'nglim xovotir:  
 Ter to'kmay, yulg'uchlik payida hamon.*

*Mehr yo'q, qo'nim yo'q, bari chigal,  
 Bir-birin ko'rolmas bo'vur-jigar.  
 El to'zgib nizodan, sob bo'ldi-ku,  
 Jon deb neni yaratiding, parvardigor.[6.]*

Abay kishilarni savodli qilish orqali o'z zamonasidagi milliy urf-odatlarining saqlanib qolinishiga, mavjud tartibning buzilmasligi tarafdori bo'lgan va shu yo'lda kurash olib borgan. O'z e'tiqodidan kelib chiqib, keksaygan bir paytida Makka-yu mukarrama va Madinayu munavvaraga haj safariga borib, u yerda o'z hisobidan masjid va mehmonxona qurdirgan buyuk e'tiqod egasi ekanligini unitmasligimiz kerak.

Abay she'rlari kishi qalbidagi ezgu tilaklarni ifoda etishi bilan ko'ngilni zavq-u shavqqa to'ldiradi, yuraklarni yayratgan do'mbiraning mayin nolalariga o'xshaydi. U asarlarida o'z davrining barcha tala-to'pirlaru-yu, yaxshilik va ezguliklarini butun qarama-qarshiliklari bilan ko'rsatib bera oldi. Shu tarzda adib ijodi o'z zamonasining ko'zgisiga aylandi.

Abay qozoq ovullaridagi xalqning turmush sharoiti bilan tanishar ekan aholining nihoyatda og'ir ahvoliga, o'ta qiyinchilik bilan turmush kechirayotganligiga ich-ichidan achinadi hamda ularga xayrixohlik bildirib iloji boricha g'amxo'rlik qilishga tirishadi. Abayning bunday xalqparvarligi otasi bilan o'zi o'rtasidagi bir qancha qarama-qarshiliklarga sabab bo'ladi. Qo'nonboy o'g'lining xalqqa yaqinligini yoqtirmay, unga: "Sen odamlarning hammasiga kulib gapirasan, yoyilib oqqan suvga o'xshaysan, yoyilib oqqan suvni it ham, qush ham ichadi. Ko'pchilikdan yiroq yur, shunda boshingga xalq uymalayvermaydi", deb qattiq koyiydi. Shunda Abay: "Qo'lida quroli bor, bitta-ikkitagagina foydasi tegadigan chuqurdagi ko'lob suvdan, o'tgan-ketganga, ko'pchilikka, xalqqa foydasi tegadigan yoyilib oqqan suvni afzal deb bilaman",-[6] deb javob qaytaradi.

Og'a-inilar o'rtasidagi nizolar, mansabidagi Qo'nonboyning o'z huquqdan ortiqcha foydalanishi, uning urug'doshlarining yaxshi yerlarini tortib olishi asnosida yuzaga kelgan zo'rovonlik va haqsizliklar natijasida ovulda o'zaro urush-janjallar va nizolar kuchayadi. Bu holat Qo'nonboyning egallab turgan lavozimidan tushirilib, Omsk shahriga tergovga chaqirtirilishi, urug'doshlariga yerlari qaytarib berilishi bilan tugasada, lekin oradagi nizolar tugamaydi. Natijada bu o'chakishlar oxir oqibat Qo'nonboy farzandlarining boshlariga katta kulfatlar kelib tushishiga sabab bo'ladi. Bu masala yozuvchi Muxtor Avezovning to'rt tomdan iborat "Abay yo'li" roman-epopeyasida o'z tasvirini topgan[7].

XIX asrning oxirlaridan boshlab Abay oilasida fojiali voqealar sodir bo'la boshlaydi. O'zaro ziddiyatlar tufayli shoirning o'g'li O'spon 1891 yili vafot etadi. Shu yili Petrburdagi harbiy bilim yurtini tugatib, akademiya kirishga hozirlanayotgan sevikli o'g'li Abdurahmon sil kasaliga uchraydi va bir yildan so'ng, 1895-yili Verniy -hozirgi Olma ota shahrida 27 yoshida vafot etadi.

Ota dushmanlari Abayning qayg'usiga qo'shilish o'rniga uni yanada turtkilay boshlaydilar. Ular 1897-yili Abayning uyida, "Podsho hukumatiga qarshi bo'lgan odamlar ko'p keladi va o'zi ham podshoga qarshi ishlar bilan shug'ullanadi",- degan ayblar bilan tintuv uyushtiradilar. Lekin ularning bu fitnasi natija bermagach, boshqacha choralar ko'rishga o'tishadi. O'sha yilning kuzidagi saylov vaqtida ular unga qarshi turli bo'htonlar uyushtirishib, Abayni kaltaklashgacha borib yetadilar. Biroq, fitna fosh bo'lib, uni uyushtirgan shaxslar jazoga tortiladi. Bu voqealar Abayga qattiq ta'sir qiladi. U 1889 yilda yozgan bir she'rida:

*Yuragim mening qirq yamoq,  
 Xiyonatkor olamdan.  
 Qanday qilib bo'lsin sog',  
 Ko'ngil qolgan hammadan.*

*Ey, yuragi dardli odam,  
 Qalbidan sen xabar ol:  
 Unda ne bor qanday dard, g'am  
 Tilga kirar, quloq sol.[8]*

deb, zorlanadi. Ana shunday ahvoldagi Abayning boshiga 1904 yili yana bir og'ir kulfat tushadi. O'sha yilning bahorida taniqli shoir, bir qancha poemalar muallifi, Abayning sevikli o'g'li Mag'aviya kasal bo'lib 34 yoshida bevaqt vafot etadi. Dardi og'irlashgan Abay hech kim bilan gaplashmay, to'shakda yotib qoladi. Mag'aviya o'limidan 40 kun o'tgach, 1904 yilning 23 iyul kuni Abay dunyodan ko'z yumadi.

Abay bor-yo'g'i 59 yil yashagan bo'lsa-da, shu qisqa va mazmunli umrida qozoq yozma adabiyoti va adabiy tiliga asos soldi. Abayning ijodiy merosini 180 ga yaqin she'rlari, 3 ta poemasi, 60 dan ortiq tarjimalari va unchalik katta bo'lmagan nasriy asarlari tashkil etadi. Abay qozoq adabiy hayotiga yangi yuksalish davrini olib keldi. U shoir, dostonchi, yozuvchi, tarjimon, bastakor, faylasuf-olim, gumanist, ma'rifatchi sifatida ijod qilib qozoq klassik adabiyotining otasi, qozoq poeziyasining asqar tog'i, zamonaviy musiqa yaratuvchisi va ma'rifatga yo'l boshlovchisi darajasiga chiqa oldi.

*Qozog'im, sho'rli yurtim, vayron yurtim!  
 Qorong'uda yo'l topmay, hayron yurtim!  
 Yomon bilan yaxshini farq qilolmay,  
 Og'zida ham qon, ham moy, sarson yurtim!*

*Qarasam, ajabtovur yuzing sening,  
 Nechun axir, aldamchi so'zing sening?  
 Donolarning hikmati pisand emas,  
 G'ofil qolgan, adashgan o'zing sening!*

*Tunda uyqung buzilar, kunduz – kulging,  
 Dardingga em bo'ladi, moling-mulking!  
 Ochko'zsan, ta'makorsan, qurumsoqsan,  
 Bor savlating boshingga kiygan tulking...*

*Biy bo'ldi qiyqim boylar bosh-boshiga,  
 Dog' soldi, zahar soldi yurt oshiga,  
 Qo'rqaman, asosi yo'q ko'r singari,  
 Elim unar buzuqlar aldashiga!..*

*Otalarga o'xshamay qoldi turqing,  
 Yopiray, muncha ketdi, elim, xulqing!  
 Birlik yo'q, baraka yo'q, buzuldi fe'l,  
 Qani yiqqan davlating, boqqan yilqing?*

*Elat bilan – elat yov boylik uchun,  
 Og'a bilan – ini yov siylik uchun,  
 Qozog'im, o'z-o'zingni o'ylamasang,  
 Badbaxt kunga qolmasmi taqdir butun?*

*Men netay, axir kimga umid bog'lay?  
 Qo'rqoq qullar yurtida ne baxt chog'lay?  
 Bir yo'lchi topilmasmi sarson elga,  
 Men izlay, men axtaray, men so'roqlay...[9]*

Shoir o'zining “Qozog'im, sho'rlik yurtim, vayron yurtim”, “Boylar yurar molin qo'rg'alatib”, “Adashganning oldi jo'n”, “Ko'nglim qoldi do'stdan ham, dushmandan ham”, “Sizga kim ilm berar, yonmay yotib so'nsangiz”, “Dunyo ham, mol ham – ilmga ko'ngil bersangiz”, “Ilm topmay maqtanma”, “Yoshlikda ilm deb o'yladim” kabi va boshqa she'riy asarlarida xalqni madaniyatga, ilm va ma'rifatga, buyuk insoniy fazilatlarga da'vat etadi.

Shoirning “Ko'klam”(1890) she'ri ham nihoyatda jozibali misralarda bitilgan. Shoir tabiatning uyg'onganligidan, uning go'zalligidan, “olamga bezak bergan” fasldan ilhomlanadi, taskin topadi. Abay ijodida nasr yo'li bilan bitilgan bir qancha asarlar mavjud. Yoshlarni ilm olishga va tarbiyaviy xarakterga ega bo'lgan “Naqliya so'zlari”, ya'ni nasihatlar to'plamini yaratadi. 45 ta katta-kichik hikoyalardan iborat ushbu asarlar to'plami qozoq xalqining oltin merosi hisoblanadi. Abay o'z xalqining istiqbolini o'ylaydi. Saodatga yerishish uchun ilm olishga, o'qishga chaqiradi. Bilimsizlik jaholatga tushiradi. Biy-boylarni berahm, jahldor, insofsiz bo'lishi bilimsizlikdan deb biladi. Shoir ochlik, qashshoqlik hukm surgan jamiyatdan zorlanadi. Endi Abay orzu qilgan hur zamonlar keldi. Qozoq xalqi mustaqillikka yerishdi. Shuningdek, adibning 1890-1898-yillarda yozilgan “Nasihatlar”i alohida ahamiyat kasb yetadi. “Bizda bir maqtanchoqlik degan bir yaramas narsa bor. Aslida bu narsaning nima keragi bor o'zi? Zotan – or-nomussizlik, nodonlik, hayosizlik hamda na botirlik va na odamgarchilikdan xabari yo'qlikning alomatidir”, – deb yozadi Abay. Abay nasihatlaridagi fikrlar ruhshunoslar uchun ham, o'quvchi uchun ham ko'p jihatdan foydalidir. Jumladan, adib o'ttiz ikkinchi nasihatida shunday deydi:

“Kishi yeshitgan narsasini unutmazlik uchun to'rtta shart bor: avvalo, buning uchun zeharli bo'lmoq kerak; ikkinchidan, bir narsani ko'rganda, yo yeshitganda unga chin yurakdan ixlos qo'yib, fahm-farosat bilan uqib olmoqlik lozim; uchinchidan, yeshitganlarini ichida bir necha marta takrorlab, ko'ngliga jo qilmoq kerak; to'rtinchidan, ko'ngliga boshqa narsalarni mutlaqo keltirmaslik va kelsa ham unga zarracha e'tibor bermaslik kerak. Masalan: beg'amlik, beparvolik, o'yin-kulgi yoki qayg'u hasratga berilmaslik va boshqa narsaga ixlos qo'ymaslik kerak. Aks holda, bu to'rt narsa aql bilan ilmga putur yetkazadigan omillardir”[10].

Abay ilm, o'qish-o'rganish haqida ham qimmatli nasihatlarini beradi. Ilmni o'rqnash chog'ida, avvalo, ”mulohaza yuritish”, keyin yesa uni “muhofaza qilish lozimligini uqtiradi. “Fe'l-atvor va xulqni bir me'yorda” saqlash haqida ham qimmatli fikrlarini bildiradi. Umuman olganda, Abay pand-nasihatlarini o'qish foydalidir.

*Ba'zi o'smir zamondoshlar xafa qilar,  
 Uquvi yo'q, har qadamda xato qilar.  
 Or-nomusi, toqati yo'q, ishonchi yo'q,  
 Tayini yo'q, faqat kayfu safo qilar.*

*Yomon bilan yaxshini farq qilsa, koshki,  
Yoki din-u diyonatin bilsa koshki;  
Qasam ichib, lof urib izlagani  
Bir ot bilan oshdan nari jilsa koshki.*

*Bunday yoshlar o'z yurtining ko'rnamagi,  
Na o'qiydi, na bir hunar o'rganadi.  
Mehnat qilmay, bir amallab mol topmoqchi,  
Na imonu na inon bor, surgaladi.*

*Unda uni aldaydi u, bunda buni,  
Jon bersang ham, topilmaydi so'zning chini.  
Gumdon bo'lsa, elga qittak ziyon kelmas,  
Bir semizroq ot bo'ladi uning xuni.*

Abayning asarlarida xalqini ilm-ma'rifatga, insoniylikka da'vat etuvchi g'oyalar bilan bir qatorda, sof muhabbat, chin do'stlik va ellar orasidagi birodarlik g'oyalari ham kuylanadi. U o'z asarlarida "do'stliksiz, muhabbatsiz hayot bo'lishi mumkin emas", "hayotda inson insonni sevmasdan, jamiyat uchun astoydil xizmat qilmasdan yaxshi yashash mumkin emas" - kabi g'oyalarni ilgari suradi.

Uning "Yigitlar, o'yin arzon, kulgi qimmat", "Ey muhabbat, ey do'stlik", "Qiz so'zi", "Yigit so'zi", "Oshiq so'zi – tilsiz so'z", "Ba'zan tushar ko'nglimga", "Oshiklik va xumorlik – bu ikki yo'l", "Sen meni ne eta- san?...?", "Yoshlik alangasib qaydasan?" kabi she'rlari shunday mavzularga qaratilgan. Ma'lumki qozoq xalqida do'mbra bilan o'lan aytuvchi shoirlar (oqin) qadimdar mavjud bo'lgan.

*O'lan - so'zning poshilosini, so'z sarasi,  
Qiyindan qiyiltirar er donasi.  
Tilga yengil, yurakka iliq tegib,  
Tep-tekis, silliq kelsin aylanasi.*

*Saralanmay bulg'ansa so'z orasi,  
Bu - oqinning bilimsiz - bechorasi.  
Ham oqin, ham tinglovchi ko'pi nodon,  
So'z tanimas bul yurtning bir porasi.*

*So'z boshi avval hadis, oyat bo'lur,  
Shirasi ham ma'nosi goyat bo'lur.  
Payg'ambar ham so'zini o'lan qilgan,  
O'lan aytay, shoyadki ko'nglim to'lur.*

*Yoki:  
Men o'lanni yozmayman ermak uchun,  
O'tgan-ketgan gaplarni termak uchun.  
Men o'lanni yozaman tushunganga,  
Avlodimga bir saboq bermak uchun.*

*So'zimni tentak uqmas, ziyrak uqar,  
Ko'nglining ko'zi ochiq, sergak uqar.*

*Qiyshiq-qing 'ir yo 'llardan kelma menga;  
To 'g'ri kel, ko 'p sir ochib tashlay senga.*

*Ehtimol, birinchi gal uqmassan ham,  
O 'lan alifbesidan boshlay senga.  
Aytib qo 'yay, yoqmasa shu zamonoq ayt;  
Yangi o 'lan so 'ramay, ovulingga qayt.*

*Men o 'landa afsona kuylamadim,  
Oltindan quyma qizni o 'ylamadim.  
Keksalarga hech o 'lim tilamadim,  
Yoshlarga yomon bo 'l, deb so 'ylamadim.*

*Jirkanmayin, so 'z aslin mendan so 'ra,  
So 'zimning tagi teran, payqab qara.  
O 'lan ko 'p, tuzsiz o 'lan tegdi jonga,  
Yolg 'on gap to 'lib ketdi bu jahonga.*

*Oqinlarga yalinaman, aqlga kir,  
Asl so 'z, saylab so 'yla yosh insonga,  
O 'lan bor-o 'lanlarning o 'lanidir,  
O 'lan bor-be 'manidir. be 'manidir.*

Abayning “Qora so‘zlar” asarini o‘zbek tiliga A.Muxtor, Uyg‘un, Mirtemir, M.Ahmad, N.Fozilovlar tarjima qilishgan. 2020-yilda esa Q.Yo‘ldoshev tomonidan tarjima qilindi. Asardagi chuqur fikr-mulohazalar, qalb iztiroblari hech kimni befarq qoldirmaydi. U bir asr oldin e‘zilgan bo‘lsa ham, bugungi kungacha undagi dono fikrlar va nasihatlar o‘z dolzarbligi bilan o‘quvchini lol qoldiradi. Abay inson qadr-qimmatini pasaytiruvchi sarqitlardan xolos bo‘lishga chaqiradi, ma‘naviy barkamollikka intilib, o‘z xalqi va boshqa xalqlar to‘plagan bilimlarni egallash yo‘lidan borishga chaqiradi. Jumladan, asarda qozoq xalqini atrofdagi boshqa millatlardan, jumladan rus, no‘g‘ay va sartlardan ibrat olishga va ularning uddaburonligi va tadbirkorligidan o‘rganishga undaydi Abayning ko‘plab asarlari pand-nasihatlar, axloqiy suhbatlar tarzida yozilgan. Axloq muammolarini hamda boshqa muammolarni yechishda uning ko‘nglidagi ma‘rifatparvar orzular birinchi o‘ringa chiqadi.

Leonid Leonovning ta‘kidlaganidek, Abayning “Qora so‘zlari” qozoq xalqining murakkab tarixiy yo‘lining boshidagi shoirning o‘z xalqiga nasihatidir. Bu asar kitobxonlar bilan suhbatlar tarzida yozilgan falsafiy-tanqidiy xarakterdagi nasihat bo‘lib, uni faqat o‘z davrining buyuk shoiri va mutafakkiri berishga haqli edi.....

Shoir o‘z hayoti davomida nodonliklarni ko‘p ko‘rdi. Bu Abayning “Ilm topmay maqtanma”, “Yoshlikda ilm bor deb o‘ylamadim”, “Nazarga», “Ko‘kboyga” kabi she‘rlarida ifoda topgan. Uning “Qozog‘im, sho‘rlik yurtim, vayron yurtim”, “Boylar yurar molin qo‘rg‘alatib”, “Adashganning oldi jo‘n», “Ko‘nglim qoldi do‘stdan ham, dushmandan ham”, “Sizga kim ilm berar, yonmay yotib so‘nsangiz”, “Dunyo ham, mol ham - ilmga ko‘ngil bersangiz” kabi va boshqa she‘riy asarlarida xalqni madaniyatga, ilm va ma‘rifatga, buyuk insoniy fazilatlarga da‘vat etadi[Abay, 2015, b.10].

Ochko‘z, ta‘magir, poraxo‘r, tekinxo‘r, mayxo‘r, yalqov, maishatparast, manfaatparast, maddoh zotlarni jamiyat daraxtiga tushgan qurt, deb biladi. Mehnat va hunar, soflik va halollik, adolat va haqiqat Abay she‘rlarining tub mohiyatini, leymotivini belgilaydi:

*Aql kerak, soz ish kerak, xushxulq kerak,  
Er uyalar ishni qilsa bo 'lmay ziyrak.*

*Shilta, shilqim, asli tagi lo'ttibozga  
Sadoqatli do'st topilgay juda siyrak.*

Yuksak badiiyat bilan yuqori ijtimoiy mazmunning uyg'unlashgani Abay poeziyasini nainki o'z davri, balki barcha zamonlar uchun dolzarb pog'onaga ko'taradi. U o'z asarlarida, she'r va dostonlarida keng ko'lamlil xulosalar orqali zulm va munofiqlikning asl qiyofasini ochib beradi. Zulmat zamonga nur olib kiradi. Abay iste'dodi, e'tiqodi va tafakkurining naqadar yuqori bo'lganini, o'z zamonidan bir necha qadam oldinda yurganini isbotlaydi:

*Odamzod tiriklikni davlat bilsin,  
Aql topsin, mol topsin, halol yursin.*

“Ilm topmay maqtanma”, “Qalbingda o'ting bo'lsa”, “Yoshlikdan bilim izlab yugurmadim”, kabi she'rlarida Abay o'zi yashagan jamiyat va kelgusi zamonlarda barkamol avlodni ko'rgisi, xalq hayotini farovon qiladigan bunyodkor yoshlar shakllanishini istaydi.

Mirtemir o'zining “Ko'z ustiga, qosh ustiga” nomli maqolasida “Abay Qo'nonboy o'g'li...qozoq yozma adabiyotining bobosi, qozoq xalqining daho farzandi, ulug' shoiri, asl o'g'li darajasiga ko'tarila olgan adibdir...”, degan edi. Abay yaratgan ajoyib asarlar, ilgari surgan g'oyalar o'z xalqi orasidagina emas, balki umumturkiy xalqlar o'rtasida ham, shu jumladan qardosh va qondosh o'zbek xalqi ma'naviyatiga ham tegishlidir.

*Men o'lanni yozmayman ermak uchun,  
O'tgan-ketgan gaplarni termak uchun.  
Men o'lanni yozaman tushunganga,  
Avlodimga bir saboq bermoq uchun,*

degan Abay o'z she'rlarida muhabbatsiz, do'stliksiz hayot bo'lishi mumkin emas, uningsiz jamiyat uchun foydali ijod qilib bo'lmaydi, deya o'z xalqini ilm olishga, hunar egallashga, halol mehnat qilishga chaqirar ekan, ularning taqdirida ezgulik va ozodlikni ko'rishni orzu qiladi.

O'z davrining ma'rifatparvari sifatida Abay qozoq xalqining ko'p asrlik adabiy merosini yangi bir ruh bilan yanada boyitdi. Uning asarlari kishilikning azaliy orzusi bo'lgan tinch va osoyishta, ozod va obod ma'naviy orzularga erishish mehnati zamirida ilm, ma'naviy yetuklik hamda axloqiy go'zallik uyg'unligi kerakligi va bu yo'lda qozoq xalqini ittofoq bo'lishga da'vati mustaqillik davri yoshlari tarbiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev Abayga “Abay qozoq millatning ma'naviy islohotchisi”,-deya haqli baho berganda mutloq haq edi. [Tokayev, 2020].

### Iqtiboslar/Сноски/References

1. Абай. Шеърлар ва поэмалар. Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент. 1970. (Abay. She'rlar va poemalar. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. – Toshkent. 1970.)
2. Tokayev, K.-J. (2020). «Abay i Kazaxstan v XXI veke» - perevod stati Prezidenta RK Kasym-Jomarta Tokayeva / URL: [https://www.inform.kz/ru/abay-i-kazahstan-v-xxi-veke-perevod-stat-i-prezidenta-rk-kasym-zhomarta-tokayeva\\_a3618011](https://www.inform.kz/ru/abay-i-kazahstan-v-xxi-veke-perevod-stat-i-prezidenta-rk-kasym-zhomarta-tokayeva_a3618011).
3. Abay, Kunanbayev (1954). *Stixotvoreniya. Poemy. Proza.* – М.:GIXL, 416 с.
4. Abay (2015). *Yorqin yulduz: she'rlar, poemalar, nasihatlar* / To'plovchilar Q.Seydanov, M.Ahmad. - Т.:O'zbekiston, 248 b.
5. Rustamov, A. (2018). *Buyuk shoir va mutafakkir.* Adolat.№26. URL: <http://www.adolatgzt.uz/sociyety/5187>
6. Fazilova, K.B., Fazilov, J. (2022). Abay asarlari va madaniyatlararo muloqot. *ARES. Volume 3/Ussuye 4/P.859-867.* URL: <http://www.ares.uz/storage/app/uploads/public/626/6ca/9de/6266ca9de46a4106299292.pdf>.
7. Qo'chqorov, Ya. (2020) *Assalom, Abay!* / URL.: <https://uza.uz/uz/poss/assalom-abay-10-08-2020>
8. Abay. She'rlar va poemalar.G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. – Toshkent. 1970.

# TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

**Umirzakov Ulug'bek,**  
katta o'qituvchisi (PhD),  
Samarqand davlat universiteti  
Samarqand, O'zbekiston  
[umirzakovus66@mail.ru](mailto:umirzakovus66@mail.ru)

## ADABIYOTSHUNOSLIKDA AYOL OBRAZINI O'RGANISHNING ASOSIY NAZARIY YO'NALISHLARI



[10.5281/zenodo.19159585](https://doi.org/10.5281/zenodo.19159585)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada adabiyotshunoslikda ayol obrazini o'rganishning asosiy nazariy yo'nalishlari fransuz va o'zbek adabiyoti misolida yoritiladi. Tadqiqotda feministik va gender yondashuvlar asosida ayol obrazining badiiy talqini tahlil qilinadi. Fransuz adabiyotida ayolning shaxsiy erkinligi va ruhiy olami, o'zbek adabiyotida esa ayol obrazi milliy qadriyatlar va ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda ochib beriladi. Xulosa sifatida ayol obrazining badiiy ifodasi umumiy va milliy xususiyatlarni mujassam etishi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** ayol obrazi, ayol siymosi, gender nazariyasi, ijtimoiy qurilma, madaniy qurilma, discursiv qurilma

**Umirzakov Ulugbek,**  
Senior Teacher (PhD),  
Samarkand State University  
Samarkand, Uzbekistan  
[umirzakovus66@mail.ru](mailto:umirzakovus66@mail.ru)

## THE MAIN THEORETICAL APPROACHES TO THE STUDY OF THE FEMALE IMAGE IN LITERARY STUDIES

### ABSTRACT

This article examines the main theoretical approaches to the study of the female image in literary criticism, using examples from French and Uzbek literature. Based on feminist and gender approaches, the study analyzes the artistic interpretation of the female image. In French literature, personal freedom and the woman's inner spiritual world are revealed, whereas in Uzbek literature the female image is presented in close connection with national values and the social environment. In conclusion, it is emphasized that the artistic expression of the female image embodies both universal and national characteristics.

**Keywords:** image of woman, representation of woman, gender theory, social construct, cultural construct, discursive construct.

Умирзаков Улугбек,  
Старший преподаватель (PhD),  
Самаркандский государственный университет  
г. Самарканд, Узбекистан  
[umirzakovus66@mail.ru](mailto:umirzakovus66@mail.ru)

## ОСНОВНЫЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИЗУЧЕНИЯ ЖЕНСКОГО ОБРАЗА В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье на примере французской и узбекской литературы освещаются основные теоретические направления изучения женского образа в литературоведении. В исследовании на основе феминистского и гендерного подходов анализируется художественная интерпретация женского образа. В французской литературе раскрываются личная свобода и духовный мир женщины, тогда как в узбекской литературе женский образ представлен во взаимосвязи с национальными ценностями и социальной средой. В заключение подчеркивается, что художественное выражение женского образа воплощает в себе как общие, так и национальные особенности.

**Ключевые слова:** образ женщины, женский облик, гендерная теория, социальный конструкт, культурный конструкт, дискурсивный конструкт.

Adabiyotshunoslikda ayol obrazining tahlili zamonaviy gumanitar fanlarning kesishgan nuqtasida joylashgan muhim yo'nalishlardan biridir. Ayol obrazlari faqat estetik, syujet va tipologik jihatdan emas, balki ijtimoiy, gender va g'oyaviy kontekstda ham o'rganiladi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab adabiyotda ayol timsolini anglash va tushunish feminist adabiy tanqid, gynokrititsizm, gender nazariyasi kabi yondashuvlar orqali chuqurlashdi. Ushbu nazariyalar adabiyotdagi ayol tasvirini erkak mualliflar nigohidan emas, balki ayolning o'zi, uning tajribasi, hissiyoti va ijtimoiy mavqeyi bilan bog'liq holda tahlil qilishni taklif etadi.

Adabiyotda ayol obrazini o'rganish ko'p qatlamli, tarixiy va madaniy kontekstga ega murakkab jarayondir. Bu jarayon XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida bir ilmiy tahlil yo'nalishi sifatida shakllandi. Quyida ayol obrazini adabiyotshunoslikda o'rganishning asosiy nazariy yo'nalishlari keltiriladi:

Feministik adabiyotshunoslik (feminist literary criticism) vakillari ayol obrazining erkaklar hukmronligi ostida qanday tasvirlanganini va ijtimoiy ong'dagi gender stereotiplar adabiyotga qay tarzda singganini tahlil qiladi [1, 3-64, p.800, p.412, p.350]. Ularning fikricha, adabiyotda ayol obrazining tasvirlanishi quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi: ayol obrazining adabiy matnlarda erkak nuqtayi nazaridan yaratilganligini fosh etadi; patriarxal madaniyatning ta'sirini tahlil qiladi; ayol mualliflar ijodiga alohida e'tibor qaratadi; ayol mualliflar yozuv uslubini alohida estetik hodisa sifatida o'rganadi. "A Room of One's Own" nomli asar feministik adabiy tahlilga asos solgan muhim matnlardan biri hisoblanadi [2, p.3-50].

Gender yondashuvi (Gender studies in literature) vakillari gender tushunchasini faqat biologik emas, balki ijtimoiy, madaniy va diskursiv qurilma sifatida tushunishadi. Ayol va erkak obrazlari ushbu ijtimoiy konstruktsiyalar orqali o'rganiladi. Ushbu yo'nalish vakillarining qarashlari quyidagi xususiyatlarga ega: ayol va erkak obrazlarini o'zaro nisbatda tahlil qiladi; gender rollari va ularning adabiy ifodasini tahlil qiladi; "erkak" va "ayol" tushunchalarini adabiy kontekstda ochib beradi [3, p.180, p.700, p.250, p.260]. Feministik yondashuv faqat ayol subyektivligini markazga qo'ysa, gender yondashuvi har ikki jins obrazlarini ijtimoiy va madaniy qurilma sifatida ko'rib chiqadi.

Psixoanalitik adabiyotshunoslik (Psychoanalytic criticism) vakillarining fikricha, ayol obrazining adabiyotda namoyon bo'lishi inson psixikasi, ongliklik va ongsizlik kuchlari bilan bog'liq. Ular ayol obrazini orzular, travmalar va shaxsiyatning chuqur qatlamlari orqali tushuntiradi; ayol obrazidagi murakkab ichki kechinmalar tahlil qilinadi; matndagi ayol obrazlarining orzular, jamiyatdagi o'rni, yo'ldan adashish bilan bog'liqligi o'rganiladi [4, p.12, p.250].

Strukturalistik va poststrukturalistik yondashuv vakillari ayol obrazini matndagi kodlar, arxetiplar, oppozitsiyalar (masalan, erkak – ayol, kuch – zaiflik) orqali tahlil qiladi [5, p.30, p.200, p.210].

Fransuz adabiyotshunosligida ayol obrazining nazariy tahliliga oid yondashuvlar asosan *l'écriture féminine* (ayolona yozuv) konsepsiyasi atrofida shakllangan. Bu konsepsiya Hélène Cixous, Luce Irigaray va Julia Kristeva kabi fransuz faylasuf-ayol nazariyotchilar tomonidan ilgari surilgan. Hélène Cixous o'zining “Le rire de la Méduse” maqolasida ayollarning o'z go'zalligi, ong va his-tuyg'ularini ifodalash uchun alohida adabiy tilga ehtiyoji borligini ta'kidlaydi.

“Il faut que la femme s'écrive : que la femme écrive la femme et fasse venir les femmes à l'écriture, dont elles ont été éloignées aussi violemment que profondément ; en leur interdisant leur corps, c'est leur fonction d'écrivantes qu'on leur a confisquée” [6, p.39]. (“Ayol yozishi kerak: ayol o'zi haqida, boshqa ayollar haqida yozishi va boshqa ayollarni ham yozishga undashi kerak, chunki ularni yozishdan har tomonlama ajratib qo'yishgan; ularga o'z go'zalligini ifodalashni taqiqlab, aslida yozuvchi bo'lish vazifasidan ham mahrum qilishgan”).

Hélène Cixous ushbu maqolada patriarxal jamiyatda ayollarning yozuvdan, o'z go'zalligining yozma ifodasidan chetlashtirilganini tanqid qiladi. U ayollarni o'z go'zalligi va tajribasini yozma ifodalashga, o'z ovozi tiklashga chaqiradi.

Luce Irigaray ayolni patriarxal strukturalar orqali emas, balki o'zining ichki, ko'plikka asoslangan mavjudligi orqali tushunishni taklif qiladi. Ayollik – bu o'ziga xos va ko'p jihatli mavjudlik, uni erkak modeli bilan o'lchab bo'lmaydi. “La femme n'existe pas. Elle est ce sexe qui n'en est pas un. Ce n'est pas qu'elle n'ait pas de sexe. Mais qu'il y en ait plutôt trop pour qu'on en puisse dire un seul. Et qu'on ne puisse plus parler de la sexualité féminine autrement qu'à partir de ce trop” (Ayol mavjud emas. U yagona bo'lmagan bir jinsiy mavjudot. Va shu sababli ayol jinsiyati haqida boshqacha tarzda so'z yuritish imkonsiz va uni faqat ayol muallifgina tasvirlab bera oladi). Ta'kidlash joizki, bu kontekst Irigarayning asosiy poststrukturalist-feministik fikrini ifodalaydi va unga ko'ra ayol erkaklar yaratgan tilda va tafakkurda yagona, aniq “birlik” sifatida ifoda etilmaydi; ayollik tabiatiga ko'plik, ifoda etib bo'lmaydigan murakkablik xos; shuning uchun ayollarni anglash va ular haqida gapirishda erkaklar olamidagi “bitta”lik tushunchasini rad etish kerak.

Julia Kristeva ayollar va ularning obrazlari kontekstida abyektsiya nafaqat rad etish balki o'zaro bog'lanish va xavfni tan olish jarayoni ekanligini ta'kidlaydi. “Abjection est avant tout ambiguïté. Parce qu'en lâchant prise elle ne coupe pas radicalement le sujet de ce qui le menace – au contraire, l'abjection reconnaît qu'il est en danger perpétuel” (Abyektsiya eng avvalo noaniqlikdir. Chunki u charchatgandan so'ng subyektni uni tahdid qilgan narsadan keskin uzmaydi – aksincha, abyektsiya uning doimiy xavf ostida ekanligini tan oladi).

Christine Planté esa XIX asr oxiri va XX asr boshidagi fransuz ayol yozuvchilarining nazariy qarashlarini o'rganib, ularning ijodida nafaqat adabiy, balki intellektual qarashlar, ijtimoiy mavqe uchun kurash, ayollarning o'zligini izlash kabi dolzarb masalalar aks etganini ko'rsatadi. Camille Islet tomonidan yozilgan “Renée Vivien: une poétique sous influence”? nomli maqolada esa shoironing ijodi fransuz adabiyotida yangi, mustaqil ayol poetikasining vujudga kelganini ifodalaydi. Ushbu yondashuvlar orqali fransuz adabiy tafakkurida ayol obrazining chuqur va murakkab talqinlari yuzaga chiqadi [10, p.600].

Ushbu fransuz mutafakkirlarining yondashuvlari turlicha bo'lishiga qaramay, ularning barchasi ayol obrazini ijtimoiy, madaniy va adabiy konstruksiyalar orqali qayta ko'rib chiqadi. Ayolni passiv obyekt emas, balki o'z ovozigga ega bo'lgan faol subyekt sifatida tan olish zarurati ularning umumiy nuqtasidir. Bu tahlillar zamonaviy gendershunolik, poststrukturalizm va feministik poetika sohalarida ayollar mavqeyini qayta belgilashda muhim nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotshunoslikda ayol obrazini o'rganishning asosiy nazariy yo'nalishlarini tasvirlashda Gi de Mopassan ijodining ta'siri haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mopassan ijodida bu yo'nalish uchun muhim tahlil obyekti bo'ladigan ko'plab ayol obrazlari mavjud. U asarlarida ayollarni nafaqat muhabbat obyekti sifatida, balki ularning ijtimoiy nohaqliklarga qarshi kurashi, yolg'izligi va jamiyatda o'z o'rnini topishga urinishi bilan ham tasvirlaydi. Ayniqsa, uning "Le baiser" asarida ayol qiyofasi ko'p qirrali va psixologik chuqurlikka ega holda ochiladi.

"Ma chérie, nous avons aux mains le plus terrible pouvoir qui soit: l'amour. L'homme, doué de la force physique, l'exerce par la violence. La femme, douée du charme, domine par la caresse. C'est notre arme, arme redoutable, invincible, mais qu'il faut savoir manier [11, p.281]". (Jonim, bizning qo'limizda mavjud bo'lgan eng dahshatli kuch – bu muhabbat. Erkak, jismoniy kuch bilan siylangan bo'lib, bu kuchni zo'ravonlik orqali namoyon qiladi. Ayol esa, joziba bilan siylangan bo'lib, mehr bilan hukmronlik qiladi. Bu – bizning qurolimiz, qo'rqinchli, yengilmas qurol, biroq uni to'g'ri ishlatish kerak).

Mopassan bu parcha orqali ayolning kuchi jismoniy emas, balki ruhiy va estetik darajada ekanini ta'kidlaydi. U ayolni nozik, ammo kuchli qurolga ega mavjudot sifatida tasvirlaydi – bu qurol muhabbat va erkalash (caresse) bo'lib, erkakning zo'ravonligidan ham kuchliroq sanaladi.

Mopassan nazarida ayolning jamiyatdagi roli bevosita hissiy nazorat bilan bog'liq. Erkaklar kuch bilan hukmronlik qilsa, ayollar sezilarli joziba va mehr bilan odamlar ustidan nazorat o'rnatadi. Bu, bir tomondan, ayol obrazining ijobiy talqini bo'lishi mumkin – u kuchsiz emas, balki o'z uslubida hukmron. Muallif ayol kuchini "qurol" deb ataydi – bu esa, mehr va jozibani nazorat qilinishi kerak bo'lgan kuch sifatida ko'rsatadi. Bu ayollarning jamiyatdagi ta'siri haddan ortiq bo'lishi yoki noto'g'ri ishlatilsa xavfli oqibatlariga olib kelishini anglatadi.

Mopassan ayol va erkakni an'anaviy rollarda ko'rsatadi: erkak – kuch, ayol – joziba; erkak – zo'ravonlik, ayol – mehr. Bu biologik farqlarga urg'u berilgan bo'lsa-da, bu qarashlar bugungi kunda ko'plab tanqidchilarning munozarasiga sabab bo'ladi, chunki bu ayollarni faqat go'zallik va hissiyot doirasida chegaralaydi.

Bu parcha orqali muallif ayol obrazini ikki qirrali qilib tasvirlaydi: bir tomondan – u hissiy iloh, boshqa tomondan – xavfli manipulyator. Muhabbat orqali hukmronlik qilish qobiliyati uni kuchli qiladi, ammo ayni paytda ayb yuklaydi – mehr ayolning eng yengilmas quroli bo'lsa-da, uni noto'g'ri ishlatish – jamiyatni izdan chiqarishi mumkin.

Shuningdek, muallif ushbu parcha orqali ayollarni zaif emas, balki sezgi, joziba va mehr orqali kuchga ega bo'lgan mavjudot sifatida tasvirlaydi. Ular zo'ravon emas, lekin hissiy ta'sir kuchi ulkan. Biroq bu kuch mas'uliyat talab qiladi – bu esa ayol obrazini faqat go'zallik emas, balki mas'uliyatli ijtimoiy kuch sifatida ko'rsatadi.

Mopassan ijodi, ayniqsa uning qisqa hikoyalari, inson psixologiyasining nozik jihatlarini aks ettirishi bilan ajralib turadi. Ayol obrazlari ko'pincha ichki ziddiyatli, ongi ostidagi istaklar va ijtimoiy majburiyatlar o'rtasida bo'linib qolgan holda tasvirlanadi. Bu jihat "Madmuazel Fifi" asarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Psixoanalitik tahlil Mopassanga ayol obrazlarining ichki iztiroblarini, ularning qarorlarida ong osti motivlarini yoritishga imkon beradi.

"Elle n'avait point fini qu'il la giflait à toute volée; mais comme il levait encore une fois la main, affolée de rage, elle saisit sur la table un petit couteau de dessert à lame d'argent,

et si brusquement, qu'on ne vit rien d'abord, elle le lui piqua droit dans le cou, juste au creux où la poitrine commence" [12, p.25] (U gapini ham tugatmasdan, u (ofitser) ayolning yuziga shiddat bilan tarsaki tushirdi; lekin yana bir bor qo'lini ko'tarayotganida, g'azabdan esankiragan ayol, stol ustidan kumush pichoqni shunchalik chaqqonlik bilan oldiki, hech kim nima bo'lganini payqamadi ham – u pichoqni bevosita uning bo'yniga, ko'krak boshlanadigan joyga sanchdi).

Bu parcha asarning dramatik cho'qqisidir. Nemis ofitseri ayolni haqorat qilgani va unga tarsaki tushirgani bilan o'zini kuchli deb ko'rsatmoqchi bo'ladi. Ammo bu sahna kutilmagan burilishga olib keladi: Rachel zulmga bo'ysunmaydi va uning harakati – ayolning jur'ati, g'ururi va adolat tuyg'usining portlashida namoyon bo'ladi. U bu zo'ravonlikka javob qaytaradi. Mopassan uni faqat qurbon sifatida emas, balki faol, qarshilik ko'rsata oladigan, irodali shaxs sifatida tasvirlaydi va muallif bunda quyidagi badiiy vositalardan foydalanadi: Elle n'avait point fini... – ishning naq o'rtasida tarsaki tushishi sahnaning zo'riqishini kuchaytiradi; affolée de rage – ayolning hissiy holatini aniq ifodalaydi: bu shunchaki himoya emas, balki g'urur portlashi; si brusquement, qu'on ne vit rien d'abord – harakat tezligi, kutilmaganligi urushda ham, jamiyatda ham ayollarning qanchalik faol harakatga qodirligini ko'rsatadi. Pichoq bilan bo'yniga zarba berilishi – ayolning erkak hukmronligi, zo'ravonlik va urush ruhiga qarshi qilgan qarshi hujumidir. Ko'krak boshlanadigan soha – hayot va yurak joyi, bu ramz sifatida o'lim orqali adolat tiklanishini bildiradi. Ushbu sahna Mopassan ijodidagi ayol kuchining, jasoratining, erkak zo'ravonligiga qarshi turgan ruhiy qat'iyatining eng yorqin timsollaridan biridir. Rashel bu harakati bilan faqat bir erkakka emas, balki butun bosqinchi mafkuraga qarshi chiqadi.

Ayol obrazini sotsial-tarixiy kontekstda o'rganish orqali yozuvchi asaridagi ayollarning jamiyatdagi mavqeyi, huquqlari, iqtisodiy va ijtimoiy sharoiti bilan bog'liq xususiyatlar tahlil qilinadi. Mopassan ijodi XIX asr oxiri Fransiyada mavjud burjua jamiyati va uning axloqiy qadriyatlarini aks ettirgani bois, uning ayol obrazlari ko'pincha ijtimoiy tengsizlik, erkaklar ustunligiga asoslangan tizimda ayollarning majburiy moslashuvi yoki qarshilik harakatlarini ifodalaydi. Masalan, "Juditta" va "Ayol hayoti" hikoyalarida ayollarning hayotga, jamiyatga, erkaklarga bo'lgan munosabati orqali o'sha davrning ijtimoiy haqiqatlari ko'rsatiladi.

Ushbu yondashuvda ayol obrazining madaniy kodlar, milliy stereotiplar va boshqa matnlar bilan aloqasi o'rganiladi. Mopassan asarlaridagi ayol obrazlari fransuz madaniyatida ayollarga bo'lgan munosabatni, diniy axloq, estetik ideal va gender stereotiplarini tahlil qilish imkonini beradi. Uning hikoyalarida Vatan, ona, mehr-muhabbat, xiyonat, axloqiy inqiroz kabi tushunchalar orqali ayollar turli madaniy rollarda gavdalanadi. Mopassan asarlarining boshqa fransuz yozuvchilari – Balzak, Flober yoki Zolya asarlari bilan intertekstual aloqasi mavjud bo'lib, ayol obrazining evolyutsiyasini taqqoslashda muhim manba bo'la oladi.

Adabiyotda ayol obrazini o'rganish nazariy yondashuvlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu obrazlar orqali jamiyatdagi gender tengsizligi, axloqiy qadriyatlar, psixologik ziddiyatlar va madaniy stereotiplar yoritiladi. Mopassan ijodi aynan shu jihatlari bilan ahamiyatlidir. U ayol obrazini oddiy, passiv mavjudot sifatida emas, balki ichki olami boy, jamiyat bilan ziddiyatli munosabatda bo'lgan, kuchli irodali inson sifatida ko'rsata oldi. Uning ijodi feministik, psixoanalitik va sotsial-tarixiy tahlillar uchun boy material manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Rus adabiyotshunosligida ayol obrazining tahlili asosan klassik adabiyotdagi ayol qahramonlarga e'tibor qaratgan holda olib borilgan. M.I. Galaeva o'z maqolasida rus yozuvchilarning asarlarida ayol obrazlari qanday ochilishini syujet, xarakter va ijtimoiy vaziyatlar asosida tahlil qiladi. Galaevaga ko'ra, rus adabiyotida ayol obrazi ko'pincha ideallashtirilgan, fojiali, sevuvchi, fidoyi va jamiyatdan chetlatilgan holatda tasvirlangan. Bu obrazlar orqali o'quvchi jamiyatdagi ayollarning real ijtimoiy mavqeini emas, balki erkak mualliflar tomonidan yaratilgan badiiy konstruksiyani ko'radi [13, C.31-37].

E.V. Golovina esa “ayol obrazi” terminini lingvistik va adabiy jihatdan nazariy asoslab, uning tiplari va funktsiyalarini aniqlaydi. Uning fikricha, ayol obrazlari muayyan semantik maydonlarda mavjud bo‘lib, ular madaniy va tarixiy kontekstlardan kelib chiqqan holda shakllanadi [14, C.100-104]. Bunday yondashuvlar orqali rus adabiyotshunosligi ham ayol obrazini o‘rganishda murakkablik, ko‘pqirralilik va dinamiklikni ta‘minlaydi.

Ayol insoniyat tarixining ajralmas va muhim bir qismi sifatida adabiyotda doimo markaziy mavzulardan biri bo‘lib kelgan. U nafaqat biologik mavjudot sifatida, balki go‘zallik, mehr, sabr, fidoyilik va ilhom manbayi sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa, badiiy adabiyotda ayol obrazining ko‘p qirrali va murakkab talqinlari adabiy-estetik qadriyatlarining rivojiga bevosita ta‘sir ko‘rsatgan. Adabiy merosimizda ayol obrazining ilohiy go‘zallik timsolida aks etishi A. S. Pushkin ijodida yorqin namoyon bo‘ladi. Uning asarlarida tasvirlangan ayollar nafaqat tashqi go‘zallik, balki ichki ma‘naviy yuksaklik, samimiyat va muhabbat timsoli sifatida gavdalanadi. Xuddi shuningdek, Lev Tolstoyning “Anna Karenina” yoki “Urush va tinchlik” kabi asarlarida maftunkor ayol obrazlari insoniy kechinmalar va ichki ziddiyatlar orqali chuqur tahlil etiladi [15, B.155-166].

I. S. Turgenev asarlarida ayol obrazi ko‘pincha ruhiy jihatdan mustaqil, aql-zakovatga ega, jamiyatdagi o‘z o‘rnini izlayotgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu ayollar o‘z zamonasining jamiyati bilan kurashayotgan, o‘zini anglashga harakat qilayotgan obrazlar bo‘lib, ularda ayolning ichki dunyosi chuqur ochib beriladi. N. A. Nekrasov esa, o‘zining mashhur “Rossiyada kim baxtiyor yashaydi?” asarida oddiy dehqon ayol obrazlarini yaratib, ularning mehnatsevarligi, chidamliligi va fidoyiligini alohida ta‘kidlaydi. Bu obrazlar orqali shoir ayolning real hayotdagi og‘ir taqdirini, ammo qudratli ichki kuchga ega ekanligini ko‘rsatadi [15, B.155-166].

XX asr adabiyoti esa ushbu an’anani davom ettirgan holda, ayol obrazini yanada chuqurroq psixologik, ijtimoiy va falsafiy jihatlarda tasvirlashga harakat qildi. Ayniqsa, bu davr shoir va yozuvchilari ayolni nafaqat go‘zallik va muhabbat timsoli, balki intellektual salohiyatga ega, teng huquqli shaxs sifatida talqin eta boshladilar. Bu esa adabiyotda ayol obrazining yangi bosqichga ko‘tarilganini anglatadi. Ayol obrazi adabiyotda doimo ilhom manbayi bo‘lib kelgan. Har bir davr adibi o‘z asarlarida ayolning go‘zalligi, ruhiy boyligi va ijtimoiy mavqeyini o‘ziga xos badiiy vositalar orqali yoritgan. Bu esa adabiyotda ayol obrazining abadiyligini va dolzarbligini tasdiqlaydi.

O‘zbek adabiy tafakkurida ayol obrazi har doim o‘ziga xos g‘oyaviy va estetik yuklamaga ega bo‘lgan. Bu obraz nafaqat go‘zallik va nafosat timsoli, balki ma‘naviy qudrat, aql-zakovat, sabr-toqat va fidoyilik bilan uyg‘unlashgan holda tasvirlangan. Xalq og‘zaki ijodida, ayniqsa tarixiy rivoyat va dostonlarda ayol siymosi ko‘pincha buyuk voqealarning markazida turadi, milliy iftixor va ilhom manbayi sifatida talqin qilinadi. Shunday yuksak timsollardan biri “To‘maris” obrazidir. U o‘zbek xalq og‘zaki ijodining betakror yodgorligi bo‘lib, faqatgina tarixiy shaxs emas, balki ayol degan ilohiy xilqatning kuch-qudrati, g‘ururi va ozodlikka bo‘lgan intilishining ramzi sifatida avlodlar xotirasida yashab kelmoqda. To‘maris siymosida xalqimiz o‘zining jasoratli, mard va dono ayollarini ko‘radi. U bir vaqtning o‘zida ham sarkarda, ham ona, ham xalq taqdirini belgilovchi dono rahbar sifatida namoyon bo‘ladi. To‘maris xalq og‘zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham ayol obrazining ulkan namunasi sifatida yuksak qadrlanadi. U orqali biz nafaqat o‘tmishdagi ulug‘ ayolni tanib olamiz, balki bugungi kun ayolining ichki kuchi, ma‘naviy qudrati va jamiyatdagi ahamiyatini chuqur anglaymiz. To‘maris siymosi – ayolning go‘zallik va jasorat, nafosat va kuch, fidoyilik va donolik uyg‘unligidagi badiiy timsolidir [16, B.132].

O‘zbek adabiyoti o‘zining boy tarixiy-madaniy ildizlariga tayanib, har doim insonparvarlik g‘oyalarini, hayotiy haqiqatni va ruhiy-ma‘naviy olam masalalarini o‘rganishga intilib kelgan. Bu jarayonda ayol obrazi alohida badiiy-estetik va falsafiy yuklama bilan tasvirlangan. O‘zbek she‘riyatida ayol siymosi orqali xalqimizning eng oliyanob fazilatlari, hayotga munosabati, mehr-oqibat va sabr-toqat kabi qadriyatlar badiiy

ifodasini topgan. Adabiy tafakkurimizda ayol – bu ilhom manbayi, hayotning o'zi, yaratuvchanlik timsoli sifatida qaraladi. Shu bois, adabiyot tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ko'plab shoir va yozuvchilarning yuragini junbushga keltirgan, qalami bilan yuragini birlashtirib bitgan ayol obrazlarini ko'ramiz. Ayol bu yerda oddiy qahramon emas, balki insoniyat go'zalligining, nafis tuyg'ularning, pok niyatlarning timsolidir.

O'zbek mumtoz adabiyotida bu an'ana Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug' adiblarimiz ijodida yorqin namoyon bo'ladi. Navoiy "Xamsa"sidagi ayol obrazlari ma'naviy barkamollik, go'zallik va ruhiy poklik mezonlari bilan ajralib turadi. Boburning she'riy merosida esa ayol siymosi nafaqat muhabbat va ilhom timsoli, balki yurakdagi eng nozik kechinmalarni aks ettiruvchi obraz sifatida gavdalanadi. Zamonaviy o'zbek adabiyotida ham ushbu an'ana davom etmoqda. Ayol hayoti, taqdiri, jamiyatdagi o'rni, qalb kechinmalari va orzulari chuqur badiiy tahlil etiladi. Ayniqsa, ayolning ichki dunyosini, murakkab psixologik holatlarini ochib berishga qaratilgan adabiy asarlar soni ko'paymoqda. Bu esa adabiyotda ayol obrazining borgan sari ko'p qirrali, teran ma'no kasb etayotganidan dalolatdir [17, 34-40].

*O'tkir Hoshimov o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri sifatida ayol obrazini tasvirlashda alohida o'rin egallaydi. Uning asarlarida ayollar hayoti, ularning ichki dunyosi, ijtimoiy o'rni va insoniy qadr-qimmati chuqur tahlil etiladi. O'tkir Hoshimov ayollar obrazini ideallashtirish yoki faqat badiiy bezak sifatida emas, balki jamiyatdagi real o'rnini ko'rsatishga harakat qilgan. U ayolni insoniy fazilatlar, ichki ruhiy kurashlar va hayotiy sinovlar orqali tasvirlaydi. Masalan: "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarida muallif onasining obrazini chuqur mehr va samimiyat bilan tasvirlaydi. Onaning mehribonligi, sabr-toqati, mehnatsevarligi orqali o'zbek ayolining umumlashma qiyofasini yaratadi. Bu obrazda oddiy o'zbek ayolining ulug'vorligi, oilaviy qadriyatlarga sadoqati, hayotdagi izchil va barqaror roli aks ettirilgan. O'tkir Hoshimov ayolni oilaning tayanchi, sabr-matonat ramzi sifatida ko'rsatadi. Ayolning sabrli, bardoshli va o'zini oilaga bag'ishlagan qiyofasi muallifning deyarli barcha asarlarida mavjud. Ayniqsa, onalarning jasorati va mehribonligi yozuvchining bosh mavzularidan biridir. "Agar dunyoda ayol bo'lmaganida, hayot ham bo'lmas edi..." – degan fikr O'. Hoshimovning ayolga bo'lgan chuqur hurmatini anglatadi [18, www.iupr.ru].*

*Muallif o'z asarlarida ayollar ruhiy olamini puxta tahlil qiladi. Ularning tashqi hayotdagi kurashlari bilan birga, ichki kechinmalari, umidlari, armonlari, baxt izlab qilgan harakatlarini ham ko'rsatadi. "Bahor qaytmaydi" romanida Lola obrazida zamonaviy ayolning mustaqil fikrlashi, o'z yo'lini tanlashdagi qat'iyati tasvirlangan. Bu orqali muallif ayolni jamiyatdagi passiv emas, balki faol ijtimoiy shaxs sifatida ko'rsatgan. O'. Hoshimov o'zbek ayollarining milliy qadriyatlar va urf-odatlariga sadoqatini yuksak baholaydi. Onalar obrazida an'anaviy tarbiya, halollik, e'tiqod, mehnat va oilaparvarlik g'oyalari ifodalanadi. Onaning bolaga bergan tarbiyasi orqali jamiyat axloqiy poydevori mustahkamlanadi, degan g'oya yozuvchining ko'pgina publitsistik va badiiy asarlarida ilgari suriladi. O'tkir Hoshimov ijodida ayol – bu ona, rafiqqa, opaxon, oila bekasi, muhabbat timsoli, fidoyi inson sifatida talqin etiladi. U ayollarni kuchli iroda sohibasi, jamiyat hayotining faol ishtirokchisi deb hisoblaydi [18, www.iupr.ru].*

*O'tkir Hoshimov o'zbek adabiyotida ayol obrazini insoniylik, ruhiy olam, milliy qadriyatlar va jamiyatdagi ijtimoiy o'rni bilan uyg'un holda tasvirlaydi. Uning asarlaridagi ayollar – hayotning bosh manbayi, muhabbat va mehr timsoli, chin insoniy qadr-qimmat egalari. Bu orqali yozuvchi o'zbek ayollarining o'ziga xos ma'naviy dunyosini va ulug' siymosini badiiy adabiyot orqali abadiylashtirgan.*

### Iqtiboslar/ Сноски/ References

1. Cixous, H. *Le rire de la Méduse*. – Paris: L'Arc, 1975. – 64 p. ; de Beauvoir, S. *Le Deuxième Sexe*. – Paris: Gallimard, 1949. – 873 p. ; Millett, K. *Sexual Politics*. New York: Doubleday, 1970. – 416 p.; Showalter, E. *A Literature of Their Own: British Women Novelists from Brontë to Lessing*. – Princeton: Princeton University Press, 1977. – 396 p.
2. Woolf, Virginia. *A Room of One's Own*. – London: Hogarth Press, 1935. – 55 p.
3. Butler, J. *Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity*. – New York: Routledge, 1990. – 188 p.; Gilbert, S. M. & Gubar, S. *The Madwoman in the Attic: The Woman Writer and the Nineteenth-Century Literary Imagination*. – New Haven: Yale University Press, 1979. – 719 p.; Chodorow, N. *The Reproduction of Mothering: Psychoanalysis and the Sociology of Gender*. – Berkeley: University of California Press, 1978. – 276 p.; Sedgwick, E. K. *Epistemology of the Closet*. – Berkeley: University of California Press, 1990. – 284 p.
4. Kristeva, J. *Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art*. Edited by Leon S. Roudiez, -New York: Columbia University Press, 1980. – 15 p.; Lacan, J. *Écrits: A Selection*. Translated by Alan Sheridan. – London: Routledge, 1977. – 281 p.;
5. Barthes, R. *Le plaisir du texte*. – Paris: Seuil, 1973. – 40 p.; Barthes, R. *Mythologies*. – Paris: Seuil, 1957. – 239 p.; Greimas, A. J. *Du sens: Essais sémiotiques*. – Paris: Seuil, 1970. – 266 p.
6. Cixous, H. *Le rire de la Méduse*. – Paris: L'Arc, 1975. – p 39.
7. Irigaray, L. *Ce sexe qui n'en est pas un*. – Paris: Éditions de Minuit, 1977. – p.13. (– 217 p.)
8. Kristeva, J. *Pouvoirs de l'horreur: Essai sur l'abjection*. – Paris: Edition du Seuil, 1983. – P. 3. (– 247 p.)
9. Planté, Ch. *La Petite Sœur de Balzac* –Lyon: Presses universitaires de Lyon, 1989. – 364 p.
10. Islert, C. *Renée Vivien: une poétique sous influence?* – Lyon: Presses universitaires de Lyon, 2024. – 624 p.
11. Guy de Maupassant. *Les sœurs Rondoli*. – Paris: Paul Ollendorf, 1884. – 308 p. (– P. 281.).
12. Guy de Maupassant. *Mademoiselle Fifi*. – Paris: Paul Ollendorff, 1898. – 241 p. (– P. 25.)
13. Галаева М.И. Особенности раскрытия женского образа в произведениях русских писателей / *Международный научный журнал Вестник науки*. №5. – Тольятти: eLibrary 206-05.2018, 2021. – С. 31-37.
14. Головина, Е.В.(2016). Категория “художественный женский образ” в лингвистике и литературоведении / *Филологические науки. Вопросы теории и практики*. № 11(65): в 3-х ч. Ч. 1. – Тамбов: Грамота, 2016. – С. 100-104. Адрес журнала: [www.gramota.net/editions/2.html](http://www.gramota.net/editions/2.html)
15. UMAROVA, F.B. *Ingliz va o'zbek nasrida ayol obrazining badiiy tasviri / O'zbekistonda xorijiy tillar*, № 3 (44). 2022. – С. 155-166. URL: – <https://journal.fledu.uz> (Murojaat sanasi: 07.08.2025 yil).
16. Osim, Mirkarim. *To'maris: tarixiy qissa* . – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 144 b.
17. Xalova, M.A. *She'riyatda ayol qalbi // Xorijiy filologiya*, №1. – Samarqand: SamDCHTI, 2020. – B. 34-40.
18. Fayzullayeva M.B. O'. *Hoshimov asarlarida “ona” va “ayol” obrazlari talqini // "Экономика и социум"* №6(109)-2. 2023. URL: [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru) (Murojaat sanasi : 07.08.2025 yil).

# TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

G'aybullayeva Umida,  
doktarant,  
Navoiy davlat universiteti  
Navoiy, O'zbekiston  
[umidagaybulloyeva@gmail.com](mailto:umidagaybulloyeva@gmail.com)

## SHAROF RASHIDOVNING "KASHMIR QO'SHIG'I" QISSASIDA MIFOPOETONIMLAR



[10.5281/zenodo.19159635](https://doi.org/10.5281/zenodo.19159635)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Sharof Rashidovning "Kashmir qo'shig'i" qissasidagi mifopoetonimlarning badiiy mazmuni, lingvopoetik xususiyatlari va funksional yuklamalari tadqiq etilgan. Asarda qo'llangan mifologik obrazlar, tabiat unsurlari, o'simlik va hayvonotga oid poetonimlar, diniy-ma'naviy manbali nomlar hamda Sharq mifopoetik tafakkuriga xos timsollar o'rganildi. Qissaning poetik tizimida mifopoetonimlarning syujetni kuchaytirish, timsollar qatlamini chuqurlashtirish hamda qahramonlar ruhiy olamini ochishdagi o'rni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari mifopoetika, badiiy semantika, poetonimika va Rashidov ijodi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga hissa qo'shadi.

**Kalit so'zlar:** mifopoetonim, lingvopoetika, poetonimik tizim, timsol, mifologiya, badiiy nomlar

Gaybullaeva Umida,  
doctoral student,  
Navoi State University  
Navoi, Uzbekistan  
[umidagaybulloyeva@gmail.com](mailto:umidagaybulloyeva@gmail.com)

## MYTHOPOETONYMS IN SHAROF RASHIDOV'S STORY "KASHMIR SONG"

### ABSTRACT

This article examines the artistic content, linguopoetic features, and functional loads of mythopoetonyms in Sharof Rashidov's story "Kashmir Song." The mythological images used in the work, elements of nature, poetonyms related to plants and animals, names with religious and spiritual sources, and symbols characteristic of Eastern mythopoetic thinking were studied. From a scientific point of view, the role of mythopoetonyms in the poetic system of the story in strengthening the plot, deepening the layer of symbols, and revealing the spiritual world of the heroes was analyzed. The results of the research contribute to scientific research on mythopoetics, artistic semantics, poetonymy, and the work of Rashidov.

**Keywords:** mythopoetonym, linguopoetics, poetonymic system, symbol, mythology, artistic names.

Умида Гайбуллаева,  
докторант,  
Навоийский государственный университет  
Навои, Узбекистан  
[umidagaybullojeva@gmail.com](mailto:umidagaybullojeva@gmail.com)

## МИФОПОЭТОНИМЫ В ПОВЕСТИ ШАРАФА РАШИДОВА “КАШМИРСКАЯ ПЕСНЯ”

### АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуются художественное содержание, лингвопоэтические особенности и функциональные нагрузки мифопоэтонимов в повести Шарафа Рашидова “Кашмирская песня”. Изучены мифологические образы, использованные в произведении, элементы природы, поэтонимы, связанные с растениями и животными, названия с религиозно-духовными источниками, а также символы, характерные для восточного мифопоэтического мышления. В поэтической системе повести с научной точки зрения проанализирована роль мифопоэтонимов в усилении сюжета, углублении слоя образов и раскрытии духовного мира героев. Результаты исследования вносят вклад в научные исследования по мифопоэтике, художественной семантике, поэтонимике и творчеству Рашидова.

**Ключевые слова:** мифопоэтоним, лингвопоэтика, поэтонимическая система, символ, мифология, художественные имена.

**Kirish.** XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Sharof Rashidov adabiy merosida xalq ruhiyati, tarixiy-madaniy qatlamlar va Sharq poetik tafakkuri chuqur aks etadi. Uning “Kashmir qo‘shig‘i” qissasi badiiy-falsafiy ko‘lamning kengligi, timsollar tizimining boyligi hamda mifopoetik qatlamning kuchliligi bilan ajralib turadi. Qissada inson va tabiat uyg‘unligi, muhabbatning pokligi, sharqona go‘zallik tushunchasi, xalqona tasavvurlar, diniy-axloqiy ramzlar mifopoetonimlar orqali ifodalanadi. Mifopoetonim — adabiy matnda mifologik, ramziy, arxaik, sakral mazmun yuklangan nomlar tizimi bo‘lib, obrazlar semantikasini chuqurlashtiradi. Mazkur maqolaning dolzarbligini shundan iboratki, Rashidov qissasi hozirgacha adabiyotshunoslikda ko‘proq g‘oyaviy-badiiy talqin nuqtai nazaridan o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning mifopoetik qatlamiga, xususan, mifopoetonimlarga bag‘ishlangan lingvopoetik tadqiqotlar etarli emas. Shu sabab, maqolada asardagi mifopoetonimlarning turlari, semantik xususiyatlari, ularning qahramonlar xarakteri, syujet dinamikasi va umumiy badiiy-estetik konsepsiyadagi o‘rni tizimli yoritiladi.

**Metodologiya.** Badiiy adabiyotda ijodkorlar poetonimlardan obrazlar yaratishda unumli foydalanadilar. Asarda qahramon nomlari, joy nomlari, narsa nomlari, davr nomlari atoqli otlar bilan nomlanadi. Rus tilshunosi A.Nikov “personaj ismi –badiiy obrazni yaratuvchi vositalardan biri bo‘lib, u personajning ijtimoiy mansubligini, o‘ziga xos belgilarini xarakterlaydi, agar voqealar o‘tmishda sodir bo‘lgan bo‘lsa, tarixiy haqiqatni ham yaratishi mumkin “ –deb ta’kidlaydi.[2] Poetik onomastika fanini mustaqil fan sifatida turli olimlar o‘rganishgan. Masalan, K.B.Zaytseva uni “stilistik onomastika” deb atashni ilgari surgan va uning kichik bo‘limlarini “stilistik antroponimiya”, “stilistik toponimiya” sifatida nomlashni taklif qiladi.

M.V.Karpenko esa “adabiy antroponimika” atamasidan foydalanishni afzal ko‘rgan. Xuddi shu atama L.M.Shchetinin [3]asarlarida ham uchraydi.

E.B.Magazanik va L.I.Roizenzon Onomastikaning “onomopoetika” va “onomostilistika” bo‘limlarini farqlashga uringan, shu bilan birga ular “onomopoetika”, ya’ni badiiy matnlarda atoqli otlarning lingvopoetik xususiyatlarini o‘rgansa, “onomostilistika”

esa, matnni ko'proq lingvistik jihatdan o'rganadi deb hisoblashgan. O'zbek tilshunosligida poetonimlarni o'rganishni filologiya fanlari doktori D.Xudoyberganova boshlab bergan. Olimaning "O'zbek she'riyatida poetonimlar lug'ati" kitobi o'zbek lug'atchiligida yangi burilish yasadi. D.Xudoyberganovanning fikricha, "Nomlar bir xalqning badiiy adabiyotda muhim o'rin tutuvchi birliklar sifatida mazkur adabiyotga xos bo'lgan ijodiy ananalar, uning badiiyatiga daxldor jihatlar, yozuvchi uslubini belgilovchi omillar xususida ham ma'lumot beradi". Badiiy matnlardagi poetonimlarning maxsus guruhi muallif poetonimlaridan iborat – individual mualliflik g'oyasini o'zida mujassam etgan va markaziy badiiy g'oyaning tashuvchisi bo'lgan neologizmlarning bir turidir. [4]

Poetonimlar so'zlashuv shakliga ega bo'lishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda "poetonim" atamasini aniqlash bo'yicha ikkita nuqtayi nazar mavjud: "tor" – adabiy va "keng" – onomastik. Adabiy nuqtayi nazardan, poetonimlar "o'ziga xos she'riy ma'noga ega bo'lgan ismlar: mifologik, ekzotik ismlar" ni o'z ichiga oladi. [5]

Adabiy tanqiddan farqli o'laroq, onomastikada "poetonim" atamasining ma'nosi boshqacha. "Rus onomastik terminologiyasi lug'ati" da poetonim bu – badiiy adabiyotda nominativ, tavsiflovchi, stilistik va mafkuraviy funksiyalarga ega bo'lgan ism deb beriladi. Odatda u to'qima ismlar toifasiga kiradi, lekin ko'pincha yozuvchi haqiqiy ismlardan yoki ikkalasining kombinatsiyasidan foydalanadi". [6]

V.M.Kalinkinning fikricha, "poetonim" atamasi mazmunning prinsipial dinamikasi, onomastik yoki apellatsiya leksikasiga mansubligining beqarorligi bilan ajralib turadigan badiiy matnning atoqli nomidir. [7]

A.A.Fomin poetonimni "badiiy matnda she'riy funksiyani bajarish jihatidan olingan atoqli nom" deb biladi. [8] E.N.Loskutova poetonimlar deganda badiiy asar qahramonlarining ismlarini tushunadi.

Ba'zi tadqiqotchilar poetonimni adabiy janr matnida ko'rib chiqadi. Masalan, T.V.Nemirovskaya [9] poetonimlarni she'riy asarlar bilan bog'liq hodisa deb hisoblasa, N.V.Podolskaya "Rus onomastik terminologiyasi lug'ati" [10] da poetonimni "badiiy adabiyot tiliga" tegishli atama sifatida ko'rib chiqadi.

Ko'pgina olimlar (V.M.Kalinkin, A.A.Fomin, L.M.Axmetzyanova, A.V.Superanskaya, S.P.Vasileva, E.V.Voroshilova va boshqalar) "poetonim" tushunchasini badiiy matndagi atoqli otlar ekanligi va uning universal xususiyatini tan olishadi, chunki bu hodisa adabiydir va adabiy jihatdan o'rganiladi, deb hisoblaydilar. [11]

Mazkur maqoladagi tadqiqotimiz quyidagi metodlar asosida olib borildi:

2.1. *Lingvopoetik tahlil metodi*. Poetonimlarning badiiy-estetik vazifalari, metaforik, ramziy va assotsiativ qatlamlari aniqlanadi.

2.2. *Mifopoetik yondashuv*. Mifologik timsollar, arxaik tasavvurlar, Sharq mifologiyasi elementlari asosiy manba sifatida o'rganiladi.

2.3. *Semantik va etimologik tahlil*. Nomlarning ichki ma'nosi, tarixiy ildizi, madaniy qatlamlari aniqlanadi.

2.4. *Komparativ metod*. Sharq adabiy an'analari, xususan, hind, fors-tojik, turkiy mifologiya bilan qiyosiy tahlil qilinadi.

2.5. *Struktur-funksional yondashuv*. Mifopoetonimlarning asardagi kompozitsion, syujet va obraz yaratishdagi funktsiya va o'rni belgilab olinadi.

**Natijalar.** Tahlil jarayonida qissadagi mifopoetonimlar uch asosiy guruhga ajratildi:

1. Tabiatga oid mifopoetonimlar. Qissada Kashmir manzaralari tasvirida tabiat unsurlari ko'pincha mifologik semantika bilan uyg'unlashgan:

2. "Kashmir". Asarning nomi ham mifopoetonim sifatida qaraladi. "Kashmir" tarixiy-madaniy manzilda:

"Yer jannati", "Go'zallik makoni", "Poklik va nafosat hududi" timsoli sifatida talqin etiladi. Qissada Kashmir huddi arxaik muqaddas makon sifatida tasvirlanadi. Bu tasvir bosh qahramonlar muhabbati uchun ruhiy makon yaratadi.

3. “Bulut”, “tog‘lar”, “daryo”, “shamol” poetonimlari. Bu unsurlar mifologik matnlardagi kabi taqdir, erkinlik, umid, hayot oqimining ramzi sifatida ishlatiladi. Masalan:

*Daryo — hayotning oqimi va uyg‘onish;*

*Tog‘lar — buyuklik, matonat, sharqona ruhi;*

*Shamol — ichki kechinmalar va muhabbatning yashirin ovozi.*

4. **O‘simlik va gullarga oid mifopoetonimlar.** “Kashmir qo‘shig‘i”da gullar poetonimik tizimning eng muhim qatlamini tashkil qiladi. Ayniqsa:

“*Atirgul*” (*Gul*) timsoli. Sharq tasavvufida atirgul: go‘zallik, poklik, muhabbat, ilohiy nur ramzi hisoblanadi. Qissadagi ayol obrazlari, sevgi sahnalari, ruhiy uyg‘onish jarayonlari aynan gul timsoli orqali poetiklashadi. Yovun, Navro‘zgul, Lola va sharqona gul ramzlari Hind mifologiyasidagi gul timsoli Rashidov poetikasiga moslashgan holda: ruhiy uyg‘onish, poklanish, insonning o‘zini topishi ramzi sifatida qo‘llanadi.

5. **“Qo‘shiq” timsoli.** Asarning nomidagi “qo‘shiq” nafaqat musiqiy obraz, balki: xalq ruhining ovozi, muhabbat kalomi, ilohiy uyg‘unlik timsoli sifatida talqin etiladi. Qo‘shiq Sharq tasavvurida ko‘pincha ilohiy ilhom manbai bo‘lib keladi.

6. **Qahramonlarga oid mifopoetonimlar.** Asardagi ayrim personajlarning nomlari ham mifopoetik ma‘no yuklaydi:

*Ayol obrazlari — go‘zallik va hayot manbai,*

*Erkak obrazlari — himoya, matonat, vatan ruhi timsoli.* Qahramonlarning tasvirida folklorona timsollar, ramziy nomlashlar, sharqona estetik talqin mavjud.

Bundan tashqari asardagi atoqli otlar ham mifopoetonimning go‘zal namunasi. Masalan,

**Bambur mifopoetonimi.** Bambur — qissada uchraydigan eng muhim mifopoetonimlardan biri. U Gullar bog‘ining qudratini, yuksaklik falsafasini va ruhiy poklanishni anglatadi. Rashidov tasvirlarida Bambur oddiy asalari emas, balki:

– muqaddas kuch timsoli,

– insonning ruhiy yuksalishi,

– muhabbatning balandligi ramzi sifatida uchraydi.

**Muhokama.** Olingan natijalarning tahlili “Kashmir qo‘shig‘i” qissasining butun poetik tizimi mifopoetonimlar asosida qurilganini ko‘rsatadi.

“**Nargiz**” poetonimini esa, *Antropoetonim* sifatida tahlilga tortsak, bu gul asarda personifikatsiyalashtirilgan, ya‘ni unga insoniy hislatlar yuklanadi va uni ijodkor bosh obraz darajasiga ko‘taradi. Nargiz nafaqat bir shaxs, balki xalqning timsoli, milliy o‘zlikning badiiy mujassamlashtirilgan qiyofasidir. Uning sevgisi, sadoqati, va kurashchanligi bilan butun Kashmir xalqi xarakteri ifodalanadi. Bu obraz orqali ijodkor erkinlik uchun kurashayotgan xalq ruhini va ozodlik g‘oyalarini poetik tarzda gavdalandiradi. **Nargiz** – bu gul nomi, ya‘ni fitonim, yozuvchi asarida esa u personifikatsiya orqali markaziy qahramonga aylangan. Bu asoslar uni **fitopoetonim** deb atashimizga asos bo‘ladi.

**Mifopoetonim** bo‘lishi uchun esa:

bu gul qadimgi afsona, rivoyat yoki xalq e‘tiqodida mavjud bo‘lishi kerak;

unda mifologik tushunchalar, ramziy ma‘no, e‘tiqodiy yuklama bo‘lishi zarur.

Bu belgilar esa Nargiz obrazida mujassamlashgan, xususan, Sharq xalqalari, fors-tojik adabiyotida Nargis guli uzoq yillardan beri *ko‘z, muhabbat, visol va sabr-toqat, hammadlik* ramzi sifatida tilga olinadi.

Yunon mifologiyasida **Narksiss** – degan go‘zal yigit bo‘lib, u o‘zining go‘zalligi bilan juda mashhur bo‘lgan. Bashorat qilinishicha uniga xudolar hech qachon o‘z aksini ko‘rmaslikni buyuradi, shunday qilinsagina u uzoq umr ko‘rishi mumkin edi. U nihoyatda mukammal va go‘zal edi, ammo u hech kimni sevmagan. Ko‘plab qizlar, nimfalar unga oshiq bo‘lgan, lekin u hammaning sevgisini rad etgan. Bir kuni suv nimfasi Echo unga oshiq bo‘ladi, lekin Narksiss uni ham rad etadi. Echo qayg‘udan so‘lib ketadi. Bu voqaeadan keyin Olimp xudolarini uni jazolashga qaroq qilishadi. Afrodita uni bir buloq boshiga olib keladi. U

yerda Narksiss o'z aksini ko'radi. U shu qadar o'z aksiga oshiq bo'ladi, u yemay-ichmay, uxlamay buloq boshida o'z aksiga mahliyo bo'lib yashaveradi, oxir-oqibat o'sha yerda halok bo'ladi. Uning vafotidan so'ng o'sha joyda **"Narsis guli"** unib chiqadi.

Sharq xalqlari og'zaki ijodida esa, boshqa bir rivoyat keltiriladi. Qadim zamonda O'rta Osiyoning tog'li hududlaridan birida Bahrom ismli shahzoda yashagan ekan. U jasur, go'zal qiyofali, dono yigit bo'lib, tez-tez ovga chiqishni yaxshi ko'rar edi. Kunlarning birida tog'da sayr qilib yurganda u bir go'zal qizga duch keldi. Bu qizning ismi – Nargiz edi. U oddiy, samimiyligi bilan Bahromni o'ziga rom etdi. Ular bir –birlarini sevib qoldilar. Bahrom uni albatta saroyga olib ketishga va'da berdi, ammo saroyga qaytgach boshqa bir davlatning malikasiga uylanishga majbur bo'ldi. Bu xabar Nargizning yuragini larzaga keltirdi, va u g'amdan halok bo'ldi. Nargiz jasadi yotgan yerda chiroyli, oq-sariq bir gul undi. Uning ko'zga o'xshash markazi bor edi, go'yo u kimnidir kutib turgandek tuyulardi. Xalq uni Nargiz guli deb atay boshlandi va shu kundan bu gul muhabbat va sadoqat ramziga ayalandi.

Boshqa bir manbalarda bu gul markazida joylashgan qoramtir doira ko'zga o'xshatilgani uchun sog'inch bilan qarayotgan, yo'l kuzatayotgan qalb ifodasi deya tilga olinadi. Yozuvchi ham bekorga bu gulni bosh obraz qilib tanlamagan, aynan gulning mana shu xususiyatlari ham to'la inobatga olingan. Masalan, asarda keltirilgan quyidagi parchada ham bunga guvoh bo'lishimiz mumkin:

*Jonim yo'ling yiroqdir,  
Yoring senga mushtoqdir.  
Kel, o'rgilay, zor qilma,  
Tunlari bedor qilma.*

*Kuni bilan kutaman,  
Tuni bilan kuatman.  
Kel o'rgilay bog'imga,  
Gullar bilan kutaman!*

She'riyatda ko'plab fors-tojik shoirlar, xususan, Hofiz, Sa'diy, Navoiy, Bobur va boshqalar Nargiz gulini ko'z obrazida ishlatgan. Ular uchun nargizning markazidagi qora doira – qora ko'z, uning barglari esa ko'z qovog'i yoki oq qismini tasvirlash uchun ishlatilgan:

*Ko'zi nargiz misoli har qaysi xatmi shikoyat angelaydi  
Shikoyatimni ko'zimdan ko'ribmen men uni, ey do'st! (A.Navoiy)*

**Xorud mifopoetoni-**“*Xorud*”- bu yerda shunchaki oddiy qahramon emas, balki obrazli, timsoliy nom hihsoblanadi. “*Xorud*”- fonetik jihatdan am quloqqa yoqimsiz eshitiladi, qorong'ulik, g'am, og'riq, xavf bilan bog'liq hissiy assotsialarni uyg'otadi. Uning talaffuzi ham noxush kayfiyatga mos keladi – bu esa, uning semantik yukini kuchaytiradi. “*Ko'z ko'rmaydigan qora ofat*” – sifatida ta'iflangan. Bu uni ko'rinmas, ammo vayron qiluvchi kuch sifatida talqin qilishga imkon beradi;

“*Yerga yoyilib, bulutday sudralib kelayotgan*” – bu esa uning tabiatga zid, yashirin, sirli, ammo keng tarqaluvchi xafv ekanligini anglatadi;

“*Gullarning ildizlariga, yaproqlariga, tanlariga yopisha boshladi*”- bu orqali nafaqat tashqi ko'rinishda, balki gullarning hayotiga tahdid soluvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi;

“*Gullar vujudida chidab bo'lmaydigan darajada qattiq og'riq turdi*”- Xorudning ta'siri ruhiy va jismoniy azobga sabab bo'ladi, bu esa uni insoniyatga tahdid soluvchi yovuz kuch obrazida tasvirlaydi.

Demak, **Xorud** – bu **zulmat, g'am, halokat, falokat timsoli** bo'lib, **mavhum yovuz kuchning poetonimik ifodasidir**. Biz buni poetonim sifatida baholay olishimizga yetarlicha dalillar keltirdik, ammo poetonimning qaysi turiga kirgizish mumkin: shunisi qiziqarli! Biz bu personajni **antropoetonim** sifatida tahlil qilishimiz mumkin, chunki u salbiy bo'lsa-da personaj nomi, yozuvchi unga juda ko'plab badiiy yuk yuklagan, voqealar rivoji va boshqa personajlarning taqdirida ham u obraz faol ishtirok etadi. Bu qahramon asarda o'simliklar kasalligi, qora ofat sifatida keltriladi. Aynan shu jihatini poetonimik tahlilga tortadigan bo'lsak, uni fitopoetonim deb nomlash to'g'ri bo'ladimi? Yo'q, biz uni fitopoetonim deya olmaymiz, chunki fitopoetonim bo'lishi uchun u biror bir o'simlik, daraxt yoki gulning nomi bo'lishi kerak edi. Shuning uchun biz bu obrazga yangicha yondashmoqchimiz: Xorudning o'zi o'simlik emas, balki o'simlikka tahdid soluvchi kuch, ya'ni ularga qarshi yo'naltirilgan salbiy qahramon sifatida maydonga chiqadi.

Ilmiy izlanishlarimiz davomida shunday xulosaga keldikki, asardagi “Xorud” obrazi **Destruktiv poetonim**, ya'ni tabiatdagi go'zallikka qarshi yo'naltirilgan halokat kuchining nomi. Hozirgi kunda tilshunoslikda bunday termin yo'q, ammo biz uni o'z ilmiy ishimizga tegishli bo'lgani uchun bu atama nazariy yondashishga qaror qildik.

**Destruktiv-** so'zi lotincha “destructio” (buzish, yo'q qilish) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u “vayron qiliuvchi”, “yo'qotuvchi”, “yemiruvchi” ma'nolarini anglatadi.

**Destruktiv poetonim** – bu adabiy matnda **halokat, og'riq, zulmat, o'lim, yovuzlik, vayronkorlik** kabi **salbiy kuchlarni ifodalovchi poetonim** hisoblanadi. Bu atama o'z atrofidagi hayotbaxsh obrazlarga tahdid soluvchi semantic markazga ega bo'ladi. Badiiy asarlarda ular ijobiy obrazlarga qarshi qaratilgan yovuz kuch sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, *Xorud* – gullarga qarshi turuvchi qora ofat, halokat ramzi. Uning nomi ko'zga ko'rinmaydi, ammo azob keltiradi, hayotni yemiradi. *Destruktiv poetonimlar* odatda: *timsoliy kuchga ega bo'ladi;*

*estetik vazifa bajaradi;*

*poetik ziddiyatlar manbai bo'lib xizmat qiladi.*

Bundan tashqari Qissada Xorud:

– voqealarning burilish nuqtalarida,

– qahramon ruhiy kechinmalarida, poetik kuch sifatida namoyon bo'ladi. Mifopoetonimlar qissaning badiiy konsepsiyasini belgilaydi. Asarda tabiat, makon, gul, nur, qo'shiq kabi nomlar shunchaki badiiy vosita emas, balki:

*sujetning ruhiy negizini,*

*qahramonlar sevgisini,*

*go'zallik falsafasini,*

*sharq poetik olamini tashkil etadi.*

**Xulosa.** Olib borilgan izlanishlarimiz shuni ko'rsatdiki, qissadagi mifopoetonimlar asarning badiiy-estetik mazmunini ochishda muhim rol o'ynaydi. Ular:

1. Sujet va kompozitsiyani boyitadi.
2. Qahramonlar ruhiyatining ramziy ifodasini yaratadi.
3. Sharqona go'zallik falsafasini badiiylashtiradi.
4. Asarga mifologik qatlam, chuqurlik va teranlik bag'ishlaydi.
5. Milliy madaniyat va poetik tafakkurni ifodalaydi.

“Kashmir qo'shig'i” qissasida mifopoetonimlar obrazlarni hayotiy va ruhiy jihatdan boyitadi, asarning umumiy falsafiy-estetik ruhini belgilaydi. Sharof Rashidovning bu uslubi uning o'zbek adabiyotida o'zgacha badiiy maktab egasi sifatida namoyon etadi.

### Iqtiboslar/Сноски/References

1. Rashidov Sh. "Kashmir qo'shig'i". Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1971.
2. Nikov V.A.M., 1974.
3. Щетинин, Л. М. Русские имена [Текст] : (Очерки по донской антропонимии) / Л. М. Щетинин. - 2-е изд., испр. - Ростов н/Д: Изд-во Рост. ун-та, 1975. - С. 252.(Shetinin, L.M.Russkiye imena[Tekst]: (Ocherki po donskoy antroponimii/ L.M.Shetinin. - 2-ye izd., ispr. - Rostov n/D: Izd-vo Rost. un-ta, 1975. - S. 252.)
4. Холназарова Н. Художественные функции поэтонимов в трилогии Дж. Икрами («Дочь огня», «Двенадцать ворот Бухары», «Поверженный») и особенности их передачи в русском переводе. Диссертация Душанбе – 2021. – С. 19. (Xolnazarova N. J. Ikromiy trilogiyasida poetonimlarning badiiy vazifalari ("Olov qizi", "Buxoroning o'n ikki darvozasi", "Pokrenniy") va ularning ruscha tarjimada berilish xususiyatlari. Dissertatsiya Dushanbe - 2021. – S. 19.)
5. Суперанская, А. В. Структура имени собственного: Фонология морфология/А.В. Суперанская. – М.: Наука, 1969. – С. 206.
6. Подольская, Н.В. Словарь русской ономастической терминологии/Н.В. Подольская. – М.: Наука, 1988. – С. 105. (Podolskaya, N.V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii/N.V. Podolskaya. - M.: Nauka, 1988. - S. 105.)
7. Калинин В.М. Поэтика онима. Донецк: 1999. – С. 62. (Kalinkin V.M. Poetika onima. - Donetsk: 1999. - B. 62.)
8. Фомин, А.А. Всегда ли литературная ономастика тождественна поэтической ономастике?/ Вопросы ономастики. 2009. No7. С. 62. (Fomin A.A. Literaturnaya onomastika vsegda tojdestvenna poeticheskoy onomastike?/ Voprosy onomastiki. 2009. No7. S. 62).
9. Немировская, Т.В. Некоторые проблемы литературной ономастики/Т.В. Немировская//Актуальные вопросы русской ономастики. Сб. науч. тр. – 1988. – С. 112-113.( Nemirovskaya, T.V. Nekotorye problemy literaturnoy onomastiki/T.V. Nemirovskaya//Aktualnye voprosy russkoy onomastiki. Sb. nauch. tr. - 1988. - S. 112-113).
10. Подольская, Н.В. Словарь русской ономастической терминологии/Н.В. Подольская. – М.: Наука, 1988. – С. 31.( Podolskaya, N.V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii/N.V. Podolskaya. - M.: Nauka, 1988. -S. 31).
11. Крылова А.Г. Онимы и их роль в создании экспрессивности художественной прозы Ю.В. Буйды. Диссертация. Москва – 2020. – С. 13. (Krilova A.G. Onimi i ix rol v sozdanii ekspressivnosti xudojestvennoy prozi Yu.V. Buydi. Dissertatsiya. Moskva. 2020. – B. 13.)

# TIЛ, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

**Jonpo'latova Gulshoda,**  
tayanch doktorant,  
Navoiy davlat universiteti,  
Navoiy, O'zbekiston  
[jonpolatovagulshoda@gmail.com](mailto:jonpolatovagulshoda@gmail.com)

## BIOGRAFIK METOD SPETSIFIKASI VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDAGI TARAQQIYOTI (NAIM KARIMOVNING USMON NOSIR HAQIDAGI TADQIQOTLARI ASOSIDA)

 [10.5281/zenodo.19159673](https://doi.org/10.5281/zenodo.19159673)

### ANNOTATSIYA

Maqolada biografik metodning adabiyotshunoslikdagi ahamiyati, tarixi va metodologiyasi tahlil qilinadi. Ushbu metod badiiy asarni muallif hayoti, shaxsiyati va ijodiy yo'li kontekstida o'rganish imkonini beradi. Maqolada biografik metodning spetsifikasi Naim Karimovning "Usmon Nosir" ma'rifiy-biografik romanlarida tadqiq etilgan faktlar va ma'lumotlar asosida ochib berilgan. O'zbek adabiyotshunosligida biografik metod taraqqiyoti va Naim Karimovning bu jarayonga qo'shgan hissasi haqida so'z borgan. Qolaversa, ushbu maqolada Usmon Nosir lirikasida aks etgan biografik chizgilar, faylasuf shoirning she'rlarida voqelikka nisbatan o'tmish, bugun va kelajak to'g'risida qilgan bashoratlari tahlil ostiga olingan.

**Kalit so'zlar:** biografik metod, metodologiya, spetsifika, lirika, biografik chizgi, voqelik, shaxsiyat, kontekst, biologik omil, genetika, psixologizm.

**Джонпулатова Гульшода,**  
докторант базовой докторантуры,  
Навоийский государственный университет,  
Навои, Узбекистан  
[jonpolatovagulshoda@gmail.com](mailto:jonpolatovagulshoda@gmail.com)

## СПЕЦИФИКА БИОГРАФИЧЕСКОГО МЕТОДА И ЕГО РАЗВИТИЕ В УЗБЕКСКОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ (НА ОСНОВЕ ИССЛЕДОВАНИЙ НАИМА КАРИМОВА ОБ УСМАНЕ НАСЫРЕ)

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируется значение, история и методология биографического метода в литературоведении. Данный метод позволяет изучать художественное произведение в контексте жизни, личности и творческого пути автора. В статье раскрывается специфика биографического метода на основе фактов и сведений, исследованных в просветительско-биографических романах Наима Каримова "Усман Насыр". Рассматривается развитие биографического метода в узбекском литературоведении и вклад Наима Каримова в этот процесс. Кроме того, в данной

статье анализируются биографические черты, отраженные в лирике Усмана Насыра, а также пророчества поэта-философа о прошлом, настоящем и будущем по отношению к действительности в его стихах.

**Ключевые слова:** биографический метод, методология, специфика, лирика, биографическая черта, действительность, личность, контекст, биологический фактор, генетика, психологизм.

**Jonpo'latova Gulshoda,**

doctoral candidate,

Navoi State University,

Navoi, Uzbekistan

[jonpolatovagulshoda@gmail.com](mailto:jonpolatovagulshoda@gmail.com)

## **SPECIFICS OF THE BIOGRAPHIC METHOD AND ITS DEVELOPMENT IN UZBEK LITERARY STUDIES (BASED ON NAIM KARIMOV'S RESEARCH ON USMAN NASIR)**

### **ABSTRACT**

This article analyzes the significance, history, and methodology of the biographical method in literary studies. This method allows for the examination of literary works within the context of the author's life, personality, and creative journey. The article elucidates the specifics of the biographical method based on facts and information researched in Naim Karimov's educational-biographical novel "Usmon Nosir". It discusses the development of the biographical method in Uzbek literary studies and Naim Karimov's contribution to this process. Furthermore, this article examines the biographical elements reflected in Usmon Nosir's lyrics, as well as the philosopher-poet's reflections on the past, present, and future in relation to reality as expressed in his poems.

**Keywords:** biographical method, methodology, specifics, lyrics, biographical elements, reality, personality, context, biological factor, genetics, psychologism.

### **Kirish.**

XX asr adabiyotining zabardast vakillaridan biri, "o'zbekning Lermontovi", "Sharqda paydo bo'lgan Pushkin" nomi bilan o'zbek she'riyatiga yashin tezligida kirib kelgan atoqli shoir, o'lmas ijodkor Usmon Nosirdir. U qanday ulkan qudrat va chaqmoq tezligida o'zbek adabiyotida paydo bo'lsa, shunday tezlik va oz fursatda bu maydonni tark etdi. Tark etdiki, o'zidan o'chmas iz, tuganmas xazina kabi bir so'lim bog' - she'riyat bo'stonini qoldirdi [1].

Uning hayot va ijod yo'li haqidagi haqiqatlar har bir adabiyotshunos uchun qiziq; yozilgan, tarjima qilingan, ammo kitobxonlar qo'lga yetib kelmagan asarlarining topilishi ilm ahli uchun katta shodiyona edi. Bunday mashaqqatli ishga qo'l urgan, Usmon Nosir hayoti va faoliyatini dalillar va faktlar asosida tiklab adabiyotga tuhfa etgan adabiyotshunos olim Naim Karimov edi [2].

O'zbek adabiyotshunosligida akademik N.Karimov tadqiqotlarida biografik vaqtning biografik makon bilan "o'zaro ta'siri"ning estetik qirralari, voqelikni ijtimoiy-falsafiy idrok etish vositasi hamda muallifning tarixiy voqeligini o'zlashtirish ko'nikmasi bilan ahamiyatlidir [3]. Biografik material badiiy tiplashtirish va shu bilan birga inson muhitini individuallashtirish, qahramonni tasvir obektidan harakat mavzusiga o'tkazish usullarini kuzatish, hujjatli manbalarni tahlil qilish asosida badiiy adabiyotning roli va o'rni va muallifning biografik roman va badiiy biografiyada ishtirok etish shakllarini aniqlash vositasi sifatida muhim hisoblanadi [4].

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya.**

O'zbek mumtoz adabiyotida A.Navoiyning "Holoti Sayid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad" kabi asarlarida ulug' shaxslarning tarjimai holi bayon etilgan. Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarida Navoiyning tarjimai holiga oid muhim faktlar, I.O.Sultonovning "Navoiyning qalb daftari" nomli kitobida ulug' shoir biografiyasini eng kichik detallarigacha tadqiq etishga harakat qilgan.

Keyinchalik ham o'zbek adabiyotshunosligida O.Sharafiddinov, M.Qo'shjonov, B.Nazarov, L.Qayumov, A.Hayitmetov, B.Valixo'jayev, U.Normatov, B.Sarimsoqov, A.Rasulov kabi munaqqidlar tomonidan biografik metod masalasi atroflicha o'rganildi. Shunga qaramasdan, biografik metod spetsifik jihatdan fanimizda batafsil o'rganilmagan.

Har bir davr adabiyotini biografik metod orqali chuqur tahlil etish, har bir ijodkorning biografiyasi uning ijod namunalarida o'z o'zini qoldirganini isbot etish mumkin. Naim Karimov yaratgan boy ilmiy adabiy meros o'zbek adabiyotshunosligida biografik metodni yangi bosqichga olib chiqdi. Uning haqiqiy ilmiy tadqiqot yo'li ekanligini isbot etdi.

Ushbu maqolani yozishda Naim Karimovning "Usmon Nosir" va "Usmon Nosirning so'nggi kunlari" kabi ma'rifiy- biografik romanlari, qolaversa, qator ilmiy maqolalari, ijtimoiy tarmoqlarda bergan intervyulariga tayanildi. Usmon Nosirning Yozuvchilar uyushmasi tomonidan 2021-yilda jamlangan "Ertani sevinib kut" to'plamidan onasiga xat tarzida yozilgan "Oq yuvib, oq tarab" she'ridagi biografik chizgilar tahlil ostiga olindi.

### **Natija**

Ilk she'riyoq "Haqiqat qalami" deb nomlangani ijodkorni junbushga keltirgan tuyg'u haqqa, haqiqatga intilish ekanligidan dalolat, aslida. Qisqagina umrida haqiqat, adolat qidirib yashagan ijodkor tuhmat va yolg'onning qurboni bo'ladi. Shoir haqida bizgacha turli xil ma'lumotlar yetib kelgan. Bularni yolg'on va chinga ajratib bergan, adib hayoti va ijodi haqida o'rganilmagan, sir tutilgan, hattoki, yashirilgan ma'lumotlarni aniqlab, tekshirib adabiyot ahliga taqdim etgan adabiyotshunos Naim Karimov Usmon Nosir umr yo'li haqida shunday deydi:

"Biz Usmon Nosir va boshqa millatdoshlarimizning qabrlarini ziyorat qilganmiz, so'ngra Kemerovo Ichki Ishlar bo'limi arxivida Usmon Nosir delosi bilan tanishganman. U o'sha paytda 10 mingdan ortiq betdan iborat bo'lgan ekan. Bizga yordam bergan Kemerovo obkomining kotibasi "Sizlar yaxshisi bu ish bilan tanishmanglar. Usmon Nosir haqida sizlarda katta hurmat bor hozir. U juda qiyin sharoitlarda yashagan. Bularni o'rganishlaring sizlardagi ko'tarinkilikni parchalab tashlaydi", degan [5]. Lekin tadqiqotchi albatta har bir narsaning tagiga yetishi kerak. Men o'sha delolar qanchalik qiyin bo'lishiga qaramasdan, Usmon Nosirning tug'ilganidan boshlab, qamoqxonadagi hayotini oyma-oy, yoki hech bo'lmaganda yilma-yil tiklashga harakat qilganman va o'shani kitoblarimda aks ettirganman" [6]

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Naim Karimov Usmon Nosir haqidagi asarlarining barchasi tarixiy faktlar va hujjatlar asosida yaratilgan. Qolaversa, olim Usmon Nosir haqida do'sti Ibrohim Nazirning bergan ma'lumotlari yolg'on ekanligini, qamoqda yashab kelgan insonning rost va yolg'on so'zini ajratish mushkul ekanligini isbotlab berdi. Ushbu ijodkorning do'sti Usmon Nosir haqida aytgan uydirmalari o'ziga nisbatan shuhrat orttirish uchun o'ylab topilganini ma'lum qildi [7].

### **Tahlil**

Biografik metodni o'zbek adabiyotshunosligida yangi bir bosqichga olib chiqqan munaqqid Naim Karimov qator o'zbek adiblarining biz bilmagan hayotiy haqiqatlarini, orzu-intilishlarini, umid-iztiroblarini shu metod imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda ochib berdilar. Olimning Usmon Nosir haqida yozgan ba'zi bir ma'lumotlarini biografik metod orqali izohlab chiqamiz.

Biografik metod spetsifikasi ijodkor asarlarini quyidagi omillar orqali chuqur tadqiq etadi:

1) *Ijodkorning filologik, adabiy- estetik bilimlari.* Naim Karimovning "Usmon Nosir" ma'rifiy- biografik romanlarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, o'gay otasi Nosir hoji uyiga

sig'dirmay, "zulm qamchisini qo'liga olganidan so'ng boshqa chora topmagan onasi Xolambibi o'g'li Usmonni shu davrda yetim-yesirlar va yo'qchilikdan qiynalgan oilalar farzandlarini turar-joy, kiyim-kechak va ovqat bilan ta'minlaydigan "Dor ush-shafaqa" maktab-internatiga beradi. Bu yerdagi uzluksiz ta'lim olish imkoniyati, madaniy muhit, Amin Umariy, O'tkir Rashid, Ibrohim Nazir, Madamin Davron kabi bo'lajak ijod ahli bilan do'stlashishi uning adabiy - estetik dunyoqarashiga, keyingi hayot yo'liga ta'sir etmay qolmaydi, albatta [8].

2) *Ijodkorning maishiy turmushi*. O'z otasi vafotidan so'ng, ma'lum muddat tog'aning qarovida qolishi, so'ng onasining ikkinchi turmushida o'gay ota bilan kechgan hayoti va bu yerda ham oxirigacha qo'nim topmagan. Usmonning hayoti u ta'lim olgan "Dor ush-shafaqa"da davom etishi, u yerdagi madaniy-ma'rifiy muhitning ijodkor taqdirini yangi bosqichga olib chiqishi. Tug'ilganidanoq hayot mashaqqatlariga duchor bo'lgan ijodkorning keskin burilishlarga to'la biografiyasi uning qiyinchilikdan, haqiqatni aytishdan, tanqidlarga uchrashdan qo'rqmasligiga asosiy sabablardan biri bo'lsa ajab emas [9].

3) *Ijodkorning biologik omili (geni)*. Naim Karimovning "Usmon Nosir" ma'rifiy-biografik romanlarida tasvirlanishicha, Usmon Nosir bolaligidan chapaqay bo'lgan, ustozlari va yaqinlari tomonidan qancha harakat qilinmasin, bu jihati o'zgarmagan. Munaqqid Naim Karimov tomonidan uning bu jihati qat'iy tartib- qoidalarga muttasil qarshiligi bolaligidan ma'lum bo'lganligiga ishora sifatida tilga olinadi. Qolaversa, ijodkor ilmga intilgani sari o'gay ota uning ta'limiga qarshi chiqaveradi. Ziddiyat kuchaygani sari Usmonning kitob o'qishga rag'obati oshib, ertalabgacha shamchiroq bilan o'qib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu konflikt oxiri uydan ketishi bilan yakunlanadi [10].

4) *Ijodkorning falsafiy dunyoqarashi*. Usmon Nosirning dunyoqarashi keng bilim, qiziquvchan tabiat, hayotga oshufta yurak, ijtimoiy kemptikliklarga qarshi oshkora nafrat ruhida o'sib bordi. Tarixni chuqur bilgan, xalq kelajagi uchun qayg'urgan asl shoir "Qora yo'rg'am" she'rida hayotiy maslagini "murodga qasd qilib yugurgan yetur" deya ifoda etadi [11].

5) *Ijodkor psixologizmi*. Biz Usmon Nosirning bolaligi haqida yozilgan qator she'rlarini o'qishimiz, tahlil qilishimiz mumkin. Ammo uning biografiasini to'liq bilgandagina bu she'rlarning asl mohiyatini anglay olamiz. Ham sog'inch, ham o'kinch aks etadi bu she'rlarda. Otasidan manguga ayrilgan, tirik bo'lsa-da onasidan ham ayro qolishga mahkum yosh shoir onasiga maktub tarzida yozgan she'rida hayotining bir qator biografik chizgilari aks etgan [12].

Shoirning tug'ma talantiga, tabiat in'om etgan iste'dodining yoniga hayot yo'llaridagi mashaqqatlar o'zgacha bir teranlik baxsh etdi. Bolaligidanoq otadan yetim qolish, yosh ona bilan nochorlik yillari, keyinchalik, o'gay ota zulmi ostida kechgan yillar – bularning bari shoirning Samarqand dorilfununida o'qib yurgan kezlari onasiga xat tarzida yozilgan "Oq yuvib, oq tarab" she'rida aks etgan:

Esingdami, g'arib ona,  
 U qishlarning zahri?  
 Yuzni momataloq qilgan  
 U yillarning qahri?

Shoir onasiga o'tmishda kechirgan "og'ir" kunlarini "qishning zahri", "yillarning qahri", "yuzning momataloq bo'lishi" kabi birikmalar, onaga nisbatan esa "g'arib" sifati ishlatilishi she'rdagi badiiy voqelikni anglashga yordam beradi [13].

Ochlik, yupunlik, nochorlik, himoyasizlik holatidagi ona bag'rida ulg'aygan go'dak o'quvchi ko'z o'ngida gavdalanadi.

Mehribonim, yodga tushdi,

Bir kuni kuz nahori,  
Sarg'ayib yerga tushgani  
Bir ko'm-ko'k yaproqni

Shoir ko'm-ko'k yaproqning sarg'ayib yerga to'kilishini onaizorning navqiron yoshligi erda tugab, qarilik sari yuz tutayotganiga mengzaydi. Vaholanki bu she'r yozilgan davrda Usmon Nosirning onasi Xolambibi hali qarilik yoshiga yetmagan, to'ng'ich farzand Usmon endi voyaga yetgan davr edi. Naim Karimovning "Usmon Nosir" ma'rifiy-biografik romanlarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra Xolambibi ikkinchi turmushida ham anchagina qiyinchiliklarga duch keladi. Buning asosiy sababi esa turmush o'rtog'i Nosir hoji va unga o'gay bo'lgan o'g'li Usmon orasidagi konflikt edi [14]. Usmon Nosir juda sho'x, zavqi ichiga sig'maydigan, "yerga ursa ko'kka sapchiydigan" bola bo'lganidan o'gay otaning unga juda g'ashi kelar edi. Nifoq kundan kunga o'sib borib, oxiri ota Usmonni kaltaklaydigan odat chiqardi. Bir kuni Xolambibi uyda bo'lmaganida Nosirhoji Usmonni quduq ichiga oyog'idan osib ketadi. Bir o'limdan qolgan farzandini onaizor maktab-internatga topshirishga majbur bo'ladi. Ancha vaqtgacha, ya'ni Usmon Nosir she'riyat olamida nom chiqarganiga qadar oilasi bilan munosabati uziladi [15]. Ushbu yillar qoldirgan jarohatlar ta'sirida yozilgandir, balki ushbu misralar.

"Oq yuvolmay, oq tarolmay  
O'tgan bo'lsang ona  
Oq yuvib, oq tarab  
Katta qildi zamona

Onajonim, sog' bo'ling, bas,  
Sevinchim uchun mening,  
O'zim har joyda,  
Dilimda-  
Mehring o'ti -sening."

Shoir shaxsiyatida insoniy fazilatlar bisyor bo'lib, avvalo, uning o'z onasiga bo'lgan munosabatida bular yaqqol ko'zga tashlanadi. Hali yigit yoshidanoq ona mehridan ayro tushib, yana unga qarata:

*"Onajonim, sog' bo'ling, bas,  
Sevinchim uchun mening"* deydi tafakkurga ega farzand edi Usmon Nosir [16].

### **Xulosa.**

Olimning izlanishlari natijasida shular ma'lum bo'lganki, Usmon Nosir asossiz tuhmat asnosida "millatchilikda", "Pushkin va Lermontov asarlarini buzib tarjima qilib, ularni xalqqa qoralab ko'rsatish"da ayblanadi. Har qanday qiyin sharoitlarda yashashi, og'ir dardga chalinishiga qaramasdan u umrining oxiriga qadar ijoddan to'xtamagan. Shoir mahbuslarga ariza yozish uchun beriladigan qog'ozga, hattoki, qog'oz topa olmaganida devorga yozib ijod qiladi. Fanimiz darg'alaridan biri, buyuk bobokalonimiz haqidagi bu va boshqa haqiqatlarni Naim Karimov qalamiga mansub *"Usmon Nosirning so'nggi kunlari"* ma'rifiy-biografik romanlaridan topish mumkin. Naim Karimov ijodi o'zbek adabiyotida biografik metod rivoji uchun ulkan hissa qo'shganligi bilan xarakterlidir.

### Iqtiboslar/Сноски/References

1. N. Karimov, Usmon Nosir. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa, 1992.
  2. N. Karimov, Usmon Nosirning so'nggi kunlari. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa, 1994.
  3. U. Nosir, Ertani sevinib kut. Toshkent: Adabiyot, 2021, 120 b.
  4. N. Karimov, "Egmont. Gyote va Usmon Nosir," Usmon Nosir. Tanlangan asarlar, 2-jild. [Onlayn]. Available: [www.kx-davron.uz](http://www.kx-davron.uz)
  5. N. Karimov, "O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, professor Naim Karimovning 'BBC mehmoni' o'quvchi va tinglovchilari savollariga javoblari," BBC, 2014.
  6. B. Karimov, Adabiyotshunoslik metodologiyasi (Filologlar uchun o'quv qo'llanma). Toshkent, 2011, pp. 18–20.
  7. Lakomb, Adabiyot tarixiga kirish. Paris, 1848.
  8. M. Verli, Biografik metod va badiiy ijod, 1920–1960.
  9. O. Sharafiddinov, M. Qo'shjonov, B. Nazarov, L. Qayumov va boshq., O'zbek mumtoz adabiyotida biografik metod. Toshkent, 2000–2015.
  10. Renar, Adabiyotni ilmiy tadqiq etish usullari, 1900.
  11. Sh. Sent-Byov, XVI asr fransuz poeziyasi va teatrining tarixiy va tanqidiy obzori. Paris, 1828.
  12. Sh. Sent-Byov, Adabiy portretlar. Paris, 1836–1839.
  13. Sh. Sent-Byov, Dushanba kunlaridagi suhbatlar. Paris, 1851–1862.
  14. V. Jiro, Biografik tadqiqotlar, 1930–1960.
  15. N. Karimov, Usmon Nosir. Ma'rifiy-biografik romanlar. Toshkent, 2018.
  16. "Biografik metod." Available: <https://www.researchgate.net/publication/357899583>
- Biografik\_metod

# TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

**Ergasheva Dilshoda,**  
tayanch doktoranti,  
Samarqand davlat pedagogika instituti,  
Samarqand, O'zbekiston  
[dilshodaabdusalomovna@gmail.com](mailto:dilshodaabdusalomovna@gmail.com)

## LAYLI VA MAJNUN MAKTUBLARINING KOMPOZITSION TAHLILI

 [10.5281/zenodo.19159727](https://doi.org/10.5281/zenodo.19159727)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Navoiyning “Layli va Majnun” asaridagi bosh qahramonlarning yozgan maktublari tahlil etiladi. Tahlilda maktublarning asar badiiy koloritidagi ahamiyati, Navoiy maqsadi, personajlarning qalb kechinmalari, kompozitsiyasi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** “Layli va Majnun”, Layli maktubi, Majnun maktubi, kompozitsiya, kirish qism, asosiy qism, xotima, badiiy san'atlar, oshiq-ma'shuq ruhiyati, tasavvuf motivlari, “Lisonn ut-tayr”, Navfal.

**Ergasheva Dilshoda,**  
doctoral candidate,  
Samarkand State Pedagogical Institute,  
Samarkand, Uzbekistan  
[dilshodaabdusalomovna@gmail.com](mailto:dilshodaabdusalomovna@gmail.com)

## COMPOSITIONAL ANALYSIS OF LETTERS FROM LAYLI AND MAJNUN

### ABSTRACT

This article examines the letters written by the main protagonists in Alisher Navoi's “*Layli and Majnun*.” The analysis focuses on the significance of these letters in shaping the artistic color of the work, Navoi's creative intent, the emotional experiences of the characters, and the compositional structure of the letters.

**Keywords:** “Layli and Majnun,” Layli's letter, Majnun's letter, composition, introduction, main body, conclusion, artistic devices, lover-beloved psychology, Sufi motifs, “Lisonn ut-Tayr,” Navfal

**Эргашева Дилшода,**  
докторант базового обучения,  
Самаркандский государственный педагогический институт,  
Самарканд, Узбекистан  
[dilshodaabdusalomovna@gmail.com](mailto:dilshodaabdusalomovna@gmail.com)

## КОМПОЗИЦИОННЫЙ АНАЛИЗ ПИСЕМ ЛЕЙЛИ И МАДЖНУНА

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируются письма, написанные главными героями произведения Алишера Навои «Лейли и Меджнун». В ходе исследования раскрывается значение писем в художественном колорите произведения, творческий замысел Навои, душевные переживания персонажей и композиционные особенности писем.

**Ключевые слова:** «Лейли и Меджнун», письмо Лейли, письмо Меджнуна, композиция, вступительная часть, основная часть, заключение, художественные средства, психология влюблённых, суфийские мотивы, «Лисон ут-тайр», Навфаль.

“Layli va Majnun” dostonida qahramonlar o‘rtasidagi maktublar navoiyona mahorat ila chuqur lirizm bilan to‘ldirilgan badiiy lavhalardan iborat. “Layli va Majnun” dostonidagi ikki oshiq va mashuq o‘rtasidagi yozishmani Layli boshlab bergan. U Zayd orqali Majnundan payg‘om olgach, darhol davotu xoma (qalam) so‘rab oldi-da, “filxol muxarrar etti noma”. So‘ngra Layli bu nomani pinhoni ravishda Majnunga yo‘llaydi.

Laylining maktubi 66 baytdan iborat bo‘lsa, Manunning Layliga javoban yo‘llagan maktubi 88 baytni tashkil qiladi. Ko‘rishimiz mumkinki, maktublar hajman yirik o‘rinni tashkil qiladi.

Layli tomonidan yozilgan maktub **kopmozitsiyasiga** diqqat qilsak, maktub kirish, asosiy qism va xotimadan iborat. Maktubning **kirish qismi** “tengri oti” bilan boshlanib, ishq mayi balolari haqida biroz hikoya qilinadi. So‘ng “*bir xastag‘a bir shikastadindur*” deya maktub muddaosiga o‘tiladi. **Asosiy qism** “*Ey ishq o‘tida xasim nechuksen, Ey bedil-u, bekasim nechuksen*” bayti bilan boshlanadi va Layli olti baytda o‘z yoriga “*ishqimda behush bo‘lgan, furqatimda boshiga tosh yog‘ib, yana toshdan boshini yashirmagan, hajrim o‘tida kul bo‘lgan, jinnilik zanjirini qo‘liga solgan*” deya **murojaat** qiladi. Shundan so‘ng ketma-ket to‘qqiz baytda yoridan hol-ahvol so‘raydi:

*Holing nedurur firoqim ichra?*

*Fikring nedur ishtiyoqim ichra?*

Layli Majnundan hol so‘rar ekan, o‘z ishtiyoqini, xavotirini ham aytib o‘tadi:

*Sochingga yopushsa xor-u xoshok,*

*Kim tortar ekin birin-birin pok?..*

*Jismingki qonasa g‘am toshidin,*

*Kim yur ekin oni ko‘z yoshidin?*

*Hajr o‘ti taningni kuydurur chog‘,*

*Kim sochar ekin ul o‘tg‘a tufrog‘?*

Layli Majnunning holatini yaqin o‘tgan zamon fe‘lida maktubda nadomat bilan sanab o‘tadi: “dashtda yotganingda qumlar senga tushak ekan”, “kechalari bo‘rining ko‘zi shaming ekan”, “qoshingga chibinlar o‘tirar, boshingda quyunlar aylanar ekan” kabi istifodalar birinchidan Laylining Majnun holatidan xalq orasidagi “fasonalar” orqali xabardorligini bildirsa, ikkinchidan Majnunning holatidan qizning ham g‘am-anduhi yana-da ortayotganini anglatadi.

Layli Majnunga shirin so‘zlari bilan, uning g‘amiga sherik bo‘la-bo‘la murojaat etish asnosida shunday deydi:

*Ey hajrim o‘tida gar bo‘lib kul,*

*Har shu‘la ko‘runubon anga gul!*

Savol tug'iladi. Nega Majnunga har bir shu'la gul bo'lib, ya'niki yor bo'lib ko'rinadi? Yor jamoliday tuyuladi? Chunki haqiqiy oshiq doim ilhaq holatda bo'ladiki, yilt etgan shu'ladan ham yorini izlaydi, bu ilhaqlikni o'zidan sira tark ettirolmaydi. Bu sargashtalikdan har bir go'zallikda yorining husnini ko'rganday bo'laveradi. Bu Majnunga Laylining murojaati edi. Darhaqiqat Majnun shunday holatda edi. Lekin buni Layli qayerdan biladi? Demak, Laylining ishq olovi ham Majnunnikidan kam emas. U bunday holatni o'z boshidan kechirgan, kechira turib Majnunning holatini o'zidagi holatga qiyosan so'ylayotgan bo'lsa, ne ajab?!

*Miskin meni zoru poybasta,  
Yo'q, yo'qki zaiifi poshikasta.  
Na mayli sukun, ne haddi raftor,  
Yuz qaydi balo aro giriftor.*

*Bo'lmoq yuz alam uyida mahbus.  
Bir yon, yana bir yon o'ldi nomus...  
Bu mehnati ishq pech-darpech,  
Nomus chu ketti, barchasi hyech!*

*Sen tortibon ohi otasholud,  
Men o't yoqubon chiqarmayin dud...*

Balolar qaydiga giriftorlik, alamlar uyida mahbus bo'lib yotish, qalbida o't yongani holda birovga izhor qila olmaslik asar so'nggida Laylini ham halok qildi.

Qays, aynan, erkak jinsi vakili bo'lgani uchun ham (garchand u ham ishq otashi tushurgan holatdan ota-onasini oldida juda uyalgan edi) majnunlikni bo'yniga ololdi va el ichida Majnun deya ataldi. Biroq Layli bunday qilolmaydi. Bunga sabab or-nomus, hayo edi. Garchi Layli maktubida o'z mayl, istaklarini bildirsa-da, orzu-xayollarini oshkora ifoda eta olsa-da sharq xalqlariga xos ibo-hayo borasida shunday deydi:

*Er majlisi ichra roh (may) erur zeb,  
Xotin kishiga saloh (pokizalik) erur zeb.*

Ya'ni erlar majlisining zebu-ziynati – sharobdir, xotin kishining zeb-u ziynati– pokizalik, deya o'zining bo'ynida or-nomus mas'uliyati borligi, bu esa hajr azobiga yana ham sabab bo'lishi aytadi.

Shundan so'ng ma'shuqa oshig'i haqidagi eshitganlarini birma-bir so'zlay boshlaydi: Ushbu qismda “*Navfal bilakim sipoh chekting*”, “*Mundog' dag'i dedilar fasona*”, “*Chun hajlasi sori ko'z solibsen, Qo'lmoqqa qizini so'z solibsen*” kabi voqealar rivoji tafsiloti o'z aksini topgan.

Xalq orasida ana shunday mishmish borligini aytgan Layli “*Baxting yor bo'lsin, billoh, men bunga ishonmadim[1.-B.318]*” deya, “*sening maqsading mening maqsadimdir*” deb Majnunga e'tiroz bildirmaydi. Layli asarda nafaqat ma'shuq, balki u ham iztirobli oshiqdir. U o'z ishqida sadoqatli oshiqdir. O'zi sadoqatli kishi yorining sadoqatsiz bo'lishiga ishona olmaydi. Shuning uchun ham Layli o'z maktubida bunday afsonlarga ishonmaganini birgina satrda qistirib o'tadi. Layli maktubda Navfalning qizini raqib sifatida ko'rmaydi, balki “*Ko'rmush edim ul sanamni bir kun*” deb raqibini “*Ham xubu, ham elga mehribondur, Necha desa yaxshig'ina jondur*” deya maqtaydi ham. Layli tomonida o'z raqibiga bunday baho berilishi uning yuksak ma'naviyatidan, botiniy olamining go'zqligidan dalolatdir.

Maktub **xotimasi** Laylining achchiq so'zi o'rniga Majnun ko'nglini o'rtovchi “*Yovar sanga haq taborak o'lsun, Bu xayr ishing muborak o'lsun*” tabrik bayti bilan boshlanib, jami uch baytni tashkil qiladigan xotima “*Insofg'a ham kanora tutma, Bizni dog'i bir yo'li unutma*” bayti bilan tugaydi. Aslida, maktubning kulminatsion nuqtasi ham aynan xotimadagi ushbu satrlardir. Sababi, Navoiy ta'biri bilan aytganda “*Majnun Laylining kecha to'lin oyidek oppoq sahifada laylatulqadrdek nomasini o'qib, og'zi visol bolidan shirin bo'lganda komiga ari nishi sanchilgani*[2.-B.316]” voqeasi Laylining fikrlari maktubning asosiy qismida pishib yetilib, aynan, xotimada ko'ngil dasturxonining yorilishiga ishora. Majnunning esa maktubni o'qib bo'lguncha tani qalamdek titrab madorsizlanishini Navoiy shunday bayon etadi:

*Majnun o'qug'uncha bo'yla noma,  
 Za'f etti tani misoli xoma.*

Go'yo Laylining asl muddaosi, bo'g'ziga tiqilgan so'zi shu edi-yu, o'z oshiqini muborakbod etib ko'ngli taskin topadi va maktub tugaydi. Layli Majnunni qutlab, maqsadiga yetgach, gapini cho'zmay, “*meni ham unutma*” iltijosi bilan maktubiga ruhiy tamg'a bosadi. Nega Layli o'z maktubida gina qilishni cho'zmadi, nega o'z yoriga oq yo'l tiladi? Navoiy bu o'rinda **ayol psixologiyasi**dagi nozik o'rindan foydalanadi: ayol ko'ngil tubidagi so'zini eng oxirida so'ylaydi, so'ylaydi-yu tin oladi. Maktubda ham xuddi shu holat yuz bergan.

Layli zamonasining nafaqat go'zal qizi edi, balki oqila qizi ham edi. Oqila ayol esa Navoiy tasavvurida, aynan, Layli kabi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek “*Ijodkor asari*”da Navoiy ijodidagi “*Layli va Majnun*” dostonining badiiy tahlilini aks ettirib, “*Obrazlarning ideyaviy ulug'vorligiga ko'lka tashlovchi har nav tasodifiy chizg'ilar, tor maishiy sharoitlar shoir tomonidan ustalik bilan o'chiriladi*...[3.-B.89]”– deya o'z xulosasini keltirishi ham Layli haqidagi fikrimiz isbotidir.

Balki Layli “*Shumi oshiqliging, ishqning shevasi shunday bo'ladimi*” deya tanbeh berganida, Majnun Navoiy ta'riflaganidek “*Majnun o'qug'uncha bo'yla noma, Za'f etti tani misoli xoma*” holatidagi titroqqa tushmas edi. Majnun qanday qarorni ixtiyor etsa Layli unga so'zsiz rizoligini bildirishi, noma so'nggida esa

*Bo'lsang necha oning ila xurram,  
 Yod ayla gahi bu xastani ham*[4.-B.157],-deya iltijo qilishi Majnun qalbiga “*nesh*” misol botadi.

Balki Layli “*Shumi oshiqliging, ishqning shevasi shunday bo'ladimi*” deya tanbeh berganida, Majnun Navoiy ta'riflaganidek “*Majnun o'qug'uncha bo'yla noma, Za'f etti tani misoli xoma*” holatidagi titroqqa tushmas edi. Majnun qanday qarorni ixtiyor etsa Layli unga so'zsiz rizoligini bildirishi, noma so'nggida esa

*Bo'lsang necha oning ila xurram,  
 Yod ayla gahi bu xastani ham,-* deya iltijo qilishi Majnun qalbiga “*nesh*” misol botadi va qosid (xabar yetkazuvchi) Zaydga qarab bunday deydi:

*K-ey, chok yurakka chora andesh,  
 Marham aro yoshurub base nesh.*

*Bu nomaki jonni qildi betob,  
 Yozmoqqa javob yo'qtur asbob.*

Zayd Majnunga “*qag'az dag'i xoma*” bergach, u ham o'z maktubini “*tengri oti*” bilan boshlaydi. Layli bilan Majnunning maktublarini o'zaro qiyosan tahlil qilar ekanmiz,

ulardagi ba'zi xususiylikni ko'ramiz. Masalan, maktublarning kirish qismi quyidagicha: Layli maktubida ishq mayi oshiqnlarni ne holga solajagi bayon etilgan bo'lsa, Majnun maktubida tangrining oshiqqlar uchun "*ayriliq kulfatini qattiq yaratib, ishq sharbatini achchiq etgani*" bayon qilinadi. Maktubning kirish qismi shulardan iborat.

Majnun maktubining **asosiy qismi** "*Mendinki ichim g'amingda qondur, Sangaki g'aming tanimda jondur*" bayti bilan boshlanadi. Umuman olganda "*junun fasonasi, rasvoli q o'ti fasonasi*" o'z yoriga go'zal tashbehlar bilan murojaat qiladi, qalbidagini to'kadi. Majnunning murojaatlari, tashbeh-u, yor sifatini ta'riflashlari uning oshiqlik g'amidagi **butun ruhiyatini ochib beradi. Va bu ruhiyatning Layli ruhidan bir qatra ustunligini, yetukligini ko'ramiz.** Ishaq muhtolosi savdoyi holatga tushmasdan turib ishq balog'asiga yetisha olmaydi. Majnun esa savdoyi edi va buni maktubida tan oladi. U yorining sifotlarini ta'riflashni boshlar ekan,

*Ne haddim ila duo degaymen,*

*Yuz madh ila sano degaymen?* - deya "*madhingni degali dog'i qani til*" holatini ayon etadi.

Majnun yorini go'yo ko'rib turgandek, "*Ey lutf jahonining bahori, Yuzung bu bahor lolazori*" deydi va kokillarini, qayrilma qoshlarini, xumor ko'zlarini, qora xolini (xoli hindu), kamoli tor og'zini, qaddi raftorini, noz uyqusini ritorik so'roqlar ifodasida tarannum etadi.

Layli va Qays o'rtasidagi rishta nafaqat samimiy sevgi, balki saviya, fikr va maslak birligi ham edi. Bu ma'naviy birlik Majnun maktubining bir necha o'rinlarida ko'zga tashlanishi bilan Layli maktubidan farq qiladi. Layli maktubida Majnunga bo'lgan muhabbatini tan olsa, Majnun bu muhabbat o'tida oddiy xalq tushunmas bir makonda ekanligini aytadi.

"*Bu ermish irodai ilohiy, kim sirrini bilmas el kamohi*" baytida Majnun bu muhabbat Alloh irodasikim, el buning haqiqiy mohiyatini bilmaydi deya faylasufona fikr bildiradi. Majnun yana o'z holatini "*Bu za'f bila chu po'ya qilib, O'rgamchi tanobidin yiqilib*" satrida ifodalaydiki, o'rgimchak iplaridan-da yiqiluvchi shaxs jismi emas, ruhiy jihatdan ojiz-u notavonligini, bunday ojizlik Qays uchun odat bo'lib qolganini bilib olamiz. Ruhiy ojizlik, quvvatsizlik shundayki, u bir lahzada shiddatkor quvvatga ega bo'lsa, bir lahzada o'rgimchak to'riga qoqilib tushar darajadagi kimsa holatidir. Navoiyning Majnuni aynan shunday ahvolda. Zamonaviy adabiyotda ruhiyatning pajmurda holatini ana shunday navoiyona tarzda siqiq misralarda o'lgan ma'no bilan bera olishi bugungi kunda **modernizm** adabiyotida avj olgan ifoda usullaridandir.

Majnun maktubida **tasavvuf** motivlari bo'rtib ko'rinadi.

*Yo'qluk manga gar urub durur yo'l,*

*Sen bor bo'l-u bu yo'qqa yor bo'l.*

Ya'ni Navoiy ishq masalasiga har bir asarida alohida urg'u beradi. Jumladan, tasavvufiy qarashlari o'rin olgan asari "**Lison ut tayr**"da mansur Hallojga nisbatan tanqidiy qarashlarini shunday ifoda etadi: "*Sen ajib bir uzoqni ko'rolmasligingdan bu borada o'zingning ko'rliging va nodonligingni oshkor etding. Chunki Tavhid vodiysi yoki yakkalik va yolg'izlik gulshanida "menlik" va "senlik" tomon yo'l ochding, ammo u bu xil ikkilik vasfidan pok turardi. Degan ham, bergan ham, in'om qilib sochgan ham, tergan ham uning o'zidir! U yozuv "menlik" rangidan pok edi, nag'masida ham ikkilik ohangi yo'q edi. Men u yerda "senlik"ni xayol qilib, ikkilik naqshidan aql yurgizganman. Sendagi bu holat, shuni bilki, g'ilaylikdan, bitta narsani ikkita qilib ko'rishdan o'zga narsa emas. Bu xayolni xotiringdan chiqarib, yo'q qilib tashla[5.-B.83]!* Navoiyning ishq yo'lida tavid borasidagi g'oyalari uning umri oxirida pishib yetilmagani, balki navqironlik chog'laridayoq ayni

shunday maslakda bo'lganini Majnun maktubi badiiyatidan anglab olishimiz mumkin. Majnun maktubining asosiy qismi bilan besh baytdan iborat xotima qismini bog'lovchi

*Hay, hay, ne fasonalar bo'lur bu,*

*Xorij ne taronalar bo'lur bu?*

*Go'yo savdo yo'lumni urdi,*

*Hushumni junun yeli sovurdi*, satrlarida Majnun hayratiga guvoh bo'lamiz. O'z holatidan o'zi hayratda bo'lgan kishi esa yarim telbadir. Bu yuzdan Majnun "*Shuur bilan so'zlash shiorim emas*"[6.-B.321] deya o'z holatini to'g'ri bayon etadi. Shuur bilan so'zlay olmasligining sababi esa uning vujudi yo'qlik tavrida (ko'rinishida), u o'rgimchak iplariga qoqinsa yiqiladi; chok bo'lgan ko'ksiga hasharotlar bemalol kirib chiqadi; ko'ksida chivinlar o'ralashadi; ko'ziga chumolilar uya qurgan. U faqat yor yodi bilangina tirik. Shuning uchun ham g'arib oshiq deydi:

*Alfozin o'qurda ruh toptim,*

*Har harfida yuz futuh toptim.*

Bunday oshiqlikdagi ishq mohiyatini esa Layli kabi ma'shuqagina tushuna oladi. Yuqori tabaqa tomonidan "jinni" deb tahqirlangan, zamonasining eng zakiy bilimlilaridan bo'lgan Qaysni mulkdor Ibni Salomdan yuqori qo'ygan zarshunos ham ana shu Layli edi.

Bosh qahramonlar maktubida nido, tashbeh, tanosub

Xulosa qilsak, Layli va Majnun maktubi g'oyaviy jihatdan ishqiy maktub bo'lib, unda Navoiy Laylis vhamda Majnunining zakosi, sadoqati, hayosi, ishonchi ham o'zining bo'y-bastini ko'rsatib turadi. Bundan tashqari maktubdan biz nafaqat personajlarining otashin qalb iztiroblaridan, balki o'sha davr tuzumidan ham xabardor bo'lamiz. Masalan, Laylining "*Navfal bilan ustimizga qo'shin tortding. Qabilam yuziga balo shapaloq urib, saroyim ahliga tomon qo'rqinchini soldi. Otam meni o'ldirib, qonlarimni yerga to'kmoq istadi*" tarzidagi nolasi o'sha davr qabilalari o'rtasidagi adovatdan, otalarning farzandi taqdiriga bo'lgan munosabatidan, jamiyatning ilm-u hikmat egasiga (Qays)ga emas, mol-mulk sohiblari (Ibni Salom)ga qulluq qilishidan xabardor bo'lamiz. "Layli va Majnun" dostonidagi maktublar davr ruhini o'zida yoritgan motivlardandir. Navoiy personajlar maktublari orqali *dardman, ishqli kishilarni ulug'laydi, yasama, qalbaki ishq egalarini qoralaydi*[7.-B.85]... Navfal tilidan keltirilgan "*Dur toj uza aybdin yiroqdur, La'l o'lsa yonida yaxshiroqdur*" misralari esa fikrimiz isbotidir. Umuman, ushbu doston orqali Navoiy boshqacharoq vazifa va maqsadni, Layli va Majnun fojiasi bilan shaxs erkini, insonning sevgi va sadoqat kabi olijanob fazilatlarini paymol etgan feodal o'rta asrining dahshatli qonun-qoidalarini, urf-odatlarini qoralash vazifasini o'z oldiga qo'yadi.[8.- B.465] Navoiy ushbu maqsadini "Layli va Majnun" dostonidagi personajlar o'rtasidagi yozishma - xatlar orqali ham amalga oshirdi.

### Iqtiboslar/Сноски/References

1. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. G'.G'ulom nashriyoti. T.: -1990-yil, 318-bet. (nasriy bayon)
2. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. G'.G'ulom nashriyoti. T.: -1990-yil, 316-bet. (nasriy bayon)
3. Ойбек. Навоий Гулшани (Навоий ҳақида мақолалар) Тошкент: “Тошкент” бадиий адабиёт нашриёти, 1967- йил. 89-bet.
4. Alisher Navoiy. Lison ut tayr. Nasriy bayon. 83-bet
5. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. G ' .G 'ulom nashriyoti. - Toshkent, 1990-yil, 321-bet.
6. Ойбек. Навоий Гулшани (Навоий ҳақида мақолалар) Тошкент: “Тошкент” бадиий адабиёт нашриёти, 1967- йил.
7. Қаюмов А. Алишер Навоий (шоирнинг ҳаёти ва ижоди ҳақида лавҳалар) – Тошкент: Камалак, 1991-йил.
8. АҲайитметов А. Навоий даҳоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1970-йил.
9. Шарафиддинов О. Алишер Навоий (Ҳаёти ва ижоди) – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1971-йил.
10. Алишер Навоий. «Лайли ва Мажнун». – Тошкент: Ғ. Ғулом нашриёти, 1990-йил.
11. Маллаев Н. «Ўзбек адабиёти тарихи». – Тошкент: Ўқитувчи нашриёти, 1965.

# TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

**Sharifov Siroj,**

o'qituvchi

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti  
Samarqand, O'zbekiston

[sharifovsiroj@gmail.com](mailto:sharifovsiroj@gmail.com)

## NOREAL VOQELIKNING BADIY XARAKTERNI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI



[10.5281/zenodo.19159769](https://doi.org/10.5281/zenodo.19159769)

### ANNOTATSIYA

Bu maqolada Omon Muxtor romanlaridagi noreal voqeliklarning konflikt va xarakterni yoritishdagi roli haqida gap boradi. Inson ruhiyat dinamikasida fantastikaning o'rni, tush, ramziy ifodalarning asarda ma'lum bir g'oya va falsafani tashishdagi roli yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** noreal voqelik, ramz, metafora, tush tasviri, fantastik unsurlar, konflikt, badiiy xarakter, syujet, ruhiyat, absurd g'oya, ong oqimi, syurealistik dunyoqarash.

**Sharifov Siroj,**

teacher

Kattakurgan State Pedagogical Institute  
Samarkand, Uzbekistan

[sharifovsiroj@gmail.com](mailto:sharifovsiroj@gmail.com)

## THE ROLE OF UNREAL REALITY IN THE FORMATION OF ARTISTIC CHARACTER

### ABSTRACT

This article discusses the role of unreal realities in the novels of Amon Mukhtar in illuminating conflict and character. The role of fiction in the dynamics of the human psyche, the role of dreams, symbolic expressions in conveying a certain idea and philosophy in the work are highlighted.

**Keywords:** unreal reality, symbol, metaphor, dream image, fantastic elements, conflict, fictional character, plot, psyche, absurd idea, stream of consciousness, surrealist worldview.

**Шарифов Сирож,**

Преподаватель

Каттакурганском государственном педагогическом институте

Самарканд, Узбекистан

[sharifovsiroj@gmail.com](mailto:sharifovsiroj@gmail.com)

## РОЛЬ ИРРЕАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается роль нереальных реалий в романах Амона Мухтара в раскрытии конфликта и характеров. Подчеркивается роль вымысла в динамике человеческой психики, роль сновидений и символических выражений в передаче определенной идеи и философии произведения.

**Ключевые слова:** нереальная реальность, символ, метафора, образ сновидения, фантастические элементы, конфликт, вымышленный персонаж, сюжет, психика, абсурдная идея, поток сознания, сюрреалистическое мировоззрение.

Ijodkor adabiy jarayonda qanday badiiy asar yaratmasin voqelikni in'ikos etishda turli xil shakllardan foydalanishi mumkin: realistik, norealistik yoki aralash tartibda (realistik va norealistik). Bugungi kundagi zamonaviy adabiy maydonda esa realistik ifoda bilan bir qatorda, noreal voqelik tasviri keng qo'llanilmoqda. Bunday tasviriy jarayonlar ijodkor-muallifga oddiy voqealar ortida yashiringan chuqur falsafiy-psixologik va ijtimoiy-ruhiy manzaralarning mazmun-mohiyatini ochishga imkoniyat yaratib beradi.

Badiiy asarlarda noreal voqelik yozuvchining tasvir uslubiga qarab turlicha ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin: 1. Fantastik voqelik – inson hayotida ro'y bermaydigan, ilm-fan bilan izohlab bo'lmaydigan mo'jizaviy hodisalar tasviri. Masalan: personajlarning g'ayrioddiy quvvatga ega bo'lishi, bir zumda bir makondan boshqa makonga ko'chib qolishlar... 2. Mifologik va afsonaviy unsurlar – xalq og'zaki ijodidan kirib kelgan ajdaho, devlar, suv parilari va b. 3. Surrealistik tasvir – ong osti, tush, vahima, tasavvur dunyosining reallikka qo'shilib ketishi. 4. Allegorik va ramziy voqelik – haqiqatni yashirin ma'noda beruvchi obrazlar orqali norealikka yo'l ochilishi. Masalan, narsa-predmet yoki hayvonlar orqali jamiyatning tanqidi, biror-bir mifologik timsol orqali insoniy kechinmalar ifodalanishi. 5. Utopik va antiutopik voqelik – kelajak, jamiyat haqidagi orzular, mavjud hayotdan tamoman farq qiluvchi ijtimoiy tuzumlar tasviri. Yuqorida tilga olib o'tilgan noreal voqelikning bunday ko'rinishlari, ya'ni bunday uslubiy yondashuv yozuvchiga qahramon ruhiyatini chuqur tasvirlash, ichki qarama-qarshiliklarni ko'rsatish imkonini beradi.

Omon Muxtor ijodida noreal voqelik tasvirlari qahramonlar xarakterini ochishda ham asosiy poetik vositalardan biri sifatida xizmat qilgan. Omon Muxtor ijodidagi noreallik haqida gapirar ekan Umarali Normatov shunday munosabat bildiradi: “ Omon Muxtor noreal voqelikdan vosita sifatida foydalangan holda real hayotni chuqurroq anglashga chorlaydi. Uning qahramonlari ramz va timsollar orqali o'z “men”ini va jamiyat orasidagi ichki kurashni ifodalaydi.”<sup>8</sup>

Omon Muxtor ijodi noreal voqelik orqali badiiy obrazni shakllantirishda o'ziga xos o'rin tutadi. Uning romanlaridagi qahramonlar tashqi reallikdan ko'ra ichki holati, ruhiy iztirob, ma'naviy izlanishlar bilan gavdalanadi. Bu holat ularning xarakterini ko'p qirrali, falsafiy va ramziy darajada ochishga xizmat qiladi. Demak, noreal voqelik Omon Muxtor asarlarida xarakter yaratishning asosiy badiiy uslubi hisoblanadi.

<sup>8</sup> Normatov U. “Zamonaviy roman tafakkuri”, T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot, 2014

Omon Muxtorning “Ming bir qiyofa” romanida noreal tasvir asar qahramonlarining ichki dunyosi, ruhiy kechinmalarini ochib beribgina qolmay bir voqelikni ikkinchi bir voqelik bilan ulab syujetni harakatga soluvchi “lokomativ” rolini ham o‘ynagan. Asar qahramoni hisoblangan Abdulla Hakim bir guruh korchalonlar qo‘liga tushib obdon kaltaklangandan so‘ng xo‘rligi kelib sevgilisi Halimani eslaydi va shu zahoti Halima paydo bo‘ladi va u bilan suhbatlashib ketadi: “Manzillar chekinib, devorlar suranib, eshiklar qulab, bexosdan Halima xonaga kirib kelganicha uning ro‘parasiga to‘xtadi. U yerda emaklab-sudralib, Halimang oyoqlarini quchib, qizning etagiga yuzini bosib, baxt va baxtsizlikdan mast ko‘yda yelkalari titrab, to‘liqib, uzoq hungur-hungur yig‘ladi: shuncha yil qayerda eding, Halimajon? Nega meni yo‘qlamading?! Axir, men sensiz yasholmayman-ku!... Otam yo‘q, aka-ukalarim yo‘q, boshimda yolg‘iz soyabonim – onam o‘tib ketganlariga ancha bo‘ldi. Mening endi dunyoda sendan bo‘lak hech kimim qolmadi. Vaqtida o‘zi seni izlab shaharga kelgandim... Sen yonimda bo‘lsang, boshimga bunday kunlar tushmasdi...<sup>9</sup>. Bunday noreal tasvirlar orqali ijodkor asar qahramonlarining butun bir badiiy qiyofasini ochib boradi. O‘quvchi kitobxon esa ana shunday noreal tasvirlar orqali qahramonlar badiiy xarakterini kashf qiladi.

“Ming bir qiyofa” romanida noreallikning fantastik ko‘rinishidan tashqari ramz, kinoya, piching va shu kabi tagma’noga ega bo‘lgan tasvirlar ham shunday ustalik bilan qo‘llab yuborilganki, ular orqali jamiyatda hamda insonlar orasida ro‘y bergan va berayotgan ijtimoiy adolatsizliklarni ham qoralab o‘tadi. Abdulla Hakim mingan mashinaning haydovchisiz boshqarilishi, shahar markazidagi binoning birdaniga ko‘zdan g‘oyib bo‘lishi va shunga o‘xshash ramziy tasvirlar asarda talaygina. Gap ularning sonida emas, balki ma‘no tashishida, voqea-hodisalar mohiyatini ochib berishida. Masalan, mashinaning haydovchisiz boshqarilishi – jamiyatning, tuzumning rahbar – rahnamodan ayrilganini, uni boshqaruvchi yagona bir boshning yo‘qligiga ishora qilgan bo‘lsa, shahar markazidagi binoning – marmardan tiklangan to‘qqiz qavatli koshona Tarix va madaniyat tashkilotining kuchli shamol tufayli joyidan yo‘q bo‘lishi, uning qaqragan bir cho‘lga borib tushishi, ichidagi xodimlarning hatto buni sezmagani-yu, uyiga ketmasdan haftalab shu yerda qolib ishlashigacha ham bir ramziylik hamda kinoya mavjud bo‘lib, go‘yo yozuvchining o‘quvchi-kitobxoniga aytish lozim bo‘lgan achchiq haqiqatlari yashiringan: 1) *uning marmardan tiklanishi va to‘qqiz qavatli ekanligi* – shuncha katta, hashamdor tashkilot bo‘la turib biror bir ishni o‘zi mustaqil hal qilolmasligi, hatto kichik bir xodim olmoqchi bo‘lsa ham yuqoridan buyruq kutishi, o‘zining mustaqil fikri yo‘qligiga; 2) *kuchli shamol tufayli joyidan yo‘q bo‘lishi hamda uning qaqragan bir cho‘lga borib tushishi* – aslida bu tashkilotning na xalqqa va tarix va madaniyatga hissasi tegmayotganligidan dalolat beradi. Tarix va madaniyatni gullatish shiori ostida *qadimiy obidalar, masjid va madrasalarni buzish, ming yillik ko‘rkam hovuzlarni ko‘mib tashlash, qaristonlarni toptash, ota-bobolaridan qolgan eski kitoblarni yoqish...* aynan mana shu ishlar qo‘shirnoq ichidagi “Tarix va madaniyat” tashkilotining ishi edi. Yozuvchi uni shamolga uchirib, cho‘lga olib borib tashlash orqali undan ko‘ra bu tashkilot yo‘q bo‘lsa yaxshi demoqchi. Balki shu tashkilot yo‘q bo‘lganda buyuk bir madaniy merosimiz saqlanib qolarmidi, demoqchiday... Bunday iqrorlarni yozuvchi hatto asar qahramoni (Sadirjon) tiliga ham ko‘chiradi: “Tashkilotingiz avvaldan odamlarga keraksiz edi. Hozir esa shahardan ham odamlardan ham butkul uzilib qoldi. Derazadan tashqariga bunday bir qarang! Yalang sahroda turibsiz!”<sup>10</sup>

Bu romanda yozuvchi noreal voqeliklar orqali faqatgina qahramonlar xarakterini yoritibgina qolmay, balki ayni paytda ijtimoiy muhitning umumiy qiyofasini qahramonlar xatti-harakat tarzi, tutumlari orqali ham ochib beradi. Romanda asar qahramonning “ming bitta qiyofa”ga kirishi – bu insonning o‘zini izlash, yo‘qotish va topish kabi falsafiy yo‘lini

<sup>9</sup> Omon Muxtor. Tўrt tomon qibla: uch romandan iborat Sharq daftari: (trilogiya). – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 24. (Keyingi o‘rinlarda ushbu asarning faqat sahifalari ko‘rsatiladi.)

<sup>10</sup> O‘sha asar. – B.121.

ko'rsatib bergan. Bu romandagi ramziy nom haqida gapirar ekan "Ming bir qiyofa" – bu asar qahramonining o'zini anglash yo'lida ichida kechayotgan ming bitta iztirob va kechinmalarni boshdan kechirishining ramziy ifodasidir"<sup>11</sup>, deb yozadi M. Sobirova.

"Ko'zgu oldidagi odam" romanida ham noreal tasvirlar orqali qahramonning (asosan, Valijonning) ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari yoritiladi. Muallif bu romanda ham an'anaviy realizmdan yiroqlashgan holda, inson ongining chuqur qatlamlariga kirib boradi. Bu asarda yozuvchi personaj badiiy xarakterini tashqi xatti-harakatlar bilan emas, balki ichki dialog, tush, xayolot va simvolik obrazlar vositasida shakllantiradi.

Roman markazida turgan qahramon (Valijon) – ko'zgu oldida turib o'zini kuzatuvchi, o'z hayoti va ma'naviy qiyofasini tahlil va taftish qiluvchi obraz hisoblanadi. "Ko'zgu" predmeti bu asarda ramziy timsol hisoblanib, insonning o'z-o'zini anglash, ruhiy muhokama maydoni sifatida talqin qilinadi. Asar qahramoni hisoblangan Valijon obrazi real hayotdan ko'ra, balki o'zining ichki olamida ko'proq yashaydi: o'zi bilan o'zi suhbat quradi, o'zini lanatlaydi, o'zini koyiydi, o'ziga taskin beradi, umuman, o'z-o'zi bilan kurashib yashaydi. Mana shu jarayonda uning badiiy xarakter qiyofasi ochilib boradi. Bu o'rinda adabiyot vakili Jahongir Qosimovning: "Omon Muxtor romanlarida, xususan, "Ko'zgu oldidagi odam"da noreal shakllar orqali inson ongining in'ikosi, qarama-qarshiliklar, ichki dialoglar ustuvor. Bu asarni psixologik-modernistik ruhdagi romanlar safida ko'rish mumkin"<sup>12</sup>, - degan fikrlari ham bizning yuqoridagi fikrlarimizga hamohanglik kasb etadi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov ham "Omon Muxtorning "Ko'zgu oldidagi odam" romanida an'anaviy syujet voqealari o'rnini falsafiy-metaforik, ko'proq ichki izlanishlar egallaganini, qahramonning ruhiy portreti noreal tasvirlar, timsollar va simvolik xarakterlar vositasida chizilganini bu, o'z navbatida, badiiy xarakterga murakkablik, ko'p qavatlilik bag'ishlaganini"<sup>13</sup> ta'kidlagan edi.

Romanda bosh qahramon o'zini izlash jarayonini boshlaydi. Bu izlanish ko'zgdagi aks orqali, ya'ni simvolik makonda kechadi. Ko'zgu – bu oddiy predmet emas, balki o'zini anglash, haqiqatni topish vositasidir. Qahramon o'z ichki "men"i bilan kurashadi. Bu kurash real voqea emas, balki noreal tasvir orqali berilgan ruhiy inqiroz sifatida namoyon bo'ladi. Muallif "Ko'zgu oldidagi odam" romanida noreal tasvirlar orqali qahramonning ruhiy holati, falsafiy qarashlari va ma'naviy kechinmalarini chuqur yoritadi. Bu tasvirlar badiiy xarakterni shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilib, romanning poetikasiga o'ziga xoslik baxsh etgan.

Omon Muxtorning "Tepalikdagi xaroba" romanida ham noreal voqelik vositasida badiiy xarakterlar yaratish, ularning ichki kechinmalari va ruhiy iztiroblarini ifodalash asosiy san'atkorlik mezoniga aylanganini ko'rishimiz mumkin. Asarda real voqelik va g'ayritabiiy (noreal) holatlar ustma-ust tushgan holda tasvirlanadi, bu esa obrazlarning ichki dunyosi va ong oqimi orqali ochib berilgan.

Romanning bosh qahramoni — tarixchi yigit Mirza G'olib obrazi orqali yozuvchi inson xotirasi, ong oqimi va ruhiy o'zgarishlarini noreal tasvirlar orqali bayon etadi. Xususan, "Tepalik" va "xaroba" tushunchalari faqat makon emas, balki ma'naviy va falsafiy ramzlar sifatida ham talqin etiladi. Xaroba — bu insoniyat tarixining yemirilgan, unutilgan bosqichlarini, tepada joylashgan xaroba esa bunday yemirilgan ong va xotiraning tevarakatofga ustuvor bo'lgan kuchini anglatadi. Tanqidchi I. G'ofurovning fikricha, "roman voqealari real asosga ega bo'lishiga qaramasdan, yozuvchi ularni ruhiy-simvolik darajada yoritishga harakat qiladi. Bu orqali qahramon ichki azobini, iztirobini, hatto jismoniy hayotdan ko'ra ruhiy mavjudlikda ko'proq yashayotganini ko'rsatadi"<sup>14</sup>

<sup>11</sup> Sobirova M. "O'zbek adabiyotida poetik tafakkur va badiiy obraz", T.: O'qituvchi, 2007., – B. 23

<sup>12</sup> Qosimov J. Zamonaviy o'zbek romanining iztiroblari. – T.: Akademya, 2015. – B. 187.

<sup>13</sup> Quronov D. O'zbek romanining taraqqiyot bosqichlari. – T.: Fan, 2009. – B. 204.

<sup>14</sup> G'ofurov I. Omon Muxtor poetikasi, T., 1986, 112-bet

Romanda orzular, vahimalar, tushlar va xotiralar badiiy kompozitsiyaning asosiy qismini tashkil etadi. Mirza G'olibning eski maktab va undagi o'rtoqlari, bolalikdagi o'qituvchisi, bo'rilar va tubsiz quduq haqidagi xotiralari tasvirlanar ekan, bu xotiralar ko'pincha aniq real kontekstdan ajralib, syurrealistik ohangda beriladi. Adabiyotshunos olim Ahmedov N. bu haqida shunday yozadi: "Muxtor qahramonlari real hayotda emas, balki o'z xotiralari va orzularining mutlaq olamida yashaydi. Tepalikdagi xaroba — bu ham tarix, ham shuur darajasida barbod bo'lgan haqiqatdir."<sup>15</sup>

Romanda Mirza G'olib xarakteri noreal voqealar orqali asta-sekin shakllanadi. U o'tmish xotiralari bilan kurashadi, vaqti-vaqti bilan real hayotdan uziladi. Aynan mana shu noaniqlik, tush va haqiqat orasidagi tafovut uning ongidagi bo'linishni — ichki azob va ruhiy ezilishni ko'rsatadi. Misol uchun, u xarobani qayta tiklamoqchi bo'ladi, ammo bu harakatlar ko'proq simbolik ma'no kasb etadi — u o'z vijdoni, o'tmishidagi xatolari bilan yuzma-yuz keladi. Tepalikdagi xaroba, aslida, uning buzilgan, unutilgan qadriyatlar oldida javobgarligini aks ettirgan desak, xato bo'lmaydi

Roman modernistik oqimlar, xususan, ong oqimi, retrospektiv usullar va syurrealistik timsollar orqali yozilgan. Bu uslub orqali Omon Muxtor shaxsiy tajribalarni umumiy falsafiy savollarga aylantiradi: "Inson kim?", "Tarix qayerda?", "Qadriyatlar qay darajada barqaror?" degan savollar badiiy xarakter og'ushida ochiladi. Akademik Ibrohim Haqqulov ta'kidlaganidek: "Omon Muxtor ijodida vaqt va makon kontsepsiyasi o'ziga xos tarzda qayta talqin etiladi, unda noreal tasvirlar obrazning ichki olamini ochishga xizmat qiladi".<sup>16</sup>

"Tepalikdagi xaroba" romanida Mirza G'olibning badiiy xarakteri noreal voqealilar: orzular, tushlar, timsollar orqali shakllanib borib, bu jarayon roman strukturasi xotira, ong oqimi, tasavvufiy-falsafiy ramzlar (tepada joylashgan xaroba, quduq, bo'ri) badiiy obrazlar taraqqiyotini ta'minlab bergan.

"FFU" romanida noreal tasvir, asosan, Mulla Toshpo'lat, o'g'li Toshtemir va yoymachi "afsungar" Haydar Maxsum bilan bog'liq bo'lgan muloqotlar asnosida tasvirlangan. Asarda asosiy qahramon Mulla Toshpo'lat tashqi voqealardan ko'ra ichki kechinmalar, xotiralar, ajdodlarga nisbatan vijdoniy mas'uliyat bilan yashaydigan obraz. U o'g'li Toshtemirning ishyoqmasligi, dangasaligi, qo'li ishga bormasligidan kuyunib, yakka-yu yagona o'g'liga najot izlab ko'chaga chiqadi. Cho'kayotgan odam xasga yopishadi, - deganlaridek, ko'ziga ko'ringan shaxs, hatto narsadan ham najot istab qoladi. Uning baxtiga bozorda qiblagga qarab o'tirgan yoymachi chol Haydar maxsumga yo'liqadi. Uning "menga shunday salohiyat bor: qo'limni ochib yuzingga tortsam bas, aqlimning yarmi o'g'lingizga o'tib qoladi", degan so'ziga laqqa tushib, aqlining yarmini sotib olishi hamda o'g'li bilan kechqurun supada suhbatlashib turish asnosida "patlari kapalakdek rangin" bir to'tining supada paydo bo'lishi va Toshtemirning "kiftiga qanotini tekkizgan" boshi ustidan uchib o'tishi, shundan so'ng Toshtemirning boshi qattiq og'rib, so'ng kallasi yaxshi ishlay boshlashi-yu, aqlli bo'lib qolgani, Haydar maxsumning sotgan aqlini qaytarib olishi, Toshtemir yana asl holiga qaytib, u qurgan binoning bir zumda yer bilan yakson bo'lishi bilan bog'liq jarayonlarda ko'zga tashlanadi.

Adib "FFU" romandagi bunday noreal orqali oddiy xalq ongidagi tushunchalar, qarashlar, qadimiy arketiplar, metaforik ifodalar, xayoliy obrazlar orqali badiiy haqiqatni tasvirlaydi. Asardagi badiiy xarakterlar real shaxs sifatida emas, balki ruhiy-axloqiy timsollar sifatida yoritiladi go'yo. Bir so'z bilan aytganda, ijodkor Mulla Toshpo'lat obrazi orqali "o'zbek otasining bo'rtma tasviri"ni yaratishni maqsad qilgan. Roman nomining o'zi timsoliy xarakterga egadek go'yo, FFU – Farzandga, Fido, Umr.

"FFU" romani haqida fikr bildirar ekan Habib Sa'dullayev shunday deydi: "FFU – bu realizmga sig'maydigan, o'ziga xos ruhiy makon. Qahramonlarning orzusi, xotirasi, og'riqlari

<sup>15</sup> Ahmedov N. Sharq mumtoz ruhiyatining zamonaviy talqini, T., 2001, 186-bet

<sup>16</sup> Haqqulov I. Adabiy tanqid va badiiy tafakkur, T., 2010, 234-bet

asar ichidagi noreal strukturalarda jonlanadi. Noreallik – bu yerda estetik vosita emas, balki badiiy xarakterning o'zagi.”<sup>17</sup>

Umuman aytganda, “FFU” romanida noreal voqeliklar, asosan, qahramonning (Mulla Toshtemirning) ichki kechinmalari, vijdoniy azoblari – badiiy xarakterini yaratishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan.

“Ayollar mamlakati va saltanati” romani ham noreal voqeliklar asosida qurilgan bo'lib, bu asar nafaqat ayollar mavqeini tasvirlash, balki insoniyatdagi qadriyatlar va ruhiy holatlarni ham badiiy ifodalashda o'ziga xos yondashuvga ega. Asarda noreal voqelik Olimning bog'-hovliga uning qo'lini so'rash, turmushga chiqishiga ko'ndirish uchun Zebon taklif qilgani hamda uchrashish uchun borayotganda ko'prik ostidagi cho'milayotgan ayollar, ular idora qiloyatgan bino ko'rishi bilan rivojlanadi. Roman voqealari real hayotga o'xshash kontekstda kechgan bo'lsa-da, unda tasvirlangan Ayollar mamlakati — bu real geografik joy emas, inson ongi va ruhiyatidagi g'oyaviy-metaforik makon sifatida talqin qilinadi. Asar qahramonlari hisoblangan Asal, Nafisa, Shohsanam, Baxtigul kabi obrazlar real odamlar emas, balki ayollik mohiyati, insoniy qadriyatlar, erkinlik va adolat istagidagi timsollaridir. Asar qahramoni hisoblangan Olimning xotinini “Hurriyat” ismi bilan nomlanishi ham jamiyatda ayollarning erkinligi, hurligiga ishora bo'lgan ramziy nomdir.

Muallif ayollar hukmronlik qilgan jamiyatni tasvirlab, zamonaviy jamiyatdagi gender tengsizligi, erkaklar va ayollar o'rtasidagi ijtimoiy rollarning buzilgan me'yorlarini aksil-oyna orqali tanqid qiladi. Ayolning ojiza emasligi, ular kuch, quvvat, shijoat borasida erkaklardan qolishmasligini To'maris, Barchinoy, Nodirabegim, Turkon xotun-u O'zbek oyimlar misolida ham namuna qilib ko'rsatadi:

*“... Tog'lar ustida, Oftob nurlariga cho'mgan,  
Eng baland cho'qqida zarrin taxt –  
Yuziga harir parda tutgan MALIKA o'tiradi.  
Bu To'marismi, Turkon xotunmi, O'zbek oyimmi?”*

*Irodasi – qonun, hukmi – hukm...”<sup>18</sup>  
“Biz – To'maris avlodi,  
Ayolsiz – hayot yo'q,  
Sen – buyuk ma'buda”<sup>19</sup>*

Asarda muallif ko'r-ko'rona ayollarning erkinligi va ijtimoiy hayotda erkaklar bilan teng huquqli bo'lishini yoqlagani ko'rinib tursa-da, ba'zi o'rinlarda haddan ziyod erkinlik ayolning izdan chiqishiga, hamiyatning yo'qolishiga, ijtimoiy tanazzulni keltirib chiqarishiga ishoralar bor: Asardagi personajlardan biri Toji akaning turli gap-so'zlar sabab qizini o'ldirib qo'yishi, “Ayolning behad erkinligi qo'rqinchlidir”, “Men bunday og'ir ishlarni nomus uchun qildim, alamdand emas” kabi “Otello” dan iqtiboslarning keltirilishi, Stalinning xotini Aliluyevani o'z joniga qasd qilishgacha borish holatlari bunga yaqqol misoldir.

Bu roman haqida fikr bildirar ekan Shoira Shomurodova: “Asarda noreal, simvolik qatlamda yaratilgan “Ayollar mamlakati” – bu erkinlikka intilishning, adolatga tashnalikning ramziy ifodasidir. Obrazlar orqali emas, balki tushunsiz, ko'ngil orqali anglanadigan estetik model yaratish – Omon Muxtor stilistik yutug'idir.”<sup>20</sup>, - deb yozsa, yana bir adabiy tadqiqodchi Gulchehra Nurullayeva shunday deydi: “Roman fantastik vositalar orqali ayollik

<sup>17</sup> Sa'dullayev H. Omon Muxtor romanlarida ruhiy-falsafiy qatlamlar. // Yangi adabiyot, 2021, №4.

<sup>18</sup> “Ayollar mamlakati va saltanati”.: Roman va hikoyalar. – T.: sharq, 1997. – B. 112

<sup>19</sup> Ayollar mamlakati va saltanati”.: Roman va hikoyalar. – T.: sharq, 1997. – B. 109.

<sup>20</sup> Shomurodova Sh. “Omon Muxtor ijodida fantastika va realizm uyg'unligi”, O'zDJTU ilmiy to'plami, 2020.

olamini g'oyaviy markazga olib chiqadi. Bu – noreal tasvir yordamida qahramonlarning jamiyatdagi o'rni, ichki dramasi, botiniy isyoni badiiy shakllantirilganini anglatadi.”<sup>21</sup>

Omon Muxtorning “Ayollar mamlakati va saltanati” romanida noreal tasvirlar psixologik, ijtimoiy va falsafiy ma'nolarni yuksak estetik darajada ifodalovchi vosita sifatida xizmat qilgan. Qahramonlarning badiiy xarakteri noreal muhitda yanada yorqin, chuqur va ko'p qirrali ko'rinishga ega bo'lgan. Umuman aytganda, Omon Muxtor bu romandagi noreal tasvirlar — ya'ni fantastik, simbolik va surreal elementlar orqali badiiy xarakterlarni chuqurroq yoritish va ularning ichki dunyosini ochishni, asosiy maqsad qilgani yaqqol seziladi.

“Aflotun” romanida ham noreal voqelik eng muhim badiiy tasvir vositasi bo'lib xizmat qilgan. Roman realizm va modernizmning o'zaro uyg'unligida yozilgan bo'lib, undagi qahramonlar fantastik, tushvoriy, ramziy, mifologik elementlar vositasida chuqur falsafiy, ruhiy, axloqiy qatlamlarga ega bo'ladi.

“Aflotun” romanining asosiy qahramoni Aflotun obrazi faqat tashqi voqelikda emas, balki ichki ruhiy-psixologik holatlarda ham ko'rinadi. Romanda keltirilgan ko'plab tushlar, ichki monologlar, ong oqimi uslubi orqali qahramonning ichki dunyosi ochilib borgan. Romanda Aflotunning o'zi va hayoti ham turli o'xshatish va ramziy timsoliy obrazlar — masalan, oqqush, ko'zgu, yo'llar, parvoz, nur, qorong'uliklar orqali ifodalanadi. Masalan, Suqrot shogirdi Aflotun bilan uchrashmasdan oldin uni tushiga ko'radi: ” tushida go'zal bir oqqush uning ko'ksiga kelib qo'ngan, so'ng ajib bir nag'ma bilan yuksak fazolarga parvoz etgan edi. Va Aflotun ro'para kelganida Mana meni oqqushi deb nido qilgan edi”.

Bu kabi noreal tasvirlardan ko'rinadiki, bunday voqeliklar qahramonlar badiiy qiyofasi-xarakterini, insoniy ruhiy izlanishlarini aks ettiruvchi badiiy unsur bo'lib xizmat qilgan.

Adabiyotshunos G'ulomov G'. “Aflotun” romani haqida fikr bildirar ekan: “Omon Muxtorning “Aflotun” romani — bu real voqelik bilan g'ayritabiiylik oralig'ida badiiy o'zlik izlash harakatidir. Unda noreal ifodaviy vositalar qahramon obrazining falsafiy teranligini ta'minlaydi”<sup>22</sup>, - deb ta'kidlab o'tadi.

“Aflotun” romanida boshqa noreal voqeliklarga nisbatan ramziy ma'no tashuvchi unsurlar talaygina: karvon, sahro, quduq, suv kabilar shular jumlasidan. Karvon – o'z maqsad va intilishlari sari olg'a ildamlayotgan insonlar hamda ularning kechrayotgan umrlari ramzi; Sahro – bu sinov. Inson bu hayotda yashar ekan, albatta, turli xil sinovlarni, baland-pastliklarga, oq-qora kunlarga duch keladi. Ularni yengib o'tadi yoki mag'lub bo'ladi. Bu sinov – qonunlar hammaning boshida bo'lishi tabiiy. Sahrodagi quduq – ilm-ziyo, ma'rifat maskani bo'lsa, suv esa ilm-ziyo, ma'naviyat va ma'rifatning o'zidir. Barchamiz bu hayoti dunyoda yashar ekanmiz moddiy va ma'naviy ozuqaga ehtiyoj sezamiz. Bu bizning tirikligimizni ta'minlab turadi. Moddiyatga berilib ma'naviyatni unutsak, yoki, aksincha, ma'naviyat bilan bo'lib moddiy hayotni yoddan chiqaradigan bo'lsak, tanazzulimiz aniq.

Romandagi quduq haqida gapirar ekan adabiy tadqiqotchi Azizov N. bu ramziy unurni shunday ta'riflaydi: “Quduq – real makondan fantastik makonga olib o'tuvchi badiiy vosita. Folklorda quduq devlar makoni, Omon Muxtor romanida esa tafakkur egalari, fozil odamlar jamlangan joy. Suv esa ilm, ma'rifat, tafakkur ramzi. Usmon Ruxsorani ko'rmog'i uchun olomonga suv (ilm-ma'rifat) etkazib berishga burchli. Olomon qalbida ziyo, TIRIKLIK bo'lmas ekan, Ruxsoraga etmoqning imkoni yo'q. Raufning aynan er ostidan qidirilishi – badiiy shartli tasvir asosi, buni ratsional jihatdan uning allaqachon dunyoni tark etgani bilan bog'liq holda tushunish ham mumkin. Ikkinchi tomoni borki, yuksak tafakkur sohiblarining

<sup>21</sup> Nurullayeva G. “Zamonaviy o'zbek romanida ayol obrazi evolyutsiyasi”, Ilmiy maqola, 2018.

<sup>22</sup> G'ulomov G'. “Zamonaviy o'zbek adabiyotida ruhiy-psixologik tahlil tendensiyalari”, Toshkent, 2019. – B. 112

vafotidan so'ng ikkinchi umri boshlanadi. Faqat bu umr endi ma'rifatli kishilar qalbida davom etadi. Tarixiy haqiqat – real makondagi vaziyatga ko'ra, uni er ustidan – jaholat botqog'iga botgan xaloyiq ichidan izlash xato. Shundan kelib chiqib, romandagi norealistik tasvir – Raufning ramziy-fantastik makondan qidirilishi muallifning o'ziga xos topilmasi, desak to'g'ri bo'ladi”<sup>23</sup>.

Romandagi Rauf, Usmon, Ruxsora kabi obrazlar ham bizning bu hayoti sahroda shunchaki o'lib ketmasligimiz uchun, quduqdan suv (ilm, ma'rifat) tutaman deb o'lib ketgan jadidi ajdodlarimiz timsoli ekanligi shubhasiz. Asardagi Rauf obrazi – bu Abdurauf Fitrat. Muallif asarda bu obrazni Aflotun va Suqrot kabi faylasuflarga parallel ravishda qo'yib “O'zbekning Aflotuni“ maqomiga ko'targan. Shu ma'noda Abdurauf Fitratni quduqning ham suvning ham ramzi deb atasak bo'ladi, yani ilm-ma'ifat maskani ham ilm ma'rifatning o'zi ham Abdurauf Fitratdir.

Asarda ifoda obyekti bo'lgan davr kishilari Usmon va o'g'li Sobir o'rtasidagi suhbat jarayonida ham Raufning kim ekanligi oydinlashadi:

- ” ... Seni cheksiz sahroga adashib-uloqib yurganingda yerdan ko'tarib olgan parparak ham uchib-aylanib oxiri yerga kelib qo'nadi. Busiz iloj yo'q. Insonning maskani – Yer. Inson – tuproqdan yaralgan.
- Raufni aytmadingiz? Uning suvga daxli bormi?
- Bor! Albatta...Dunyoni shu taxlit kishilar tutib turadi! Ular jismi o'lganda ham barhayot...”<sup>24</sup>

Adabiyotshunos U. Normatov ham: “Muallif noreal voqealar orqali real ong ichidagi mojarolarni aks ettiradi. Shu ma'noda, Aflotun obrazi hayotdan ko'ra ruhiyatga yaqinroq bo'lib, o'quvchini o'zlik, mavjudlikka, ilm-ma'rifatga, ma'naviyat haqida mulohazaga chorlaydi”<sup>25</sup>, - deganda ham bizning yuqoridagi fikrlarimizni nazarda tutgan bo'lsa, ajab emas.

Omon Muxtorning “Aflotun” romanida noreal tasvirlar — xayoliy voqealar, tushlar, ramzlar, mifologik bog'lanishlar orqali qahramon xarakteri real hayotdan ajralgan holda emas, balki chuqur falsafiy-psixologik qatlam orqali ochib bergan. Bu yondashuv, nafaqat Omon Muxtor ijodiga, balki O'zbek romanchiligida ham yangi bosqich — ruhiylik, ramz, ontologik izlanishlar boshlanganining dalilidir desak bo'ladi.

<sup>23</sup> Azizov N. “Omon Muxtor romanlari poetikasi: realizm va fantastika uyg'unligi “. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati . 21-bet.

<sup>24</sup> Omon Muxtor. Aflotun: Roman , qissa va hikoyalar. T.: “Ma'naviyat”, 1998. B 35

<sup>25</sup> . Normatov U. “O'zbek romani poetikasida yangi izlanishlar”, Toshkent, 2020 – B. 134

**Iqtiboslar/ Сноски/ References**

1. Normatov U. “Zamonaviy roman tafakkuri”, T.: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot, 2014Normatov U. “Adabiy jarayon va zamon”, T.: “Fan”, 2007.
2. Омон Мухтор. Тўрт томон қибла: уч романдан иборат Шарқ дафтари: (трилогия). – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. Karimova G. Postmodern tafakkur va o‘zbek romani, 2020, B. – 78
3. Sobirova M. “O‘zbek adabiyotida poetik tafakkur va badiiy obraz”, T.: O‘qituvchi, 2007., – B. 23
4. Qosimov J. Zamonaviy o‘zbek romanining iztiroblari. – T.: Akademnashr, 2015. – B. 187.

# TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

**Nazimova Ximmatoy,**  
magistr

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
Samarqand, O'zbekiston  
[nazimovahimmataoy@gmail.com](mailto:nazimovahimmataoy@gmail.com)

## “GO‘RO‘G‘LI” TURKUMIDAGI DOSTONLARDA EPIK TAFAKKUR TAHLILI

 [10.5281/zenodo.19159825](https://doi.org/10.5281/zenodo.19159825)

### ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi dostonlarda epik tafakkur talqini qay yo‘sinda ekanligi tahlilga tortildi. “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlaridagi sujetlar epik tafakkurning yorqin namunasidir. Bu turkumga kiruvchi “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Yunus pari”, “Misqol pari”, “Avazxon”, “Ravshan” kabi o‘nlab dostonlarda Go‘ro‘g‘lining hayoti, kurashi, sarguzashtlari hikoya qilinadi. Har bir dostonda alohida voqea-hodisa tasvirlansa-da, ularning barchasi bir yaxlit sujetni tashkil etadi. Go‘ro‘g‘li obrazi o‘zbek xalqining ozodlik, mustaqillik, adolat uchun kurashining timsoli sifatida gavdalanadi. Uning dushmanlarga qarshi kurashi, do‘stlarga sadoqati, xalq farovonligi yo‘lidagi fidoyiligi epik tafakkurning asosiy xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan.

**Kalit so‘zlar:** doston, sujet, epik tafakkur, badiiy talqin, real dunyo, afsonaviy dunyo, tarixiy haqiqat, epic takrorlar, inversiya, arxaizm.

**Nazimova Khimmatoy,**  
Master’s student

Samarkand State University named after Sharof Rashidov  
Samarkand, Uzbekistan  
[nazimovahimmataoy@gmail.com](mailto:nazimovahimmataoy@gmail.com)

## ANALYSIS OF EPIC THINKING IN THE EPICS OF THE “GOROUGHLY” SERIES

### ABSTRACT

This scientific article analyzes the interpretation of epic thinking in the dastans of the “Gorogli” cycle. The plots in the “Gorogli” cycle dastans are vivid examples of epic thinking. Dozens of epics belonging to this cycle, such as “The Birth of Gorogli”, “Yunus Pari”, “Misqol Pari”, “Avazkhan” and “Ravshan” narrate the life, struggles, and adventures of Gorogli. Although each dastan depicts a separate event, they collectively form a unified plot. The character of Gorogli is portrayed as a symbol of the Uzbek people’s struggle for freedom, independence, and justice. His fight against enemies, loyalty to friends, and dedication to the well-being of the people embody the main features of epic thinking.

**Keywords:** dastan, plot, epic thinking, artistic interpretation, real world, mythical world, historical truth, epic repetitions, inversion, archaism.

**Назимова Химматой,**  
мастер Самаркандский государственный университет  
имени Шарафа Рашидова  
Самарканд, Узбекистан  
[nazimovahimmataoy@gmail.com](mailto:nazimovahimmataoy@gmail.com)

## АНАЛИЗ ЭПИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В БЫЛИНАХ ИЗ СЕРИИ “ГУРУГЛЫ”

### АННОТАЦИЯ

В данной научной статье была проанализирована трактовка эпического мышления в эпосах, относящихся к категории “Гороглы”. Сюжеты в эпосах серии “Гороглы” – яркий пример эпического мышления. Десятки эпосов, относящихся к этому роду, такие как “рождение Гуроглы”, “Иона фея”, “Мискол фея”, “Авазхан”, “Рашан”, рассказывают о жизни, борьбе, приключениях Гуроглы. Хотя каждый эпос описывает отдельное событие, все они образуют единый целостный сюжет. Образ горогли воплощен как символ борьбы узбекского народа за свободу, независимость, справедливость. Его борьба с врагами, преданность друзьям, самоотверженность на благо народа вобрали в себя основные черты эпического мышления.

**Ключевые слова:** эпос, сюжет, эпическое мышление, художественная интерпретация, реальный мир, мифический мир, исторический факт, эпические повторы, инверсия, архаизм.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida o‘zining g‘oyaviy-badiiy mukammalligi va chuqur insonparvarlik yo‘nalishlari bilan muhim va axloqiy qadriyatga ega bo‘lgan eposlarlar qatoriga shumerliklarning “Gilgamish”, yunonistonlik Gomerining “Iliada” va “Odissey”, hindlarning “Mahobhorat”, “Ramayana”, “Kalila va Dimna” (“Pancha-tantra”) Markaziy Osiyo xalqlarining “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish”, “Manas”, “Qirg‘iz”, “Gershasp”, “Qayumars”, “Jamshid”, “Erxubbi”, “To‘maris”, “Shiroq”, “Siyovush”, “Rustam” kabi dostonlar kiradi. Ularda qadimgi tarixiy voqealarning badiiy shaklda aks etishi bilan birga, dunyoning ibtidosi va intihosi, dunyoni mifologik obrazlar orqali anglash, insonning tabiatga, umuman, hayotga munosabatini, axloqiy qadriyatlarining turli estetik usullar orqali ifodalanishini ko‘rish mumkin [1. B.9].

“G‘arb adabiyotshunosligi o‘z qarashlarini isbotlash uchun birinchi navbatda yunon adabiyotiga, xususan, Gomer ijodiga suyangan. O‘tgan asrning ikkinchi yarmiga kelib Gomerining shoir emas, baxshi bo‘lgani, u yaratgan “Iliada” va “Odissiya” dostonlari og‘zaki ijod namunasi ekani fanda oydinlashdi” [2. – B.].

Dostonlar sujetidagi xususiyat – uning tarixiy asosliligidir. Ko‘plab dostonlarda tasvirlangan voqealar tarixiy haqiqat bilan bog‘liq bo‘ladi. Biroq bu tarixiy haqiqat shunchaki qayd etilmaydi, balki xalq tasavvuri, ideallari va orzulari bilan bog‘lanib, epik ko‘lamda tasvirlanadi. Bu epik tafakkurning muhim xususiyati – tarixiy voqealarni badiiy tafakkur orqali qayta ishlash, ularga yangi ma‘no va ahamiyat baxsh etishdir.

Dostonlarda makon va zamon tasviridagi o‘ziga xoslik epik tafakkurning muhim ko‘rinishlaridan biridir. Makon va zamon bu asarlarda oddiy fizik kategoriyalar emas, balki g‘oyaviy-badiiy vazifani bajaruvchi muhim elementlar hisoblanadi. Ular qahramonlar xarakteri va sujet rivojlanishiga bog‘liq holda o‘zgaruvchan bo‘lishi, voqealar mohiyatini ochib berishga xizmat qilishi bilan ajralib turadi.

Dostonlardagi makon tushunchasi keng qamrovli va ko'p qatlamli bo'lib, u odatda muayyan geografik hududdan tashqari, butun bir xalq yashash maydonini, ba'zan esa butun dunyoni qamrab oladi. Makon tasviri ham real, ham mifologik elementlarni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, o'zbek xalq dostonlarida Qo'ng'iro't, Baysun, Bobo'riston kabi real geografik hududlar bilan bir qatorda, Chambil, Yovmit kabi afsonaviy joylar ham tilga olinadi. Bu ikki turdagi makonlarning dostonlarda birga qo'llanilishi real dunyo bilan afsonaviy dunyo o'rtasidagi chegarani yumshatadi va asarning epik ko'lamini oshiradi.

### **Tog'lar**

Dostonlarda tog'lar ko'pincha muqaddaslik, buyuklik, mustahkamlik timsoli sifatida tasvirlanadi. Ular qahramonning sinovdan o'tishi, o'zini kashf etishi uchun makon vazifasini o'taydi.

### **Qal'alar**

Qal'alar dostonlarda kuch-qudrat, hokimiyat va himoya timsoli sifatida taqdim etiladi. Dushman qal'asini zabt etish qahramonlik sinovidir.

### **Cho'llar**

Cho'llar qahramonning sabr-bardoshi, matonati sinaladigan makon. Ular hayot va o'lim o'rtasidagi chegarani, tabiat stixiyasining kuchini ifodalaydi.

### **Daryolar**

Daryolar dostonlarda hayot manbai, chegarani ajratuvchi va qo'shuvchi vosita sifatida tasvirlanadi. Daryodan o'tish ko'pincha yangi bosqichga o'tishni anglatadi.

Zamon tasviri ham dostonlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Doston voqealari odatda aniq tarixiy vaqt bilan bog'lanmaydi, balki "qadim zamonda", "bir vaqtlar", "ilgari o'tgan zamonda" kabi noaniq vaqt ko'rsatkichlari orqali ifoda etiladi. Bu epik tafakkurning muhim xususiyati voqealarni konkretlikdan abstrakt darajaga ko'tarish, ularga umuminsoniy ahamiyat kasb ettirishdir. Biroq dostonlardagi vaqt shunchaki mavhum emas, u o'z ichida tarixiy davr ruhini, xususiyatlarini aks ettiradi. Masalan, "Alpomish" dostonida qabilalar o'rtasidagi munosabatlar, patriarxal turmush tarzi va musulmon madaniyati bilan bog'liq unsurlar orqali muayyan tarixiy davr manzarasi yaratiladi.

Makon va zamonning ideallashtirilgan tasviri dostonlarda keng tarqalgan. Dostonlar qahramonlari harakatlanadigan makon va zamon real dunyodan ko'ra, ideal dunyoga yaqinroq. Bu yerda hamma narsa aniq, yorqin va ulug'vor. Masalan, Go'ro'g'lining Chambili go'zal bog'lar, mustahkam qal'alar va farovon hayot o'lkasi sifatida tasvirlanadi. Bu ideallashtirilgan makon va zamon tasviri orqali xalqning orzu-umidlari, yaxshi hayot haqidagi tasavvurlari ifodalanadi. Bu ham epik tafakkurning muhim ko'rinishlaridan biri – voqelikni shunchaki aks ettirish emas, balki uni ideallashtirish, unga estetik mukammallik baxsh etishdir.

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari orasida doston eng yirik hajmli va keng tarqalgan janr hisoblanadi. Dostonlar xalqning badiiy shakldagi taqdimomasi, o'ziga xos qomusidir. Har bir xalqning insoniyat tarixidagi o'mi, xizmati, ijtimoiysiyosiy, ma'naviy, madaniy mavqeyini eposlari namoyon etadi. Xalqning komil inson, adolat, haqiqat, ozodlik, tenglik tushunchalari, falsafiy, diniy qarashlari va bu yoidagi ibratli qahramonlari, ideallari, ularning kurash yo'li dostonlar mavzusini, g'oyaviy mazmunini tashkil etadi. Ushbu mazmun va

mundarija dostonlar syujeti, motivlar tizimi, badiiy tasviriy vosita va usullarida o'z ifodasini topadi[2.B.77].

“Kuntug‘mish” dostoni o‘zbek xalq dostonlari orasida g‘oyaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlardan biridir. Uning xilma-xil ko‘rinishdagi variantlari ko‘pligining boisi shundaki, ilgari baxshilarning iste’dodiga, ushbu dostonni qanday aytishiga qarab baho berilgan, natijada barcha baxshilarimiz «Kuntug‘mish» dostonini to‘la o‘zlashtirishga intilganlar. Dostonning Ergash Jumanbulbui o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Nunnon Abduvoy o‘g‘li, Egamberdi Ollamuroddan yozib olingan nusxalari mavjud. Qo‘lingizdagi darslikda esa mashhur baxshi bobomiz Ergash Jumanbulbui o‘g‘lidan yozib olingan nusxasi keltirilgan.

“Kuntug‘mish” dostonidagi makon va zamonning badiiy talqini epik tafakkurning yorqin namunasi hisoblanadi. Bu dostonda Nayman eli, Jurjon tog‘lari, Chin-u Mochin o‘lkalari kabi makonlar tilga olinadi. Bu makonlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, qahramonlar taqdiri va xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. Masalan, Kuntug‘mishning musofirlikdagi hayoti, uning Chin-u-Mochin o‘lkasidagi sarguzashtlari makon o‘zgarishi bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Zamon tasviri ham dostonda muhim o‘rin tutadi, bunda vaqt tushunchasi ko‘pincha qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy holati orqali ifodalanadi. Masalan, Kuntug‘mishning vatanidan ayrilib, musofirlikda o‘tkazgan yillari uning ichki dunyosi, kechinmalari orqali tasvirlanadi. Bu makon va zamon tasviri esa o‘z navbatida dostonning g‘oyaviy-badiiy mazmunini to‘laroq ochib berishga xizmat qiladi.

“Epos poetikasida epik formulalar masalasini o‘rganishga XIX asr oxiri XX asr boshlaridan buyon e’tibor berilmoqda. G‘arb folklorshunosligida og‘zaki ijod nazariyasining rivojlantirilishi, asosan, M.Perri va A.B.Lord 2 nomlari bilan bog‘liq. Gomer ijodini o‘rganar ekan, M.Perri birinchi bor “formula” atamasini qo‘llab, bugun barcha bir ovozdan ma’qullaydigan xulosa – Gomer og‘zaki ijod vakili, epik shoir bo‘lgan, degan xulosaga keladi. O‘zining nazariyasini tasdiqlash maqsadida M.Perri zamonaviy, bugun ham iste’molda bo‘lgan yugoslav dostonchilarining og‘zaki ijodiga murojaat qiladi. Ular “Og‘zaki ijodning asosiy birligi so‘z emas, formuladir” degan qat’iy xulosani ilgari suradi. Lord va uning izdoshlari uslubiy vosita (klishe), poetik tasvir, tavsif, narratsiya va h.k.larning barcha unsurlarini umumlashtiradigan va qat’iylashtiradigan vosita sifatida formula tushunchasining folklorshunosikda chuqur o‘rnashishiga o‘z hissalarini qo‘shdilar”[3.-B. 133.].

Epik tafakkur doston tilidagi o‘ziga xoslikda yaqqol namoyon bo‘ladi. Doston tili oddiy so‘zlashuv tilidan ham, yozma adabiy tildan ham farq qiladi. U o‘zining tantanavor ohangi, obrazlilik, emotsionalligi va alohida ritmik tuzilishi bilan ajralib turadi. Doston tilidagi bu xususiyatlar epik tafakkurning muhim jihatlari – ulug‘vorlik, keng qamrovlilik va tarixiylikni aks ettiradi.

Doston tilining eng muhim xususiyatlaridan biri – epik takrorlardir. Takrorlar doston kompozitsiyasining ajralmas qismi bo‘lib, sujetning rivojlanishiga, qahramonlar xarakterini ochib berishga va asosiy g‘oyani ta’kidlashga xizmat qiladi. Dostonlarda turli darajadagi takrorlar – so‘z takrorlari, ibora takrorlari, misra va band takrorlari, hatto butun epizod takrorlari ham uchraydi. Masalan, “Alpomish” dostonida Boybo‘ri va Boysari epizodi, Alpomishning Qalmoq yurtiga borish va qaytish epizodlari o‘rtasida o‘xshashliklar mavjud. Bu epik takrorlar asarning yaxlitligini ta’minlash bilan birga, tinglovchilar xotirasida muhim voqealarni mustahkamlashga, ularning e’tiborini asosiy g‘oyaga qaratishga yordam beradi.

### **Epik takrorlar**

Dostonlarda takrorlar kompozitsiyaning muhim qismi bo‘lib, voqealar, qahramonlar va g‘oyalarni ta’kidlashga xizmat qiladi.

- So‘z va ibora takrorlari
- Misra va band takrorlari
- Epizod takrorlari

## Inversiya

Gap bo'laklarining odatiy tartibdan farqli ravishda joylashtirilishi bo'lib, tasvirga ko'tarinkilik va tantanavorlik baxsh etadi.

- Emotsional ta'sirchanlikni oshiradi
- Muhim fikrlarni ta'kidlaydi
- Badiiy ifodalilikni kuchaytiradi

## Arxaizmlar

Eskirgan, hozirgi tilda kam qo'llaniladigan so'z va iboralar bo'lib, tarixiy koloritni yaratishga xizmat qiladi.

- Tarixiy davrni aks ettiradi
- Tilga tantanavorlik baxsh etadi
- Qadimiyluk ruhini yaratadi

Inversiya ham doston tiliga xos muhim xususiyatlardan biridir. Gap bo'laklarining odatiy tartibdan farqli ravishda joylashtirilishi dostonlarga o'ziga xos ritmiklik, ohangdorlik va tantanavorlik baxsh etadi. Masalan, "Oltin tog'ning boshidan, qarchig'ay uchdi toshidan" kabi misralarda inversiya orqali tasvirning ta'sirchanligi oshirilgan. Inversiya nafaqat she'riy shaklni boyitishga, balki ma'noni ta'kidlashga, tinglovchi diqqatini muhim so'z yoki iboraga qaratishga xizmat qiladi. Bu epik tafakkurning muhim xususiyati – voqealarni shunchaki bayon qilish emas, balki ularga emotsional va estetik ta'sirchanlik baxsh etishdir.

Arxaizmlar, ya'ni eskirgan, hozirgi tilda kam qo'llaniladigan so'z va iboralar doston tilida keng qo'llaniladi. Ular dostonlarda tarixiy koloritni yaratishga, o'tmish davrini haqqoniy aks ettirishga xizmat qiladi. Masalan, "yov", "cherik", "sovut", "qalqon" kabi harbiy soha bilan bog'liq arxaizmlar; "xon", "bek", "oqsoqol" kabi ijtimoiy ierarhiya bilan bog'liq arxaizmlar dostonlarda tez-tez uchraydi. Arxaizmlar dostonlarga qadimiyluk ruhi, tantanavorlik va ko'tarinkilik baxsh etadi. Bu epik tafakkurning muhim jihati - zamoniyl chegaralarni kengaytirish, o'tmish bilan bugunni bog'lash, avlodlar vorisiyligi g'oyasini ilgari surishdir.

Doston tilining obrazlilik va emotsionalligi ham epik tafakkurning muhim ko'rinishlaridan biridir. Dostonlarda keng qo'llaniladigan o'xshatishlar, metaforalar, epitetlar, mubolag'alar va boshqa tasviriy vositalar nafaqat tasvir obyektini yorqin aks ettirishga, balki unga emotsional va estetik baho berishga ham xizmat qiladi. Masalan, "sherday yuragi", "qilichday tilning maskani", "devday gavda" kabi o'xshatishlar; "oltin bosh", "po'lat bilak", "o'tkir nazar" kabi epitetlar; "tog'day gavda", "dengizday ko'z yosh" kabi mubolag'alar dostonlardagi qahramonlar va voqealarning ulug'vorligini, ko'tarinkiligini ta'kidlaydi. Bu obrazlilik va emotsionallik epik tafakkurning asosiy xususiyati – voqealarni shunchaki aks ettirish emas, balki ularga ma'naviy va estetik ahamiyat berish, ulug'vorlik va ko'tarinkilik baxsh etishdir.

Doston tilining epik tafakkurni ifodalashdagi roli nihoyatda muhimdir. Til orqali xalqning o'zligini anglashi, o'z tarixini, qadriyatlarini va ideallarini anglashi va kelgusi avlodlarga yetkazishi amalga oshiriladi. Dostonlardagi har bir so'z, har bir ibora nafaqat konkret voqeani tasvirlaydi, balki butun bir xalqning dunyoqarashi, hayotiy tajribasi va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Bu epik tafakkurning mohiyati – shaxsiy tajribadan umumbashariy tajribaga ko'tarilish, konkret voqeadan universal g'oyaga yuksalish, o'tkinchi hodisalardan abadiy qadriyatlarga e'tibor qaratishdir.

O'zbek xalq dostonlari nafaqat milliy adabiyotimizning, balki jahon epik ijodiyotining ham noyob namunalaridan hisoblanadi. Bu dostonlarda o'zbek xalqining tarixiy tajribasi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, dunyoqarashi va estetik ideallari o'z ifodasini topgan. O'zbek

dostonlaridagi epik tafakkur o'ziga xos badiiy xususiyatlarga ega bo'lib, ular dostonlarning g'oyaviy-badiiy mazmunini, sujet tuzilishini va qahramonlar tasvirini belgilaydi.

O'zbek dostonlarida epik tafakkurga xos jihatlar, avvalo, qahramonlar tasvirida, sujet tuzilishida va tematikada yaqqol ko'rinadi. O'zbek dostonlarining qahramonlari ko'pincha mard, jasur va kuchli jangchilar bo'lib, ular xalq manfaatlarini, yurtning ozodligini, tinchligini va farovonligini himoya qilish uchun kurashadi. Bu qahramonlar obrazi orqali o'zbek xalqining ijtimoiy ideallari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari va dunyoqarashi ifodalanadi. Masalan, Alpomish obrazida mardlik, sadoqat, adolatparvarlik va vatanparvarlik kabi xislatlar mujassamlashgan. Bu xislatlar o'zbek xalqining azaliy qadriyatlari hisoblanib, dostonlar orqali avloddan-avlodga o'tib kelgan. Bular bir qancha qadriyatlarda namoyon bo'ladi.

### **Oila va qarindoshlik qadriyatlari**

O'zbek dostonlarida oilaviy munosabatlar, qarindoshlik aloqalari muhim o'rin tutadi. Qahramonlar ko'pincha o'z oilasi, urug'i va qabilasi manfaatlarini himoya qilish uchun kurashadi.

### **Do'stlik va sadoqat**

Dostonlarda do'stlik, birodarlik va sadoqat g'oyalari keng tarannum etiladi. Qahramonlar o'z do'stlariga, sevgilisiga, xalqiga sadoqat bilan xizmat qiladi.

### **Vatanparvarlik**

Vatan sevgisi, ona yerga muhabbat va sadoqat o'zbek dostonlarining asosiy g'oyalaridan biridir. Qahramon o'z yurtini himoya qilish uchun har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tishga tayyor.

### **Adolat g'oyasi**

Adolat o'rnatish, mazlumlarni himoya qilish va zolimlarni jazolash dostonlardagi eng muhim motivlardan. Bu o'zbek xalqining adolatlil jamiyat haqidagi orzularini aks ettiradi.

O'zbek dostonlarining sujet tuzilishi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Dostonlarda sujet ko'pincha qahramonning tug'ilishi, uning ilk qahramonliklari, sevgi-muhabbat sarguzashtlari, dushmanlar bilan kurashi va pirovard g'alabasi kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Biroq bu an'anaviy sujet o'zbek milliy qadriyatlari, turmush tarzi va dunyoqarashi bilan boyitilib, o'ziga xos milliy koloritga ega bo'ladi. Masalan, o'zbek dostonlarida qabilalar o'rtasidagi munosabatlar, to'ylar, bazm-u jamshidlar, an'analar va urf-odatlar tasviri keng o'rin oladi. Bu milliy koloritni yaratishga, dostonlarning milliy o'ziga xosligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbek dostonlarining boshqa xalqlar dostonlaridan farqi, avvalo, uning milliy o'ziga xosligidadir. Har bir xalqning dostonlari o'sha xalqning tarixi, turmush tarzi, qadriyatlari va ideallarini aks ettiradi. O'zbek dostonlari ham shu jihatdan o'ziga xosdir. Masalan, o'zbek dostonlarida musulmon madaniyati bilan bog'liq unsurlar, Sharq xalqlariga xos dunyoqarash va qadriyatlar tizimi, ko'chmanchilik va o'troq hayot bilan bog'liq urf-odatlar aks etadi. Bundan tashqari, o'zbek dostonlari tili va badiiy tasvir vositalari ham o'ziga xos bo'lib, ularda o'zbek tiliga xos obrazlilik, ifodalilik va emotsionallik mujassamlashgan.

"Rustamxon" dostonidagi epik tafakkurning milliy o'ziga xosligi yaqqol namoyon bo'ladi. Bu dostonda Rustamxonning tug'ilishi, voyaga yetishi, sevgi-muhabbat sarguzashtlari va dushmanlar bilan kurashi tasvirlanadi. Dostonda qahramon obrazi o'zbek milliy qahramon ideallarini o'zida mujassam etgan: u mard, jasur, kuchli, adolatparvar va

vatanparvardir. Dostondagi sujet o'zbek milliy turmush tarzi, urf-odatlar, an'analar bilan chambarchas bog'liq. Masalan, to'y marosimlari, ziyofatlar, an'anaviy o'yinlar tasviri o'zbek milliy koloritini yaratishga xizmat qiladi. Dostonda islom dini bilan bog'liq unsurlar ham keng o'rin olgan, bu esa o'zbek xalqining dunyoqarashini aks ettiradi. "Rustamxon" dostonidagi tematika va g'oyalar ham o'zbek xalqining qadriyatlarini aks ettiradi: oila muqaddasligi, vatanparvarlik, adolatparvarlik, mardlik va sadoqat kabi qadriyatlar dostonning asosiy g'oyaviy mazmunini tashkil etadi.

O'zbek dostonlaridagi epik tafakkurning badiiy xususiyatlari - qahramonlar tasvirining ideallashtirilishi, sujet tuzilishining an'anaviyligi va o'ziga xosligi, milliy koloritning yorqinligi va tematikaning o'zbek xalqi qadriyatlari bilan bog'liqligi bu dostonlarni jahon epik ijodiyoti xazinasining noyob durdonalari qatoriga qo'yadi. Bu xususiyatlar o'zbek xalqining o'ziga xos dunyoqarashi, hayotiy tajribasi va estetik ideallarini aks ettiradi va avlodlar orasidagi ma'naviy vorisiyligni ta'minlashga xizmat qiladi.

Epik tafakkur va doston an'analari zamonaviy adabiyotning shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bu ta'sir nafaqat badiiy adabiyotda, balki kino, teatr va boshqa san'at turlarida ham kuzatiladi. Zamonaviy adabiyotda epik tafakkur an'analari yangi shakl va mazmun bilan boyitilib, hozirgi zamon o'quvchisi uchun tushunarli va qiziqarli tarzda taqdim etilmoqda.

Epik tafakkurning zamonaviy adabiyotdagi o'rni, avvalo, sujet yaratish, qahramonlar obrazini ishlash va badiiy tasvir vositalaridan foydalanishda ko'rinadi. Zamonaviy adabiyotda, ayniqsa, tarixiy romanlarda epik tafakkurga xos bo'lgan keng qamrovlilik, tarixiy asoslilik va qahramonlar karakterining ko'p qirrali ochib berilishi kuzatiladi. Masalan, O'lmas Umarbekov, Pirimqul Qodirov, Tohir Malik kabi yozuvchilarning tarixiy romanlarida epik tafakkur an'analari zamonaviy adabiy shakllar bilan uyg'unlashgan. Bunda an'anaviy doston elementlari - xalq taqdiri bilan bog'liq ulkan voqealarni tasvirlash, qahramonlarni ideallashtirish, tarixiy voqealarni badiiy tafakkur orqali qayta ishlash kabi usullar qo'llaniladi.

### **Mavzu va g'oyalar**

Xalq taqdiri, milliy o'zlikni anglash, an'analar va qadriyatlarni asrash.

### **Qahramon tipi**

Ideallashtirish, ko'p qirralilik, tarixiy shaxsiyat bilan badiiy obrazni uyg'unlashtirish.

### **Badiiy tasvir vositalari**

Obrazlilik, emotsionallik, tarixiy koloritni yaratish.

### **Sujet qurilishi**

Keng qamrovlilik, ko'p qatlamlilik, tarixiy va zamonaviy voqealarni bog'lash

Doston an'alarining davomiyligi zamonaviy adabiyotda turli shakllarda namoyon bo'lmoqda. Ba'zi yozuvchilar ma'lum bir dostonning sujetidan foydalanib, uni zamonaviy talqinda qayta yaratadi. Boshqalari esa doston qahramonlarini zamonaviy asarlarda qayta jonlantiradi. Bundan tashqari, doston tilining obrazlilik, ifodaviyligi va emotsionalligidan foydalanish ham zamonaviy adabiyotga xos xususiyat. Masalan, XX asrning 60-70-yillarida o'zbek she'riyatida doston an'alaridan ilhomlanib yaratilgan lirik-epik dostonlar paydo bo'ldi.

E. Vohidov, A. Oripov, R. Parfi kabi shoirlarning dostonlarida an'anaviy epik janr zamonaviy lirik ifoda bilan uyg'unlashgan. Bu asarlarda doston an'alarining davomiyligi

nafaqat shakl, balki mazmunda ham ko'rinadi: ularda ham epik tafakkurga xos bo'lgan xalq taqdiri, milliy o'zlikni anglash, an'analar va qadriyatlarni asrash mavzulari yetakchilik qiladi.

Epik tafakkurning yangi badiiy shakllarda namoyon bo'lishi ham zamonaviy adabiyotning muhim xususiyati hisoblanadi. An'anaviy doston janri zamonaviy adabiyotda roman, qissa, dramatik asar kabi janrlarda o'z aksini topadi. Bunda an'anaviy doston elementlari yangi adabiy shakllar va texnikalar bilan boyitiladi. Masalan, postmodern adabiyotda xalq dostonlaridagi sujet elementlari, obrazlar tizimi va timsollar yangicha talqin qilindi. Shuningdek, zamonaviy adabiyotda doston an'alarini yangi media vositalari – kino, televizion seriallar, kompyuter o'yinlari va boshqa shakllarda ham kuzatish mumkin. Masalan, “Alpomish” dostoni asosida yaratilgan multiplikatsion filmlarda epik tafakkur an'analari zamonaviy vizual texnikalar bilan uyg'unlashgan.

### **Zamonaviy kinoda epik an'analar**

Zamonaviy o'zbek kinosida xalq dostonlari sujetlari va obrazlaridan ilhomlanib yaratilgan asarlar tez-tez uchraydi. Bu asarlarda epik tafakkur an'analari zamonaviy kinematograf texnikalari bilan uyg'unlashadi.

### **Teatr sahnalarida doston qahramonlari**

O'zbek teatrida doston qahramonlari, sujetlari va motivlaridan foydalanib yaratilgan spektakllar ham alohida o'rin tutadi. Bu spektakllarda an'anaviy epik motiv va obrazlar zamonaviy teatr vositalari orqali talqin qilinadi.

### **Adabiyotning yangi janrlarida epik an'analar**

Zamonaviy o'zbek adabiyotida epik tafakkur an'analari yangi janrlar – fantastika, detektiv, psixologik roman kabi shakllarda ham o'z ifodasini topmoqda. Bu janrlarda epik tafakkurga xos bo'lgan keng qamrovlilik, tarixiy asoslilik va qahramonlar xarakterining ko'p qirrali ochib berilishi kuzatiladi. Xususan, “1972-yilda yaratilgan Urushning songgi qurboni hikoyasi lirik ifoda va epik kolam mushtarakligini yorqin aks ettiradi. Hikoya ikkinchi jahon urushining insoniyat taqdiriga, jumladan, millat psixologiyasiga korsatgan tasirini aks ettiradi”[5. – B.75].

Zamonaviy adabiyotda epik tafakkur an'alarining davom etishi muhim ahamiyatga ega. Bu an'analar, birinchidan, milliy adabiyotning o'ziga xosligini, milliy o'zligini ta'minlashga xizmat qiladi. Milliy adabiyot o'z tarixiy ildizlari, an'analari va xalq eposi bilan bog'liq bo'lgandagina to'laqonli rivojlana oladi. Ikkinchidan, epik tafakkur an'analari zamonaviy adabiyotga chuqur g'oyaviy-falsafiy mazmun beradi, uni yuzaki, vaqtinchalik hodisalardan abadiy qadriyatlarga, umuminsoniy muammolarga yo'naltiradi. Uchinchidan, epik tafakkur an'analari zamonaviy adabiyotni badiiy jihatdan boyitadi, unga obrazlilik, emotsionallik va ta'sirchanlik baxsh etadi.

Ushbu maqolamizda epik tafakkur va doston badiiyati o'rtasidagi munosabat har tomonlama o'rganildi. Tadqiqot davomida epik tafakkurning mohiyati, uning doston janri badiiyatidagi o'rni va ahamiyati atroflicha tahlil qilindi. Quyida tadqiqot natijalari bo'yicha asosiy xulosalarni keltiramiz.

Birinchidan, epik tafakkur – bu dunyoni, insoniyat taqdirini va tarixiy voqealarni keng miqyosda, umumlashtirilgan tarzda idrok etish va badiiy aks ettirish usulidir. Uning asosiy xususiyatlari keng qamrovlilik, obyektivlik va tarixiy asoslilikdir. Epik tafakkur dostonlarda o'zining eng yorqin ifodasini topadi, chunki doston janri o'z tabiatiga ko'ra keng qamrovli, ko'p qatlamli va ulug'vordir.

Ikkinchidan, doston janri o'zining murakkab tuzilishi, sujet rivojlanishining ko'p qatlamlilik, qahramonlar obrazining ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi. Doston tuzilishi – prolog, asosiy qism va epilog – epik tafakkurning bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'minlaydi. Qahramonlar tipologiyasi esa epik tafakkurning turli jihatlarini aks ettiradi: markaziy qahramon orqali ideal inson obrazi, yovuz kuchlar orqali yengib o'tilishi lozim bo'lgan to'siqlar, yordam beruvchi kuchlar orqali insoniylik, do'stlik va hamjihatlik g'oyalari ifodalanadi.

### **Epik tafakkur elementi.**

O'zbek xalq dostonlarida uchraydigan epik tafakkur elementlari;

### **Badiiy tasvir darajasi.**

O'zbek dostonlaridagi badiiy tasvir vositalarining qo'llanilish darajasi;

### **Zamonaviy ta'sir.**

Epik tafakkurning zamonaviy o'zbek adabiyotiga ta'sir darajasi.

Uchinchidan, epik tafakkur dostonlardagi qahramonlar obrazida, sujet rivojlanishida, makon va zamon tasvirida hamda til xususiyatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Qahramonlar obrazi orqali xalqning ideal inson haqidagi tasavvurlari ifodalanadi. Syujet orqali tarixiy voqealar epik darajaga ko'tariladi. Makon va zamon tasviri orqali real dunyo bilan ideal dunyo o'rtasidagi chegara yumshatiladi. Til xususiyatlari - epik takrorlar, inversiya, archaizmlar, obrazlilik va emotsionallik - epik tafakkurning asosiy jihatlarini ifodalashga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, o'zbek dostonlarida epik tafakkur o'ziga xos milliy xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar qahramonlar obrazida, sujet tuzilishida, tematikada va badiiy tasvir vositalarida yaqqol ko'rinadi. O'zbek dostonlarida oilaviy qadriyatlar, vatanparvarlik, do'stlik va sadoqat, adolatparvarlik kabi g'oyalar yetakchilik qiladi. Bu g'oyalar o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiradi.

Beshinchidan, epik tafakkur va doston an'analari zamonaviy adabiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatgan va hozirgi kunda ham bu ta'sir davom etmoqda. Zamonaviy adabiyotda epik tafakkur an'analari yangi shakl va mazmun bilan boyitilib, hozirgi zamon o'quvchisi uchun tushunarli va qiziqarli tarzda taqdim etilmoqda. Bu an'analari milliy adabiyotning o'ziga xosligini, milliy o'zligini ta'minlashga, unga chuqur g'oyaviy-falsafiy mazmun berishga va badiiy jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, epik tafakkur va doston badiiyatining ahamiyati nihoyatda katta. Birinchidan, ular xalqning ma'naviy qadriyatlari, tarixiy tajribasi va dunyoqarashini saqlash va avloddan-avlodga yetkazish vazifasini bajaradi. Ikkinchidan, ular milliy o'zlikni anglash, milliy g'ururni shakllantirish va milliy ma'naviyatni boyitishga xizmat qiladi. Uchinchidan, ular jahon madaniyati xazinasiga qo'shilgan noyob durdonalar sifatida umuminsoniy qadriyatlarni boyitadi va xalqlar o'rtasidagi ma'naviy aloqalarni mustahkamlaydi.

### Iqtiboslar/Сноски/References

1. Po'latova Dildor Akmalovna. Sharq epik an'analarida qadimgi mifologik dunyoqarash va axloqiy qadriyatlar uyg'unligi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1 | SPECIAL ISSUE 2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423. – B. 9.
2. Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo'rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. O'zbek folklori darslik. -Toshkent: «MALIK PRINT CO», 2022. 77-b.
3. Djurakulova Gulnoza Shavkatovna. O'zbek xalq dostonlarida epik formulalar tasnifi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4 (3), March., 2024 SJIF 2024 = 7.404 / ASI Factor = 1.7 www.oriens.uz. – B.133.
4. Jabbor Eshonqul. Eposdan romangacha. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2014 yil 24-son.
5. Jonixonova Dilorom. O'tkir hoshimov asarlarida lirik ifoda va epik kolam. International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education. – B.75.

# TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

**Xodjiyeva Hanifa,**  
magistrant,  
Sharof Rashidov nomidagi SamDU,  
Samarqand, O'zbekiston  
[hanifaxodjiyeva777@gmail.com](mailto:hanifaxodjiyeva777@gmail.com)

## XALQ OG'ZAKI IJODIDA VARIANTLILIK VA VERSIYALILIK

 [10.5281/zenodo.19159890](https://doi.org/10.5281/zenodo.19159890)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining asosiy xususiyatlari – an'naviylik, og'zakilik, jamoaviylik, variantlilik, versiyalilik, masalalari ilmiy nazariy jihatdan tahlil etilgan. Maqolada “variant” va “versiya” tushunchalarining mohiyati, ularning o'zaro farqlari va xalq ijodi namunalaridagi ifodalanish shakllari misollar asosida yoritilgan. “Zumrad va Qimmat” ertagi, o'zbek xalq maqollari, shuningdek, “Alpomish” va “Manas” dostonlarining qiyosiy tahlili orqali xalq og'zaki ijodidagi badiiy tafakkur xilma-xilligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligi ochib berilgan. Maqola xalq og'zaki ijodining tirik jarayon sifatidagi tabiati va uning variantlar orqali yashab, avloddan-avlodga o'tib kelish qonuniyatlarini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** versiya, variant, ertak, maqol, doston, “Alpomish”, “Manas”, “Zumrad va Qimmat”, “Cindrella”, Umir baxshi Safarov, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Sayaqboy Qaraliev.

**Ходжиева Ханифа,**  
магистрант,  
Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова,  
Самарканд, Узбекистан  
[hanifaxodjiyeva777@gmail.com](mailto:hanifaxodjiyeva777@gmail.com)

## ВАРИАНТНОСТЬ И ВЕРСИОННОСТЬ В НАРОДНОМ УСТНОМ ТВОРЧЕСТВЕ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализированы основные особенности устного народного творчества - традиционность, устность, коллективность, вариативность, версияльность. В статье на основе примеров освещается сущность понятий “вариант” и “версия” их различия и формы выражения в образцах народного творчества. Путем сравнительного анализа сказки “Зумрад и Киммат” узбекских народных пословиц, а также эпосов “Алпомыш” и “Манас” раскрывается многообразие художественного мышления в устном народном творчестве, единство национальных и общечеловеческих ценностей. Статья

демонстрирует природу устного народного творчества как живого процесса и закономерности его передачи из поколения в поколение через варианты.

**Ключевые слова:** версия, вариант, сказка, пословица, эпос, “Алпомыш” “Манас”, “Зумрад и Киммат”, “Золушка”, Умир бахши Сафаров, Фозил Юлдош оглы, Саякбой Каралаев.

**Khodjiyeva Hanifa,**

master's student,

Samarkand State University named after Sharof Rashidov,

Samarkand, Uzbekistan

[hanifaxodjiyeva777@gmail.com](mailto:hanifaxodjiyeva777@gmail.com)

## VARIABILITY AND VERSIONING IN FOLK ORAL LITERATURE

### ANNOTATION

This article provides a scientific and theoretical analysis of the main features of oral folk art: traditionalism, orality, collectivity, variability, and versionality. The article elucidates the essence of the concepts “variant” and “version”, their mutual differences, and their forms of expression in folk art examples. Through a comparative analysis of the fairy tale “Zumrad and Qimmat”, Uzbek folk proverbs, as well as the epics “Alpomish” and “Manas” the diversity of artistic thinking and the unity of national and universal values in oral folk art are revealed. The article demonstrates the nature of oral folk art as a living process and its laws of transmission from generation to generation through variants.

**Keywords:** version, variant, fairy tale, proverb, epic, “Alpomish”, “Manas”, “Zumrad and Qimmat”, “Cinderella”, Umir bakhshi Safarov, Fozil Yuldosh o'g'li, Sayaqboy Qaraliev.

### Muhokama va natijalar.

Xalq og‘zaki ijodi barcha san‘atlarning boshlanishi va asosidir. Keng ma‘noda tushunilganda folklor barcha san‘atlarning mushtarak asosi bo‘lsa, boshqa ma‘noda ularning hech biriga o‘xshamagan, o‘ziga xosligi bilan ajralib turuvchi alohida bir turi hisoblanadi. Umumiy ma‘noda, bu soha o‘z ichiga musiqa, raqs, hunarmandchilik, tasviriy san‘at, badiiy ijod bilan bog‘liq tasavvurlarni qamrab oladi. Folklor xalqning tarixi, buguni va kelajagini o‘zida ifoda etuvchi, uning taqdiri bilan chambarchas bog‘liq ijodiy jarayondir. Ajdodlarimiz tomonidan uning “el adabiyoti” deb atalishi ham bejiz emas. Biror xalqning qanday xalq ekanligini bilish uchun, avvalo, uning tarixiga, adabiyotiga, milliy an‘analari va urf-odatlariga nazar solish kerak bo‘ladi.

Shuni faxr bilan ayta olamizki, xalqimiz bisotida dunyo folklori namunalari bilan bemalol bellasha oladigan ertak, rivoyat, maqol, matal, afsona va dostonlarimiz bor. Yurtimizda bugungi kungacha yozib olingan dostonlarning soni 400 dan oshiqligi manbalarda qayd qilingan bir vaqtda, boshqa janr namunalari variantlari esa ko‘plab jildlarni tashkil etadi. Bu haqiqiy xazinadir. Bunday bebaho meros hamma xalqqa ham nasib etavermaydi.

Xalq og‘zaki ijodi haqida gap ketganda, dastavval, uning barcha janrlariga xos bo‘lgan an‘anaviylik, og‘zakilik, jamoaviylik, versiyalilik, variantlilik, anonimlik kabi xususiyatlariga to‘xtalib o‘tishimiz lozim. Folklorshunos olim Omonilla Madayev an‘anaviylikni folklorning asosiy va birinchi xususiyati, deb hisoblaydi [1. – B.13]. An‘anaviylik folklorning deyarli barcha qatlamlarida namoyon bo‘ladi, jumladan, qolip va sujetning qayta takrorlanishi, tipik obrazlar (afsonaviy bahodirlar, donishmandlar) ning mavjudligi, poetik tasvir vositalaridan foydalanishi, qadimiy urf-odatlar bilan uzviy bog‘liqligi kabi. Folklorning yana bir asosiy xususiyati sifatida og‘zakilikni olsak adashmaymiz, sababi asrlar oshib bizgacha yetib kelayotgan doston, ertak, qo‘shiq, maqol va boshqalar og‘zaki tarzda yaratilgan va

ajdodlardan-avlodlarga o'tib, xalq madaniyatining og'zaki merosiga aylangan. Shuningdek, folklor – jamoaviy ijod. O'zbek xalq og'zaki ijodi bir necha yuz yillar davomida yaratilib, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o'tib kelgan ijod mahsulidir. Chunki folklor asarlari bir kishi tomonidan emas, balki butun bir jamoaning tajribasi asosida vujudga keladi. Variantlilik – folklorshunoslikda bir asarning matn darajasidagi kichik farqlar bilan ijro etilishini bildirsa, versiyaviylik sujet, mazmun va g'oya jihatidan sezilarli o'zgarishlarga uchragan holatda mavjud bo'ladi.

Variantlilik va versiyalilik haqida turli ilmiy manbalarda berilgan fikrlarning mazmun-mohiyati bir xil. Shu sababli, ularning barchasi uchun mushtarak asos sifatida quyidagi fikrlarni keltirish asosli deb o'yladik: “Xalq ijodiyoti namunalari jonli ijro jarayonidagina xilma-xil variantlarda yashaydi. Variantlilik folklorning yashash tarzi. Variantlilik folklor tabiati, uning yaratilishi va jonli og'zaki ijodda yashash qonuniyatlaridan kelib chiqqan xususiyat bo'lib, u folklor asarlarining syujeti, obrazlilik, poetikasi, janr xususiyatlarini to'la qamrab oladi. Binobarin, variant – ma'lum bir asarning jonli og'zaki epik an'ana zaminida vujudga kelgan, bir birini inkor etmasdan yonma-yon yashay oladigan va o'zaro farqlanuvchi turli-tuman nusxalaridir.

Variantlilikning muhim bir xususiyati versiya ichida mavjud bo'lishidir. Binobarin, versiya mohiyatan birmuncha keng hodisa bo'lib, u asarda olg'a surilgan konsepsiya, shuningdek, asarning kompozitsiyasi va badiiy tasvir vositalari jihatidan bir biridan keskin farq qiluvchi xalq og'zaki poetik ijodining bir sujet va bir janrdagi namunalardan iborat[2. – B.11]”.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holatda, fikrimizni quyidagi jadval asosida yoritishga harakat qilamiz:

<b>Variantlilik</b>	<b>Versiyalilik</b>
<i>O'zlashtirish davomida ayrim so'zlar o'zgaradi</i>	<i>Asar boshqa mintaqa yoki xalq ta'sirida qayta shakllanadi</i>
<i>Badiiy tasvir vositalari boyitiladi yoki soddalashtiriladi</i>	<i>Markaziy sujet chiziqlari o'zgaradi</i>
<i>Mahalliy dialektga moslashtiriladi</i>	<i>Yangi qahramonlar va motivlar qo'shiladi</i>
<i>Ijrochi o'z individual uslubiga ko'ra farqlar kiritadi</i>	<i>Asarning maqsad va g'oyasi yangilanadi</i>

### **Ertaklar.**

Ertaklarda ham xalq og'zaki ijodining boshqa janrlariga xos bo'lgan an'anaviylik, og'zakilik, jamoaviylik, variantlilik, versiyalilik kabi xususiyatlar mavjud. Ertaklarda voqeabandlik, voqeani mukammal tarzda hikoya qilish xususiyatlari ham bor bo'lib, ular voqelikni xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida, kishilarda badiiy zavq uyg'otadigan shaklda aks ettirishi bilan xarakterlanadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida barchamizga tanish bo'lgan “Zumrad va Qimmat” ertagining turli variantlarini uchratishimiz mumkin. Ushbu ertak matni va matn asosida tayyorlangan multfilmlarni solishtirganimizda, ertak umumiy mazmuni, natijasi bir bo'lishiga qaramasdan, ularning sujet tizimida ma'lum o'zgarishlarni uchratamiz. Ertakdagi asosiy obrazlar tizimi bir xil, chol, kampir, Zumrad, Qimmat va sehrgar kampir. Ertakning bir variantida Zumradning o'rmonga olib borib tashlanish sahnasi kampirning qistovi bilan amalga oshirilgan bo'lsa, boshqasida chol Zumrad bilan birga uydan chiqib, uni o'rmonda yo'qotib qo'yadi. Variantlardagi yana bir farq shundaki, o'rmonda adashib qolishganidan so'ng Zumrad ham Qimmat ham yo'llarini yo'qotib sehrgar kampirning uyiga borib qolishgan bo'lsa, boshqasida ularni sehrgar kampirning o'zi olib ketadi. Uyini ko'rib qolib, uni sog'inish sahnasi ham turli manzillarda ro'y beradi: birida, osh qilish uchun o'tin olib tushish vaqtida, boshqasida shunchaki ertalab turib atrofni kuzatayotganda sodir bo'ladi. Shuningdek, sehrli sandiqlar joylashgan o'rini(tom, yerto'la) va rangi(qizil va oq, oq va qora), ichida

yashiringan narsalarida(asl mollar, taqinchoqlar, ikki boshli ajdar, uzuk) ham turli o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin.

“Zumrad va Qimmat” ertagining jahon adabiyotidagi yana bir versiyasi sifatida “Cindrella” ertagini olsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Unda ham asosiy qahramon o'gay ona va opalari bilan yashaydi. Qiyoslanayotgan ertaklar sujet va kompozitsiyasidagi asosiy farq, folklorning xalq madaniyati, urf-odatlar, tarixi bilan bog'liqligida. “Cindrella” ertagidan parchadan ayyonki, o'gay opa-singillarning xohish istaklari va hayotiy qadryatlari ma'lum bir foniy muhabbatga tayangan. O'gay opa-singillar uchun shaxzodaga yoqish dunyodagi sharaflilardan hisoblanadi. Shaxzodaning muhabbatini o'tkinchi zebu-ziynat va tashqi go'zallik bilan qozonish mumkin deb bilishadi. Bundan-da ayanchlirog'i ular o'zalari uchun hayrli deb bilgan bir sharaflil voqeani yoki mukofotni mehnatkash opalari bilan bo'lishishni istamaydilar. “Zumrad va Qimmat” ertagidagi Qimmat obrazi esa faqat dangasalikka asoslangan. “Zumrad aqilli, chiroyli va muloyim qiz ekan. Qimmat esa unga hech o'xshamas ekan. U tantiq, qo'pol va dangasa ekan. Kuni bo'yi ovqat yer, bo'lar-bo'lmasga urushar ekan”[3. – B.29-30] Ushbu ertakdan parchadan ma'lumki, salbiy qahramon sharq ertaklarida uzog'i bilan dangasalik va erkalik bilan kifoya qilinadi.

### **Maqollar.**

Maqollar xalq donoligi natijasi bo'lib, chuqur ma'noli hayotiy tajribaga asoslangan hikmatli so'zdir. Unda keltirilayotgan fikr sodda va lo'nda holda ifodalanadi. Dunyo xalqlari maqollarida so'z tarkibi, obrazlar tizimi turli xil ifodalanishi mumkin, ammo mazmun-mohiyat mushtarakdir.

Xullas, maqol atamasi umumiy mazmun jihatdan “so'z” tushunchasi bilan bog'lanadi. Dunyodagi hamma xalqlar og'zaki ijodida maqollarchalik shaklan va mazmunan o'zaro yaqin janr deyarli yo'q. Masalan, ruscha “Шило в мешке не утаишь” (bigizni qopda yashirib bo'lmas) – o'zbekcha “Oyni etak bilan yopib bo'lmas”; inglizlarda “East and West, home is best” (Sharqmi, G'arbm, uying eng yaxshisi) - o'zbekcha “O'z uying, o'lan to'shaging”; Vyetnamda “Рисовал дракона, получил червяк” (Ajdar suratini ishlagandim, chuvalchang chiqdi) - o'zbekcha “Men dedim o'ttiz - Alloh dedi to'qqiz”, osetinlarda “Его и в сени не пускают, а он лезет в комнату” - o'zbekcha “O'ziga yeng bo'lmagan, o'zgaga en bo'lmas”; tatarlarda “Товуқ тухум қо'umasdan, egasi jo'ja sotmoqchi” - o'zbekcha “Jo'jani kuzda sana”; ruslarda “На чужой стране и весна не красна” (o'zga yurtda bahor go'zal emas) - o'zbekcha “O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtningda gado bo'l” ma'nolarini ifodalaydi[4. – B. 65].

Misol uchun, ingliz tilidagi “*When cat's away, the mice will play*” maqolini qiyosiy kognitiv tahlil qilsak “*cat*” va “*mice*” so'zlari orqali insonlarning majoziy obrazlari ifodalanadi va o'zbek tilidagi “*Sulaymon o'lib devlar qutildi*” maqoliga ekvivalent bo'la oladi. Yana bir misolda hayvon obrazlari orqali ingliz va o'zbek tillarida insonlar qiyofasi juda chiroyli va tushunarli ochib berilgan. “*Dog does not eat dog*” maqolida “dog” obrazi orqali inson termini izohlanadi, maqolni o'quvchi uning mazmunini juda oson va tez tushuna olishi uning kognitiv tuzilishi to'liq ochib berilganligidadir va bu maqolning o'zbekcha muqobil varianti “*Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimas*” tarzda ifodalanadi. “Dog” va “qarg'a” so'zlari orqali bir kasb yoki mansabdagi insonlar obrazlari nazarda tutiladi[5. – B.1438-1444].

Dostonlar o'zbek xalqining boy madaniy o'tmishini avlodlardan-avlodlarga og'zaki shaklda yetkazib kelayotgan xalq og'zaki ijodining namunalari eng keng tarqalgani dostonlar hisoblanadi. Akademik To'ra Mirzayev o'zbek dostonlari haqida gapirar ekan, uni antik davr va o'rta asrlarning klassik epopeyalari – “Iliada” va “Odyssey”, “Roland haqida qo'shiq” va “Nibelunglar haqida qo'shiq”, “Mahabxarata” va “Ramayana”, “Igor jangnomasi” va “Shohnoma”, “Manas” va “Jangar” kabi shoh asarlar bilan tenglasha oladigan va ular bilan teng turgan hayratomuz bir ijod namunasi ekanligini ta'kidlaydi. Bu ulkan ma'naviy va madaniy boylik – xalq ommasining keng qatlamlari orasida baxshilik san'ati an'anasining

davom etayotganligini va bu an'anani yanada boyitib va rivojlantirib kelayotgan yetakchi xalq baxshilarni ham, ular kuylab kelgan ming-ming satrlarni o'z ichiga olgan yuzlab dostonlar ham XX asrdan boshlab qog'ozga tushirila boshlandi va ularning hali fanga ma'lum bo'lmagan, sirli qirralari ochilmoqda[6. – B.81-86].

“Alpomish” dostonining kelib chiqishi haqida olimlarning turli fikrlari mavjud. Ba'zi olimlar dostonni XII-XIV asrlarda “qipchoq-turkiy” xalqlari orasida Dashti Qipchoqda paydo bo'lgan va tarqalgan, deb qarashsa, Jirmunskiy XVI asrda ko'chmanchi o'zbeklar Alpomish haqidagi rivoyatni Janubiy O'zbekistonga olib keladilar va u yerda – Boysun bekligida qadimiy bahodirlik qo'shig'i yoki ertagi asosida qahramonlik eposi “Alpomish” (qo'ng'iroq versiyasi) yaratilgan hamda bu yerdan o'zbek, qoraqalpoq va qozoqlar o'rtasida keng tarqalgan, degan g'oyani ilgari suradi. Hodi Zarif esa qator dalillar asosida “Alpomish” dostoni patriarxal-urug'chilik munosabatlari yemirila boshlagan bir vaqtda mo'g'ullar istilosidan avval Sirdaryo va Orolbo'yi atrofida yashagan chorvador qo'ng'iroq qabilasi ichida yaratilgan, degan fikrni keltiradi[7. – B. 6-14].

“Alpomish” dostonning dastlabki yozma namunalari qoraqalpoq va qozoqlarda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida boshlangan bo'lsa, o'zbek variantlari XX asr boshlarida yozib olinib boshlandi. N.Shukurov, T.Mirzayev, X.Doniyorovlarning bu haqida e'lon qilgan maqolasida doston talqini haqidagi fikrlarini bayon etadi: “Bu doston badiiy-tasviriy vositalarining eng yaxshi namunalari, she'riy vaznimizning turli-tuman yengil va ravon formalariga, xalq yumori va aforizmlariga, maqol va iboralariga go'yo bir ensiklopediyadir”[8. – B.99] Haqiqatdan, har bir xalq dostonida o'sha millat taqdiri, o'tmishi, hayot tarzi, an'analari bevosita aks etadi. Shuningdek, ularning variantlarida birgina dostonning necha turli bo'yoqlarda jilvalanishi e'tiborimizni tortadi. “Alpomish” dostoni variantlari haqida gap ketganda Fozil Yo'ldosh o'g'li va Umir baxshi Safarov tomonidan ijro etilgan variantlardagi ba'zi farqli jihatlarni keltirib o'tishni joiz deb bildik:

<b>Umir baxshi Safarov</b>	<b>Fozil Yo'ldosh o'g'li</b>
Boysarining irim qilib bo'g'oz kiyikni otmaganligidan ikkalasining ham xotinlarida gumona borligi birin ketin ma'lum bo'ldi.	Uzoq vaqt farzandli bo'lmaganliklari uchun Shohimardon pining ravzasiga farzand tilab borishadi va qirq kun deganda ularga Xudo farzand berishi ma'lum bo'ladi.
Aka-ukalar cho'lda turib, xotinlari farzand ko'rishsa, quda bo'lishni niyat qilib, ismlarini farzandlari tug'ilgach o'zlari qo'yishadi.	Shohimardon pining o'zi uch farzandga ism qo'yib, Alpomish va Barchinoyini atashtirib, beshkirti qilib ketadi.
Olti yoshda ikkovini ota-enalari maktabga qo'ydi. Ikkovi birga-birga maktabda o'qib, yetti yoshga qadam qo'ydi.	Bular maktabda o'qib yurib yetti yoshga kirdi. Burro savodi chiqib, xat o'qib yozadigan mulla bo'ldi. Shunda Boybo'riy: “Endi o'g'lim savodi chiqib, mulla bo'ldi, o'g'limga endi shohlik, sipohilik ilmini o'rgatayin”, - deb mulladan chiqarib oldi. Boysari ham Boybo'riga taassub soldi. Bul ham oy Barchin qizini maktabdan chiqarib oldi. Chiqarib olib: “Qizinga Ko'kqamish ko'lida qo'y sog'dirib, chorvadorlik ilmini o'rgatayin, qo'y sog'moqqa usta bo'lsin” [9. – B.511], - dedi.
Alpomish va Oybarchin birga o'ynab yurib, Alpomish Oybarchinni shappatlab uradi. O'rtaga ularning onalari tushib, bu voqea katta janjalga aylanadi. Boysari kelib qolib	Alpomishning baxillik va saxiylik haqida aytgan gaplaridan so'ng, yolg'iz ukam baxilga chiqib ketmasin deb Boybo'ri o'z mahramlarini Boysari qarorgohiga yuboradi.

Kuntug'mushni kaltaklaydi. Keyin Boybo'ri kelib, Boysarini uradi. Ikkovi urishib qolgani uchun, Boysari ko'chib ketishga qaror qiladi.	Ammo bu gaplarni Boysari noto'g'ri tushunib: "O'z akamga o'zim zakot berguncha, boshqa yurtda juz'ya berib yurayin"-deb, ko'chib ketishga qaror qiladi.
Dostondagi uch shart: kurash, poyga, oltin qoboqni nishonga olish.	Dostondagi uch shart: kurash, poyga, yoy tortish.

"Alpomish" dostonining har ikkala variantida ham o'xshash jihatlar talaygina. Bizningcha, asosiy farq dostonning Fozil Yo'ldosh o'g'li variantida Islom dini g'oyalarining mavjudligidadir. Folklorida har bir baxshi o'z iste'dodi, donoligi, kuylanayotgan joy va vaziyatga qarab dostonga yangi ma'lumotlar qo'shishi, olib tashlashi, nasrni nazmga yoki nazmni nasrga aylantirib kuylashi mumkin. Bu xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

"Alpomish" dostonining versiyasi sifatida qirg'iz xalq eposi "Manas"ni keltirishimiz mumkin. "Alpomish" va "Manas" dostonlari nafaqat o'zbek va qirg'iz xalqlarining balki, butun turkiy olamning madaniy va ma'naviy merosining o'ta muhim qismlaridan biri bo'lib, xalqlarimizning tarixi, urf-odatlarini, qadriyatlarini va hayotiy qarashlarini o'zida aks ettiradi. Bu dostonlardagi obrazlar, syujet tuzilishi va g'oyaviy yo'nalishlari o'ziga xos xususiyatlariga ega. Quyida ushbu ikki dostonning o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilib o'tamiz.

<b>"Alpomish"</b> (Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti)	<b>"Manas"</b> (Sayaqboy Qaralaev varianti)
Alpomish botir	Manas botir
"Alpomish" dostonida to'yda tahqirlangan, izza qilingan Boybo'ri bilan Boysari Shohimardon pirning ravzasiga borib, qirq kun tunab, farzand tilab, ilohiy homiy pir yordamida farzandli bo'lishlari, ya'ni Boybo'ri bir o'g'il, bir qiz, Boysari bir qizli bo'lishi aytiladi.	"Manas" dostonida Jaqip saltanati ortib, hisobsiz boyib, yoshi ellikga kelsa-da ikki ayolidan bir ham farzandi yo'qligi, farzandlilarni ko'rganda orlanishi, Xudoga zorlanib, bo'yniga hurjun ortib, mozorlarga sig'inib, mol-mulkiga egador bo'lgan, ko'zi o'tsa, otam deb yo'qlar farzand tilashi aytiladi.
"Alpomish" dostonida Alpomish botirlik, ishonch, sadoqat timsolidir. Uning jasorati oilasini, qabilasini va yurtini himoya qilishda namoyon bo'ladi.	"Manas" dostonida Manas butun bir xalqning himoyachisi sifatida tasvirlangan. Uning qahramonligi nafaqat shaxsiy jasoratda, balki o'z yurtini dushmanlardan himoya qilishdagi strategik aql-zakovatida ham namoyon bo'ladi.
Boybichchalarning oy-kuni yaqin yetdi, biylar ikkovi aytdi: "Bizlar ham bir shohlik shavkatini qilsak, ovga chiqib ketsak, farzandlar yer yuziga tushsa, suyunchi, deb bir nechalar oldimizga yo'lga chiqib, bizlardai tilla-tanga in'om olsa", -deb o'ylarni o'ylab, biylar ovga jo'nab ketdi. Farzandlari dunyoga kelib, biylar ovdan qaytib, bir nechalariga suyunchi ulashishadi. O'n olti urug' Qo'ng'iro't eliga qirq kechayu, qirq kunduz to'y berishadi.	Farzandi dunyoga kelishi aniq bo'lgan kunini eshitgan Jaqip: "Bola uchun qattiq zorlangandim, erkak deya birov yugursa yuragim yorilib ketar, undan ko'ra yiqilsam-da, tolsam-da elga mazah bo'lmagudek hech kim yo'q yerga borib xabar eshitay deb, suyunchiga boruvchilarga otlarni bog'latib, g'amlab qo'ydirib, qiz tug'lsa indamay jim bo'linglar, erkak bo'lsa suyunchilab boringlar"- deb otlanib ketadi. Adirni ko'zlay moliga yo'l olgan Jaqipning oldidan Yo'rg'a bo'z uyuri uchraydi. Payqab qarasa, yilqilar orasida qorayolli sarg'ish-qo'ng'ir rangli biya yotib-turib, to'lg'og'i tutib yotibdi. "Biya hozir tug'adi ekan, agar erkak bo'lsa bolamga enchi qilib beraman"-deydi.

<p>Biylarning esiga tushdi.Ravzada: “Qalandar bo‘lib borib, o‘zim otini qo‘yib kelaman” degan ovozni eshitishgan edi. Biylar o‘rnilaridan turib, oldiga peshvoz chiqib, salom berib, ziyorat qilib, majlisxonaga boshlab olib kelishadi. Farzandlarning uchovini ham olib kelib, Shohimardon piringing etagiga solishadi. Shohimardon piri Boybo‘rining o‘g‘lining otini Hakimbek qo‘ydi, o‘ng yelkasiga besh qo‘lini uradi. Besh qo‘lining o‘rni dog‘ bo‘lib, besh panjaning o‘rni bilinib qoladi. Qizining ismini Qaldirg‘ochoyim qo‘yadi. Boysarining qizining otini oy Barchin qo‘yadi. Shohimardon piri Hakimbek bilan oy Barchinni atashtirib, beshikkirti qilib: “Bu ikkovi er-xotin bo‘lsin, Hakimbek bilan hech bir kishi barobar bo‘lolmasin, omin ollohu akbar”, — deb fotihani betiga tortadi. Shundan so‘ng Shohimardon piri jo‘nab ketadi, odamlarni ko‘zidan g‘oyib bo‘ladi.</p>	<p>Farzandi tug‘iladigan kuni boy Jaqip adirdagi mollarini qarab yurib, bir joyda uxlab ham qoladi. Tushiga oqsoqol devona kirib: “Xizr alayxis salom men bo‘laman, kelganimning sababi Yaratgan senga bir bola berdi. Bugun erkak o‘g‘illi bo‘lasan. Ismini Manas qo‘y, Jaqip”,- deb Manasning botir bo‘lishi, uning qo‘llagani – Ho‘jasan, yo‘lagani – qirq chilton ekanligini aytadi. Jangga minadigan oti bugun tug‘ilgan qulun tulpor bo‘lishini aytadi. Shularni aytib ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi.</p>
---	--

### Iqtiboslar/Сноски/References

1. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. Akademik litseylar uchun darslik.- T.: «Sharq», 2010. – B. 13.
2. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1990. - Б. (Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalk og'zaki poetik ijodi. - T.: O'kituvchi, 1990. - B).
3. Ўзбек халқ эртаклари тўплами. “Зумрад ва Қиммат”. “Ўзбекистон” нашриёти, 1990. –Б. 29-30. (O'zbek xalq ertaklari to'plami. “Zumrad va Qimmat”. “O'zbekiston” nashriyoti, 1990. –B. 29-30).
4. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent: “Mumtoz so'z”, 2010. –B. 65.
5. Asiljonova Sh. Ingliz va o'zbek maqollarining kognitiv-qiyosiy tahlil qilish nazariyas// Scientific journal impact factor.—B. 1438-1444
6. Вахрамова М. “Alpomish” dostonining o'zbek va xorij olimlari tomonidan o'rganilishi va variantlari// “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. –B. 81-86.
7. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent: “Mumtoz so'z”, 2010. –B. 65.
8. Asiljonova Sh. Ingliz va o'zbek maqollarining kognitiv-qiyosiy tahlil qilish nazariyas// Scientific journal impact factor.—B. 1438-1444
9. Вахрамова М. “Alpomish” dostonining o'zbek va xorij olimlari tomonidan o'rganilishi va variantlari// “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. –B. 81-86.
10. Зарифов Х. Основные мотивы эпоса “Алпамыш”. –Б. 6-14. (Zarifov H. Osnovnie motivi eposa “Alpamish”. –B. 6-14.)
11. Шукуров Н. Мирзаев С. Дониёров Х. “Алпомиш” достони ҳақида, “Шарқ юлдузи” 2-сон, Тошкент, 1956. –Б.99. (Shukurov N. Mirzayev S. Doniyorov X. “Alpomish” dostoni haqida, “Sharq yulduzi” 2-son, Toshkent, 1956. –B.99.)
12. Alpomish. O'zbek xalq dostoni. Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. –B. 511.

# TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

**Chinmirzayeva Dildora,**  
magistrant,  
Sharof Rashidov nomidagi SamDU,  
Samarqand, O'zbekiston  
[dildorachinmirzayeva@gmail.com](mailto:dildorachinmirzayeva@gmail.com)

## GO'RO'G'LINING TUG'ILISHI DOSTONIDAGI AYOLLAR PSIXOLOGIYASI

 [10.5281/zenodo.19159928](https://doi.org/10.5281/zenodo.19159928)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Go'ro'g'li turkum dostonlari tarkibiga kiruvchi birinchi doston "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonidagi ayollar obrazi va ularning psixologiyasi, madaniy-psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada dostonidagi Bibi Hilol (Hiloloy), Xoljuvon, Zaydinoy kabi ayollar obrazi tahlil qilindi va ularning dostonidagi ro'li, xarakter-xususiyatlari qahramonlar hayotiga ta'siri o'rganildi. Tadqiqotda xalq og'zaki ijodidagi ayollar obrazi ikkinchi darajali obraz emasligi va doston sujetiga ta'sir qiluvchi kuch va qahramonlar tarbiyasida muhim omil sifatida namoyon bo'lganligini ko'rsatib beradi.

**Kalit so'zlar:** Go'ro'g'li dostoni, Ayollar obrazi, Go'ro'g'lining tug'ilishi dostoni, Bibi Hilol, Xoljuvon, milliy madaniyat, or-nomus, sadoqat, fidokorlik, tarbiya, qahramon tarbiyasi, folklor tahlili, o'zbek xalq og'zaki ijodi, turkum dostonlar.

**Чинмирзаева Дилдора,**  
магистрант,  
Самаркандский государственный  
университет имени Шарофа Рашидова,  
Самарканд, Узбекистан  
[dildorachinmirzayeva@gmail.com](mailto:dildorachinmirzayeva@gmail.com)

## ЖЕНСКАЯ ПСИХОЛОГИЯ В ЭПОСЕ "РОЖДЕНИЕ ГОРОГЛЫ"

### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется образ женщин и их психология в первом дастане "Рождение Гороглы", входящем в цикл дастанов о Гороглы, с культурно-психологической точки зрения. В статье рассмотрены образы таких женщин, как Биби Хилол (Хилолой), Холжуvon, Зайдиной, и изучено влияние их роли и характерных особенностей на жизнь героев. Исследование показывает, что образ женщины в устном народном творчестве не является второстепенным, а проявляется как сила, влияющая на сюжет дастана, и важный фактор в воспитании героев.

**Ключевые слова:** дастаны о Гороглы, образ женщин, дастан "Рождение Гороглы", Биби Хилол, Холжуvon, национальная культура, честь и достоинство,

верность, самоотверженность, воспитание, воспитание героя, анализ фольклора, узбекское устное народное творчество, цикл дастанов.

**Chinmirzayeva Dildora,**

Master's student,

Samarkand State University named after Sharof Rashidov,

Samarkand, Uzbekistan

[dildorachinmirzayeva@gmail.com](mailto:dildorachinmirzayeva@gmail.com)

## WOMEN'S PSYCHOLOGY IN THE EPIC "THE BIRTH OF GOROGLY"

### ABSTRACT

This article analyzes the portrayal of women and their psychology in the epic "The Birth of Gorogly, the first epic in the Gorogly cycle, from a cultural and psychological perspective. The article examines the female characters in the epic, such as Bibi Hilol (Hiloloy), Kholjuvon, and Zaydinoy, exploring their roles, character traits, and influence on the lives of the heroes. The study demonstrates that female characters in folk oral literature are not secondary figures, but rather emerge as forces that influence the epic's plot and serve as important factors in shaping the heroes' development.

**Keywords:** Gorogly epic, female characters, "The Birth of Gorogly" epic, Bibi Hilol, Kholjuvon, national culture, honor, loyalty, self-sacrifice, upbringing, hero development, folklore analysis, Uzbek folk oral literature, epic cycles.

### **Kirish.**

O'zbek xalq og'zaki ijodining eng qadimiy namunalaridan biri bo'lgan Go'ro'g'li dostoni turkumi tarkibiga kiruvchi dostonlar miqdorining ko'pligi va obrazlarning rang-barangligi bilan ajralib turadi. Dostonning hozirgi kunda fan olamiga 2 xil versiyasi ma'lum janubiy Kavkaz va yaqin sharq (ozarboyjon, turk, arman, gruzin va boshqalar) versiyalari bular Go'ro'g'li dostoni asosida yaratilgan. Markaziy osiyo versiyasi (o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, turkman, tojik va b.) Go'ro'g'li dostoni asosida yaratilgan va uning tarkibiga 60 dan ortiq dostonlar kiritilgan, bu turkumga kiruvchi dostonlar muayyan bir mustaqillikka ega bo'lib, ijro jarayonida baxshilar tomonidan alohida-alohida doston sifatida kuylanadi va tinglovchilar tomonidan yakka-yakka asar sifatida qabul qilinadi. Ammo turkum dostonlar barchasining markazida Go'ro'g'li turkman va o'zbeklarning begi, qonuniy hukmdor, o'z xalqi vatani uchun qayg'uruvchi va uni turli dushmanlar bosqinidan himoya qiluvchi dono murabbiy ko'plab xalq botirlarini yetishtirgan yengilmas bahodir sifatida tasvirlanadi[1].

Go'ro'g'li asosiy xalq qahramoni va uning doimiy hamrohi bo'lgan oti G'iro't, Ahmad sardor, Soqibulbul, Hasan ko'lbar va yana ramziy ozodlik o'lkasi bo'lgan Chambil yurti kabi obrazlar bilan bir-biri bilan uzviy bog'lanadi. Go'ro'g'li turkumi tarkibiga kiruvchi dostonlarda va uning boshqa xalqlarda mavjud bo'lgan versiyalarida Go'ro'g'li obrazi turlicha ifodalangan bo'lsada u o'zining mardligi, ziyoratligi, xalqiga bo'lgan muhabbati, adolat uchun hech narsadan qo'rqmasdan kurasha olishi, turkiy er yigitlarga xos or nomus masalasini har narsadan ustun qo'yishi kabi xislatlari bilan dostonlarda yaxlit bir umumiylik chizig'ini keltirib chiqargan. Ushbu maqolada Go'ro'g'li turkumi tarkibiga kiruvchi birinchi doston Go'ro'g'lining tug'ilishi dostonidagi ayollar obraziga va ularga xos bo'lgan karakter xususiyatlariga to'xtalamiz va ularni tahlil ostiga tortamiz. Doston tarkibidagi ayollar obrazi shunchaki qo'shimcha obraz sifatida keltirilmagan, ularning hatti-harakatlari dostonning markaziy voqealarida katta burilishlar yasaydi va voqealar rivojiga, qahramonlar taqdiriga ta'sir qiladi. Masalan birgina Bibi Hilolning hatti-harakatlari, qarorlari, Go'ro'g'lining hayotiga va voqealar rivojiga ta'sir qiladi. Bu doston tarkibidagi Bibi Hilol, Xoljuvon, Zaydinoy (Xumroy), Yunus pari, Misqol pari kabi ayollar obrazida qadimgi turkiy ayollarning ayollik jozibasini, turkiy ayollarga xos bo'lgan or-nomus, sharm-hayo, g'urur andisha kabi

sifatlarni shuningdek, oilasi uchun fidokorlik qilib, o'z jonini xavf ostiga qo'yishdan ham qo'rqmaydigan mustahkam irodali ayollarni o'qib bilishimiz mumkin.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya.**

Xalq og'zaki ijodi namunalarida ayollar obrazi ko'pgina uchraydi va ularning barchasi bir-biridan farqlanadi. O'zbek folkloridagi ayollar obrazi bir qancha folklorshunos olimlar tomonida o'rganilgan bo'lsa-da, Go'ro'g'li turkumidagi dostonlardagi ayollar obrazi alohida ilmiy yondoshuvni talab qiladi. Go'ro'g'li turkumiga kiruvchi dostonlar tarkibidagi ayollar obrazi bo'yicha dastlabki fikrlarni ushbu doston bo'yicha tadqiqotlar olib borgan H.Zarif, M.Afzalov, T.Jalilov kabi folklorshunos olimlar ishlarida ko'rishimiz mumkin. Ularning olib borgan izlanishlarida ayollar obrazining tarbiyaviy ahamiyati, turkiy ayollarning fidokorligi, sadoqati, ona sifatidagi mehr-shafqati dostonidagi markaziy o'rinda turuvchi xususiyatlardan biri ekanligini ko'rsatib berilgan. Folklorshunos olim H.Zarifov o'zining tadqiqotlarida ayollarning qahramon tarbiyasida va kelajak hayotidagi o'rni va ahamiyati haqida to'xtalib o'tgan. M.Afzalov Go'ro'g'li turkum dostonlari bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida ayollar ishtirok etgan qismlarini milliy mentalitetimizni aks ettiruvchi badiiy aks-sadosi deya ta'kidlaydi. Xalq dostonlarida ayollar obrazi o'ziga xos va takrorlanmasdir va dostonlardagi ko'pgina ayollar obrazi bugungi kun ayolqizlari uchun ibrat maktabi sifatida namuna bo'la oladi. Masalan: ushbu dostonidagi Bibi Hilolning shaxsiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, uning naqadar jasur, or-nomusli, hamiyati kuchli, fidokor ayol ekanligini dostonidagi ayrim epizodlardan bilib olishimiz mumkin. Doston voqealari davomida Ravshanbekning ko'zini Shohdorxon o'ydirib olgach Ravshanbek Gajdumbek bilan birgalikda xolvachining otini boqib, safarga tayyor holga keltirib, Hiloloyga aytmadan Yovmitni yurtini talab qilib yo'lga chiqadi shu vaqtda Hiloloy akasi va yorining uni tashlab vataniga qaytib ketayotganini bilib quyidagi so'zlarni yoriga qarab aytadi:

*Yori o'lsa ne oyimlar tulmidi,  
Kiyikning yurgani Qulo cho'lmidi?  
Hiloloyni kimga tashlab ketasan,  
Sening bilan ahd-u paymon shumidi?*

*Oqizib ket, mening ko'zdan yoshimni,  
Itlarga torttirib ket go'shimni!  
Xanjaringni g'ilofidan op, bekbachcha,  
Chopib kelib, kesib olgin boshimni!*

*Tog'larning boshini chalgan tuman-a,  
Yuraklar bo'lib qoldi qon-a,  
Ol xanjaring, yorib op ket bolangni,  
Bor edi o'zingdan bo'lgan gumona[2].*

Ushbu misralardan Hiloloyning naqadar o'tkir so'zli, aqilli, mardligini, hamiyati kuchli ayol ekanligini bilishimiz mumkin. Aynan yoriga qarab sening menga bergan ahd-u paymoning shumidi, mard kishi yorini shunday tashlab ketadimi? Meni bunday begona yurtlarga tashlab ketguncha meni o'ldirib go'shtimni itlarga berib ket, haqiqatdan meni tashlab ketar bo'lsang mard bo'lsang qornimdagi bolangni olib ket farzanding bu yerda xorlikda qolmasin deb aytgan so'zlaridan ham Hiloloydagi kuchli shaxsiyatni o'zbek ayollariga xos kuchli iroda va o'tkir so'zlilikni, farzandi uchun fidokor onani ko'rishimiz mumkin. Yana shu misralarning davomida ko'rishimiz mumkinki Hiloloy yoriga qarab bekbachcha deb murojaat qilyapti garchi yori uni yolg'iz, dushmanlar orasiga tashlab, bergan va'dasiga va'fo qilmasdan ketayotgan bo'lsa ham unga birinchi navbatda hurmat bilan so'zlamogda bu holat shunchaki bir oddiy hodisa yoki oddiy bir so'z emas bu so'z, murojaat orqali o'zbek qizlariga berilgan

tarbiya erkak kishiga nisbatan hurmat qanday bo'lganligini yaqqol ko'rsatib beradi. Bu holat turkiy xalqlarning farzand tarbiyasida aynan qiz bola farzand tarbiyasida qanday ulkan bir madaniyatga erishganini ko'rsatib beruvchi qimmatli bir manbaa sifatida ko'rishimiz mumkin. Bunday o'zbek ayollariga xos xususiyatni xalq og'zaki ijodidagi yana bir yirik doston Alpomishda Qaldirg'ochoy obrazida ko'rishimiz mumkin. Qaldirg'ochoy Qalmoq yurtida talashda qolgan Barchinoyga qayg'urib Alpomishning yoniga borib voqeani aytadi Alpomish bu gaplarni e'tiborsiz qoldirib bir xotin olamiz deb sandirab o'lamizma deydi, shunda Qaldirg'ochoy akasiga qarab:

*...Aka, senga aytadigan arzim bor,  
Talash bo'пти biyning qizi-zulfakdor.  
Mard yigitning yori talash bo'lami,  
Er yigitning yorin qalmoq olami?...  
Aka, aytgan so'zim og'ir olmagin,  
Narmoda ishini bunda qilmagin[3].*

Bu misralardan bir o'zbek qizining naqadar oliyanobligini, sofdilligini, o'zining tug'ishgani bo'lmasada boshqa bir o'ziga o'xshash ojiza ayol uchun qayg'urayotganini va shu sababli akasini xavf-xatarga to'la bo'lsada, borib yorini qalmoqar qo'lidan qutqarishi kerakligini aytib turibdi. Qaldirg'ochoyning akasiga qarab mard yigitning yori talashda begonalar qo'lida qoladimi?! Mard bo'lsang borib sendan umidvor bo'lgan yoringni qutqar, bormasdan narmodaning (Narmoda-erkak urg'ochiligi noma'lum odam, xunasa, gey) ishini qilma. Ushbu so'zlardan butun bir o'zbek ayollarining, turkiy ayollarning naqadar kuchli shaxsiyatga ega ekanligini or-nomus masalasini bir insonning jonidan ham ustun qo'yayotganini ko'rishimiz, bilishimiz mumkin bu ulkan bir madaniyatdir, qachonki ayol kishida shunday ulkan bir madaniyat kuchli or-nomus bo'lsa u dunyoga keltiradigan, tarbiya qiladigan kelajak avlodlarda ham shunday ulkan bir tarbiya va madaniyat mavjud bo'ladi, bizda ya'ni o'zbek xalqida shunday ulkan bir madaniyat mavjuddir.

Biz bu madaniyatni asrashimiz va kelajak avlod tarbiyasida foydalanib ularning ong-u tafakkuriga singdirishimiz kerak. Qaldirg'ochoy Barchinning begonalar qo'lida qolishini o'zi uchun akasi va xalqi uchun or, uyatli holat deb bilgani sababli ham akasini harakat qilishi uchun unga nisbatan narmoda so'zini ishlatib uning hamiyatiga tegib uni harakatga keltirmoqchi bo'ladi bundan ko'rinadiki, dostonlardagi ayollar ruhlantiruvchi erkaklarni harakatga undovchi kuch sifatida ham ko'rinadi. Bundan ayollar obrazining dostonlarda va xalq og'zaki ijodida naqadar muhim ahamiyat kasb etishini bilishimiz mumkin.

#### **Natijalar va muhokamalar.**

Go'rog'lining tug'ilishi dostonida bir qancha ayollar obraziga duch kelamiz va ularning har biri o'tmishdagi ayollar madaniyatini, ayollar dunyosini, onalar siymosini (Bibi Hilol obrazida), sadoqatli yor timsolini (Xoljuvon), mehribon qiz obrazini (Zaydinoy) ko'rishimiz mumkin. Dostondagi yetakchi ayol obrazlaridan biri Hiloloyning psixologiyasini tahlil qilar ekanmiz, uning er yigitlarga xos mardlik, dangallik, sadoqatli ayollarga xos fidokorligini ko'rib hayratga tushamiz. Hiloloyning bu holatdagi so'zlariga bir nazar solaylik. Ravshanbek va Gajdumbek Hiloloyni tashlab ketgach, Hiloloy yig'lab uyida qoladi Gajdumbekning Rustambek degan bir xizmatkori bor edi. Gajdumbekning qo'ylarini boqib yurar edi shu vaqtda oyligimni olay deb kelgan edi bu voqealarning ustidan chiqib qoldi. Rustambek Hiloloyga rahmi kelib uni o'z yurti Yovmit eliga olib ketmoqchi bo'ldi, shunda Hiloloy Rustambekka qarab, bir kun o'lmoq, bir kun tug' ilmoq. Men bir xizmatkorim bilan mingashib borsam, odamlar, qarindoshlarim Gajdumbekka sen o'zing qochib kelib eding, sening singling begona bir odam bilan mingashib keldi, deb aytar. Akamning va yorim Ravshanbekning yuzi tuman bo'lar. Bu bilan borganimdan, bormaganim yaxshiroq. Men qarindoshlarimning maraka-o'ltirishlarida yuzini

tuman qilganimdan, shu yerda g'arib bo'lib o'lganim yaxshi,-dedi.<sup>4</sup> Bibi Hilolning bu gaplardan hayratga tushmasdan iloj yo'q, uni tashlab qiyin axvolda qoldirib ketganligiga qaramasdan akasi va yorining sha'ni, or-nomusini o'ylayabdi inson- bir ojiza ayol bunday fidokorlik qilishi uchun unga qanday katta matonat kerak?! Shu o'rinda yana bir fikr keladi bo'lajak qahramonning onasi bo'ladigan, uni dunyoga keltiradigan, unga tarbiya beradigan ayol albatta eng yaxshi sifatlariga ega bo'lishi kerak.

Dostondagi Xoljuvon obrazi sadoqat va vafo timsoli, farzandiga mehribon ona, yorining nomusini o'ylovchi bir ayol sifatida ko'rishimiz mumkin. Xoljuvon dostonida Ahmadbekning ayoli sifatida tasvirlanadi, ikkisi ko'p yillardan buyon farzandsiz bo'ladi va Go'rog'ini ko'rgach uni farzand qilib asrab oladi. Go'rog'liga juda yaxshi tarbiya beradi mullalarga berib ilm o'rgatadi. Kunlardan bir kun Ahmadbek o'zga yurtlarga yumush bilan ketganda Shirvon yurtining podshosi Rayhon arab Hiloloyini olib qochib ketish niyatida keladi. Rayhon arab Go'rog'ini ko'rib qoladi va Hiloloyini chaqirib berishini iltimos qiladi va shu orada biroz so'zlar bo'ladi.

Go'rog'li Rayhon arabning oti tulporligini bilib uning otiga o'zining baytalini qo'shmoqchi bo'lib, agar shu shartga rozi bo'lsa chaqirib berishini aytadi keyin Go'rog'li borib Xoljuvondan iltimos qilgandan keyin Xoljuvon chorasiz farzandiga yo'q deya olmay Rayhon Arabning kelganini bilsa ham uning yoniga suv olib chiqadi va natijada Rayhon arab Xoljuvonni olib qochib ketgach Go'rog'li o'zini aybdor hisoblab, bir necha yil qasdini olish istagida yuradi va bir kun Shirvon yurtiga borib yangasini qaytarib kelmoqchi bo'lganda Xoljuvon Go'rog'ini ko'rib hursand bo'lib Yovmit yurtida erkak zoti qurimagan ekan meni qutqarishga kelibdi deya suyinib ketadi. Ammo yurtini, yorini, qarindoshlarini sog'ingan bo'lishiga qaramasdan qaytib ketishni istamaydi shunda Go'rog'liga quyidagi gaplarni aytadi: Chirog'im, mening Shirvon eliga kelganimga uch yil bo'libdi, lekin Rayhon arabga bir kosa suv qo'limdan berganim yo'q. Agar sen meni olib ketsang, Yovmitga yetsang maraka-majlislarda, odamlar: Go'rog'libek ho'p yaxshi ish qilibdi, uch yildan beri Rayhon arab xotin qilib yurgan chechasini olib kelibdi, deydi.

Mening kasofatim senga tegadi. Davlatingiz, martabangiz, ellarning ichida past bo'ladi, Chechangizni Rayhon arab unday qilgan, bunday qilgan, -deb dushmanlaring aytadi. Go'rog'libek endi sizga aytadigan gapim bor. Rayhon arabning bir qizi bor chiroyda tengsiz shuni olib qochib ketsangiz, hamma or-nomusga barobar bo'ladi.<sup>5</sup> Xoljuvon obrazini tahlil qilish uchun shu qisqagina parchaning o'zi yetarli chunki shu qisqagina parchada butun boshli bir insonning tabiati, dunyoqarashi, o'zbek ayollarining ulkan bir madaniyati aniq ko'rinib turibdi. Rayhon arabning qo'lida uch yildan beri yashab unga bir piyola suv tutmaganligi uning ori kuchli, g'ururi balandligidandir, ya'ni o'zbek ayoli o'zi xohlamagan insonga qancha vaqt o'tsa ham bosh egmasligini ko'rsatib turibdi ayni shu holatning aksi sifatida uch yil o'tgan bo'lsada o'z yoriga xiyonat qilmagani va hali ham u haqida uning nomi, shani haqida o'ylayotganligi sadoqatli bir ayol ekanligidan dalolat beradi.

Xoljuvonning Go'rog'liga agar sen meni olib ketsang sening nomingga yaxshi ish bo'lmaydi, yig'inlarda sening tiling qisq, boshing egik bo'ladi bu er yigitlarga lozim bo'lmagan holat. Sen meni emas Xumoroyini ketsang hamma or-nomusga barobar bo'ladi deydi bu so'zlardan Xoljuvonning eng avvalo o'zini emas farzandim degan Go'rog'lining obro'-e'tiborini uning kelajagini o'ylayotganligini ko'ramiz lekin xoljuvonning shunchalik ori kuchliki Rayhon arabga o'ziga munosib javob bermasa, nomus masalasida hammani barobar qilmasa yashayotgan hayotidan rozi bo'lmay ko'ngli joyiga tushmaydi, shuning uchun Xumoroyini aldab olib kelib Go'rog'lining qo'liga tutqazib, nomardning ishini qilma o'zing Zaydinoyga tegmasdan omonatga xiyonat qilmasdan Ahmad tog'angga olib borib ber deb tayinlaydi.

Xoljuvonning bu gapi bilan Rayhon arabga xuddi sen meni olib qochib nomimni bulg'ab vatanimdan, yorimdan ayirgan bo'lsang, xuddi shu xolat o'zinga qaytadi mendanda yoshroq va go'zalroq qizingni mening yorim xotin qiladi, sen ham yaqin insoningni firoqida

azoblanasan deganday bo'ladi. Bunday qasd olish o'zining o'zga ellarda o'lishiga shu ellarda ko'milishiga rozi bo'lib o'zining o'rniga ayni shu holatda o'zidan yaxshiroq yoshgina qizni yuboradi, bu yerda yana bir fikr bor Xoljuvon agar o'zi yurtiga qaytib borsa, uni qabul qilishmasligini biladi lekin Rayhon arabning qizini qochirtirsa yoriga xotin qildirtirsa el-u yurtning oldida Ahmadbekning yuzi yorug' G'o'ro'g'lining obro'si baland bo'lishini biladi. Shuning uchun ham o'zini emas Zaydinoyini Yovmitga qochirtiradi. Bundan tashqari Xoljuvon Rayhon arabga qarata mening ham yurtimda sendanda ziyoda erkaklar bor sen qilgan ishni ortigi bilan qila oladi deyishi uchun ham bu ishni qildi. Bu yerda ozbek ayollariga xos aqillilik,ziyraklikni,dushmanlarga nisbatan qahri qattiqlikni,dostlarga nisbatan fidoyilikni korishimiz mumkin.

**Xulosa.**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Go'rog'li turkumi dostonlari tarkibidagi va o'zbek folkloridagi ayollar obrazi va ularning psixologiyasini, o'tmishdagi ayollar madaniyatini tarix sahifalariga ko'mib yubormasdan, bugungi tezlik bilan rivojlanib borayotgan zamon yoshlariga, ayol-qizlariga o'rnak sifatida ko'rsatish va ularning tarbiyasida shunday harakterlarni rivojlantirish kerak. Zero bugungi kun bolalariga Bibi Hiloldek mehribon, fidokor ona, o'zbek yigitlariga Xoljuvondek sadoqatli yor zarurdir

**Iqtiboslar/Сноски/References**

1. Alpomish dostoni: Adabiyot: 9-sinf uchun maktab darsligi. (2019). Toshkent: O'zbekiston NMIU.
2. Po'lkani shoir, M. J. o'g'li. (2019). Go'ro'g'lining tug'ilishi. Toshkent: Yangiyul Poligraph Service.
3. Po'lkani shoir, M. J. o'g'li. (2019). Go'ro'g'lining tug'ilishi. Toshkent: Yangiyul Poligraph Service.
4. Po'lkani shoir, M. J. o'g'li. (2019). Go'ro'g'lining tug'ilishi. Toshkent: Yangiyul Poligraph Service.
5. Safarov, O. (2010). O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent: Musiqa nashriyoti.

# TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

**Boqiyeva Charos,**  
magistrant,  
Samarqand davlat universiteti  
Samarqand, O'zbekiston  
[charosboqiyeva700@gmail.com](mailto:charosboqiyeva700@gmail.com)

## ALPOMISH VA BOSHQA DOSTONLARNING O'XSHASH XUSUSIYATLARI

 [10.5281/zenodo.19159959](https://doi.org/10.5281/zenodo.19159959)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada “Alpomish” dostoni va boshqa turkiy xalqlarga mansub epik asarlar o'rtasidagi o'xshashliklar qiyosiy-tahliliy metod asosida o'rganildi. Tadqiqotda “Manas”, “Koblandi Batir” va “Shora Batir” hamda “Alpomish” dostonlari o'rtasida mavjud bo'lgan struktura, obrazlar tizimi, voqeaviy silsila, arxetipik timsollar hamda folklor elementlari bo'yicha mushtarakliklar aniqlab berildi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu mavzudagi tizimli yondashuvning yetarli emasligi ushbu ishning dolzarbligini belgiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, “Alpomish” dostoni nafaqat o'zbek xalqining milliy og'zaki merosi, balki umumturkiy epik tafakkurning genetik yadrosi sifatida shakllangan bo'lib, bu dostonlar o'rtasidagi o'xshashliklar uzoq tarixiy-madaniy almashinuv mahsulidir. Epik obrazlar orqali ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarining saqlanishi va kollektiv xotiraning uzluksizligi isbotlandi. Tadqiqot epik asarlarni transmadaniy arxetiplar asosida o'rganish zaruratini yuzaga chiqardi. Ushbu topilmalar folklorshunoslik, tarix va madaniyatshunoslik sohalarida nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida dostonlarning yozma va og'zaki variantlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir, ularning mintaqaviy tarqalishi va zamonaviy madaniy identitetdagi tutgan o'rni bo'yicha chuqur empirik tadqiqotlar o'tkazish tavsiya etiladi.

**Kalit so'zlar:** Alpomish, epik doston, qiyosiy tahlil, umumturkiy tafakkur, arxetip, folklor, madaniy kod, transmadaniy yondashuv.

**Bokiyeva Charos,**  
Master's student,  
Samarkand State University  
Samarkand, Uzbekistan  
[charosboqiyeva700@gmail.com](mailto:charosboqiyeva700@gmail.com)

## SIMILAR FEATURES OF ALPOMISH AND OTHER EPISTLES

### ABSTRACT

In this article, the similarities between the epic poem “Alpomish” and epic works of other Turkic peoples were studied using the comparative-analytical method. The study

identified commonalities between the epic poems “Manas”, “Koblandi Batyr” and “Shora Batyr” and “Alpomish” in terms of structure, image system, event sequence, archetypal symbols and folklore elements. The inadequacy of a systematic approach to this topic in scientific literature determined the relevance of this work. The results of the study showed that the epic poem “Alpomish” was formed not only as a national oral heritage of the Uzbek people, but also as a genetic core of the pan-Turkic epic thought, and the similarities between these epics are the product of a long historical and cultural exchange. The preservation of socio-political values and the continuity of collective memory through epic images were proven. The study highlights the need to study epic works based on transcultural archetypes. These findings serve as an important basis for theoretical and practical research in the fields of folklore, history, and cultural studies. In the future, it is recommended to conduct in-depth empirical research on the interaction between written and oral versions of epics, their regional distribution, and their place in modern cultural identity.

**Keywords:** Alpomish, epic poem, comparative analysis, pan-Turkic thought, archetype, folklore, cultural code, transcultural approach.

**Бокиева Чарос,**

Магистрант,

Самаркандский государственный университет

г. Самарканд, Узбекистан

[charosboqiyeva700@gmail.com](mailto:charosboqiyeva700@gmail.com)

## СХОДНЫЕ ЧАСТИ ПОСЛАНИЯ АЛПОМИША И ДРУГИХ ПОСЛАНИЙ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье с помощью сравнительно-аналитического метода изучены сходства эпической поэмы “Алпомиш” с эпическими произведениями других тюркских народов. В ходе исследования выявлены общие черты между эпическими поэмами “Манас”, “Кобланды батыр” и “Шора батыр” и “Алпомиш” по структуре, системе образов, последовательности событий, архетипическим символам и фольклорным элементам. Недостаточность системного подхода к данной теме в научной литературе обусловила актуальность данной работы. Результаты исследования показали, что эпическая поэма “Алпомиш” сформировалась не только как национальное устное наследие узбекского народа, но и как генетическое ядро общетюркской эпической мысли, а сходства между этими эпосами являются продуктом длительного историко-культурного обмена. Доказано сохранение социально-политических ценностей и преемственность коллективной памяти через эпические образы. В исследовании подчеркивается необходимость изучения эпических произведений на основе транскультурных архетипов. Эти выводы служат важной основой для теоретических и практических исследований в области фольклора, истории и культурологии. В дальнейшем рекомендуется провести углубленные эмпирические исследования взаимодействия письменных и устных версий эпосов, их регионального распространения и места в современной культурной идентичности.

**Ключевые слова:** Алпомиш, эпическая поэма, сравнительный анализ, пантюркистская мысль, архетип, фольклор, культурный код, транскультурный подход.

### **Kirish.**

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi hazinasining eng yirik va yuksak namunalaridan biri bo‘lgan “Alpomish” dostoni o‘zining epik mazmuni, obrazlar tizimi va ijtimoiy-estetik funksiyasi bilan Markaziy Osiyo xalqlari og‘zaki epik an‘analarida alohida o‘rin egallaydi. Mazkur doston nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki turkiy xalqlar orasida tarqalgan epik asarlar –

masalan, "Manas" (qirg'iz), "Koblandi" (qozoq), "Shora Batir" (tatar) va boshqalar bilan umumiylik va mushtaraklik jihatidan ham muhim ilmiy izlanishlar mavzusi bo'lib kelmoqda.

Mazkur maqola aynan "Alpomish" dostoni va boshqa turkiy epik dostonlar o'rtasidagi o'xshash xususiyatlarni qiyosiy-tahliliy yondashuvda ko'rib chiqadi. Jumladan, epik qahramonning ideal timsoli, voqealar kompozitsiyasi, yovuzlik va ezgulik to'qnashuvi, ayol obrazining sadoqati, jangovar sahnalar va folklor elementlari kabi asosiy konsepsiyalarni qamrab oladi. Ushbu yondashuv orqali milliy epik tafakkur umumiyliklari, genetik ildizlar va arxaik arxetiplar o'rtasidagi munosabatlar ochib beriladi.

Dostonni XII-XIV asrlarda "qipchoq-turkiy" xalqlari orasida Dashti Qipchoqda paydo bo'lgan va tarqalgan, deb qaraladi. Jirmunskiy esa XVI asrda ko'chmanchi o'zbeklar Alpomish haqidagi rivoyatni Janubiy O'zbekistonga olib keladilar va u yerda – Boysun bekligida qadimiy bahodirlik qo'shig'i yoki ertagi asosida qahramonlik eposi "Alpomish" (qo'ng'iroq versiyasi) yaratilgan hamda bu yerdan o'zbek, qoraqalpoq va qozoqlar o'rtasida keng tarqalgan, degan fikrni ilgari suradi. Hodi Zarif esa qator dalillar asosida "Alpomish" dostoni patriarxal urug'chilik munosabatlari yemirila boshlagan bir sharoitda mo'g'ullar istilosidan avval Sirdaryo va Orolbo'yi atrofida yashagan chorvador qo'ng'iroq qabilasi ichida yaratilgan, degan fikrni ilgari suradi [6–14]. Bundan tashqari H.Sulaymonov, M.Shayxzoda, M.Bogdanova, L.Penkovskiy, O.Balitova, I.Puxov, N.Smironova, I.Sag'itov, A.Kiriyev, va boshqalar "Alpomish" dostoni haqida qimmatli fikrlar bildirdilar. Keyinchalik yana turli hududlardan "Alpomish" dostonining yangi variantlari yozib olindi. Jumladan, Janubiy O'zbekiston hududidan Muhammadrahimxo'ja Muhammadsodiq o'g'li varianti (Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani, Jaloyir qishlog'i, yozib oluvchi M.Afzalov), Tosh Chorshanba varianti (Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani) yozib olinadi. Mustaqillik yillariga kelib doston aytish va yozib olish ishlari yanada rivolandi.

So'nggi yillarda folklorshunoslik sohasida turli adiblar tomonidan *Alpomish*ning poetik qurilishi, tarixiy asoslari va xalq orasida tarqalish jarayoni bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan (Yoqubov A., Jo'rayev H., Kaskabov M. va boshqalar). Biroq ushbu izlanishlarda *Alpomish*ning boshqa dostonlar bilan tizimli qiyosiy o'rganilishi yetarli darajada ko'tarilmagan. Shu bois, ushbu maqola aynan ana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, epik o'xshashliklar va ularning ildizlari tahlil qilinadi.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod asosida tanlangan dostonlar struktura, mazmun va obrazlar jihatidan tahlil qilinadi. Dostonlararo o'xshashliklar va farqlarning xronologik, geografik va madaniy omillar bilan bog'liqligi aniqlanadi. Shuningdek, epik matnlar tahliliga asoslangan holda o'zaro almashuv, madaniy kodlar va kollektiv xotira mexanizmlariga e'tibor qaratiladi.

Kutilayotgan natijalar *Alpomish* dostoni faqat o'zbek xalqi emas, balki umumturkiy epik tafakkurning bir bo'lagi sifatida qaralishini isbotlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari xalq og'zaki ijodining genetik birliklari, tarixiy-madaniy aloqalari va zamonaviy folklorshunoslik nazariyasining kengayishiga hissa qo'shadi. Shu orqali Alpomish va boshqa epik asarlarning xalqlararo madaniy o'zaro ta'sirda tutgan o'rni aniqroq namoyon bo'ladi.

### **Metodologiya.**

Mazkur maqolada tanlangan mavzuni chuqur va tizimli yoritish maqsadida qiyosiy-tahliliy metod asosiy ilmiy yondashuv sifatida qo'llanildi. Tadqiqot doirasida "Alpomish" dostoni bilan bir qatorda qirg'iz xalqining "Manas", qozoqlarning "Koblandi Batir", tatarlarning "Shora Batir" dostonlari tanlab olindi va ular o'zaro kompozitsion qurilishi, bosh qahramon obrazining shakllanishi, voqealar silsilasi, yovuzlik va ezgulik qarama-qarshiligi, ayol obrazining timsoliy ifodalanishi, jangovar sahnalar, folklor usullar va ramziy belgilar asosida tahlil qilindi. Ushbu dostonlar orasidagi o'xshashliklar va tafovutlarni aniqlash jarayonida epik matnlarning genetik, madaniy va tarixiy ildizlariga murojaat qilindi hamda arxaik arxetiplar va kollektiv xotira mexanizmlariga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumotlar to'plashda adabiy-tarixiy manbalar, avvalgi ilmiy izlanishlar, turkiy xalqlar folkloriga oid

